




O.H. JAYNAROV

MARKAZIY OSIYONING QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARI



130.25.
5.48

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV T'ALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O.H. JAYNAROV

MARKAZIY OSIYONING QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARI

5110600 – Tarix yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV T'ALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT 2023
«NAZOKATHON ZIYO PRINT»
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV T'ALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

UO'K 930;930.25
K BK 63.(0)6;63.6

J-18. 74.

O.H. Jaynarov. / Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari
[Matn]: o'quv qo'llanma / – Toshkent: «NAZOKATHON ZIYO PRINT», 2023. – 220 b.

Mazkur o'quv qo'llanma O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixining yozma manbalardagi bayonini o'rganish va shu asosda ushbu hududda yashagan xalqlarining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalalariga bag'ishlangan. Bunda yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tugan o'rni, O'zbekiston hududidan topilgan piktografik belgilar, Markaziy Osiyoda qadimgi yozma yodgorliklar topilgan hududlar, ilk yozuvlar va ularning xususiyatlari, qadimgi Baqtriya, Xorazm boshqa xalqlar yozuvlari va ularning xususiyatlari, qadimgi Baqtriya, Xorazm yozuvlari, qadimgi va ilk o'rta asrlardagi fors, yunon-rim, xitoy, sug'd tilidagi yozma yodgorliklarida Markaziy Osiyo xalqlari tarixining yoritilishi, turkiy yozuvining paydo bo'lishi va turkiy tillarda bitilgan ilk yodgorliklar, arab yozuvining paydo bo'lishi, arab yozuvida o'tkazilgan islohotlar, arab yozuvi turlarining shakllanishi, sharq qo'lyozmalarining paydo bo'lishi va umumiy xususiyatlari tahlil etilgan.

O'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlari tarix ta'limi (5110600 – Tarix) yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari, shuningdek, O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, talabalar, magistratlar hamda bevosita tarixga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Zokirjon Saidboboyev – tarix fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

Bobir G'oyibov – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Otabek Normatov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ISBN 978-9943-9635-2-8

© O.H. Jaynarov, 2023
© «NAZOKATHON ZIYO PRINT», 2023

SO'Z BOSHI

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi bilan davlat tomonidan turli jabhalarda, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi talablar qo'yildi. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, chunonchi tarix fani sohasida yangi manbalar asosida tarixni quyidagi mukammallashtirish lozim bo'ldi. Manbalarni o'rganishga talab ortdi.

Ma'lumki, tarix fan sifatida nafaqat shaxs, balki butun bir jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, milliy o'zlikni anglash va milliy iftitor tuyg'ulari yuksalayotgan bugungi kunda xalqimizning haqqoniy tarixini xolissona o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Hov turixiy o'timishga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixi insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri hisoblangan Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq.

Tarixni o'rganish uchun yozma yodgorliklarning euvohiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbot talab etmaydi. Ayniqsa, qadimgi davrlarga oid yozma ma'lumotlar uzoq o'timish haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun muhimdir. Ammo, qadimgi yozma yodgorliklar bilan ishlash, ularni tahlil qilib, zarur xulosalarga kelish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida arab yozuviga qadar bir qator alifbosi yozuv tizimlari bo'lgan masalani yanada murakkablashtiradi. Bundan tashqari, ko'p hollarda qadimgi yozuvlardagina saqlangan til holati butunlay unutilgan, yoki tilning o'ta qadimiy, eskirgan shaklini aks ettiradi. Bu masalada yana bir muammo shundaki, u ham bo'lsa arab istilosigacha qadimgi davrlar yozma yodgorliklarini o'rganuvchi mutaxassislar sanog'i darajada ozchilikni tashkil etadi. U yoki bu yodgorlikni tadqiq etish borasida ko'p hollarda sohadosh olimlarning bir-birini inkor etuvchi fikrlari paydo bo'lmoqda.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi yozma manbalari to'liq o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero tarixning turli davrlar – qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr bo'yicha muomalaga kiritilmagan, chuqur o'rganilmagan ma'lumotlar, yozma manbalar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Ma'lumki yozma manbalar insoniyat tarixida ancha qadindan shakllangan bo'lib, uning negizini yozuv tashkil qiladi. Yozuv o'z navbatida jamiyat madaniy taraqqiyotining tarixidan so'zlaydi va yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi orqali mulotoq vositasi vazifasini o'taydi. Yozuv jamiyatda uzoq masofada mulotoq o'rnatish va informatsiyani saqlash zaruratidan kelib chiqib yaratilgan. Yozma manbalar qo'lyozma fondlari, muzeylar, kutubxonalar, shaxsiy kolleksiyalar va h.k. joylarda mavjud. Yozma manbalarni yaratilish vaqtiga qarab qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr hamda regional aspektida tillar, siyosiy tuzilmalar, alohida manbalar shaklida qismlarga ajratish mumkin.

Xalqimizning tarixiy o'timishini qayta tiklash va asrab-avaylash, umumjahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tugan o'rinni aniqlash uchun Vatan tarixini chuqur bilish talab etiladi. Tarixiy xotirasi yo'q xalq halokatga mahkum. U o'z o'timishidan voz kechsa o'z kelajagini qura olmaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor

ijtimodiyoti, huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish kabi ushbu vazifalarni amalga oshirishda zamonaviy tafakkuri va iqtidori bilan o'z hassasini qo'shuvchi yoshlar dunyog qarashini shakllantirishda tarix fanining ahamiyati yanada muhim.

Ushbu Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fani bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanma bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarining Vatanimiz tarixi bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, dunyog qarashlarini kengaytirish va ularning ijtimoiy-gumanitar tayyorgarligini mustahkamlab, zamonaviy fikrlashlari uchun zarur bo'lgan ilmiy-ommabop nashrlar asosida tayyorlangan materiallarni o'z ichiga oladi.

O'quv qo'llanma talabalarining O'zbekiston tarixi bo'yicha bilimlarini boyitishga, ularning ma'naviy sifatlarini yuksaltirib, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilgan.

1-Mavzu: Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni

Reja:

1. Paleografiya fani va uning tadqiqot manbai
2. Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni
3. Tarixiy manbalar va ularning turlari
4. Insoniyat tarixidagi ilk yozuvlar
5. Yozuv materiallari va yozuv qurollari

Tayanch ibora va tushunchalar: *Paleografiya, tarixiy manbalar, ashyoviy manbalar, moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar, piktografik yozuv, ideografiya, epigraflika, petrograflika, qo'lyozma, yozma manbalar.*

Paleografiya fani va uning tadqiqot manbai

"Paleografiya" so'zi istiloh sifatida ikkita yunoncha so'zdan tashkil topgan: ("palaios" – qadimgi va "grafo" – yozaman). Paleografiya fani qo'lyozma manbalarining tashqi belgi -xususiyatlarini tarixiy rivojlantirishda o'rganadi. Bu atama fanga birinchi marta ilmiy paleografiya asoschisi fransiyalik monax Bernar de Montokon (1665-1741-yillar) tomonidan 1708-yilda kiritilgan.

Paleografiya adabiyot yodgorliklaridan tashqari diplomatik yozuvlar, tanga, muhrlar, tosh yoki qattiq jismlarga tushirilgan yozuvlarni ham o'rganadi, tasviriylar ham at yodgorliklarini ham qamrab oladi. Paleografiya alohida fan sifatida Yevropada, dastlab Fransiya XVIII asming birinchi yarmida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Boshqa mamlakatlarda esa paleografiyadan turli yozuvlarni o'qish, o'rganish, hujjatlarni aniqlashda foydalanildi, xolos.

XVIII asr oxiri-XIX asming boshlaridan paleografiya Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarida rivojlana boshladi, yirik ilmiy muassasalar ochildi. Bu davrda I.Fridrix, E.Loukotki, D.Diringer, J.Xanner, S.Lengdon, P.Meridji, K.Brike, G. Noyman, I.Gross kabi yirik paleograflar yetishtirildi.

XIX asming ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya ham K.N. Nevostnyev, Ye.F. Karskiy, N.P. Lixachev, A.V. Garskiy, I.S. Belyayev, A.I. Sobolevskiy kabi olimlar paleografiyaga doir darsliklar, ilmiy asarlar yaratdilar.

Sovet davrida boshqa fanlar gatori paleografiyaning ham taraqqiy etishiga yo'l ochib berdi. Shuningdek, paleografiyaga oid o'quv qo'llanma va darsliklar yaratildi. Masalan, 1918-yili V.N. Shepkinning "Русская палеография" asari chop etildi. Bu darslik juda katta ilmiy qimmatga ega bo'lganligi sababli 1967-yilda qayta nashr etildi.

Paleografiya fani o'rganadigan u yoki bu qo'lyozma manbalarining tashqi belgi xususiyatlari quyidagilardan iborat: qo'lyozma harflari, bu harflarning yozilish xususiyatlari, yozuv turi, qo'lyozmaning materiali, yozuv qurollari, qo'lyozmada ishlatilgan bezaklar, qo'lyozma yozilgan siyoh, qo'lyozmadagi tanaqlar, muhrlar, qo'lyozmaning formati, qo'lyozma muqovasi va boshqa tashqi belgilar. Paleografiyaning vazifasi quyidagilardan iborat:

- harflarning grafikasi, xususiyatlarini;
- harflarning rivojlanishini;
- yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- qo'lyozmadagi matnning xatosiz o'qiy olishi;
- qo'lyozma manbani yozilgan vaqtini aniqlashi;
- qo'lyozma yaratilgan hududni aniqlashi;
- qo'lyozma kim tomonidan yozilganligini belgilashi;
- qo'lyozmaning asl nusxa yoki qalbak ekanligini aniqlash va hakoza.

Paleografiya ilmiy fan sifatida epigrafika, sfragistika, numizmatika, xronologiya, shuningdek manbamuslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fanlar bir-birini o'rganishga yordam beradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Paleografiyaning uslubiy asosida qo'lyozmadagi bir qator belgi - xususiyatlar masalan, harflarning grafikasi, yozuvda ishlatilgan material, qo'lyozmadagi bezaklar, qo'lyozmani yozishda ishlatilgan yozuv qurollari ustidan o'tkaziladigan kuzatishlar, shuningdek, bu xususiyatlarning tarixiy bir davr uchun o'zaro mos kelish-kelmasligini aniqlash ham bu fanning ish uslubiga kiradi.

Malumki, tarixdagi har qanday davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-mahaviy taraqqiyot darajasi o'sha davrdagi yozuvning holatida o'z izini qoldiradi, yozuvning xususiyatlarini belgilaydi. Boshqacha aytganda, paleografiyaning tadqiqot ob'ekti bo'lgan qo'lyozmalarning tashqi belgilarini bir-biri bilan bog'laydi. Masalan, arab xalifaligining VIII asr o'rtalari va IX asr boshlaridagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti o'sha davrdagi yozuvga o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Bundan tashqari o'sha davrda yaratilgan qo'lyozmalarda ham o'zining izini qoldirgan ya'ni sekinlik bilan yoziladigan kufiy yozuvi o'rinda davlat nuassasalaridagi ish yuritishda undan ko'ra tezroq yozish imkonini bor bo'lgan nasx yozuvi bilan almashgan. Shuningdek, qo'lyozma yozish uchun ishlatiladigan va o'sha davr uchun o'ta qimmat va kamyoq hisoblangan papirusni qog'oz sig'ib chiqargan. Chunki papirus ish yuritishdagi be'niim o'sib borayotgan ehtiyojni qondira olmay qolgan edi. Yana bir misol: Temuriylar imperiyasining eng rivojlangan davri markazlashgan davlatchilikning eng yuqori darajasiga to'g'ri keladi. Bu davr yozuvning eng asosiy turi nastaliq xati hisoblanadi. Tarixdan malumki, arab yozuvlari ichida eng go'zal, eng jozibador va xattotdan eng ko'p diqqat talabqiluvchi yozuv nastaliq yozuvidir. Taraqqiyotning xuddi shunday bosqichini qo'lyozmalarning boshqa tashqi belgilari, shu jumladan, undagi bezaklar ham bosib o'tgan. Bu esa o'z navbatida nafaqat madaniyat taraqqiyotining ichki shart-sharoitlari, balki tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning yanada intensivlashgani bilan bog'liq edi. Bu esa, turli xalqlar madaniyatining o'zaro ta'siri va uning umumtaraqqiyotidagi tutgan o'rni masalasini keltirib chiqaradi. Xullas, paleografiya fani yordamchi tarixiy fanlarning eng muhimlaridan hisoblanadi va tarixni yanada chuqur o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni

Insoniyat tarixida yozuv juda qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'z fikrlari xohish-istaklarini, biror voqea-hodisa haqidagi xabarini turli xil narsa-predmetlar yordamida ifodalaganlar. Lekin bu hali yozuv hisoblanmas edi. Ma'lum muddat vaqt o'tgandan keyin u yoki bu fikrni bildirgan shartli belgilar paydo bo'lgan. Bu shartli belgilardan keyin biz yozuv deb ataydigan va ma'lum tizimga ega bo'lgan belgilar vujudga kelgan.

Yozuv - muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi mulohaza almashiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv - kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murrakab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarining eng asosiy-laridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutqning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati Yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayini payda muayyan masofadagi (tovush to'liqlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidirib boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat Yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq.

Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murrakablashtiradi; ichki va tashqi savdo kengayadi; boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va boshqa shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi; xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozuv zaruriyatga aylanadi. Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsada, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi - kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnosologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba, bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, yozuv ham shunchalik bog'liqdir. Dastlabki qarashlarda yozuvning kelib chiqishini ilohiyotga bog'lash uchraydi. Bu aslida yozuvning tengsiz imkoniyatlarini tasavvurga sig'dira olmaslik, yozuv mag'iyasi ("Yozuv sehrli qudratga ega" - degan ishonch) oqibatida

kelib chiqqan jo'n tasavvurlar mahsulidir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrifiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson aqli yozuvdagi mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan.

Odanning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarini yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Zamona viy til bilan aytganda, axborotni saqlash va uzatish muammosi kelib chiqdi. Bevosita aloqa bog'lash yo'li bilan buni amalga oshirish qiyin emas edi, biroq bu holda inson xotirasining mukammal emasligi tufayli ko'p axborotlar esdan chiqib qolgan, yo' qolgan. Bunga fazo hamda vaqt asosiy to'siq bo'lib, yozilgan so'zgina ulardan ustun kela olardi.

Buyumlardan dastlab mnemonika vositalari yoki "eslatuvchi" vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashbaqqati uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni eslatardi. Biron narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan. So'ngra buyumlarga aniq ma'no berila boshlangan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar, shartli belgilar bo'lib hisoblangan. Cho'pxaga yoki daraxt tanasiga kerib belgi solish, tugunlar, tizimchalar, urush e'lon qilish vaqtida esa kamon o'qi va boshqa buyumlar shunday shartli belgi vazifasini o'tagan. Buyumga ma'no birkitib qo'yishning bu usuli "buyumni yozuv" deb atalgan. Son va raqamlarni bildirish uchun masalan, taxtichalarga kerib shartli belgilar o'yilgan. Bu xatcho'plardan har xil shartnomalar tuzishda foydalanilgan. Shartnoma tuzishda xatcho'pni bo'yiga qoq o'tasidan bo'lib, yarmi bir tomonga, ikkinchi yarmi ikkinchi tomonga berilgan. Xatcho'p bo'lakchalari birlashtirilganda kerkiklar bir-biriga mos kelgan. Xatcho'plar kalender sifatida ham qo'llanilgan (unga kunlar, haftalar soni va hokazolar o'yilgan). Ular qarz shartnomalarida tilxat o'rinda ham xizmat qilgan. Xotirada uzoq vaqt saqlab turilishi lozim bo'lgan vogecalar to'g'risidagi unutilmas ma'lumotlar ro'yxati sifatida ham xatcho'plardan foydalanilgan. To'g'ri hisob-kitob uchun hisoblash tizimchalari qo'llanilgan. Ular penulik cho'ponlarda, Lotin Amerikasi va Afrikaning boshqa ba'zi xalqlarida hozir ham bor. Bir tizimcha bo'kizlarni, boshqa tizimcha sigirlarni sanash uchun xizmat qiladi. Bu tizimcha ikki tutamga ajratiladi: bir tutam bilan sog'in sigirlar va boshqa tutam bilan bo'g'oz sigirlar sanaladi. Uchinchi tizimcha buzoqlarni sanash uchun ishlatiladi. Tizimchadagi tugunlar soni shu cho'ponning podasida necha bosh mol borligini bildiradi.

Qadimgi xitoylar ham hisob-kitob va yodda saqlash uchun tizimchalardagi tugunlardan foydalanilganlar. Qadimgi xalqlarda vaqt hisobi ham ko'pincha tugunlar bilan olib borilgan. Miflodan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon tarixchisi Gero dot hikoya qilgan Doro kalendari bunga misol bo'la oladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Eron shohi Doro I Skifiyaga yurish qilganda Dunay daryosiga maxsus qurilgan ko'prikdan o'tgan. Ko'priki saqlash, qo'riqlash uchun Doro I o'z ittifoqchisi bo'lmish ioniyaliklarni qoldirgan. Ularga oltin tugunli kamar berib, bunday degan "Bu kamarni olinglar, endi gapingiz quloq solinglar, mening skiflarga qarshi chiqqanimni ko'rishingiz bilanog, shu vaqtdan boshlab

har kuni bitla tugunni yechaveringlar. Agar tugunlar bilan ko'rsatilgandagi kunlar tugasa-yu, men shu vaqtgacha qaytmasam, o'z vatandaringizga jo'naveringlar. Hozircha ko'priki qo'riqlanglar va uni mumkin qadar butun saqlashga harakati qilinglar. Bu bilan menga katta yordam ko'rsatgan bo'lasi lar".

Qadimda "Axborot hassalari" ham o'ziga xos buyum - maktub vazifasini o'tagan. Ular qadimgi Yevropada, qadimgi Xitoyda, va afrikalik qabilalar o'rtasida mashhur bo'lgan. Boshqa qabilaning elchisi olib kelgan hassa tashrif buyurgan shaxsning vakolatini tasdiqlovchi o'ziga xos hujjat hisoblangan. Hassaga kerib belgilar va xotira nishonlari tushirilgan. Elchi ularga qarab o'ziga qancha topshiriq berilganini eslagan. Kerkik-belgilarning joylashishi, ehtimol, ma'lum faktlarni ifoda etgandir.

"Vampun" kamari (po'yasi) Shimoliy Amerika hindlarining buyumli yozuvi bo'lib, shakli juda ajoyibdir. "Vampun" kamari rangba-rang chig'anoqlar qo'shib to'qilgan bo'lib yoki chig'anoqlar unga tegishli o'sib qo'yiladi. Chig'anoqlarning o'zaro joylashuvi, soni va rangi muayyan ma'noni anglatadi. Ba'zan kamarga xabarning mazmunini aniqlashiruvchi rasmlar ham chizilgan bo'lib.

Hozirgi Peruning azaleji aholisi inklarning tugunlardan iborat maktubi-ki-pu-buyumli yozuvning ajoyib namunasi bo'lib hisoblanadi. Bunda buyumli yozuvning hamma imkoniyatlari ochib berilgan, deb sanaladi. Kipu chalkash-chulkash bog'langan, tugilgan tizimchalar osilgan yo'g'on arqon yoki tayovoqhadan iborat maktubdir. Tizimchalar va tugunlarning soni, ularning katta-kichikligi, joylashishi va rangi turli ma'noni anglatgan. Kipuning og'irligi ba'zan to'rt kilogrammcha kelgan. Bo'yalmagan tizimchalar sonli hisob uchun va muhim vogea-hodisalarni yodlab qolish uchun, rang-barang tizimchalar esa ancha murakkab xabarlar uchun qo'llanilgan.

Hindlarda har bir rang muayyan ma'noni: qora rang - baxtsizlikni, o'qimni, binafsharang - xavf-xatarni yoki dushmanlikni, qizil rang-urushni, oq rang-tinchlikni, sariq rang - oltinni, yashil rang esa don - dunni bildirgan. Hindlar turli ranglarni va tugunlarni turlicha qo'shib ishlatib har xil xabarlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Tarixiy manbalar va ularning turlari

Tarix fani - insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan vogea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o'rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihadlarini o'rganasa, tarix fanining tadqiqot ob'ekti - aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hozir haqidagi faktlarni yig'ish, tahtli qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o'tmishda sodir bo'lgan jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning manig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi.

Ma'lumki, har qanday tushuncha muayyan ilmiy maktab kontekstida yaratilib, uning maqsad va vazifalarini ifodalagani sababli tizimli tarzda talqin etilishi zarur. Manba va uni tanqidiy o'rganish hamda tushunish (germenevtika) haqidagi tushuncha mumtoz qadimiyatga mansub adabiy asarlarning filologik talqini jarayonida vujudga kelgan. Bu faoliyat bilan muqaddas bitiklar mahini tafsir qiluvchilar, ya'ni sharhlovchilar – ekzegetlar (mufasssirlar), gumanistlar, mutafakkirlar va olimlar shug'ullangan. Shu tariqa XIX asrning boshlarida tegishli asar, uning muallifi g'oyasini tushunish, matnning tub ma'nosini idrok etishning umumiy tamoyillari shakllangan.

Tarix fanini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy jihatlardan biri tarixiy manbalardir. Tarixiy manbalar tarixni yoritishda muhim rol o'ynaydi. "Tarixiy manba" tushunchasining xilma-xil ta'riflari mavjud. Ulardan biri L.Derbogva tegishli bo'lib, uningcha "Tarixiy manba tushunchasi ostida ijtimoiy hayotning real ko'rinishlari haqidagi tarixiy ma'lumotlar va inson hamjamiyati taraqqiyotining qonuniyatlarini o'zida ifoda etgan o'limshning barcha qoldiqlari nazarda tutiladi. Mazmun-mohiyatiga ko'ra, bular – turli-tuman mahsulotlar va inson faoliyatining boshqa izlari, jumladan, moddiy madaniyatga tegishli ashyolar, yozma yodgorliklar, matkuralar, urf-odatlar, tillar va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi." A.S.Lappo-Danilevskiy tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "manba tarixiy ahamiyatga ega faktlarni o'rganish uchun yaroqli inson psixikasining amalga oshirilgan har qanday mahsulidir". O.M.Medushevskiyning ta'rif bo'yicha, "manba – insonning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyati mahsuloti bo'lib, undan ijtimoiy hodisalar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun foydalaniladi". V.O.Klyuchevskiy ta'rifga ko'ra, "tarixiy manba – bu yozma yoki moddiy yodgorliklardan iborat bo'lib, ularda ayrim shaxslar va butun-butun jamiyatlarning mangulik qat'riga cho'kkan hayoti o'z aksini topganidir". S.F.Platonov tomonidan berilgan ta'rifda "keng ma'noda tarixiy manba tushunchasi o'limshning har qanday qoldig'ini o'zida ifodalaydi" deya ta'kidlanadi. M.N.Tixonov bo'yicha, "tarixiy manba tushunchasi ostida bashariyat tarixi haqida guvohlik beruvchi o'limshga oid har qanday yodgorlik tushuniladi". Tarixiy manbalarga berilgan ta'riflarning turlicha qat'i nazar, ularning mohiyati 1833-yilda avstriyalik mashhur tarixchi E.Berngeym tomonidan manbaga berilgan qisqa va lo'nda ta'rifda o'z ifodasini topgan, ya'ni "manba – bu tarixni tiklash uchun lozim material olinadigan narsadir".

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, tarixiy manba tushunchasi ostida bashariyat tarixi haqida guvohlik beruvchi o'limshning har qanday yodgorligi tushuniladi. Demak, qo'lyozmalar, bosma kitoblar, binolar, uy jihozlari, qadimgi odalar, qadimgi lahjalarning zamonaviy tillarda saqlanib qolgan unsurlari, qisqa qilib aytganda, o'limshdagi tarixiy hayotning barcha qoldiqlari tarixiy manbalar vazifasini o'taydi.

Keltirilgan ta'riflardan "manba" va "tarixiy manba" tushunchalarining keng qamrovli vogelik ekanligi ayon bo'ladi: ayrim manbalar o'limsh qat'riga sho'ng'igan vogelikning bir qismidan yoki unga tegishli ashyolardan (meinat

qurollari, tangalar, arxeologik yodgorliklar, ibodatgohlar, yorliqlar, xaritiylar, shartnomalar, vaqfonomalar va h.k.) iborat bo'lsa, boshqalari o'limshdagi vogea va hodisalar haqida xabar berib, ularning tavsifini keltiradi (sohnomalar, xronikalar, badiiy asarlar, yodnomalar, kundaliklar, pandonomalar va h.k.). Shundan kelib chiqib, birinchi guruhga tegishli manbalar tarixiy vogearlar haqida bevosita ma'lumot beruvchi osori atiqalar, ikkinchi guruh esa, ular haqida xabar beruvchining ongi orqali idrok etilgan bilvosita hikoya qiluvchi rivojyallar deb nomlanadi.

Umumlashtirgan holda aytilish mumkinki, tarixiy manbalar – bu tarixiy jarayonlar, alohida faktlar, sodir bo'lgan hodisalarni o'zida mujassam etgan moddiy madaniyatga tegishli hujjat va predmetlarning bir-birini to'ldiruvchi majmuidir. Ularning asosida u yoki bu tarixiy davr haqidagi tasavvurlar shakllanib, turli tarixiy vogearlarni keltirib chiqargan sabab va oqibatlar haqidagi ilmiy gipotezalar ilgari suriladi. Shuning uchun ham manbaning haqiqiyli va asliligi darajasini aniqlash uni tanqidiy o'rganishning eng muhim shartini tashkil etadi.

Har qanday tarixiy tadqiqot negizida muayyan manba yoki manbalar turkumi yotadi. Sodda qilib aytganda, manbalarisiz biror tarixiy tadqiqotni amalga oshirish amri maholdir. Zero, manbalar gumanitar, ya'ni inson va uning faoliyati haqidagi fanlarning obyektiv asosini tashkil etadi. Yevropa manbashunosligining asoschilari bo'lgan Sh.-V.Langlva va Sh.Sen'obos kabi mashhur tarixchilarning "Tarixni o'rganishga kirish" asarida ta'kidlanganidek, "tarix matnlar orqali o'rganiladi". Bunda germevikaning o'lim begiyosidir.

Germevika (yunoncha. *ἐμπνευτική* dan – "tafsirlash san'ati", yunoncha *ἐμπνεύω* dan – "tafsirlayman") – matnlarni tafsirlash, ya'ni tushuntirish san'ati, jumladan, mumtoz qadimiyatga mansub matnlarni talqin etish va tushunish nazariyasidir. XX asrda adabiy matnlarni talqin etish nazariyasi asosida vujudga kelgan falsafiy yo'nalishdir. Germevika bag'ishlangan birinchi umumlashtiruvchi asar muallifi nasroniylik mutafakkiri Avreliy Avgustin (354 – 430) bo'lib, uning kitobi "Nasroniylik fani yoki Muqaddas germevika va cherkovga xos balog'at asoslari" deb nomlangan. Germevika atamasi ko'proq bizgacha yetib kelgan muqaddas bitiklar matnlariga nisbatan ishlatilgan, keyinchalik u qisman yoki buzilgan holda, tegishli shartlarsiz tushunib bo'lmaydigan bizgacha yetib kelgan adabiy yodgorliklarning asl ma'nosini tiklash haqidagi ta'limot mohiyatini kasb etgan. Mazkur ma'noda germevika – bu filologik tanqidiy tahlil haqidagi fandir. Demak, germevika adabiyotshunoslikda alohida o'rin tutadi. Zero, har qanday adabiy yodgorlikni o'rganishda uning imkon qadar to'liqroq tarzda va xolissona talqin etish talab etiladi.

Germevikaning ushbu vazifasi tarix fani uchun ham benihoya muhimdir. Chunki tarixiy tasavvurlar, asosan, manbalar talqiniga suyanadi. Aytilish joizki, germevika "matn" deganda, nafaqat yozma asarlar, balki san'at asarlari, tarixiy hodisalar va "idrok etish" mumkin bo'lgan barcha obyektlar tushuniladi.

Ularini tushunish bilan bog'liq jarayon deganda, "germenevtik aylana" bo'ylab harakat qilish nazarda tutiladi. Bunda matn, bir taraftan, tegishli davr va adabiy janr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Ikkinchi taraftan, matn muallifning ma'naviy hayotini tashkil etib, uning ma'naviy hayoti esa, tegishli tarixiy davrning bir qismidir. Tegishli matnning ushbu ikki kontekstida tasavvur etish, umumiylikdan xususiylikka o'tish va aksincha yo'nalishda harakatlanish – "germenevtik aylana"ni anglatadi.

Germenevika, shuningdek, matn tahlilining falsafiy uslubi bo'lib, uning rivojiga alohida hissa qo'shgan olimlar qatoriga mashhur faylasuflar Gadamer, Shleyernaxer va Pol Rikyorlar kiradi.

Real vogelkni ilmiy o'rganish uni muayyan uslubda muhrlangan shaklining mavjudligi bilan bog'liq. Vogelkning aynan shunday muhrlangan "surati" mantiqiy bilish manbaini tashkil etadi. Demak, tarix fani manbalarisiz – mustaqil ravishda mavjud bo'la olmaydi, zero, u o'tmishni, ko'p hollarda – uzoq o'tmishni o'rganish bilan shug'ullanadi. Shuni aniqki, manbalarga murojaat etmay turib, real vogelkni bilib bo'lmaydi. Bundan chiqadigan mantiqiy xulosasi shuki, har qanday tarixiy tadqiqot, eng birinchi navbatda, manbalarga tayanadi.

Obyektiv borligini subyektiv tarzda aks ettirgan manbadan kerakli ma'lumotni chiqarib olish uchun tarixchi bir qator shartlar va qoidalariga amal qilishi, uning xohish-irodasidan tashqarida bo'lgan sharoitga moslashishi zarur bo'ladi. Eng avvalo, tarixchi o'z tasarrufidagi manbaning aslilgini aniqlashi lozim. Buning uchun yuksak iqtidor va mahorat talab qilinib, u yozuvning o'ziga xosliklari, yozuv uchun foydalanilgan materiallar, manba tilining xususiyatlari, uning leksikasi va grammatik shakllari, vogelalar sanasi va manbada qo'llangan metrik (o'lchov) birliklar va yana ko'pchilikka noma'lum anchagina bilimlar sohibi bo'lish zarur. Biroq hatto manba aslilgining isboti ham uning haqiqiyiligi, ya'ni bayon etilgan ma'lumotlarning real vogelkni aks ettirishiga kafolat bermaydi. Zero, ko'pincha manbadan chiqarib olingan ma'lumotlar noaniq, noto'g'ri va hatto yolg'on bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda manbada keltirilgan ma'lumotlarning ataylab buzib ko'rsatilgani uning muallifi ushbu vogelalardan qanchalik xabardor ekani yoki ularning qanday bayon etilishidan manfaatdor bo'lganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ko'pincha, manbalarda aks ettirilgan ma'lumotlarning haqiqiyilgini bilib olish uchun juda keng ko'lamli izlanishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Manbashunos-tarixchi tegishli manbaning paydo bo'lishi bilan bog'liq ta'sirotlarni aniqlashdan tasavvur etishi, muallifning milliy, diniy, irqiy, partiyaviy va boshqa mayllarini bilib olishi taqozo etiladi. Bularning barchasi haqiqatni bilib olish uchun lozim. Bularsiz manbada keltirilgan ma'lumotlarning obyektiv negiziga yetib bo'lmaydi.

Tarixchining manbaini o'rganish bilan bog'liq faoliyati, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, ikki madaniyat hamkorligidan iborat jarayondir. Matnini yaratgan taraf (muallifi) madaniyati va uning tadqiqotchisi madaniyati. Bunda tarixchi, ya'ni tadqiqotchi faol tarafdir: u bunday hamkorlikni tashkillashtiruvchi rolini ado etadi.

U hatto manbaga o'z qarashlarini "yuklashi" va uning mazmunini o'zi uchun yaqin bo'lgan qadriyatlar va tushunchalar tizimiga muvofiq taqin etishi mumkin. Ammo bunday qilinganda, o'tmishda mavjud bo'lgan real vogelik ochildmay qoladi. Demak, manbaini to'g'ri o'rganish va tushunishning yagona yo'li uning o'zi tegishli madaniyat ramzlari va tilida ustuvor bo'lgan qadriyatlar kontekstida, bog'liqlikda taqin etishdir.

Odada tarixchi o'z tasarrufida mavjud bo'lgan barcha manbalardan foydalanadi. Ammo yangi va eng yangi davrlarga oid tadqiqotlar uchun yozma manbalar eng muhim va ko'p sonli guruhni tashkil etadi. Zero, ular ushbu davrlarga doir eng serqirra va boy ma'lumotlarni mujassamlashtirgandir.

Inson faoliyati natijasida obyektlastirilgan madaniyat mahsulati bo'lgan tarixiy manba barcha gumanitar fanlar uchun, ular o'rganadigan predmetlarning xilma-xil ekanidan qat'i nazar, umumiy obyekt sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy manbalarning tabiati turlichadir. Shuning uchun manbashunoslik fanida tarixiy manbalarni tasniflashning anchagina tizimlari mavjud. Ularning barchasi, shubhasiz, manbaga berilgan ta'riflarning mohiyatidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, manbalarni tasniflashning bir necha turlarini keltirish mumkin:

1. Nemis olimi I.Droyzen tomonidan taklif etilgan manbalarning yaratilishi maqsadlariga ko'ra tasniflash. Ushbu uslubga ko'ra, manbalar uch guruhga bo'linadi: aniq maqsadsiz (fakllarni bevosita ifoda etuvchi qoldiqlar), maqsadli (guvohliklar) va aralash (yodgorliklar).

2. Manbalarni tarixiy faktga yaqinligi darajasiga qarab tasniflash. Bu tasnif E.Beneym tomonidan 1889-yilda taklif etilgan. Unga ko'ra, tarixiy manbalar qoldiqlar va an'analarga bo'linadi. Manbalarni bu tarzda bo'lish, demakki, manbashunoslik tahlilini ham bunday tasniflash o'z vaqtida anchagina keng targalgan edi.

3. Manbalarni ularning eluvchilariga qarab tasniflash. Bu uslub E.Frimen asarlaridan ma'lum bo'lib, u manbalarni quyidagicha tasniflagan: moddiy (yodgorliklar), yozma (hujjatlar) og'zaki (rivoyatlar). Ushbu tizimning biroz o'zgartirilgan ko'rinishi sobiq sovet davri manbashunosligida o'z ifodasini topgan edi. Unda manbalar, ma'lumotlarni kodifikatsiyalash va saqlash uslublariga ko'ra, yetti turga ajratilgan.

4. A.Ksenopol tomonidan taklif etilgan manbalarning yaratilishidan ko'zlangan maqsad va eluvchisining turiga qarab aralash tasniflash usuli: moddiy (yodgorliklar), aniq maqsadsiz va idrok etilgan yoki maqsadli (hujjatlar).

5. Tarixiy faktning manbada aks ettirilishi uslubiga asoslangan K.Erslav tasnifi: qoldiqlar (odamlarniki va tabiat qoldiqlari), odamlar tomonidan yaratilgan jilhozlar, o'tmish hodisalari haqida tasavvur beruvchi tegishli davr hayotiga oid fakllar.

6. A.S.Lappo-Danilevskiy tasnifi: tarixiy vogelkni aks ettiruvchi manbalar va umuman vogelkni aks ettiruvchi manbalar. Birinchi guruhga oid manbalardan hodisalar haqida bevosita tasavvurga ega bo'lish mumkin, ikkinchi guruh

ma'lumotlari "rasshifovka", ya'ni ularda yashiringan ma'nolarni "chaqish" va kashf etishni taqozo qiladi.

7. Sho'ro davri manbashunosligida taraqqiyotning markscha-lenincha qolipiga joylashtirilgan manbalarining "ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar"ga asoslangan mulahoqa noilimiy tasnifi ham mavjud edi.

8. Manbalar, shuningdek, ularning turlariga ko'ra guruhlantirishi mumkin: solnomalar, aktlar, memuarlar, davriy matbuot va hokazo.

Tarixiy manba – uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichidagi kechmishi, inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklaridir. *Moddiy yodgorliklar* – qadimiy obidalar, manzilgohlar, mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal'a xarobalari, uy – ro'zg'or buyumlari, mehnat va ov qurollari, zebu-z'ynat buyumlari, taqinchoqlar va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar – qadimgi yozuvlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, alisonalar, yozma yodgorliklar – bitiklar, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv manbalari kiradi.

Tarixiy manbalarni ularning umumiy xususiyati, o'tmishni o'zida aks ettirishiga qarab oltita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. *Moddiy (ashyoviy) manbalar* – qadimiy obidalar, manzilgohlar, mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal'a xarobalari, uy – ro'zg'or buyumlari, mehnat va ov qurollari, zebu-z'ynat buyumlari, taqinchoqlar va boshqalar.

2. *Etnografik manbalar* – Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan materiallar va ma'lumotlardir.

3. *Lingvistik manbalar* – tilimizdagi uning leksik so'z boyligi tarkibidagi uzoq o'tmishdan qolgan, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'muriy, yuridik atamalar asosida xalqning ijtimoiy – siyosiy hayotini o'rganuvchi manbadir.

4. *Xalq og'zaki adabiyoti manbalari* – xalq ertaklari, marosim qo'shiqlari, matal va topshimog'laridir. Og'zaki adabiyot madaniyatining eng qadimgi qismi bo'lib, uning ildizi ibtidoiy jamoa va ilk yer egaligi tuzumiga borib taqaladi.

5. *Yozma manbalar* – Insonning ijtimoiy faoliyati, kishilarning o'zaro munosabatlarining natijasida yaratilgan, o'sha zamonlarda sodir bo'lgan ijtimoiy – siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan manbalardir. Yozma manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi: Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yoriqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy – hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar); *Ikkinchisi* – tarixiy, geokosmografik hamda biogeografik asarlar (tarixiy voqealar, geografik joylashuvlar, podsho va hukmdorlarga bag'ishlangan asarlar).

6. *Mo'jaz rasmi* – *miniaturalar* – qadimgi devoriy rasmlar, tarixiy ashyolar tasviri, nafigs mo'jaz tasviri san'at namunalari, qo'lyozma kitoblarga ishlangan rasmlardir.

Insoniyat tarixidagi ilk yozuvlar

Buyumli yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi. Insoniyatning to'plangan bilimlarni saqlab, yodlab qoladigan o'ziga xos xotirasiga aylana olmadi. Ijtimoiy

turnush murakkablashgan sari bunga ehtiyoj tobora ortib borardi. Urf-odatlari, an'analar shakllandi, ularni yangi avlodga yetkazish lozim edi. Mehnat taqsimoti va mol ayiribboshlash aniq hisob yuritishni talab qilardi. Qabila boshliqlari va kohlilar ajralib chiqdilar, ularning faoliyatini abadiylashtirish zarur edi.

Miloddan avvalgi IV ming yillikda Arabiston yarim orolidagi qadimgi davlatlar hududlarida misr va shumer yozuvlari paydo bo'lgan. Ikkinchi ming yillikning boshlariga kelib, O'rta yer dengizi qirg'oqlarida ossuriylar va bobilylar yozuvi shakllangan. Hozirgi Hindistonning shimoliy qismi va Old Osiyo hududlarida esa hind yozuviga asos solingan. Undan ham keyinroq, yozuvning g'arbiy-somiy tizimi vujudga kelgan. Umuman, insoniyat tarixi yozuvning to'rt qadimiy turini biladi:

1. *Piktografik yozuv*. Bu istiloh lotincha "piktus" – rasm, surat; "grafo" – yozaman qismlaridan iborat bo'lib, rasmiy yozuv demakdir. Bu yozuvning dastlabki shakllari mezeolit va neolit davrida paydo bo'lgan. Odamlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini turli rasmlar, suratlar orqali bir-birlariga yetkazganlar. Odamlarning o'zi chizgan bu suratlar harbiy yurishlar, urushlar, to'qnashuvlar, majburiyatlar, ultimatumlar, sevgi-muhabbat borasidagi xabarlarini bir joydan ikkinchi joyga yetkazish uchun xizmat qilgan. Yozuvning bu turi juda katta hududda va uzoq muddat ishlatilgan.

Piktografiya yoki rasmlardan iborat yozuv zamonaviy yozuvga olib boradigan yo'lidagi navbatdagi bosqich bo'ldi. Uning xususiyati axborot uzatish bilan belgilanar edi. Rasmlardan iborat yozuvning xususiyati shuki, bunda fikr ayrim tushunchalarga ajratib emas, balki to'la ifodalanaadi. Piktogrammaning eng mayda parchalari (fragmentlari) ham zamonaviy yozuvdagi jumlar singari, mazmunan tugaldir. Jumla tarkibiy qismlarga bo'linadi, ammo piktogramma bo'linmaydi. Piktogramma harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi, lekin og'zaki tilni, buyumlarining nomlarini mulahoqa aks ettirmaydi. Piktogramma nimani tasvirlasa o'shani ifodalaydi, unda belgilar yo'q. Shuning uchun piktogrammani har bir kishi, qanday tilda gapirishdan qat'i nazar, shartlab berishi mumkin.

Piktogrammalar ov haqidagi ma'lumotlarni, ro'zg'or ishlari bilan bog'liq yozuvlarni, jangovar yurishlar, bosqinchiliklar, to'qnashuvlar to'g'risidagi xabarlarini, siyosiy shartnomalarni, arzonmalarni, ultimatumlar, sevgi maktublarini o'z ichiga olgan. Piktogrammalarni izohlash uchun eng qulayi she'riy shakldir. Yerliklardan biri qiroat bilan o'qigan bunday she'rining har satri ayrim rasmini ifodalaydi.

Piktografiya ibtidoiy san'at quchog'ida vujudga keldi. Olimlar insonlarning bundan 40-10 ming yil ilgari qadimgi paleolit davrida chizgan rasmlarini topishgan. Qadimgi odam toshni o'yib naqsh solgan, suyakka belgilar o'ygan, g'or devorlariga hayvonlar: bizon, mamont, ohular, karkidon, otlar, bug'ular yoki odamlar tasvirini bo'yoqlar bilan chizgan. Bu bilan u go'yo dunyoni bilib olgan va tasvirlagan. Tadqiqotchilarning fikricha, piktografik yozuv neolit davrida, tarqoq unug'dosh guruhlar qabilaga birlashta boshlagan vaqtda uzli-kesil shakllangan.

Tadqiqotchilar piktografiyani fikrni yozuv bilan ifodalashning dastlabki usuli deb hisoblaydilar. Piktografiya yaqqoliligi tufayli hammabop bo'lgan-u, biroq ma'no-mazmunni turlicha sharhlash mumkin bo'lgan. Rasm fikrni aniq ifodalashga yordam beradigan, ko'p joyni egallaydigan vosita bo'lganligidan mavhum tushunchalarni rasm yordamida anglatish juda qiyin edi. Bir xildagi buyumning tasviri turi piktogrammalarda turlicha chiqqanligi, harakatlari, voqealar ham har xil tasvirlanganligi sababli bayon qilinayotgan ma'lumotlarning aniqdigi buzilgan. Masalan, "qurol" bir joyda nayza ko'rinishida chizilgan bo'lsa, boshqa joyda kamon va o'q yana bir joyda to'qmoq shaklida tasvirlangan. Lekin shunga qaramay, piktografik yozuvning ayrim shakllari hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, darvoza tepasiga qo'yilgan ining surati hovlida qopqon it borligining belgisidir. Transformator budkasi devoridagi kalla suvagi rasmi xatarning mavjudligiga ishora. Katta qilib ishlangan barnoq surati harakat yo'nalishini bildiradi va hokazo. Vaqt o'tishi bilan piktografik yozuv o'rni undan mukammalroq va murakkabroq bo'lgan logografik yozuv egallagan.

2. *Logografik yozuv.* Bu istiloh lotincha "logos" – so'z, mantiq va "grafo" – yozaman so'zlaridan shakllangan. Jamiyat rivojlanishida davom etar ekan, har bir predmet yoki har bir tushuncha shu predmet yoki tushunchaning surati yordamida ifodalana boshlagan. Demak, yozuvning bu turida ifodalangan shakl bilan ifodalanishi kerak bo'lgan predmet yoki tushuncha o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjuddir. Shuning uchun bu yozuv logografik yozuv deb nom olgan. Bu yozuvda masalan, ikkita qo'lining surati "jangchi", "askar" mahosini ifodalagan. Agar bir qo'lda qalqon, ikkinchi qo'lda nayza surati bor bo'lsa, bu "jang" yoki "jang qilmoq" so'zlarini bildirgan. "Ko'rmoq" fe'lini bildirish uchun ikkita ko'z surati xizmat qilgan. "Baxlilik", "ochko'zlik" mahosini timsohning surati bildirgan. Bitta oyqonning rasmi "qadam tashlamoq" mahosini ifodalasa, ikkita oyqonning surati "yummoq", "bormoq" maholariga to'g'ri kelgan. Yozuvning bu turi ideografiya deb ham ataladi. Logografik yozuvning kamchiligi shundan iboratki, bu tur yozuvni hamma ham bilavermagan. Undan asosan ruhoniylar, davlat tepasidagi amaldorlar, mutaxassislar, ko'bitlar va xatnotlar xabardor bo'lishgan.

3. *Bo'g'in yozuvi.* Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning o'rtalarida va birinchi ming yillikning boshlarida ilgari yozuvga nisbatan qulayroq va soddaroq bo'lgan yozuv shakllana boshlagan. Bu yozuvda so'zlar hamda ayrim soddajumlalar bo'g'inlarni bildiruvchi belgilar yordamida ifodalangan. Shuning uchun bu yozuv bo'g'in yozuvi deb ataladi. Yozuvning bu turi ilgari yozuvlardan qulayroq bo'lgan, lekin uning ham o'ziga yarashta muqsoni bo'lgan. U ham bo'lsa, bu yozuv asosan so'zlar bir yoki ikki bo'g'indangina iborat bo'lgan tillar uchun qulay bo'lgan. Bunday tillarga hind tilining ayrim tarixdagi variantlari kiradi. Shu kamchiligi bor bo'lgani uchun bu yozuv boshqa xalqlar orasida kam tarqalgan. Lekin yozuvning bu turkumiga kiruvchi mixxat deb atalgan yozuv nisbatan keng tarqalgan. Uni miloddan avvalgi to'rtinchi mingyillikning oxirida Mesopotamiya (hozirgi Iroq davlati hududi)da

yashagan shumerlar o'ylab topganlar. Mixxat yozuvidagi elementlar asosan mix yoki pona shaklini eslatgani uchun mixxat deb nom olgan. Mixxat miloddan avvalgi birinchi mingyillikning oxirlarigacha bobililar, ossurilar, xetlar, finikiylar tomonidan qo'llanib kelingan. Bu yozuvdan Urartu davlati aholisi, forslar va boshqa qo'shni xalqlar ham foydalanishgan. Mixxat yozuvi piktografik yozuvdan kelib chiqqan. Bu dastlab italiyalik savdogar Pestro Chella Valle tomonidan o'rganilgan. Mixxat yozuvlari ichida eng ko'p tarqalgani forsiy mixxatidir. Bu yozuv miloddan avvalgi VI-IV asrlargacha Ahamoniylar davlati hududida qo'llanib kelingan. Bu yozuvdan qo'shni davlat xalqlari, shu jumladan O'rta Osiyo xalqlari ham foydalanishgan. Ahamoniylar davlatining qulashi bilan bu yozuvdan foydalanish ham kamaya boshlagan.

4. *Harfiy yozuv.* Yozuvning bu turida tildagi har bir tovushga bitadan harf yoki belgi to'g'ri keladi. Bu tizimdagi yozuv hech bir istisnosiz finikiylar, suriyaliklar va falastinliklar ijod etgan somiy yozuvga borib taqaladi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Qadimgi fors davlati devonxonalarida davlat ahamiyatiga molik hujjatlar oromiy tilida olib borilgan va bunda finikiylar alifbosining oromiy variantidan foydalanganlar. Keyinchalik vaqt o'tishi bilan bu alifboning juda ko'p variantlari shakllana boshlagan. Bu variantlarning biri hozirgacha eng ko'p xalqlar tomonidan qo'llanib kelayotgan arab yozuvidir va kvadrat shakliga ega bo'lgan yahudi yozuvidir. Keyinchalik miloddan avvalgi IV-III asrlarda oromiy alifbosi eroniy tillarda so'zlashuvchi ko'pgina xalqlar tomonidan ishlatib kelingan. O'rta fors yozuvi va partiya yozuvi xuddi shu tariqa paydo bo'lgan. Bu alifbo asosida keyinchalik so'g'd yozuvi, xorazmiy yozuv va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan. Eranizning VII-VIII asrlig kelib bu eroniy yozuvlarni arab yozuvi siqib chiqargan. Bundan tashqari eroniy va O'rta Osiyodagi Muqaddas kitob uchun maxsus Avesto yozuvi yaratilgan. Bu yozuv oromiy-eroniy yozuvi asosiga qurilgan bo'lgan. Yevropada esa, bu yerdagi tillar uchun yunon yozuvining turli variantlari, xususan, lotin yozuvi qo'llanilgan. IX-X asrdagi yunon qo'lyozma alifbosining yana bir varianti slavyan tillari uchun moslashtirilgan va shu tariqa qadimgi rus alifbosi (kirillitsa) vujudga kelgan.

5. *Fonografik yozuv* bir turli bo'lmay, u ham ko'p ko'rinishlarga ega. Shulardan biri - sillabik yoki bo'g'in yozuvidir. Bu yozuv qo'shma so'zlarni mayda qismlarga bo'lish yo'li bilan paydo bo'ldi. Bu mayda qismlar hozirgi vaqtdagi bo'g'inlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, ierogliflar bo'g'inlarni ifodalaydigan bo'ldi. U yoki bu so'zni yozish lozim bo'lsa, ana shu bo'g'inlarni bir-biriga qo'shish usuli bilan tuzishar edi. Bu yozuvga qadimgi hind yozuvi devanagari yaxshi misol bo'la oladi. Bu yozuvdagi har bir ishora undosh tovushlarning a unlisi bilan qo'shib talaffuz qilinishini nazarda tutadi, ya'ni pa, ba, da, ga, sha va shu tartibda. Agar boshqa unli talaffuz qilish zarur bo'lsa, unda yo harflarning ustiga, yoki tagiga ma'lum belgilar qo'yiladi. Bu yozuvda ega edi: ma, mi, mu, muk, pat shu talaffuz usuliga ega edi.

1. AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

2-FILIALI

qo'llanishi bilan bir qatorda, yangi so'zlarni yasashda ham ishtirok qiladi. Yangi so'zlarni yasashda ana shu logogrammalardan qaysi biri turli kelsa, shuning kombinatiyasidan foydalanilar edi. Shunday qilib, logografik yozuv birliklari asta-sekin fonografiya va-zifasini bajara boshladi. Boshqacha qilib aytganda, bo'g'inlar tovushlarning vazifasini o'tay boshladi. Bo'g'inlarning soni turli tildarda turlicha edi. Masalan, Kipr orolidagi kadingi greklar taxminan 65 ta sillabariydan (bo'g'in birligidan) foydalanishgan. Gvineya orolidagi vaylar 226 sillabariydan foydalanishgan.

insoniyat tarixida yozuvlarning rivojlanish jarayonini 3 bosqichga bo'lish mumkin:

insoniyat tarixida vujudga kelgan ilk yozuv – bu piktografik yozuv hisoblanadi. U lotincha “pikche” – tasviriy, “grafo” – yozaman degan soʻzlardan iborat. Piktografik belgilar orgali umumiy maʼlumotlar berilgan. Ularni tushunish oson va yozish qulay boʻlgan. Bu yozuv turi barcha xalqlarda mavjud boʻlib, ular deyarli bir vaqtda paydo boʻlgan. Ilk piktografik belgilar mil.avv. 3 ming yillikda Misr va shumerliklar tomonidan yaratilgan. Misrliklarning ilk piktografik yozuvlari mil.avv. 2900–2800-yilliklarga oid. Bunda har bir belgi soʻz va harakati ifodalardi. Amerikadagi indu qabilalarning baʼzilar XIX asrgacha piktografik yozuvlardan foydalangan. Ular murakkab boʻlib, butun gapni ham ifodalagan.

Iyerogʻlifter turli tillarda gaplashuvchi xalqlar ham undan bimalol foydalana olgan. Bugungi kungacha Xitoy, Yaponiya, Koreyada ierogʻif yozuvidan foydalanayapti. Xitoy iyerogʻlifi Yaponiya yozuviga asos boʻlgan. Xitoy iyerogʻlifida 60 ming belgi bor. Uning bir necha minggini oʻrgangan xitoyliklar bimalol gazeta va jumalarni oʻqiy oladilar. Misr iyerogʻlifi mil.avv. 4 ming yillikda vujudga kelgan. U 600 beljidan iborat boʻlgan. Ularda buyum, odam va hayvonlar toʻliq ifodalangan. Biror bir tushuncha ramziy belgilar orqali ifodalangan. Masalan, sovug-suv toʻkayotgan vaza bilan, qanirlik-qaygʻuga botgan inson va h.k. Mil.avv. II asrdan Misrda yunon yozuvidan foydalana boshlangan. Misrdagi iyerogʻlifter ikki formasi vujudga kelgan. Birinchi ieratik-kohinlar yozuvi va uning oddiylashtirilgan shakli demokratik boʻlib, undan xalq foydalangan.

Demokratik yozuv rivojlangan davrlarda xattotlar maktabi paydo bo'lgan. Hattokilar xattotlar musobaqasi tashkil etilgan.

Bo'g'inli yozuvlarning eng qadimiyli Kipt sillabariysi (mil.avv. 1200-400 yillar), qadimgi fors mixxat yozuvi (mil.avv. 500-300-yillar). Odatda bo'g'inli belgilar undosh va unliining birikmasidan, yoki faqat unliidan, ya'ni ochiq bo'g'indan iborat.

Klinopis (mixxat) tushunchasi fanga XVIII asrda Kempfer tomonidan olib kiritilgan. Bu yozuv turi finkiya alifbosi paydo bo'lgan davrgacha mavjud bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Grotefend eron mixxatining ba'zi so'zlarini o'qidi. U podsholarning ismlarini va titullarini o'qib, fors podsholarining xronologiyasi bilan solishtirdi. Keyinchalik (1836-1849-yillarda) Genri Raulinson Behistun yozuvarini ko'zga olib fors mixxatini to'liq o'qidi. Behistun yozuvi 3 tilda fors, akkad va elam tillarida yozilganligi uchun ularni assirologlar yordamida o'qish imkoni bo'ldi. XIX asr oxiriga kelib barcha mixxatlar to'liq o'qildi. Shumer mixxatlari mil. avv. 4 ming yillikning oxiri 3 ming yillik boshlarida paydo bo'lgan. Shumerliklar yozuvni loy taxtalarga yozganlar. Shu sabab ular yozgan tayogachalar uchi mixga o'xshab qolgan, yozuvning nomi ham shundan kelib chiqqan. Mixxat 900 beligidan iborat bo'lgan. Shu sabab vaqt o'tgan sayin uni o'zlashtirish qiyinlashib borgan.

Hafti alifbosi dastlab yunonlar ixtiro qilgan. Yunonlar alifbosi oson va aniq bo'lgani uchun uni darrov boshqqa xalqlar iditliklar, frakziylar, etrusklar qabul qildi. Lotin alifbosi ham yunon yozuvi asosida shakllangan.

Inklarning qadimgi sanoq sistemasi va yozuvdir. Bu o'ziga xos murakkab argon bog'lovlari va tugunlaridir. Bu tugunlarning qanday tugulganliklari va ularning rangi biror bir tushunchani anglatgan. 1923-yilda tarixchi Lokk bu tugunlarning yozuv ekanligini isbotlab berdi. 2006-yilda Geni Ertan tugunlarning ikki guruhga bo'lib, 128 variantda ekanligini aniqladi. Kipu so'zining ma'nosi hindlar tilida "kechua", ya'ni "tugun" degan ma'noda bo'lgan.

Tuguni yozuv janubiy Amerikaning bir qator xalqlarida mavjud bo'lgan. U inklar davlatida rivojlangan. Kipu yirik argon yoki tayovga ulangan nozik argonlardan iborat bo'ldi. Argonchalar rangi, sonlari va ularidagi tugunlar turlicha bo'ldi. Kipuning nima ekanligini haqida olimlar o'rtasida turlicha fikrlar bor: 1. Kipuda yilnomalar, qonunlar, buyruqlar va she'rlar yozilgan. 2. Sonlardan iborat, chunki ularida nollar soni ko'p bo'lgan. 3. Eng qadimgi kipular qabrlardan topilganligi sababli, u ko'mish marosimi bilan bog'liq buyum deb hisoblashadi.

Yozuv materiallari va yozuv qurullari

Palaeografiyada yozuv materialining vujudga kelishi va takomilini o'rganish hozirgi vaqtda alohida ilmiy yo'nalish kasb etdi. Qadinda yozuv materiali nimadan iborat bo'lganligini arxeologik tadqiqotlar tufayligina aniqlash mumkin.

Jahonning turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida har xil buyumlarga o'yib yozilgan bitiklar topilgan. Mutaxassislarning fikricha, eramizdan avvalgi VIII-V asrlardan boshlab O'rta Osiyo, Kavkazorti va Qora dengizning shimoliy sohillarida yashagan xalqlar qoya toshlarga, hayvon terisiga, sopol va yog'och taxtachalarga turli voqealarni o'yib yoki rangli siyohlarda yozganlar.

Yozuv materiallari tarixini o'rganar ekanmiz, Vizantiya yoki yaqin Sharqda xat dastlab papirusga, pergamentga (teriga), qog'ozga bitilganini ko'ramiz. Ma'lumotlarga qaraganda, eramizning IV-V asriga qadar yozuv materiali sifatida papirusdan keng foydalanib kelingan. V asrda pergament ixtiro etilishi bilan papirus iste'moldan chiqqan.

Rusda Vizantiya yoki Sharqdan olib kelingan pergamentdan yozuv materiali sifatida foydalanilgan. XIII asrdan boshlab mahalliy mutaxassislar o'zlari pergament ishlab chiqara boshlaganlar.

Pergamentdagi yozuvlar eskirishi bilan unga qayta ishlov berilib, yana foydalanilgan. Rusda pergamentdan tashqari daraxt po'stlog'idan ham yozuv materiali sifatida foydalanilgan. Arxeologik qazishmalar tufayli keng hududdan kundalik xo'jalik hayotiga oid ma'lumotlarni ifoda etuvchi yozuvlar bitilgan 500 ga yaqin daraxt po'stlog'i topilgan. Bu yozuvlar suyak va metallardan yasalgan o'tkir buyumlar bilan o'yib yoki tirnab bitilgan.

Jiymoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot ko'chayishi natijasida yozuvning roli oshib borgan hamda kishilarning yozuv materiallariga ehtiyojini kuchaytirgan. Ma'lumotlar xilma-xil yozuv materiallarini ishlab chiqarish Sharq mamlakatlarida keng taraqqiy etganligi, keyinchalik bu Yevropaga kirib keganligidan dalolat beradi. Masalan, Yevropaga qog'oz eramizning boshlarida Xitoy va Hindistondan kirib keldi, ilk o'rta asrda Yevropaning barcha hududida qog'ozga yozish rasm

bo'ldi. Tekshirishlar ikki xil – bombitsina va shaxsiy qog'ozdan foydalanilganini ko'rsatadi. Bombitsina qog'oz paxtadan va kanop, zig'ir tolasidan vujudga kelgan. Bu qog'oz turi qalin, sarg'ish, ba'zan juda silliqdangan, unga to'liqsimon chiziqliq tushirilgan. Qadinda Sharq va Yevropada asosan bombitsina qog'ozini ishlatilgan. Ba'zi mutaxassislarning fikricha paxtadan qog'oz tayyorlash usuli G'arbga Sharqdan o'tgan. Ammo mikroskopik tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, bombitsina qog'oz yoki unuman qog'ozlar qalin, notekis, dag'al bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan qog'ozning sifati yaxshilana borib, hozirgi holatga kelgan.

Yozuv materiallaridan yana biri grifel taxtachasi bo'lib, Rossiya davlati undan XVIII asrdan boshlab foydalanilgan. Grifel taxtachasi qora slanetsdan yasalgan, yuqqa, yog'och rangga joylangan, kattaligi hozirgi daftarlar hajmiga to'g'ri keladi.

Grifel taxtachaning ikki tomonidan ham foydalanilgan. Bu taxtacha yozuvni dastlab o'rganayotganlar uchun juda qulaydir. Chungi doskadagi yozuvni o'chirish oson bo'lgan, bu esa qog'ozni tejash imkonini bergan.

Grifel taxtachasi XVIII asrdan XX asr boshlarigacha Rossyaning barcha hududida to'liq iste'molda bo'lgan.

Yozuvlarni turli materiallarga tushirishda rang-siyoh juda katta o'rin egallagan. Dastlab teridagi yozuvlar oq, qora ranglarda bitilgan. Bu siyohlar o'simlik, hayvon yog'i va turli rangli tosh undan qilinib-da, qanday tayyorlanganligi asrlar davomida sir tutilgan. Siyoh dastlab janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tayyorlangan.

Hozirgacha foydalanib kelingan siyohlar turli birkimlar asosida vujudga kelgan. Masalan, glitserin, temir kukuni, tamin, shellak, arpa, sirka, bur, kvas, tuz va karbol kislorasi, geyin bargi, dub, olxo'ri, olma, somon kuli, shavel, qand, nordon va chuchuk asal, olcha mo'mi, limon soki va boshqa moddalardan rangli siyoh tayyorlangan.

Xatotlar teri va qog'ozdagi yozuvlarning o'ziga xos qiymatini oshirishda turli ranglardan foydalanilganlar, ya'ni sarlavha, xatboshi va so'zboshi qizil siyohda yozilgan.

G'arbda tarkibida qo'rg'oshin kuprosi, kinovar va boshqalar bo'lgan surik siyohi ishlatilgan.

Vizantiya davlati esa pupur yoki imperator siyohidan foydalanilgan. Ammo bu siyoh qimmat bo'lganligi uchun oddiy siyoh (maymunjon) o'simligini ishlatish rasm bo'lgan.

Qadimgi slavyan qo'lyozmalarini yozish uchun surik va o'simlik (maymunjon) rangidan foydalanilgan.

Yozuv bilan barobar yozuv qurullari ham vujudga keldi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga oid qoyatoshdagi yozuvlar (mxxx) o'tkir tosh, metall qurollar bilan bitilganligini ko'rsatadi. Papirus, yog'ochdagi yozuvlar qush va parrandalar patida bitilgan.

Ilk o'rta asrda yozuv quruli sifatida asosan g'oz patidan keng foydalanilgan. Hozirgi vaqtda rassomlar ba'zi tasvirlarni chizishda g'oz patidan

foydalanishmoqda. Patdan metall yozuv quroliga o'tirishi kishilik tarixida qo'lga kiritilgan eng muhim ixtirolardan biridir. Natijada metall pero bilan tezroq yozish imkoniyati vujudga keldi.

Hozirgi vaqtda metall pero tarixi to'liq o'rganib chiqilgan, deb bo'lmaydi. Chunki yer sharining turli joylarida yashagan xalqlar tarixiy taraqqiyotda bir xil bosqichni bir vaqtda bosib o'tmagan. Shu bilan birga ularda fan va texnika taraqqiyoti umumiylikni tashkil qilmaydi.

Qadimgi Rimda bronza, mis va kumushdan yasalgan perodan yozuv quroli sifatida foydalanilgan. Ammo ularning yasaliishi, tashqi ko'rinishi hozirgi yozuv qurollariga o'xshash emas, ya'ni ular zanglamagan, tashlab ham yuborilmagan.

XV asrda G'arbiy Yevropada metall pero vujudga kelgan. Lekin ular yurpqa bo'lgani uchun tezda yaroqsiz holga kelgan. 1798-yili A.Zenfelder metall peroni ixtiro qildi. Bu pero bilan litografiya toshiga yozish mumkin bo'ldi.

1818-yili Asxen shahrida yashovchi Yansen po'lat pero ixtiro kildi. 1828-yili berlinlik Manteyfel xam po'lat pero yaratdi. Byurger esa uni g'oz patiga o'taishini taklif etdi.

Ingliz adabiyotida Yevropada birinchi metall pero 1780-yili Samyuel Garison tomonidan ixtiro qilingan, deb ta'kidlanadi. Ma'lumotlar 1803-yilda Londonda har dona pero 5 shillingdan sotilganligidan dalolat beradi.

Bu pero hozirgilarga o'xshamay, asosan silindrsimon va trubkasimon bo'lgan. Qattiq va qo'pol bu peroga talab uncha katta emas edi. 1828-1829-yillarda Garison va Mezon hamkorlikda talabga javob beruvchi yumshoq pero ixtiro qildilar. Bu pero qisqa vaqt ichida omma orasida shuhrat qozondi.

Rossiyaga pero XVIII asrning 30-yillaridan boshlab Yevropadan kiritib keldi. Bir necha o'n yillardan keyin bu yerda pero metallan ishlab chiqarila boshlandi. Perolar Fransiyadan va Germaniyadan olib kelinib, har donasi 50 tyundan to 1 rubl 50 tyingacha sotilgan.

Metall perodan foydalanish boshlanganiga qaramay pat ham yozuv quroli sifatida uzoq vaqt o'z qiymatini yo'qotmaydi. Rossiyada metall pero yozuv tajribasiga 1880-yillarning o'talaridan boshlab kiritib keldi. Maktab va muassasalarda yozuv ishlari metall pero bilan bajarilgan.

Hozirgi vaqtda xatotilik ishlarda, o'quv protsessida 400 xildan ortiq o'ziga xos metall pero qo'llanilmokda. XX asrning boshlarida yangi yozuv quroli - muallifchka vujudga keldi. Muallifchka qulayligi, bir tekis, tez yozishni tufayli darhol ommalashtirib keldi.

Yozuv qurollaridan yana biri - qalam, u turk tilida - "qora tosh" rus tilida - "karandash" bo'lib o'tgan. Qadimda Sharq mamlakatlari xalqlari turli voqea va hodisalarni yog'och, teri, qog'ozga yog'och ko'miri bilan yozganlar. XVI asrning o'talarida yog'ochdan yasalgan tayogchalaraga grafit joylashtirilgan. Keyinchalik qalam tayyorlash texnologiyasi takomillashtirilgan: grafit kukun holatiga keltirilib, toza tuproq bilan qorishirilgan va tayogchalar hosil qilingan. Bu tayogchalar esa yog'och orasiga joylashtirilgan. Natijada hozir ishlatiladigan qalam vujudga kelgan.

Hozirgi paytda 3 xil qalam bor. Bular: qora grafit: kimyoviy (kopiroval) va rangli qalamlardir.

Qora grafit qalam yumshoq (m), qattiq-yumshoq (tm) va qattiq (t) qalamga bo'linadi. Hozirgi vaqtda dunyoda qalamning 370 dan ortiq turi, shu jumladan 70 dan ortiq rangli qalam mavjud.

XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarida avtomat yoki mexanik qalamlar vujudga keldi. U prujina, bosma tugma yoki burama yordamida ishlaydi.

Qalamning ixtiro qilinishi bilan har qanday sharoitda undan foydalanish imkoniyati vujudga keldiki, bu siyoh bilan yozadigan peroga nisbatan bir muncha qulaydir. Ammo paleografyada siyohli yozuvga nisbatan qalam yozuvining qiymati past, chunki qalamda yozilgan yozuv tez o'chib ketadi, yaxshi o'qilmaydi, uzoq saqlamaydi.

Zamonaviy yozuv qurollari orasida yana shartli tushka ham keng tarqalgan. Shartli tushka ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi.

Shartli tushkaning texnik takomillashtiruvchi tufayli rangli tushkalarining bir necha turi vujudga keldi, natijada turli maqsaddagi yozuvlarni bag'ishda qulaylik tug'ildi.

Nazorat savollari

1. Paleografya fani nimani o'rganadi?
2. Tarixiy manbalar nechta turga bo'linadi va ularning turlari haqida tushuncha bering?
3. Ik yozuvlar qanday tarixga ega?
4. Ik yozuvlarning o'rganilishi borasida qanday ishlar amalga oshirilgan?
5. Paleografiyaning ish ushbi deganda nimani tushunish kerak?
6. Ideografiya va rikografiyaning farqi nimadan iborat?
7. Qadimgi yozma manbalarni o'rganishning ilmiy ahamiyati nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. История письма: Эволюция письменности от Древнего Египта до наших дней / Перевод с немецкого. - М.: Эксмо. 2002.
2. Истрин В. Возникновение и развитие письма. - М.: Наука. 1963.
3. Каюмов А., Исхоков М., Отахужаев А., Соликов К. Қадимги ёзма ёшоринлилар ўқув қўлланма. - Т.: Ёзувчи, 2000.
4. Қўчқоров Т. Палеография. - Т.: Ўзбекистон, 1988.
5. Саидбобоев З., Чориев Ш. Махсус тарихий фанлар асослари. Ўқув қўлланма. - Т., 2013.

2-Mavzu: O'zbekiston hududidan topilgan piktografik belgilar

Reja:

1. Piktografik yozuv va uning kishiilik jamiyatidagi o'rni
2. Sopolitepa va Jarqo'ton piktografik yozuv usuli
3. Darband tosh kitobi va G'oz yodgorligidagi piktografik belgilar hamda ularning o'rganilishi

Tayanch ibora va tushunchalar: piktografik belgilar, yozuv usuli, ilk yozuvlar, bronza davri, Tozabog'yob, Zamonbobo, Mo'imnobod, Oqtanga, Qayvaqum, Sopolitepa, Jarqo'ton.

Piktografik yozuv va uning kishiilik jamiyatidagi o'rni

Jahon tarixidan bizga ma'lumki, yuksak ma'naviyat va boy madaniyatga ega bo'lgan har bir xalqning o'z yozuvi mavjud bo'lgan. Bugungi voqeligimiz, hayotning taraqqiyot oqimi o'tirish merosimizni har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining eng oliy mahsulatlaridan biri, bo'lgan yozuvni shumerliklar ixtiro qilgan. Eng dastlabki yozuv usuli fanda piktografik belgilar deb ataladi.

Yozuvning ixtiro qilinishini shumer xalqining eng katta madaniy yutuqlaridan biri deb ham atash kerak. Insoniyat tarixida shumerliklar miloddan avvalgi IV ming yillikda, bugungi kundan olti ming yillar avval piktografik yozuv usulini ixtiro qilganlar.

Ingliz arxeologlari J.Koper, X.Nissen hamda L.Vulle so'nggi yillarda qadimgi shumerning bir qator yodgorliklarida tadqiqotlar olib borib, shumerliklar tarixini yanada oydinlashtirdilar. Ular Diyali "nom"i markazi Eshnun shahri (hozirgi Tel-Asmar yodgorligi), Sippar "nom"i markazi Abu-Xabba yodgorligi, Imin "nom"i markazi Kutu shahri (hozirgi Tello-Ibrohim yodgorligi), Kish "nom"i markazi Kish shahri (hozirgi Tel-Uxaymir yodgorligi), Kesh "nom"i markazi Abu-Salabix yodgorligi, Niffer yodgorligi, Fira yodgorligi, Larsa shahri, Ur shahri, Eredu, Ubayd kabi ko'plab yodgorliklardan piktografik yozuvlar topdilar.

Shumerliklar aytmoqchi bo'lgan so'zlarini rasm bilan ifoda etgan. "Qush" so'zini qushning rasmini chizish bilan ifoda etgan bo'lsa, "tug'moq" so'zini qush va tuxum rasmi bilan, "ko'moq" so'zini ko'zning rasmi bilan, "yig'lamoq" so'zini esa ko'z va suv tasviri yordamida ifodalagan. Mesopatamiyada bu yozuv uzoq vaqt qo'llanib kelingan. Piktografiya yozuv usuli Uruk davrida paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan takomillashib borgan. Bu takomillashuv tili rivojlanishi, ijtimoiy hayotning o'sishi bilan hamohang ravishda o'sib borgan.

Tel-Asmar yodgorligida rasmlar bilan birga bog'lovchi va ma'lum tovushlarni ifodalovchi maxsus belgilar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Abu-Xabba yodgorligi piktografik yozuvlarida bo'lg'in belgilarining shakllanganligini

ko'rishimiz mumkin. Bu yerda rasmlar orasida bo'lg'in ifodalari qo'llanilgan. Larsa, Ur, Eredu yodgorliklarida piktografik yozuvlarning yanada takomillashganligi kuzatiladi. Bu yodgorliklarda rasmlar to'liq chizilmay, eng xarakterli tomonlari ifodalangan. Masalan, hayvonlarning faqat bosh qismini ifodalashni kuzatilgan. Ular ham sxematik xolda chizilgan, xolos.

Qadimgi Akkad yodgorliklarida piktografik tasvirlar shu darajada sxematizatsiyalangan, mix yoki pona ko'rinishini egallagan va shu tariqa mixxat yozuvlarga asos solingan. Bugungi kunga kelib shu narsa aniq va ravshan bo'lmog'daki, jahonning ko'pgina sivilizatsiyaga erishgan qadimgi xalqlari piktografik yozuvni bilishgan. O'z piktografik yozuv usullariga ega bo'lishgan. Lekin ularning ko'plari mixxatimon va harfi yozuv usuligacha rivojlanmagan.

O'tgan asrning oltinchi yillarigaacha fanda piktografik yozuvning paydo bo'lishida monosentrik g'oya hukmronlik qilib keldi, ya'ni bu g'oyaga ko'ra shumerliklar piktografiyani kashf etganlar va boshqa sivilizatsiya markazlariga tarqatganlar. Qadimgi Xitoy va Xarappa piktografiyasi topilgandan so'ng, piktografiyalarning xilma-xilligi aniqlandi va uning paydo bo'lishida polisentrik g'oya paydo bo'ldi.

Sopolitepa va Jarqo'ton piktografik yozuv usuli

Yozuv - ilk sivilizatsiyalarning asosiy belgisi hisoblanadi. Ingliz olimi G. Chuyld yoki hozirgi zamon rus tadqiqotchisi V. Gulyayev yozuvni ilk shaharlarning va sivilizatsiyalarning asosiy belgilaridan biri deb biladilar, o'zbek arxeologi va tarixchi olimi Temur Shrinov esa urf - odatlarga kuchli bo'yinsuvchi, og'zaki ijod rivojlangan, davlat boshqaruvi esa kam rivojlangan jamoalarda yozuvning bo'lishini ilk shaharlarning ikkinchi darajali belgisi deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha, ilk shaharlar, shaharlar bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan ilk davlatlar boshlang'ich yozuv usuli, ya'ni inson o'z fikrini ifoda etishsiz sivilizatsiyalarning va ilk davlatlarning vujudga kelishi ham mumkin emas. Chunki, shakllangan ilk davlatlarning hisob-kitob, kanselyariya va aloqa ishlari bo'lishi tabiiy hol. Fikrimizcha, boylikning oshishi sonning, ko'jalikni boshqarish jarayonining murakkablashishi esa yozuvga ehtiyoj tug'dirgan.

Qadimgi Sharq tarixidan ma'lumki, Mesopatamiyada - eng qadimgi shahar-davlat Shumerda mil.av. IV ming yillikda yozuv eng avval rasm, so'ng mixxat belgilar ko'rinishida paydo bo'lgan. Mil.av. III ming yillik so'ngida Mistr iyeroglifikasi paydo bo'lishi bilan yagona Mistr shohligi vujudga kelgan.

Insoniyat tarixida harflarga asoslangan yozuvga mil.av. II ming yillik so'ngida funktsional asos solingan. Shu yozuv asosida oromiy, grek alfavtlari paydo bo'lgan. O'rta Osiyoda ham arab yozuviga qadar yunon, xitoy, oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan qadimgi baqtriya, xorazm, so'g'd yozuvlari bo'lganligi arxeologik manbalar asosida o'z isbotini topmoqda.

E.V. Riveladzening fikriga qaraganda O'rta Osiyo yozuv paydo bo'lgan hududga kirmaydi. Haqiqatdan ham hozirgi kungacha bo'lgan arxeologik

manbalar, bu haqda yozishga imkon bermay keldi. Qadimgi Xorazmda joylashgan Katta Aybuyir qal'a yodgorligidan 1979-yilda M.Mambatlalayev tomonidan topilgan, mil.av. VI-V asrlarga oid xumga bitigan qisqa oromiy yozuvi eng qadimgi yozuv hisoblanadi. Qo'y Qirilgan qal'a, Armdaryo xazinasiidan ham oromiy yozuvda bitilgan xatlar topilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi xususida Sopolli madaniyati yodgorliklaridan yangi ma'lumotlar topilgan. Sopolli madaniyati – so'nggi bronza davriga oid, hozirgi Janubiy O'zbekiston va Janubiy Tojikiston hududlarida istiqomat qilgan aholi qoldirgan qadimgi madaniyat idizlari. Sopolli tepa va Jarqo'ton yodgorliklari akademik A.A. Asqarov tomonidan fanga kiritilgan. Professor T.Shirinovning tadqiqotlariga ko'ra Sopolli madaniyati ahli Vatanimiz hududida eng birinchi bo'lib ilk shahar madaniyatiga asos solgan. Amerikalik arxeolog, Kaliforniya universiteti professori Lamberq-Karlovskiy Sopolli madaniyatini "Oks sivilizatsiyasi" deb atashni taklif etgan bo'lsa, Italiyalik arxeolog, Boloniya universiteti professori Mavrusio Tosi "Turon sivilizatsiyasi" deb atagan.

Ma'lumki, Sopolli tepa sopollariga bitilgan belgilarni A.A. Asqarov jamlab chop qilgan, lekin bu belgilarning yozuv ekanligi xususida muallif fikr bildirmaydi. Bu belgilar asosan xum, ko'za kabi idishlarning eng ko'rinadigan joylarida bitilgan. Bu belgilar sopol idishlar yasalgandan so'ng, loylik paytida chizilgan, shundan so'ng idishlar angoblangan va pishirilgan. Piktografik yozuvlar deb e'tirof etilayotgan ushbu belgilarni Sopolli madaniyatining xronologik davri asosida yoritishni metodik jihatdan to'g'ri deb hisoblaymiz, negaki idishlarda ifodalangan belgilar soni va shakllining o'sib yoki kamayib borayotganligini kuzatish ham muhim ilmiy jarayon hisoblanadi. 1969-1973-yillar mobaynida Sopolli tepa yodgorligi to'liq qazib o'rganilgan va 29 ta belgi chizilgan idishlar topilgan. Ularni akademik A.A. Asqarov shakllariga qarab 8 ta guruhga ajratgan. Birinchi guruh belgilar yarim oy shaklida bo'lib, shu singari 4 ta belgi topilgan. Ikkinchi guruh belgilar tortli kamon shaklida bo'lib, shu belgi markaziga perpendikulyar to'g'ri chiziq tortilgan. Sopolli tepadan xuddi shunday 5 ta shakl-belgi topilganligi qayd etilgan. Uchinchi guruh belgilar parallel ikki chiziqdan iborat bo'lib, ularning topilgan soni 6 ta. Faqat bitasida, ya'ni parallel ikkita chiziqni markazidan birlashtiruvchi uchinchi to'g'ri chiziq chizilgan, natijada "N" harfi ko'rinishidagi belgi hosil bo'lgan. To'rtinchi guruh belgilar Hoch shaklida bo'lib, hammasi bo'lib to'rtta shunday belgi topilgan. Beshinchi guruh belgi bita idishda ifodalangan bo'lib, ikkita aylanani birlashtiruvchi to'g'ri chiziqdan iborat. Ushbu belgini "arava" ko'rinishi deb talqin qilish mumkin, chunki O'rta Osiyo qoya tosh suratlarida arava xuddi shu ko'rinishda tasvirlangan. Oltinchi guruh belgilar shakl jihatidan birinchi guruh, ya'ni yarim oy ko'rinishidagi belgilarga o'xshaydi, lekin nihoyatda ko'p bukilgan holatda tasvirlangan (4 ta). Yetinchi guruh belgilar "A" harfini eslatuvchi belgi bo'lib, uchta xuddi

shunday belgi topilgan. Sakkininchi guruh belgilar ilon shaklini eslatuvchi belgilar bo'lib, ikkita belgida ilon tasviriga monand belgi ifodalangan.

Sopollarda ifodalangan ushbu belgilarning qanday fikrni ifodalaganligini hozircha aniq aytilish qiyin, bu borada tadqiqotchilarning yagona bir fikrga kelishlari ham mushkul ish. Hozircha bu borada to'xtalmaylikda, belgilarning vazifasi xususida, ya'ni ular ilk yozuvni yoki boshqa vazifani bajaradimi? - degan savolga yechim topaylik. Bu borada uchta fikrni bildirish mumkin. Birinchi fikr shundan iboratki, bu belgilarni kulollarining usta belgisi deb aytilish mumkin. Ammo, bu fikrga qarshi taleygina dalillar mavjud. Bu dalillar shundan iboratki, mavjud belgilar ma'lum bir shaklli idishlarda chizilgan, xolos (xum, ko'za, qasnoq-podstavka). Sopolli madaniyatiga eng ko'p xarakterli bo'lgan vaza, qalab, banka singari idishlarning birorlasida belgilar uchramaydi. Yana shuni aytib o'tish joizki juda kam sonli idishlarda belgilar chizilgan. Sopolli tepa yodgorligining to'liq qazib ochildirilganligi va minglab sopol idishlar topilganligi va faqat 29 ta belgi chizilgan idishning uchrashtirish kulollarining yasagan kulol belgisi emasligiga yana bir dalil - xuddi shu shakldagi belgilarning tarqalish geografyasi juda keng, ya'ni Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston, Markaziy Eron, Hindiston hududlari bronza davri yodgorliklarida ham xuddi shunday belgilar sopollarda chizilganligi kuzatilgan. Sopolli tepadan topilgan munchoq-tumorlarda ham xuddi shu shakllarda chizilgan belgilarning topilishi bu belgilarning kulollarining usta belgilari emasligini tasdiqlovchi manbalaridir. Ushbu belgilarning vazifasi xususida gap kelganda patriarxal oilalarning totem belgisi degan ikkinchi fikrni ham aytilish mumkin. Bu fikrga xizmat qiladigan qanday dalillarni keltirish mumkin? Ma'lumki, Sopolli tepa yodgorligida 8 ta mahalla joylashganligi kuzatilgan.

Yuqorida eslab o'tganimizdek, A.A. Asqarov topilgan jami 29 ta belgini shakllariga qarab 8 ta tipga ajratgan. Demak, har bir jamoaning o'z totem-belgisi bo'lgan degan tushunchani aytilish mumkin. Bundan tashqari tumorlarda ushbu belgilarning uchrashtirish totem-belgi ekanligini ko'rsatuvchi dalil deb hisoblash mumkin, lekin bu fikrga qarshi bir dalil bor, ya'ni, xuddi shunday belgilar bronza davriga oid juda ko'plab ilk shahar sopollarida uchrashtirish Sopolli tepa patriarxal oilalarining totem belgisi degan fikrga qarshi dalillardir.

Sopollarda chizilgan ushbu belgilarni albatta piktografik yozuv deb atash haqiqatga yaqin. Negaki, Qadimgi Sharq tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak yozuvlar, ya'ni harfli yozuvlarning paydo bo'lishiga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Yuqorida eslab o'tganimizdek eng qadimgi yozuvlar rasm ko'rinishida bo'lib, insonlar o'z fikrini har xil rasm va belgilar yordamida ifodalagan. Sopolli tepa va Jarqo'ton sopollarida uchraydigan belgilarni xuddi shunday yozuv usuli deb atash mumkin. Bu fikrni quyidagi arxeologik dalillar yordamida isbotlash mumkin. Birinchidan ular nihoyatda kam uchraydi, ikkinchidan ushbu tasvirlarning tarqalish geografyasi ancha keng, ya'ni sopolli madaniyatiga turdosh bo'lgan Qadimgi Sharq ilk shahar madaniyatlari

targalgan hududlarga hos bo'lgan odat. Agar, kulollarning usta belgisi deyilganda, har bir yodgorlikda ushbu belgilarning o'ziga xoslik analari saqlangan bo'lishi lozim edi. Sopolitpe patriarxal oilalarining totem belgisi deb atalsa tarqalish geografyasi bunalik keng bo'lmagligi lozim edi. Har bir yodgorliklarga oid patriarxal oilalarning boshqa joylarda uchramaydigan o'ziga xos belglari bo'lishi lozim.

Demak, Sopolitpe kulochiligi uchraydigan bu belgilarni piktografik yozuv deb atash haqiqatga yaqin va bu belgilarning rivojlanish bosqichini Jarqo'ton yodgorligi sopollarida uchraydigan belgi-yozuv asosida kuzatishimiz mumkin.

Jarqo'ton davriga kelib sopollarda ifodalangan piktografik belgi-yozuvlarning takomillashganligini kuzatish mumkin. Bu davrda ham piktografik belgi Sopolli davridagi singari ma'lum bir sopol idishlarda, ya'ni xumlar, ko'zalar va gasqonlarda (podstavka) uchraydi.

Bugungi kungacha Jarqo'ton davriga oid sopollarda 46 xil belgi-yozuv bitilganligi aniqlandi (4-tasmi). Ayrim belgilar sopollarda 2-3 marta uchrasa, juda ko'p belgilar bir marta chizilgan va shaklan boshqa qaytarilmaydi. Sopolli davridagi belgilar singari Jarqo'ton davri piktografik belgi yozuvlarini shakliga qarab guruhlarga ajratishning iloji bo'lmadi, negaki ular shaklan turlicha va takrorlanmasdir. Sopolli davrida bitta belgi doimo alohida ifodalangan bo'lsa, Jarqo'ton davriga kelib, har xil shakllarning birga ifodalanishi kuzatildi. Piktografik shakllarning birga ifodalanishi yozuvning davr jihatidan takomillashuvi jarayonini ko'rsatuvchi alomatdir.

Jarqo'ton davri piktografik belgi-yozuvlari orasida xoch eng ko'p uchraydigan belgi hisoblanadi. Hoch natijat sopollarda balki, Sopolitpe va Jarqo'ton tumor va muhrlarida ham keng tarqalgan.

Sopolli davri piktografik belgi-yozuvlarida hoch doimo alohida uchrasa, Jarqo'ton davriga kelib xoch alohida uchrash bilan birga, yarim oy shakli ichida, aylana shakli ichida uchrash bilan birgalikda xochga qo'shimcha chiziqlarning chizilishi ham xarakterlidir. Bu jarayon xoch belgisidan piktografik yozuv sifatida foydalanishda keng qo'llanilganligidan darak beradi.

Qadimgi Sharq ilk shaharlarining iqtisodiy asosi asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Shunday ekan, omoch yordamida yerni haydashni ifodalash piktografik belgi-yozuvda ifodalanishi kutilgan syujetlardan biri hisoblanadi. Xuddi shunday ifoda Jarqo'ton piktografik belgilarda ham kuzatiladi. Bu belgilarning haqiqatdan ham omoch ekanligini Mistr piktografyasida ifodalangan omoch tasvirdan bilsa ham bo'ladi.

Ma'lumki, bronza davrida ilk mexanikaga asos solingan. Kulochilik charxining, aravaning kashf etilishi bunga misol bo'ladi. Shunday ekan, arava ilk aylama mexanizmining ham piktografik belgilarda ifodalanishi kutilgan hol deb o'ylaymiz va Jarqo'ton sopollarida uchraydigan aylana va aylana ichida chizilgan, o'zaro markazda kesishuvchi chiziqlarni arava g'ildiragi deb hisoblash mumkin. Jarqo'ton qabrlarida bronza davri yasalgan "narvon" nushasining uchrash

juda ko'p marotaba kuzatilgan. Tadqiqotchilar "narvon" nushasining qabrlarda uchrashini nariji dunyoga o'tish yoki animistik tushunchalar bilan bog'laydilar. Jarqo'ton piktografik belgi-yozuvlarida ham "narvon"ning ifodalanishi kuzatiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Eronda joylashgan Shahdod yodgorligi piktografik yozuvlari orasida ham "narvon" tasviri tushirilgan ifodalari yozuvning uchrash o'rtasi Osiyo va Eron piktografik yozuvlaridagi paralleliliklar xususida gapirishga imkon yaratadi.

Umuman Shaxdod yodgorligi sopollarida piktografik belgi-yozuvning ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. U yerda 333 ta belgi alohida ifodalanganligi, 273 ta piktografik yozuvda esa belgilarning uyg'unlashganligini - bir joyda yozilganligini aytib o'tish lozim. Shahdod yodgorligidan topilgan, sopollarda bitilgan belgilar professor Ali Hakimi tomonidan piktografik yozuv sifatida e'tirof etilgan.

Xarappa madaniyatida ham piktografik yozuvlar aniqlangan va S.Langdon va E.Makkeylar tomonidan o'rganilgan. Ularning fikricha, Hind brahma yozuvi aynan mana shu piktografik belgi-yozuvlar asosida vujudga kelgan. Biz Jarqo'ton piktografik yozuvlarini biron bir alifboga asos bo'lgan degan fikrdan yiroqimiz, negaki bu belgilarning rivojlanish bosqichlarini hozircha ashyoviy manbalar asosida kuzatishning iloji yo'q. Sopolli madaniyatining so'nggi - ko'zali, mo'iali bosqichlari sopollarida birorta ham belgi chizilmagan. Bu holat Sopolli madaniyati piktografik yozuv usulining unutilganligidan, davriy jihatidan rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Sopolli madaniyati piktografik belgi-yozuvlarining Janubiy Turkmaniston, Markaziy Eron, Xarappa madaniyatlarida tarqalgan piktografik yozuvlar bilan bir xilliligi yoki o'xshashligi o'sha xalqlar bilan juda yaqin madaniy aloqada bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyoning yangi kashf etilgan bronza davri yodgorliklaridan biri Tillabuloq yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlik 2000-yil boshlaridan fanga ma'lum bo'lib, 2007-yildan yodgorlikda Termiz Davlat universiteti, O'zbekiston badiiy san'at akademiyasi San'atshunoslik instituti va Myunxen universiteti (Germaniya) bilan keng ko'lamda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tillabuloqdagi arxeologik qazuv ishlari Germaniya tomonidan Kay Kanyut, Mark Toyfer, O'zbekiston Respublikasi tomonidan Sh.Shaydullayev, J.Ilyosovlar ishtirok etgan. Tillabuloq Sherobod markazidan 30-35 kilometr shimoli-sharqda, Dobtsoy havzasida, dengiz sathidan 300 metr balandlikda joylashgan.

Yodgorlik janubdan 12 metr, shimoldan 3-4 metri tabiiy oval ko'rinishdagi tepalikdan iborat. 2007-yilda yodgorlikning topografik tashviri tuzildi va natijada uning 6 gektardan ziyod maydoni aniqlandi. 2007-2008-yildagi qazuv ishlari yodgorlik markaziy qismida amalga oshirildi. Natijada xom g'ishtdan qurilgan uy-joy qoldirlari, toshdan, suyakdan turli hajmdagi mehnat qurollari, uy-ro'zg'or, xo'jalik, harbiy ishda, ovchilik, hunarmandchilik ish qurollari va sopol idishlar topildi. Tillabuloqdan topilgan ashyoviy manbalarning tahlili, unda topilgan topilmalarning radiokarbon analizi bu manzilgohning miloddan avvalgi

XX-XVIII asrlarga taalluqli ekanligini ko'rsatmoqda. Tillabuloq yodgorligi hududida istiqomat etgan aholi bevosita Jarqo'ton aholisi bilan bog'liq bo'lgan. Tillabuloq yodgorligida qisqa muddat davomida qazish olib borilgan bo'lsada, O'zbekiston faniga juda katta yangiliklar olib kelmoqda.

Bugungi kungacha Tillabuloq yodgorligiga oid sopollarda 7 xil belgi-yozuv bitiklari aniqlandi. Ayrim belgilar sopollarda 2-3 martadan uchrasa, bir necha belgilar bir marta chizilgan va shaklan boshqa qaytarilmaydi.

Tillabuloq belgilari alohida ifodalangan. Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklari belgilari singari Tillabuloq yodgorligi piktografik belgi yozuvlarining bir nechta shaklan o'xshashdir. Ana shunday belgilardan biri doira bo'lib, Jarqo'ton yodgorligida ham uchralgan. Sh. B. Shaydullayevning fikricha, bu belgi omoch tasvirini ifodalaydi. Bu belgilardan haqiqatdan ham omoch ekanligini Misr piktografiyasida ifodalangan omoch tasvirlardan bilisa ham bo'ladi. Uchinchi belgi xoch shakli tasviri bo'lib, Sopoli va Jarqo'ton yodgorliklarida bir nechta uchralgan bo'lsada, Tillabuloq yodgorligida xozirgacha bita shakli uchraldi. To'rtinchi belgi kamon va uning o'qi tasvirlangan bo'lib, bu belgi hozirgacha Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida uchramagan. Tillabuloq yodgorligida ham hozirgacha boshqa takrorlanmadi. Beshinchi belgi ko'rsakich belgiga o'xshash bo'lib, lekin ikkita parallel to'liqsimon shakl berilgan. Bu belgi ham Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida uchramagan. Oltinchi belgi 8 ta to'g'ri chiziq perpendikulyar kesilgan bo'lib, panjara shakli tasvirlangan. Bu belgi ham Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida uchramagan.

Darband tosh kitobi va G'oz yodgorligidagi piktografik belgilar handa ularning o'rganilishi

Darband tosh kitobi Termiz davlat universiteti tarixchi olimlari tomonidan Surxondaryo viloyati Boysun tumani tog'li Darband qishlog'idan topilgan bo'lib, mahalliy aholi Darbandsoydan o'z tomorqalariga suv chiqarish maqsadida toshlardan band qurish davomida topgan. Topilma tabiiy mahalliy daryo toshi bo'lib, ikki tomoni silliq, ko'lami 15x15x13 sm. Toshning yuzva qismida avval o'tkir tig' yordamida tirnab chizilgan va so'ng qora va qizil oxrada bo'yalgan piktografik yozuvlar majmuasi tasvirlangan.

Yozuv inson tafakkuri taraqqiyotining oliy mahsulidan biri hisoblanadi. Jahon tarixidan ma'lumki, yuksak ma'naviyat va boy madaniyatga ega bo'lgan har bir xalqning o'z yozuvi mavjud bo'lgan. Yozuv ilk sivilizatsiyalarning asosiy belgisi hisoblanadi. Ingliz olimi G.Chayld, hozirgi zamon rus tadqiqotchisi V.Gulyayev yozuvni ilk shaharlarning va sivilizatsiyalarning asosiy belgilaridan biri deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha haqiqatdan ham ilk shaharlar va ular bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan dastlabki davlatlar boshlang'ich yozuv usuli, yani inson o'z fikrini ifoda etishsiz vujudga kelishi mumkin emas. Chunki, shakllangan ilk davlatlarning hisob-kitobi, yozishmalari, aloqa ishlari bo'lishi tabiiy hol. Aynan mana shu jarayonlar, boyliklarning oshishi, xo'jalikni

boshqarish jarayonlarining murakkablashishi o'z-o'zidan insoniyatda yozuvga bo'lgan ehtiyojni tug'dirgan.

Yozuvning paydo bo'lishi inson tafakkurining noyob mo'jizasi bo'lib, ular dastavval tosh qoyalarda, sopol parchalarida, hayvon terlarida va nihoyat bugungi kunda barchaga ma'lum bo'lgan kag'ozda ifodalashni orqali huzgacha yetib kelgan. Eng dastlabki yozuv usuli fanda piktografik belgilar deb ataladi. Yozuvning ixtiro qilinishini Mesopotamiyaning eng qadimgi shahar - davlati Shumer xalqining eng katta madaniy yutuqlaridan biri deb atash kerak. Chunki insoniyat tarixida shumerliklar miloddan avvalgi 4-ming yillikda - bugungi kundan olti ming yillar avval piktografik yozuv usulini ixtiro etganlar. Miloddan avvalgi 3-ming yillik so'ngida Misr iyeroglif yozuvi paydo bo'lishi bilan tarixda yagona Misr podshohligi vujudga kelgan.

Piktografik belgili yozuvlar Mesopotamiya bilan bir qatorda Qadimgi Sharqning ko'plab hududlarida, jumladan Qadimgi Hindiston, Eron, Xitoyda ham topilgan. Bugun hech ikkilanmasdan, katta ilmiy mas'uliyat hissi bilan aytish mumkinki, O'zbekistonning Surxon volasida bronza va ilk temir davri yodgorliklari - Jarqo'ton va G'ozda so'ngi yillarda topilgan, sopollarga va tosh keliga bitilgan yozuv belgilari, 2008-yil aprel oyida Boysun tumani to'g'li Darband qishlog'idan topilgan, o'zida yuzva yaqin belgili rasmlarni mujassamlashtirgan "Darband tosh kitobi"ning topilishi O'zbekistonda ilk yozuv shakllangan hududlar qatoriga kiritadi.

"Darband tosh kitobi" yozilish usuliga ko'ra miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklarga oid. Bitik piktografik usulda yozilgan. Avval tirnab shakl berilgan va shakl ustidan qora va qizil oxrada rang berilgan. Ushbu tosh kitobda yuzva yaqin tasvir ifodalangan, "Darband tosh kitobi"ni bema'lol mukammal piktografik asar deb atash mumkin. Ushbu noyob topilma ilmiy jihatdan nihoyatda qimmatli. U dunyodagi har qanday yirik muzeyning nodir eksponatiga aylanishi mumkin.

Yozuvlar oxiraning yog' bilan qo'shilgan holda tayyorlanishi natijasida nihoyatda yaxshi saqlangan. Unda tog' echkisi, kiyiklar galasi, ilonlar, tog'manzarasi, manzilgo'lar, odam ko'zi, oy, quyosh kabi piktografik belgilar ifodalangan. Ushbu topilma, shubhasiz O'rta Osiyo hududida qayd etilgan eng qadimgi piktografik yozuvdir.

Yakuniy ilmiy xulosa shundan iboratki, Amudaryo va Sirdaryo bo'yari humda ko'plab tog' daryolari bo'yab joylashgan vodiylar o'zlarining serunumligi va serhosilligi bilan eng qadimgi davrlardan boshlab ko'plab xalqlarning diqqat e'tiborini tortgan. Ushbu daryo bo'yalaridagi vodiylar ma'lum bir darajada eng qadimgi sivilizatsiya o'choqlari, buyuk daryolar hisoblangan - Nil, Dajla, Frot, Xuanxe, Yan-Szi-Szyan, Hind va Gang daryolari holatini eslatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo qadindan bir tomondan Mesopotamiya bilan Eron, ikkinchi tomondan Xitoy bilan Hindistonni doimiy ravishda bog'lab turuvchi hudud hisoblangan.

Termiz davlat universiteti olimlari kashf etgan "Darband tosh kitobi" to'liq ma'noda O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston hududini insoniyat ongining eng oliy maxsul hisoblangan ma'naviyat va madaniyatning bosh omili - yozuv, ya'ni jahondagi eng qadimgi piktografik yozuv paydo bo'lgan hududlardan biri bo'lganligini va u dunyoning qadimgi Mesopotamiya, Eron, Xitoy va Hindiston bilan bir qatorda ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri ekanligini shakl-shubhasiz tasdiqlovchi o'ta noyob va muhim tarixiy manba bo'lib hisoblanadi. Moziydan kelgan ushbu xabar, shubhasiz O'zbekiston tarixining qadimiyligini, uning sivilizatsiya o'chog'i ekanligini isbotlaydi. Endi jahon tarixida "Shumer yozuvi", "Mısır hieroglifikasi" qatoriga "Darband piktografik yozuvi" yoxud "Darband tosh bitiklari" degan yangi yozuvlar ham qo'shildi. Bundan har bir o'zbek fuqarosi g'ururlansa va faxrlansa arziydi, negaki biz jahonda yozuv kashf etilgan hudud va xalqlar qatoriga qo'shildik. "O'zbekiston ilk sivilizatsiya o'chog'i" degan ulug' nomga ega bo'ldik.

O'zbekistonlik tanqid arxeolog, tarix fanlari nomzodi Sh.Pidayevning fikricha, Darbanddan topilgan ushbu tosh 15x15x13 sm bo'lib, uchburchak shaklida. Uning yuza sathida qora va malla rangli suratlar ifodalangan bo'lib, ular eng qadimgi piktografik yozuvlar namunasi. Toshda ov manzarasi (yo'lbars, to'ng'iz, tog' echkisi) ifodalangan bo'lib, xuddi shunday yozuv-suratlar Qadimgi Mesopotamiya, Xitoy va Hindiston hududlariga xosdir.

Markaziy Osiyoda piktografik yozuv - suratlar usullari bronza davridan ma'lum bo'lib, sopol buyumlarida va parchalarida uchragan edi (Sopollitepa, Jarqo'ton, To'g'olov, Dashi), Darbanddan topilgan toshda ham piktografik yozuvlar majmuasi ifodalangan. Bu topilma bronza davriga oid bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa, mazkur topilma Markaziy Osiyoda sivilizatsiya miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda boshlanganligini ko'rsatuvchi ahyoviy dalil bo'lib xizmat qiladi. Topilmani piktografik yozuv jamlamasi sifatida baholash ilmiy jihatdan haqiqatga yaqin va uni yozuv tarixiga oid noyob topilmalar qatoriga qo'shish mumkin.

Darbanddan topilgan tosh yuza qismiga deb ta'kidlaydi tarixchi arxeolog T.Amayev o'yib ishlangan murakkab sahna hayvonot dunyosi, astronomik belgilar va tabiat manzarasi kabi lavhalarni o'zida mujassam etgan. Ta'kidlash joizki, bu topilma O'zbekiston tarixida muhim ahamiyatga molik bo'lib, o'zida mujassamlangan sahna ko'rinishi bilan davriy jihatdan qadimiy bo'lib, miloddan avvalgi 3-ming yillik oxiriga oid.

Toshda bitilgan hayvonlar timsoli, astronomik belgilar va tabiat manzarasi shubhasiz eng dastlabki piktografik xat namunasi hisoblanadi. Bu topilmaning O'zbekiston hududida eng qadimgi piktografik xat turining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganishda ahamiyati beqiyosdir.

Tosh ishlov berilmagan katta hajmdagi tosh bo'lib, toshning yuzi ancha tekis. Shu tekis yuzaga belgilab - rasmlar tirab chizilgan. Oxra bilan qizil va qora ranglarda bo'yalgan. Tosh yuzasida aniq kurtadigan rasmlar - quyosh rasmi, tog'lar rasmi, ilonlar rasmi bor. Bir gala echkilar

rasmlari ham bor. Ushbu rasmlar qadimiy. Bu topilma fan uchun juda katta ahamiyatga ega. Davriy jihatdan qadimiy hisoblanib, miloddan avvalgi 3 ming yillikka oid.

Topilma hajmi 15x15x13 sm kattalikdagi yassi toshga uchi uchli metall predmeti yordamida konturli chekich ustlubida ishlangan qadimgi san'at asari hisoblanadi. Bir qarashda ushbu topilmani tosh yuzasida har xil piktografik belgilardan iborat eng qadimgi yozuv namunasi deb ikitilamadan ilmiy asosli xulosa berish mumkin.

Darband tosh topilmasida sakrab borayotgan bir necha tog' echkisi, og'zini katta ochib tik turgan ilonlar, yelkalar arra tishli ajdaho, har xil parranda suratlari, yirtqich hayvonga minib uchib borayotgan chavandoz, og'zini katta ochib turgan soqoli odam surati, arra tishsimon doshqozonlar, uzun bo'yli jirafasimon hayvon va boshqalar tasvirlangan.

Rasmlar, ularga berilgan ranglarga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh rasmlarga ularning konturi bo'yab qora rang berilgan, ikkinchi guruh suratlari esa qizil rang bilan bo'yalgan. Suratlari boy kompozitsion syujetiga ko'ra, miloddan avvalgi 2-ming yillikning ikkinchi yarmiga oid bo'lishi kerak. Janubiy O'zbekiston hududlaridan topib o'rganilgan qadimgi bobodehqonlar madaniyatiga tegishli sopol idishlarda bundan bir necha yillar muqaddam 28 xil chiziqli belgilar uchralgan edi. Ammo 2003-yilda Surxondaryo viloyatining G'oz qishlog'idagi ilk temir davriga oid "G'oz" nomli arxeologik yodgorlikdan 13 ta piktografik yozuv tushirilgan tosh kelicha topilganligi ilmiy xulosaga oydinlik kiritib, Surxondaryo hududida eng qadimgi yozuv-piktografik yozuv namunasi topilganligidan va oldingi 28 ta belgi xam o'sha turkumga oid degan ilmiy asosga bugun to'la omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugun esa o'sha G'oz topilmasining bronza davriga tegishli prototip yozuv Surxondaryoning Darband qishlog'idan topilganligi o'sha ilmiy farazlarni to'la ma'noda to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Biz bu qadimgi yozuvni bosqichma-bosqich to'g'ri rivojlanishini ko'rib turibmiz. Dastlabki ilmiy xulosa shuki, ajdodlarimiz mustaqil ravishda yozuv kashf etishgan ko'rinadi. Bu qadimgi yozuv namunasi topilishi bugungi kunning eng noyob kashfiyotidir.

Tarix fanlari doktori, professor T.Shirinov fikricha, Darband qishlog'idan topilgan tosh bitik tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob topilmadir. Ushbu topilma mahalliy geologik jins bo'lib, oqish rangli diorit toshidir. Uchta katta bo'lmagan ushbu toshda qora va och qo'ng'ir rangli oxra bo'yog'larida tog' echkisi, ilon, doura, uchburchakli geometrik shakllar, o'simliklar ifoda qilingan bo'lib, ilk taassurot uni piktografik rasmlar ekanligiga ishora qiladi.

Ushbu rasmlar, aynan piktografik yozuvlar bo'lib, u miloddan avvalgi 4 ming yilliklarda Mesopotamiyada va unga yondosh hududlarda tarqalgan. Piktografik yozuvlarning ilk namunalari O'rta Osiyo bronza davrida miloddan avvalgi 3 ming yilliklar so'ngida paydo bo'lgan (Sopollitepa, Jarqo'ton, Dashi, To'g'olov, Gonur, Shandod va b.) Darband tosh bitigi mamlakatimizda eng

qadimgi piktografik yozuvdir. U 3-ming yilliklarning so'nggi va 2-ming yilliklarga oid poyob tarixiy yodgorlikdir. O'ta qadimiy madaniyatimizning guvohomasi.

Surxondaryo viloyatida joylashgan Sherobod vohasidagi Ulanbulogsoy o'zining boshlang'ich oqimlari Dobilsay deb ataladi. Dobilsayning o'ng sohilida Dobilqo'tg'on yodgorligi joylashgan. Bu yodgorlikka ilk temir davrida asos solinganligi E.V. Rtveldze tomonidan 1974-yilda qayd etilgan.

Dobilsay yodgorligidan 10-12 km quyida G'oz qishlog'i joylashgan. Shu qishloq hududida 4 ta kurtiz ustibida qazilgan sun'iy sug'orish shahobchalari va uchta arxeologik yodgorlik joylashgan. Ularning eng qadimgisi G'oztera bo'lib, ilk temir davriga oid. Shu yodgorlikdan ilk temir davriga oid sopollar majmualari va toshdan yasalgan kei topildi. Shu topilmalar asosida G'oz qishlog'ida joylashgan korizlarni ham ilk temir davri bilan davrlash mumkin.

Ahamoniyar davrida Baqtriyada toshdan tegimon tosh, o'g'ir, qayroqlar, munchoqlar yasalgan. Bu borada G'ozdan topilgan o'g'irga alohida to'xtalib o'tishni lozim ko'rdik, negaki bu topilma O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi xususida o'ta yangi ma'lumotlarni beradi. Kei yumshoq tarkibli monolit toshdan yasalgan bo'lib, balandligi 22 sm, eni 20 sm. Kei kosasining chuqurligi 12 sm. Idishning tashqi tarafida 13 ta piktografik belgii yozuvlar majmua joylashgan. Yuqorida Sopoli madaniyati davrida piktografik belgi-yozuvlarning tarqalganligi xususida fikr yuritdik. G'oz qishlog'idan ushbu topilmaning topilishi Baqtriyada piktografik yozuvning rivojlanishi to'g'risida yangi ma'lumotlar berdi. Agar bronza davrida, Sopolitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida piktografik yozuvlar oddiy va alohida bitilgan bo'lsa, G'ozdan topilgan o'g'ir sirtida 13 ta belgining yozuv sifatida birga ifodalanganligini kuzatamiz. Ular toshga o'yib ishlangan, shakl jihatidan ham ancha rivojlangan – oddiy va murakkab shakllarda ifodalangan.

O'g'ir (kei) fors tilida "hovana" deb atalib, Mazdaparastlikda o'tashkodaning eng muhim ashyolaridan biri hisoblangan. Havm g'iyohi hovana yanchilgan va undan havm urf-odatida ishlatiladigan sharbatlar tayyorlangan. Zardushtiylikda bomdodan choshgohacha bo'lgan vaqtda o'qiladigan duolar - nomoz "hovangoh" deb ataladi. Hovana termini yana bir dindorlar guruh, zardushtiylikdagi din peshvolari - "hovnar"lar bilan ham bog'lanadi. Hovnarlar ilohiy Yazishma marosimini o'tkazishda mas'ul kishilar hisoblanib, havm sharbatini tayyorlash ularning zimmasida bo'lgan.

Kelining yasalishi ilk temir davriga oid toshlaroshlik san'atidan guvohlik bersa, vazifasi xususida uning zardushtiylik dinida ilohiylik ma'no kash etishi yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi. Aytmoghimizki, o'g'ir sirtida zardushtiylik marosimlariga oid voqealar ifodalangan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Biz ta'rifiylan kei kelajakda fanda "G'oz topilmasi" deb atalsa ajab emas. Bu topilmada biz piktografik belgilarning piktografik yozuv sifatida rivojlanganligining guvohi bo'ldik.

Nazorat savollari

1. Kishilik jamiyatida piktografik yozuv usuli qanday o'rtinga ega?
2. Sopolitepa, Jarqo'tondan topilgan piktografik belgilar va ularning asosiy xususiyatlari.
3. "Darband tosh kitobi" va uni kimlar o'rgangan?
4. Sherobodagi G'oz qishlog'idan topilgan piktografik belgilar haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. Бокиев А., Шайдуллаев А., Йулдшева З. Окс цивилизацияси. – Т.: Yangi nashr, 2015.
2. Рувелдзэ. Э, Лившиц В. Памятники древней письменности. – Т.: Узбекистан, 1985.
3. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Узбекистон хуудлида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараккиети. – Т.: Янги аср авлоди, 2007.
4. Шайдуллаев Ш. Узбекистон хуудлида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши боскичлари (Бактрия мисолида): тарих. фан. докт. дисс... Самарканд, 2009. – Б. 136-143.
5. Чориев З., Шайдуллаев Ш. Дарбанд тош китоби // Жайхун. – Т., ТерДУ. – 2008. – №2. – Б. 6-13.

3-Мавзу: Марказий Осиё қадимги ёзма ёдгорликлари торилган ҳудудлар

Reja:

1. Bronza davrida tarixiy – madaniy rivojlanish bosqichlari va ularning asosiy jihatlari
2. O'zbekiston hududidan torilgan asosiy madaniy yodgorliklar va ularning ahamiyati
3. Markaziy Osiyodagi ilk yozma yodgorliklar torilgan hududlar

Tayanch ibora va tushunchalar: *Jonbosqal'a, Qo'yqirliqangal'a, Ayozqal'a, Katta va Kichik Qitqir-gal'a, Anqaqal'a, Odamligal'a, Turroqal'a, Evesqal'a, Jonbosqal'a, Qo'yqirliqangal'a, madaniy yodgorliklar, bronza davri, qaytalash suratlari.*

Bronza davrida tarixiy – madaniy rivojlanish bosqichlari va ularning asosiy jihatlari

Mil.avv. III-II ming yilliklarda O'rta Osiyo jamiyatida tarixiy jarayon, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy sohada yuz bergan o'zgarishlarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1. Tarixiy taraqqiyot, ishlab chiqarish yanada taraqqiy etib bordi;
2. Insoniyat tomonidan yangi hududlar o'zlashtirilishi davom etdi;

3. Xo'jalikda mis va toshdan qilingan qurollar ishlatildi;
 4. Sug'orish inshootlari qurildi;
 5. Shu asosda dehqonchilik mahsulotlari insonlar ehtiyojini qondira boshladi;
 6. Aholi soni oshib bordi;
 7. Loy me'morchiligi va qurilish texnikasi bilimlari o'sib bordi;
 8. Me'morchilik, rejalar yaratish va qurilish bilimlari jamiyatda mustahkam o'rin olishi;
 9. Shu bilimlar asosida ibtidoiy mudofaa inshootlari vujudga keldi;
 10. Mudofaa inshootlar, uy qurilishida to'g'ri burchakli xom g'isht ishlatildi;
 11. Qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar vujudga keldi;
 12. O'rtacha Osiyo hududida notekis darajada taraqqiy etgan ikki xo'jalik usuli mavjud edi;
 13. Qo'shni qabilalar bilan iqtisodiy va madaniy sohada o'zaro munosabatlar vujudga keldi;
 14. Markaziy Osiyo mudofaa maktabi shakllandi.
- Bronza davri jamiyatining ravnaqi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning jadalligi bilan rivojlanishi orgali izohlanadi. Shuningdek, bu davrda jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari ham rivojlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu tarixiy davr ilk rivojlangan hamda so'ngi bronza davrlariga bo'linadi. Ushbu davrlar moddiy madaniyat taraqqiyoti darajasining o'ziga xosligi va rivojlanish bosqichlari bilan bir – birlidan farqlanadi. Bu tarixiy davr aholisi turli metallar aralashmasi natijasida hosil bo'ladigan bronza ni kasf etdilar. Bronza – kimyoviy xususiyatlari jihatidan mustahkam va qattiq metall bo'lib, u qadimgi xo'jaliklar taraqqiyoti uchun yuksak ahamiyatga ega bo'ldi.
- Janubiy Turkmaniston yodgorliklaridan topilgan ko'p marta ishlatiladigan mis erituvchi xumdonlar, ma'danlarni maydalaydigan ko'p sonli tosh qurollar hamda metall buyumlarni bog'laydigan qurollarining topilishi ilk bronza davridayoq metall ishlab chiqarishning alohida ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Bu davrda ilk shaharlar paydo bo'lishida muhim omil hisoblangan hunarmandchilikda kulolchilik chaxxining paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ilk bronzaning oxirlariga kelib barcha sopollar kulolchilik chaxxida tayyorlana boshlanib, sopolardagi naqshlar yo'qola boshlaydi. Rivojlangan va so'nggi bronza davriga kelib Kopetdog' tog' oldi tekisliklaridagi hunarmandchilik ishlab chiqarishda kulolchilik sohasi gullab-yashnaydi va sopolalar butunlay kulolchilik chaxxida hech qanday naqshlarsiz ishlab chiqariladi. Ko'pchilik manzilgohlarda kulollar yashab faoliyat ko'rsatganligi aniqlangan.
- Panjkent shahridan 15 km g'arbda o'troq dehqonchilik manzilgohi xarobalari bo'lgan Sarazm yodgorligi joylashgan. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab ushbu yodgorlikda tadqiqotlar olib borilishi natijasida nafaqat yuqori Zarafshon, balki, butun O'rtacha Osiyo hududlarida eneolit – bronza davriga bo'lib o'tgan tarixiy – madaniy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy aloqalar masalalariga davrlashtirish va xronologiya muammolariga ko'pgina aniqliklar kiritildi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Sarazm paydo bo'lgan davrdan boshlab qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Dastlabki bosqichda, ya'ni, Sarazm madaniyati paydo bo'lib shakllanayotgan davrda Janubiy Turkmaniston yodgorliklari hal qiluvchi rol o'ynadi. Sarazm manzilgohining ikkita pastki qatlamlaridan topilgan Nomozog III va Geoksurs I ko'rinishidagi eneolit sopolari va boshqa moddiy madaniyat buyumlari ushbu jarayonni tasdiqlaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkin,ki, Farg'ona vodiysidan to Janubiy Turkmanistongacha bo'lgan (Janubi – sharqiy va Janubi – g'arbiy O'rtacha Osiyo) oralig'idagi hududlardan juda ko'p sonli eneolit va bronza davriga oid yodgorliklar topib o'rganilgan. Tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlariga qarab ushbu yodgorliklar ikki guruhga bo'linadi:

1. O'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari (Janubiy Turkmaniston, Janubiy O'zbekiston, Zarafshon va Farg'ona vodiylari).
2. Bronza davri dastl madaniyati yodgorliklari (To'zabog'yob, Zamonbobo, Mo'minobod, Oqtanga, Qayroqum).

Mil. avv. II mingyillikka kelib Murg'ob daryosi havzasi hamda Amudaryoning o'rtacha oqimi hududlarida yuqori darajada rivojlangan o'troq dehqonchilik madaniyatlari shakllandi. Keyinchalik qadimgi Baqtriya va Marg'yona tarkibiga kirgan bu hududlardan hozirgi kunga qadar 200 dan ziyod bronza davri yodgorliklari topib o'rganilgan. Ular orasida nisbatan yaxshi o'rganilganlari Gonur, Dashi, Kelleli, Sopolitepa, Jarqo'ton, To'g'aloq, Molali kabilar bo'lib, ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya va Marg'yona ushbu davr manzilgohlarini ikkita asosiy guruhga: istehkomli manzilgohlardan va istehkomsiz manzilgohlardan guruhlariga ajratadilar.

Ushbu hududlarda ilk shaharlarning asosi hisoblangan mustahkamlangan qal'alarining paydo bo'lishi harbiy xavf-xatar tug'ilgan payda boshpana vazifasini bajarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, qal'alar qadimgi dehqonlar jamiyatida chuqurlashtirib borayotgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini o'zida aks ettirgan. Qal'alarining ichki hududlari turli uslublarda bunyod etilgan. Misol uchun, Gonur I ning shimoliy qal'asida yakka reja asosida qurilgan katta zal va bir – biriga o'tiladigan qator uylar (anfilada) ochildigan. Qal'aning aylanna yo'lida, qal'a devorining ichki qismida bir-biridan aniq masofada joylashgan to'rtburchak shaklidagi bir tomonli devordan chiqib turgan ustun (pilyastra) joylashgan. V.I.Sarianing fikricha, ushbu qal'ada mahalliy hokimning saroyi joylashgan. Ayrim qal'alar, masalan, To'g'aloq ibodatxona vazifasini bajargan bo'lib, diniy bayramlar kunlarida butun Marg'yona koinlari shu yerga to'planganlar.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar tushirish so'nggi paleolit davriga oid (Ispaniyadagi Altamir g'ori). O'rtacha Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezoit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib, bu san'at yangi asosda rivojlanish bosqichiga o'tadi. Kallamnor, Hisor, ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning namunalari topilgan. O'tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va O'rtacha Osiyoning tog'lik tumanlarida

keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xildir. Bir xillari bo'yog (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa-urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogiffar) keng tarqalgan.

O'lkamizdagi qoyatosh rasmlarining eng nofir namunalari Zarautsoy, Samishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoyni kabilar bo'yib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'yilar, bug'u va jayronlar kabildir. Rasmlar orasida o'q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Maviyud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar, ov, yitqich hayvonlar to'qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.

Respublikamizdagi eng qadimgi rasmlar Zarautsoyda bo'yib (Surxondaryo), bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni, mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga o'g'ir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Undan tashqari, qoyatosh suratlari mazmun va manzaralarining boyligi bilan afzalib turadi va ular keng tarqalgan. Ushbu suratlari ishlanish usulini xilma-xil bo'yib, arxeologik yodgorliklarning bir turi hisoblanadi. Ularning mazmun va manzarasi ma'nosidan kelib chiqib, ibtidoiy yoki qadimgi davr kishilarining xo'jalik hayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo'lga o'rtatish va xonaklashing, chorvachilikni paydo bo'lishi haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ayni paytda qoyatosh rasmlari o'ziga xos san'at asari bo'yib, ular orqali biz ibtidoiy va qadimgi odamlarning san'ati, estetik iste'dodi o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori darajada bo'lganligini bilib olishimiz mumkin.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlardan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgan tufayli O'rta Osiyo dasht va tog' oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy jarayon - kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bu davr manzilgohlarini o'rganib, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan deyish mumkin. Birinchisi - qadimgi qabilalar dehqonchilik uchun qulay yerlarga joylashib yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo'lsalar, ikkinchisi - xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan holda dasht va tog' oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyatini yaratganlar.

Bronza davri O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarishlar sodir bo'yib o'tadi. Urug'chilik tuzumi bu davrda ham davom etdi. Ammo, bu davrda ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'yib bordi. Natijada jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qiladilar. Xotinlar

erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'yadilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'lga o'radi va ona urug'i tuzumi o'rinni ota urug'i (patrinxarxat) tuzumi egallaydi.

O'zbekiston hududidan topilgan asosiy madaniy yodgorliklar va ularning ahamiyati

XX asrning 30-yillari boshlari va o'rta yarida M.E.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditatsiyasi xodimlari Eski Termizning qal'asida qazish ishlari olib borib, mil.avv. III asrga oid ashyolarni olishga muvaffiq bo'yadilar. Shu bilan birga, Kushon davriga oid Ayritomda qazish ishlari olib bordi, natijada noyob ashyolar, ya'ni "arfa chalayotgan ayol" haykali topilgan.

1937-1940-yillarda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditatsiyasi Amudaryoning qurib qolgan o'zani Aqchadaryo havzasidagi tarixiy obidalarini ro'yxatga oldi, arxeologik xaritaga joylashtirdi, Jonbosqal'a, Tuproqal'a yodgorliklarida qazish ishlari olib bordi. Ekspeditatsiya a'zolari 1946-yildan 1991-yilgacha bo'lgan tarixiy davrda Qo'yqirilganqal'a, Ko'zaliqir, Ayozaqal'a 1, 2, 3, Qal'aligir, Quvsoy-2 yodgorliklarida keng miqyosda qazish ishlari olib bordi. Qo'yqirilganqal'a o'zining rejalashtirish, me'moriy inshooti bilan diqqatga sazovor.

S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditatsiyasi xodimlari keng miqyosda tarixiy obidalarini ro'yxatga olishni olib bordi, natijada 400 ga yaqin obidalar topilib, ular antik va o'rta asrlarga o'g'ir. 1967-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining arxeologik guruhini Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati hududida arxeologik qidiruv va qazish ishlari olib bordi. E.Bijonov Ustyurtdagi qadimgi tosh davri manzillarini, V.N.Yagodin Kerdar madaniyati, Xorazm va ko'chmanchilar aloqalari, A.V.Gudkova Tokqal'a, G.Xo'jamiyazov Qo'rg'oshingal'a, Burilqal'a, Akchingul yodgorliklarida, M.Mambetullayev Katqal'a, Tuproqal'a, Voyangan Tuproqal'a (Xiva), Olmaotishgan-2, Xiva, K.Sobirov Katqal'a, Tuproqal'a, Xazorasp yodgorliklarida arxeologik qazish ishlari olib bordilar.

Mil.av. IV - milodiy III asrlarga oid bo'lgan shaharlar ko'chmanchilar bilan chegaralarda, daryo sohililarida, sug'oriladigan vohalarda qurilgan bo'yib, mukammal mudofaa tizimlariga ega.

Amudaryoning o'ng sohilii hududidagi qal'alar: Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayozaqal'a 1, 2, 3, Katta va Kichik Qirgizqal'a, Quilqal'a, Qumbosganqal'a, Dumanganqal'a, Akshaxon, Tuproqal'a, Qizilqal'a, Qo'rg'oshingal'a, Aqchugul, Kuyukqal'a, Gaurqal'a (Sulton Uways tog'i), Tokqal'a, Jildikqal'a, Burgulqal'a, Ellikqal'a, Uyg'al'a, Katta Guldursun, Bozorqal'a, Angkaqal'a, Pilqal'a, Odamligal'a, Doshqal'a-2, Tuproqal'a, Etesqal'a.

Amudaryoning so'l sohilii hududidagi qal'alar: Gurganch, Davkasgan, Shoxsanam, Shexrlik, Yarbekingal'a, Zamaxshar, Ichangal'a, Bo'ydimsoz,

Gaurqal'a (Xo'jayli), Ketmenchi, Tuproqal'a (Xiva), Tuproqal'a (Yangiariq), Tuproqal'a (Kushko'pir), Kunqal'a, Voyangan, Tuproqal'a (Shovot), Kaqal'a (Shovot) Kalajik, Xazorasp, Chingiztepa 1, 2, 3, Xumbuztepa, Tuproqal'a (Qo'ng'iro't), Sadvar, Jig'arband, Elxaros, Dargon, Gaur 1, 2 (Sarqamish havzasi) va boshqalar.

Antik davrda bu shaharlar mustaqil shahar-davlatlar sifatida mavjud bo'lib, harbiy chegara va iqtisodiy madaniy markazlar bo'lgan. Yuqorida qayd etilgan qal'alarni ba'zilarining me'moriy-topografik va mudofaa tizimiga e'tiborni qaratamiz.

Jonbosqal'a – To'rtko'l tumani hududida joylashgan, to'g'ri burchak shaklida (200x170 m, 3,4 ga) to'rt tomonini ikki qatorli devor o'rab olingan. Avval paxsadan keyin esa to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklangan (40x40x10 sm). Devor pastki qismi qalinligi – 5 m, balandligi 5-10 m. Darvoza to'g'ri burchakli bir necha aylanna yo'ldan iborat yo'lakka ega bo'lib, uning kengligi – 5 m. Devor va darvoza devorida kungurular mavjud emas, balki shaxmat ustubida joylashgan nayza o'qi uchi shinaklar mavjud, ular o'rtasidagi oraliq maydoni 1,20-1,84 m, ichki tomonda kengligi 0,18-0,12 sm, tashqi tomonda esa 0,30-0,40 sm. Devorlar burchagida uchta shinak joylashgan bo'lib, turli tomonga yo'nalib, kungur vazifasini bajaragan.

Qo'yqirigangal'a – To'rtko'l tumani hududida joylashib, aylana shaklida qurilgan, hajmi 86,5 m mudofaa devor bilan o'rab olinib, 9 ta kungur bilan mustahkanlangan. Kungurilar yon tomonga emas, devordan ancha baland qilib qurilgan. Yodgorlik markaziy qismida silindr shaklida (hajmi 42 m) ikki qavatli inshoot qurilgan. Yodgorlikda astronomik kuzatishlar olib borilgan, keyingi tarixiy davrda qabristonga aylangan (loydan yasalgan ossariyalar ko'plab topilgan).

Tuproqal'a – Ellikqal'a tumani hududida joylashgan, to'g'ri burchak shaklida, umumiy maydoni – 17 ga. Tuproqal'a yodgorligining qurilishi tarixi masalasida turli fikrlar mavjud. Tuproqal'ada eng qadimiy madaniy qatlamlarga tadqiqot ishlari olib borilgan emas, shuning uchun ham uning qurilish xronologiyasi munozarali bo'lib qolmoqda. Bizningcha yodgorlik mil.av. IV asrda qurilgan bo'lsa kerak. Vazamar davrida Tuproqal'a Xorazmshohlarning yozgi qarorgohi, poytaxt esa Akshaxon qal'asi bo'lgan. Shahar darvozasi janub tomonda joylashib, to'g'ri burchakli labirint bilan mustahkanlangan, kungurga ega emas. Darvozadan qarshi tomonda kengligi 10 m ko'cha o'tgan bo'lib, ichki qismini ikki mahalaga ajratgan uy-joylar zich joylashgan. Shaharning shimoliy-g'arbiy qismida saroy joylashgan, uchta kungur bilan mustahkanlangan. Saroyning maydoni 6,5 ming m². Saroyda bir necha "Katta zallar" ochilgan bo'lib, ularning devorlarida turli haykal tasvirlari tushirilgan, topilgan ashyolarga qarab uy xonalari "Podsho zali", "Askar zali", "Bug'u zali" nomini olgan. Saroy xonalaridagi katta ahamiyatga ega bo'lgan ashyolardan biri teri va yog'och taxtacha'larga yozilgan 120 ga yaqin podsholik arxiv hujjatlari olinganligidir.

Ichangal'a to'g'ri burchak shaklida, umumiy maydoni 26 ga. Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan o'rab olingan, devor o'z navbatida aylana shakldagi kunguralar bilan o'rab olingan, ular o'rtasidagi oraliq – 30 m.

Shaharning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish maqsadida M.Mambetullayev shaharning bir necha joyida tadqiqot ishtarini olib bordi, natijada 10 ta qurilish davri mavjudligi aniqlandi.

Mudofaa devorining yetti joyida kesish ishlari olib borilib, natijada devor qurilishi tarixi oydinlashdi. I qurilish davrida ikki qatorli devor paxsadan qurilib, uning balandligi – 0,85 m, yo'lak kengligi – 2,50 m. Bu qurilish davri miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid. II qurilish davrida paxsa devor ustiga xom g'ishtli devor tiklangan, hajmi (40x40x10 sm, 41x41x12 sm) yo'lak kengligida o'zgarish sezilmaydi, qo'sh devor ko'tarilishi davom etadi, tashqi tomondan qo'shimcha devor qurilishi olib borilgan, natijada devor qalinligi 7 m bo'lgan (mil.av. IV-III asrlarga oid).

III qurilish davri – Xivada madaniy hayot yuksaladi, g'arbiy devor markazida ark qad ko'taradi, bu rivojlanish miqdori IV asrgacha davom etadi. Tashqi tomondan devorga qo'shimcha devor qurilishi davom etib, uning qalinligi 9 metr ga etadi. Tashqi devordagi kungurda ham ta'mir ishlari olib borilgan, natijada to'g'ri burchakli kungur aylana shakliga aylanib qolgan. Demak, antik davrda Ichangal'a savdo hunarmandchilik markazi bo'lishi bilan birga harbiy chegara vazifasini ham bajaragan.

Hazorasp – Xorazm vohasining janubiy darvozasi bo'lib, eng qadimiy shaharlardan biridir. Yodgorlik tekislikka qurilgan, uning rejalashtirilishi to'rt tomoni teng (10,8 ga), qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, ular o'rtasida kengligi 2,10 m bo'lgan yo'lak o'tgan. Shaharning janubiy-sharqiy burchagida ark joylashgan (hajmi 40x40 m). Yodgorlikning qurilish tarixi to'g'risida yagona ilmiy fikr hanzugacha mavjud emas, bunga arxeologik qazish ishtarining eng qadimiy madaniy qatlamlarga olib borilmaganligidir. 1958-1960-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari, 1997, 2000, 2003-yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasining arxeologiya guruhi xodimlari Hazoraspning bir necha joyida tadqiqotlar olib borilgan, afsuski bu tadqiqotlar tugallanmay qolib ketgan.

Devor va kungurular saqlanib qolgan, balandligi turlicha, ya'ni 5-14 m. Janubiy devor mahalliy aholi tomonidan buzib tashlangan, bu devorda bitta kungur saqlanib qolgan, g'arbiy, shimoliy va sharqiy devorlarda kungurular yaxshi saqlangan, ular o'rtasida oraliq 10-55 m. Shimoliy-g'arbiy qismi ichki qismidan eng qadimgi paxsa devor topildi, unda to'g'ri burchakli kungur mavjud. Qal'aning masjid qismida, shimoliy-g'arbiy, g'arbiy qismida mudofaa devorini kesish ishlari olib bordi. Natijada shaharning qurilish tarixini mil.av. VII asr bilan belgilash imkonini berdi. Tadqiqotchilari Q.Sobirov Bo'ston shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro Simpoziumda qilgan ma'ruzasida Hazorasp yoshini miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oidligini qayd etgan edi. Xullas Hazorasp qal'asida keng miqdorda

tejlilmaydigan yer qatlamligacha arxeologik tadqiqotni olib borish zarur, bu albatta kelajakka oid masaladir.

Katqal'a (Shovot) – Shovot tumanidagi Beruniy nomli shirkat xo'jaligi Kat qishlog'i hududida joylashgan, rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'ri burchak, umumiy hajmi 10,8 ga, qadimda ikki qatori devor o'rab olgan bo'lib, ular o'z navbatida yanin aylanalik kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi oraliq 27 m. Yodgorlik mil.av. IV asrda qurilgan.

Akshaxon – Beruniy tumanidagi "Ozod" fermer xo'jaligidagi qumliklar o'rtasida tekislikda qurilgan. Rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklda, umumiy maydoni – 45 ga, qadimda ikki qatori devor o'rab olgan, kengligi – 6 m. Devor bo'ylab to'g'ri burchakli kungurlar, burchak qismida esa to'rt tomoni teng kungurlar joylashgan. Shimoli-g'arbiy burchakda ark joylashgan, to'g'ri burchak shaklda (380x340 m). Darvoza janubi-sharqiy va janubiy-g'arbiy devorda joylashgan, labirint bilan mustahkamlangan. Yodgorlikning tashqi devori va kunguri o'rganildi. Yodgorlik mil.av. IV – milodiy III asrlarda Xorazmning poytaxti bo'lgan (podsho Farazman 1500 oltiq askar bilan Baqtr shahriga A.Makedonskiy huzuriga shu shahardan ketgan bo'lishi shubhasiz). Yodgorlik Qoragalpog'iston va Avstraliya olimlari tomonidan uzluksiz ravishda tekshirilmoqda.

Buxoro viloyati hududida R.Sulaymonov rahbarligida, Buxoro shahrining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish maqsadida A.R.Muxammadjonov rahbarligidagi arxeologik guruhlar tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Romish-I, II, III, Setalak, Buxoro keng miyosda o'rganildi.

Buxoro – Zarafshonning Rudizar va Zarirud ismi ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan, alohida-alohida qishloqlar asosida paydo bo'lgan. Shaharning yetti joyida keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan, undagi madaniy qatlam 20 metrdan oshiq. Devor avval paxsadan, keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan, to'g'ri burchakli kungurga ega. Shahar uch qismdan iborat, ya'ni ark, shahriston va shahar atrofidan iborat bo'lib, turli tarixiy davrda shakllangan. Shu bilan birga, Kozimontepa, Chordira, Qo'shrabod, Arabop-1, Arabop-2, Varaxshaning quyi qatlami, Xo'jabo'ston, Beshitepa yodgorliklari o'rganildi.

S.K.Kabanov, R.Sulaymonov rahbarligidagi arxeologik guruhlar Yergo'g'onda, Toshkent Davlat Milliy universiteti arxeologiya guruhi Keshda, M.To'rabekov rahbarligidagi guruh Qarshi shahrida arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Shu yodgorliklardan Yergo'g'onda keng miyosda arxeologik qazish ishlari olib borildi. Yergo'g'on – Nautaka viloyatining makazi bo'lgan (A.Makedonskiy shu shaharda to'xtagan degan taxminlar bor). Rejalashtirilishi aylana shaklda, umumiy maydoni – 70 ga. Antik davrga oid qal'a devori, ark devori va ibodatxona o'rganildi. Shu bilan birga, Qal'ai-Zaxoki Maron, Tillaitepa, Kasanitepa yodgorliklari ham o'rganilgan.

Y.G'.G'ulomov rahbarligidagi Afrosiyob ekspeditsiyasi Afrosiyobda keng miyosda arxeologik tadqiqotlarni olib bordi. Shaharning mudofaa devori va ichki

qismida qadimiy madaniy qatlam o'rganildi, natijada yodgorlikning qurilishi mil.av. 2500-yilga oidligi aniqlandi. Bu yodgorlikda O'zbekiston-Germaniya, O'zbekiston-Fransiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari faoliyat olib bormoqdalar. R.Sulaymonov rahbarligidagi arxeologik guruh Ko'krepada arxeologik qazish ishlarini olib borib, qadimiy shahar ekanligini aniqladi. Shaharning hajmi 100 ga, ark, ibodatxona, uy, mahallalar o'rganilgan.

Farg'ona vodiysida Yu.A.Zadneprovskiy, G.Abul'oziyeva, A.Anotbayev, B.Matlabayev, N.G.Gorbunova rahbarligidagi arxeologik guruhlar tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlarini olib bordilar.

Antik davrga oid 20 ga yaqin yodgorlik qayd etilgan, Xitoy yozma manbalaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Farg'ona vodiysida 70 dan ortiq shaharlar bo'lgan.

Eylatan – rejalashtirilishi to'g'ri bo'lgan shaklda, ikki qatori devor bilan o'rab olingan, umumiy maydoni – 200 ga. Ark mil.av IV – III asrlarga oid.

Mingitepa – rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklda, umumiy maydoni – 40 ga. Mingitepa yoki Marhamat shahri ikki qatori devor bilan o'rab olingan, devor o'z navbatida to'rt burchakli kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi oraliq 30 – 40 m. Shaharni Ershiga o'xshatishadi.

Ko'rganitepa – rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklda (250x230 m), 5,7 ga, qadimda devor bilan o'rab olingan.

Axsikent-1A, Axsikent 1B – rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklda, umumiy maydoni 35 ga, mil.av. III – II asrlarga oid, qalinligi 5 m devor bilan o'rab olingan.

Ershi – shaharning joylashish o'rni mulohazali. N.Ya.Bichurin Ershini Qo'yon shahri o'rnida, A.N.Bernshtam esa Mingitepa yodgorligida degan fikrini bildiradilar. Yangi ma'lumotlarga qaraganda, Ershi – Eski Axxi degan fikrlar paydo bo'ldi. Mil.av. III–I asrlarda Ershi Axxi o'rnida bo'lgan shahar 40 ga bo'lib, ark ikki qismdan iborat bo'lgan Esgarik devor bilan o'rab olingan, qalinligi – 5 m, bo'lanligi – 3 m.

Quva (Kubo) – hozirgi Quva shahri markazida tepalik mavjud bo'lib, mahalliy aholi o'rtasida «Shahriston» nomi bilan ma'lum. Yodgorlikni B.A.Latimov, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.Axorov, Yu.A.Zadneprovskiy, B.Matlabayevlar arxeologik jihatdan o'rganadilar. Yodgorlikni 1956-yildan Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi arxeologik guruh o'rganishni boshlagan. Yodgorlikning qurilishi milodiy I – III asrlarga oid bo'lib, paxsa devor bilan o'rab olingan. Tadqiqotchilari B.Matlabayev shaharning dastlabki qurilish davrini mil.av. V asrga oid ekanligini to'g'risida xulosalar chiqargan.

Eski Termiz – 1936–1938-yillarda M.E.Masson rahbarligida Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi shaharni arxeologik jihatdan o'rganish ishini olib bordi. U «qal'a» qismida qazish ishlarini olib bordi va shaharning yoshini mil.av. III asr bilan aniqladi. 1981-yildan Arxeologiya institutining arxeologiya guruhi arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Sh.Raxmanov 1993-yildan Eski Termiz mudofaa devori qurilishi tarixini o'rganishni boshladi. Keyingi yillarda

O'zbekiston-Yaponiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari (rahbari Sh.Pidayev) Eski Termizda arxeologik qazish ishlarini olib bormoqda, olingan natijalar shaharning qurilish davri mil.av. V asrga oid ekanligini isbotladilar.

Dalvarintepa — Sho'rtchi tumani hududida joylashgan, to'g'ri burchak shaklda, umumiy maydoni — 30 ga, qadimda to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan, devor o'z navbatida to'g'ri burchakli kungurilar bilan o'rab olingan, ular orasidagi maydon 27–30 m. Yodgorlik 1967-yil L.I.Albaum tomonidan topilib, 1970-yildan boshlab G.A.Pugachenkova rahbarligidagi Hamza nomi san'atshunoslik institutining arxeologik guruh yodgorlikda tekshirish ishlarini boshlab yubordi. 1971-yilda Dalvarintepa uy xonalarning birida kichik tuvakchada oltindan yasalgan 115 ta ashyolar topilgan. Ular xotin-qizlarning bezaklari, ya'ni bilaguzuklar, baldog, tumor, turli shakldagi buyumlardan iborat bo'lgan. Yodgorlikda B.A.Turg'unov rahbarligida O'zbekiston-Yaponiya ekspeditsiyasi xodimlari qazish ishlarini olib bormoqda.

Zartepa — Surxondaryo viloyati Angor tumani hududida Sherobod-Termiz yo'lining o'ng tomonida 200 m uzoqlikda joylashgan. Rejalashtirilishi to'rt tomoni teng, umumiy maydoni — 16 ga. To'rt tomoni ikki qatori devor bilan o'rab olingan bo'lib, yarim aylanalik kungurilar bilan kuchaytirilgan, ular o'tasidagi masofa — 34 m. 1972–1974-yillarda Q.Sobirov rahbarligidagi guruh Zartepaning mudofaa tizimini o'rganish ishlarini olib bori, 4 ga qurilish davridan iborat ekanligini aniqladi. Shaharning markazida saroy, sharqiy qismi devorining ichki qismida budda ibodatxonasi qoldig'i o'rganildi. Shaharning qurilishi mil.av. I asrda, uning inqirozi esa milodiy IV asrga oid bo'lgan.

Qorateda — Eski Termiz hududida joylashgan, 1972-yildan B.Ya.Stavitskiy rahbarligidagi Moskva san'atshunoslik muzeyi arxeologik guruh yodgorlikda qazish ishlarini olib bori, natijada budda ibodatxonasi topib o'rganildi.

Fayoztepa — Eski Termiz hududida joylashgan. L.I.Albaum rahbarligida arxeologik guruh yodgorlikda qazish ishlarini olib bori. Natijada budda haykallari, buddistlar to'planadigan joy o'rganildi. Bu yodgorliklardagi O'zbekiston-Yaponiya davlatlari birlashgan arxeologik guruh qazish ishlarini olib bormoqda, topilgan ashyolar bir necha mara Yaponiyadagi ko'rgazmada namoyish qilingan. E.Riveldze tomonidan Surxondaryo viloyati bo'yab arxeologik qidiruv ishlari olib borilib, 130 dan ortiq yodgorliklar viloyat arxeologik xaritasiga qayd etilgan, ularning aksariyati antik davrga oid bo'lgan. Shu bilan birga, Xolchayon, Xaydarobod, Mirzako'tepa, Oysaritepa kabi qishloq manzillari arxeologik jihatdan o'rganilgan. G.A.Pugachenkova Xolchayon yodgorligida qazish ishlarini olib bori, hukmdor saroyini o'rgandi, bu yerdan suvoriylar, insonlar haykallari topilgan.

Toshkent viloyati hududidagi tarixiy obidalarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya institutining Yu.F.Buryakov, M.I.Filanovich, K.Abdullayev, X.Duke rahbarligidagi arxeologik guruhlar qazish ishlarini olib bordilar, natijada antik davrga oid ashyolar olindi.

Shoshtepa — Salar kanali sohilda joylashgan, to'g'ri burchak shaklda 300x150 m, 4,5 ga. 1978–1979-yilda yodgorlikning janubi-sharqiy qismida joylashgan arka qazish ishlari olib borildi, natijada III qurilish davri aniqlandi. Arxeologik ashyolarga qarab Shoshtepaning xronologik davri aniqlandi.

1. Shoshtepa I — (mil.av. V–IV asrlar)
2. Shoshtepa II — (mil.av. III–II asr boshlari)
3. Shoshtepa III — (mil.av. II–I asrlar)

Kanka — Ohangaron daryosi sohilda balandlikka to'g'ri bo'lmagan to'g'ri burchak shaklda qurilgan, umumiy maydoni 150 ga. Qadimda devor bilan o'rab olingan. Shimol tomon burchagida ark joylashgan. Devor avval paxsadan, keyin nom g'ishtdan tiklangan. Devorda aylana shaklda kungurilar mavjud, uning hajmi 9 m.

Kavardan — noto'g'ri to'g'ri burchak shaklda, umumiy maydoni — 75 ga. Qadimda ikki qatori devor bilan o'rab olingan. Aylana shakldagi arka ega. Shindaryo va Jizzax viloyatlarida antik davr yodgorliklari juda kam o'rganilgan. Jizzax hududida Zomin shahari to'g'risida kam ma'lumotlar bor.

Markaziy Osiyodagi ilk yozma yodgorliklar topilgan hududlar

Bronza davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida piktografik belgi, piktografik yozuv usullari keng tarqalgan. Tan olib ayish lozimki, bular ibtidoiy yozuvning ko'rinishlari bo'lib, shu tipdagi yozuv juda ko'plab o'qilishsiz davrasiga chiqqolmagan qadimgi xalqlarda ham bo'lgan.

O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi xususida Sopolli madaniyati yodgorliklaridan yangi ma'lumotlar topildi. Sopolli madaniyati — so'ngi bronza davriga oid, hozirgi Janubiy O'zbekiston va Janubiy Tojikiston hududlarida istiqomat qilgan aholi qoldirgan qadimgi madaniyat ildizlari. Sopolli tepa va Jarqo'ton yodgorliklari akademik A.A.Asqarov tomonidan fanga kiritilgan. Professor T.Shirnovning tadqiqotlariga ko'ra Sopolli madaniyati aholi Vatanimiz hududida eng birinchi bo'lib ilk shahar madaniyatiga asos solgan. Ma'lumki, Sopolli tepa sopolari bitilgan belgilarni A.A.Asqarov jumlab chop qilgan, lekin bu belgilarning yozuv ekanligi xususida mutallif fikr bildirmaydi. Bu belgilar asosan xum, ko'za kabi idishlarning eng ko'rinadigan joylarida bitilgan. Bu belgilar sopol idishlar yasalgandan so'ng, loylik paytida chizilgan, shundan so'ng idishlar angoblangan va pishirilgan. Piktografik yozuvlar deb e'tirof etilayotgan ushbu belgilarni Sopolli madaniyatining xronologik davri asosida yoritishni metodik jihatdan to'g'ri deb hisoblaymiz, negaki idishlarda ifodalangan belgilar soni va shakllining o'zib yoki kamayib borayotganligini kuzatish ham muhim ilmiy jarayon hisoblanadi.

1969–1973-yillar mobaynida Sopolli tepa yodgorligi to'liq qazib o'rganilgan va 29 ta belgi chizilgan idishlar topilgan. Ularni akademik A.A.Asqarov shakllariga qarab 8 ta guruhga ajratgan. Birinchi guruh belgilar yarim oy shaklida bo'lib, shu singari 4 ta belgi topilgan. Ikkinchi guruh belgilar tortilgan kamon shaklida bo'lib, shu belgi markaziga perpendikulyar to'g'ri chiziq tortilgan.

Sopollitepadan xuddi shunday 5 ta shakl-belgi topilganligi qayd etilgan. Uchinchi guruh belgilar parallel ikki chiziqdan iborat bo'lib, ularning topilgan soni 6 ta. Faqat bitisasi, ya'ni parallel ikkita chiziqni makazidan birlashtiruvchi uchinchi to'g'ri chiziq chizilgan, natijada "N" harfi ko'rinishidagi belgi hosil bo'lgan. To'rtinchi guruh belgilar Xoch shaklida bo'lib, hammasi bo'lib to'rtta shunday belgi topilgan. Beshinchi guruh belgi bita idishda ifodalangan bo'lib, ikkita aylanani birlashtiruvchi to'g'ri chiziqdan iborat. Ushbu belgini "arava" ko'rinishi deb talqin qilish mumkin, chunki O'rtta Osiyo qoya tosh suratlarida arava xuddi shu ko'rinishda tasvirlangan. Oltinchi guruh belgilar shakl jihatidan birinchi guruh, ya'ni yarim oy ko'rinishidagi belgilarga o'xshaydi, lekin nihoyatda ko'p buklilgan holatda tasvirlangan (4 ta). Yetinchi guruh belgilar "A" harfini eslatuvchi belgi bo'lib, uchta xuddi shunday belgi topilgan. Sakkinchi guruh belgilar ilon shaklini eslatuvchi belgilar bo'lib, ikkita belgida ilon tasviriga monand belgi ifodalangan.

Sopollarda ifodalangan ushbu belgilarning qanday fikrni ifodalaganligini hozircha aniq aytilish qiyin, bu borada tadqiqotchilarning yagona bir fikrga kelishlari ham mushkul ish. Hozircha bu borada to'xtalmaylikda, belgilarning vazifasi xususida, ya'ni ular ilk yozuvni yoki boshqa vazifani bajaradimi? - degan savolga yechim topaylik. Bu borada uchta fikrni bildirish mumkin. Birinchi fikr shundan iboratki, bu belgilarni kulollarning usta belgisi deb aytilish mumkin. Ammo, bu fikrga qarshi talaygina dalillar mavjud. Bu dalillar shundan iboratki, mavjud belgilar ma'lum bir shaklli idishlarda chizilgan, xolos (Xun, ko'za, qanoq-podstavka). Sopoli madaniyatiga eng ko'p xarakterli bo'lgan vaza, qadah, banka singari idishlarning birortasida belgilar uchramaydi. Yana shuni aytib o'tish joizki juda kam sonli idishlarda belgilar chizilgan. Sopollitepa yodgorligining to'liq qazib ochildirilishi va minglab sopol idishlar topilganligi va faqat 29 ta belgi chizilgan idishning uchirashi kulollarning yasagan idishlariga belgi qo'yish odat bo'lmaganligidan dalolat beradi. Bu belgilarning kulol belgisi emasligiga yana bir dalil - xuddi shu shakldagi belgilarning tarqalish geografyasi juda keng, ya'ni Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afg'oniston, Markaziy Eron, Hindiston hududlari bronza davri yodgorliklarida ham xuddi shunday belgilar sopollarda chizilganligi kuzatilgan. Sopollitepadan topilgan munchiq-tumorlarda ham xuddi shu shakllarda chizilgan belgilarning topilishi bu belgilarning kulollarning usta belgilar emasligini tasdiqlovchi manbalardir. Ushbu belgilarning vazifasi xususida gap kelganda patriarxal oilalarning totem belgisi degan ikkinchi fikrni ham aytish mumkin. Bu fikrga xizmat qiladigan qanday dalillarni keltirish mumkin? Ma'lumki, Sopollitepa yodgorligida 8 ta mahalla joylashganligi kuzatilgan. Yuqorida eslab o'tganimizdek, A.A. Asqarov topilgan jami 29 ta belgini shakllariga qarab 8 ta tipga ajratgan. Demak, har bir jamoaning o'z totem-belgisi bo'lgan degan tushunchani aytish mumkin. Bundan tashqari tumorlarda ushbu belgilarning uchirashi ham totem-belgi ekanligini ko'rsatuvchi dalil deb hisoblash mumkin, lekin bu fikrga qarshi bir dalil

horki, ya'ni, xuddi shunday belgilar bronza davriga oid juda ko'plab ilk shahar sopollarda uchirashi Sopollitepa patriarxal oilalarining totem belgisi degan fikrga qarshi dalillardir.

Sopollarda chizilgan ushbu belgilarni albatta piktografik yozuv deb atash haqiqatga yaqin. Negaki, Qadimgi Sharq tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak yozuvlar, ya'ni harfi yozuvlarning paydo bo'lishiga qadar bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Yuqorida eslab o'tganimizdek eng qadimgi yozuvlar rasm ko'rinishida bo'lib, insonlar o'z fikrini har xil rasm va belgilar yordamida ifodalagan. Sopollitepa va Jarqo'ton sopollarida uchraydigan belgilarni xuddi shunday yozuv usuli deb atash mumkin. Bu fikrni quyidagi arxeologik dalillar yordamida isbotlash mumkin. Birinchidan ular nihoyatda kam uchraydi, ikkinchidan ushbu tasvirlarning tarqalish geografyasi ancha keng, ya'ni sopoli madaniyatiga turdosh bo'lgan Qadimgi Sharq ilk shahar madaniyatlari tarqalgan hududlarga hos bo'lgan odat. Agar, kulollarning usta belgisi deyilganda, har bir yodgorlikda ushbu belgilarning o'ziga xoslik an'analari saqlangan bo'lishi lozim edi. Sopollitepa patriarxal oilalarining totem belgisi deb atalsa tarqalish geografyasi bunchalik keng bo'lmasiligi lozim edi. Har bir yodgorliklarga oid patriarxal oilalarning boshqa joylarda uchramaydigan o'ziga xos belgilari bo'lishi lozim. Demak, Sopollitepa kulochiligidagi uchraydigan bu belgilarni piktografik yozuv deb atash haqiqatga yaqin va bu belgilarning rivojlanish bosqichini Jarqo'ton yodgorligi sopollarida uchraydigan belgi-yozuv asosida kuzatishimiz mumkin.

Jarqo'ton davriga kelib sopollarda ifodalangan piktografik belgi-yozuvlarning takomillashganligini kuzatish mumkin. Bu davrda ham piktografik belgi Sopoli davridagi singari ma'lum bir sopol idishlarda, ya'ni xumlar, ko'zalar va qasqonlarda(podstavka) uchraydi.

Bugungi kungacha Jarqo'ton davriga oid sopollarda 46 xil belgi-yozuv bitilganligi aniqlandi. Ayrim belgilar sopollarda 2-3 marta uchrasa, juda ko'p belgilar bir marta chizilgan va shaklan boshqa qaytarilmaydi. Sopoli davridagi belgilar singari Jarqo'ton davri piktografik belgi yozuvlarini shakliga qarab guruhlariga ajratishning iloji bo'lmadi, negaki ular shaklan turlicha va takrorlanmasdir. Sopoli davrida bita belgi doimo alohida ifodalangan bo'lsa, Jarqo'ton davriga kelib, har xil shakllarning birga ifodalanishi kuzatildi. Piktografik shakllarning birga ifodalanishi yozuvning davr jihatidan takomillashuvi jarayonini ko'rsatuvchi alomatdir. Jarqo'ton davri piktografik belgi-yozuvlari orasida xoch eng ko'p uchraydigan belgi hisoblanadi. Hoch natijati sopollarda balki, Sopollitepa va Jarqo'ton tumor va muntarida ham keng tarqalgan.

Sopoli davri piktografik belgi-yozuvlarida hoch doimo alohida uchrasa, Jarqo'ton davriga kelib xoch uchirashi bilan birga, yarim oy shakli ichida, oylana shakli ichida uchirashi bilan birgalikda xochga qo'shimcha chiziqqlarning chizilishi ham xarakterlidir. Bu jarayon xoch belgisidan piktografik yozuv sifatida foydalanishda keng qo'llanilganligidan darak beradi. Qadimgi Sharq ilk

shaharlarning iqtisodiy asosi asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Shunday ekan, o'rnich yordamida yerni haydashni ifodalash piktografik belgi-yozuvda ifodalanishi kutilgan syujetlardan biri hisoblanadi. Xuddi shunday ifoda Jarqo'ton piktografik belgilarida ham kuzatiladi. Bu belgilarning haqiqatdan ham o'rnich ekanligini Mistr piktografiyasida ifodalangan o'rnich tasvirlardan bilish ham bo'ladir.

Ma'lumki, bronza davrida ilk mexanikaga asos solingan. Kulolchilik charxining, aravaning kashf etilishi bunga misol bo'ladi. Shunday ekan, arava ilk aylama mexanizmining ham piktografik belgilarida ifodalanishi kutilgan hol deb o'ylaymiz va Jarqo'ton sopollarida uchraydigan aylana va aylana ichida chizilgan, o'zaro markazda kesishuvchi chiziqlarni arava g'ildiragi deb hisoblash mumkin Jarqo'ton qabrlarida bronza davridan yasalgan "narvon" nusxasining uchirashi juda ko'p marotaba kuzatilgan. Tadqiqotchilar "narvon" nusxasining uchirash uchirashini narigi dunyoga o'tish yoki animistik tushunchalar bilan bog'laydilar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Eronda joylashgan Shahdod yodgorligi piktografik yozuvlari orasida ham "narvon" tasviri tushirilgan ifodali yozuvning uchirashi O'rta Osiyo va Eron piktografik yozuvlaridagi parallelizmlar xususida gapirishga imkon yaratadi.

Umuman Shaxdod yodgorligi sopollarida piktografik belgi-yozuvning ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. U yerda 333 ta belgi alohida ifodalanganligi, 273 ta piktografik yozuvda esa belgilarning uyg'unlashganligini - bir joyda yozilganligini aytib o'tish lozim. Shahdod yodgorligidan topilgan, sopollarda bitilgan belgilar professor Ali Hakim tomonidan piktografik yozuv sifatida e'tirof etilgan. Xarappa madaniyatida ham piktografik yozuvlar aniqlangan va S. Langdon va E. Makkeylar tomonidan o'rganilgan. Ularning fikricha, Hind brahma yozuvi aynan mana shu piktografik belgi-yozuvlar asosida vujudga kelgan. Biz Jarqo'ton piktografik yozuvlarini biron bir alfavitga asos bo'lgan degan fikrdan yiroqimiz, negaki bu belgilarning rivojlanish bosqichlarini hozircha ashyoviy manbalar asosida kuzatishning iloji yo'q. Sopoli madaniyatining so'nggi - ko'zali, mo'lai bosqichlari sopollarida birorta ham belgi chizilmagan. Bu holat Sopoli madaniyati piktografik yozuv usulining unutilganligidan, davriy jihatdan rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Sopoli madaniyati piktografik belgi-yozuvlarining Janubiy Turkmaniston, Markaziy Eron, Xarappa madaniyatlarida tarqalgan piktografik yozuvlar bilan bir xilliligi yoki o'xshashligi o'sha xalqlar bilan juda yaqin madaniy aloqada bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo hududlarida yozuv yaqin kunlarga qadar mil.av. V-IV asrlarda paydo bo'lgan deb kelinar edi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar boshqacharoq xulosalar bermogda. Xususan, 2000-yilda Janubiy Turkmanistondagi Gonurtepa ko'ha shahrida ochildigan qabrlarning biridan mil.av. III ming yillikka oid o'yama sopol muhr topildi. Unda mixxat yozuvlar bor edi. Janubiy Turkmaniston qadimiyatining bilimdoni V. Sarianidi va amerikalik mutaxassis T. Shartlaxlarning fikricha, bu xildagi muhrilar faqat podsho atrofidagi, podsho saroyiga yaqin

shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin. Mesopotamiyadagi Sargon muhrlarini (mil.av. 2250-2200 yy.) eslatuvchi Gonurtepa muhri mahalliy xom ashyodan tayyorlangan bo'lib, undagi mixxat yozuvlar "Lukaks xo'jalik va qullar hukmdori", deb o'qildi. Ushbu yozuv bu yerda bronza davridayoq yakka hukmdor boshqaruvi va Mesopotamiya bilan o'zaro aloqalardan dalolat beradi.

Shuningdek, so'nggi arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning janubidan ham piktografik belgi-yozuvlar topilgan. Tadqiqotchi Sh. Shaydullayevning fikricha, Jarqo'ton yodgorligidan sopollarga bitilgan 47 ta belgidan iborat yozuvning topilishi ajdodlarimizning bronza davrida piktografik yozuvni yaratgani va o'z fikrini turli belgilarda ifodalaganini ko'rsatadi. Shuningdek, Sherobodagi G'oz qishlog'i yonidagi ilk temir asriga oid yodgorlikdan tosh og'ir (keli) topilgan bo'lib, uning sirtida umumiy soni 14 ta bo'lgan piktografik belgi-yozuv mavjud. Sh. Shaydullayev bu belgini Mistr lyeroglifikasi bilan solishtirib ulardan biri "baqiqat", yana biri esa dunyoning aylanishi, ya'ni, "charxpalak" deb o'qilishi mumkinligini taxmin qiladi. Xullas, bronza davri va uning oxirlariga kelib o'lkamiz hududlarida yozuv paydo bo'lganligi ilmiy asoslanmagan hamda keyingi tadqiqotlar bu masalaga yanada oydinlik kiritishi shubhasizdir. Hozirgi zamon tarixshunoslik fani xulosalari bo'yicha O'rta Osiyo mintaqasi ilk yozuv shakllangan hududlar sirasiga kirmaydi. O'rta Osiyoga yozuv Ahamoniylar tomonidan olib kelingan (oromiy yozuvi). Haqiqatan ham hozirgi kungacha yozma va arxeologik manbalar bu fikrni inkor qilishga imkon bermay keldi. Qadimgi Xorazmda joylashgan katta Oybo'yirg'ala yodgorligidan topilgan, mil. av. VI-V asrlarga oid xumda bitilgan qisqa oromiy yozuvi eng qadimgi yozuv hisoblanadi.

Bu an'anaviy tarix bo'yicha darsliklarda uchraydigan gaplar. Ammo Z. Choroyev va Sh. Shaydullayev muallifligida yozilgan O'zbekiston hududida yozuvning paydo bo'lishi haqida ayrim mulohazalar nomi maqola (*Layxun-Termiz Davlat universiteti xabarlari jurnali*ning 2005-yil 2-sonida bosmadan chiqqan) bu borada o'zgararoq fikr bildiradilar. Maqolada aytilishicha, Sopollitepa va Jarqo'ton manzillarida topilgan so'nggi arxeologik topilmalar ushbu hududda yozuv bronza davrida (mil.av. 2,5 ming yil oldin) mavjud bo'lganligi haqida mulohaza bildirishga imkon bildiradi. Ushbu piktografik belgilar keyinchalik yo'qolib ketgan degan taxminlar bor. Ularni tarixchilar jamiyati oldida isbotlash uchun qator tadqiqotlar o'tkazish va bularning aynan totem belgilari emas, balki aynan yozuv belgilari ekanligini isbotlovchi qo'shimcha dalillar topish zarur.

Nazorat savollari

1. Bronza davrida tarixiy - madaniy rivojlanish bosqichlari va ularning asosiy jihatlari nimada edi?
2. O'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari joylashuvi o'rni aniq.
3. Sopollitepa, Jarqo'tondan topilgan piktografik belgilar va ularning asosiy xususiyatlari.

4. Sherobodagi G'oz qishlog'idan topilgan piktografik belgilar haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, – 1993.
2. Аскаров А. Древнеэземецкая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. – Т.: Фан, 1977.
3. Аскаров А. Сагалитена. – Т.: Фан, 1973.
4. Аскаров А. Энг-кадимий шахар. – Т., 2001.
5. Бокиев А., Шайдуллаев А., Иудилова З. Оке цивилизацияси. – Т.: Улғи nashr, 2015.
6. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдулмев Е.В. Кадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан намуналар. – Т.: Адолат, 2001.
7. Шайдуллаев Ш. Сополи маданиятининг пиктографик белги-эзувлари // Ўзбекистонда ижтимоий фикр. – Т., – 2003. – № 2. – Б. 35-38.

4-мавзу: Марказий Осиёдаги ilk yozuvlar va ularning o'rganilishi

Reja:

1. Kishilik jamiyatidagi dastlabki yozuvlarning yaratilishi va uning tarixiy ahamiyati
2. Markaziy Osiyoda ilk yozuvlarning paydo bo'lishi va xususiyatlari
3. Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlarning o'rganilishi

Tayanch ibora va tushunchalar: yozuv, ilk yozuvlar, yozuv turlari, qadimgi xalqlar, piktografiya, mixxat yozuvi, O'rtta Osiyo, iyeroglifika, yozuvlarning o'rganilishi.

Kishilik jamiyatidagi dastlabki yozuvlarning yaratilishi va uning tarixiy ahamiyati

O'rtta Osiyo tarixining eng dolzarb muammolaridan biri mintaqada yozuvning paydo bo'lishi masalasidir. Inson ongidagi fikrning dastavval tosh qoyalarda, sopol va metall parchalarida, hayvon terilarida va nihoyat qog'ozda ifodalanishi bu yozuvdir. Shuni ta'kidlash joizki yozuv-insoniyat tomonidan yaratilgan eng oliy kashfiyot bo'lib, u insoniyat tafakkuri tufayli yaratilgan ma'naviy boyliklarni avloddan avlodga yetkazib beruvchi bebafo vosita hisoblanadi.

Shumer piktografik yozuvi dastavval surat tariqasida vujudga kelgan. Insonlar tabiatda bor va uchraydigan narsalarning surati yordamida o'z

fikrlarini ifodalashgan. Bunda hayvonat va o'simlik dunyosi, tabiat jismlari, sayyoraimiz yo'l-doshlari tasvirlaridan eng ko'p foydalanilgan.

Piktografik belgili yozuvlar Qadimgi Sharqning ko'plab hududlarida, jumladan Qadimgi Hindiston, Eron, Xitoy va O'rtta Osiyoning janubiy viloyatlarida topilgan. O'rtta Osiyoda, xususan vatanimizda yozuvning tarqalishi uzoq davom etgan tarixiy jarayondir. Yozuv O'rtta Osiyoda qadimgi Sharq sivilizatsiyalari, xususan Ikki darvo oraliq'i, Misr, Xarappa va qadimgi Xitoy sivilizatsiyalarida bo'lgani kabi oddiydan murakkabga, bosqichma-bosqich uzoq davom etgan.

O'rtta Osiyo yozuvlari tarixida quyidagi asosiy davrlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchi davr. Piktografik yozuv davri. Miloddan avvalgi II-I ming yilliklar. Bu yozuv namunalari asosan Janubiy Turkmaniston va Surxon vodiisi hududidagi bronza davri manzilgo'hlari qayd etilgan. Bu hududlar O'rtta Osiyoning rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, keyinchalik, aniqrog'i miloddan avvalgi I ming yillikda bu hududda Baqtriya va Marg'iyona o'lkalari shakllangan. Miloddan avvalgi I-ming yillikning VII-VI asrlarida ilk temir davriga o'tish ijtimo'iy hayotda tub birilish yasad, ilk davlatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Miloddan avvalgi VI asrdan miloddan avvalgi IV asrning oxiriga qadar O'rtta Osiyo hududida oromiy yozuvi tarqala boshlagan. Bu davrda va makedoniyalik Iskandar yurishidan so'ng ham O'rtta Osiyo hududida oromiy yozuvining qo'llanilganidan Aybu'yirqa'a va Taxi Sangindan topilgan oromiy yozuvlari darak beradi.

Miloddan avvalgi IV asrning oxiridan miloddan avvalgi II asrning oxiriga qadar O'rtta Osiyoda oromiy yozuvi bilan bir qatorda qadimgi yunon (grek) yozuvi va tili ham qo'llaniladi. O'rtta Osiyoda yunon va oromiy yozuvlarining qo'llanilishi mintaqaviy madaniy o'lkalari tarixida uchinchi yozuv davri hisoblanadi. Harfaga asoslangan oromiy yozuvi O'rtta Osiyoning yozuvlari tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Movarounnahrda Islom davrida tarqalgan arab yozuviga qadar mavjud bo'lgan so'g'd, xorazm, baqtriya, partiya yozuvlarining shakllanishida oromiy yozuvi muhim ahamiyat kasb etgan.

Yozuvning ixtiro qilinishini shumer xalqining eng katta madaniy yutuqlaridan biri deb ham atash kerak. Insoniyat tarixida shumerliklar miloddan avvalgi IV ming yillikda, bugungi kundan olti ming yillar avval piktografik yozuv usulini ixtiro qilganlar. Ingliz arxeologlari J.Koper, X.Nissen hamda L.Vulle qadimgi shumerning bir qator yodgorliklarida tadqiqotlar olib borib, shumerliklar tarixini yanada oydinlashtirdilar. Ular Diyali "nom"i markazi Eshnun shahri (hozirgi Tel-Asmar yodgorligi), Sippar "nom"i markazi Abu-Xabba yodgorligi, Imin "nom"i markazi Kutu shahri (hozirgi Tello-Ibrohim yodgorligi), Kish "nom"i markazi Kish shahri (hozirgi Tello-Uxaymir yodgorligi), Kesh "nom"i markazi Abu-Salabix yodgorligi, Niffer yodgorligi, Fira yodgorligi, Larsa shahri, Ur shahri, Eredu, Ubad kabi ko'plab yodgorliklardan piktografik yozuvlar topdilar.

Shumerliklar aytmoqchi bo'lgan so'zlarni rasm bilan ifoda etgan. "Qush" so'zini qushning rasmini chizish bilan ifoda etgan bo'lsa, "tug'moq" so'zini qush va tuxum rasmi bilan, "ko'rmoq" so'zini ko'zning rasmi bilan, "yig'lamoq" so'zini esa ko'z va suv tasviri yordamida ifodalagan. Mesopotamiyada bu yozuv uzoq vaqt qo'llanib kelingan. Piktografiya yozuv usuli Urut davrida paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan takomillashib borgan. Bu takomillashuv tilning rivojlanishi, ijtimoiy hayotning o'sishi bilan hamohang ravishda o'sib borgan. Tel-Asmar yodgorligida rasmlar bilan birga bog'lovchi va ma'lum tovushlarni ifodalovchi maxsus belgilar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Abu-Xabba yodgorligi piktografik yozuvlarida bo'g'in belgilarining shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda rasmlar orasida bo'g'in ifodalari qo'llanilgan. Larsa, Ur, Eredu yodgorliklarida piktografik yozuvlarning yanada takomillashganligi kuzatiladi. Bu yodgorliklarda rasmlar to'liq chizilmay, eng xarakterli tomonlari ifodalangan. Masalan, hayvonlarning faqat bosh qismi ifodalanshi kuzatilgan. Ular ham sxematik holatda chizilgan, xolos. Qadimgi Akkad yodgorliklarida piktografik tasvirlar shu darajada sxematizatsiyalangan, mix yoki pona ko'rinishini egallagan va shu tarzda mixxat yozuvlarga asos solingan.

Bugungi kunga kelib shu narsa aniq va ravshan bo'lmog'daki, jahonning ko'pgina sivilizatsiyaga erishgan qadimgi xalqlari piktografik yozuvni birlashtirgan. O'z piktografik yozuv usullariga ega bo'lishgan. Lekin ularning ko'plari mixxatimon va harfli yozuv usuligacha rivojlangan bo'lmagan. O'tgan asrning oltmishinchi yillarigacha fanda piktografik yozuvning paydo bo'lishida monotsentrik g'oya hukmronlik qilib keldi, ya'ni bu g'oyaga ko'ra shumerliklar piktografiyani kashf etganlar va boshqa sivilizatsiya markazlariga tarqatganlar. Qadimgi Xitoy va Xarappa piktografiyasi topilganidan so'ng, piktografiyalarning xilma-xilligi aniqlandi va uning paydo bo'lishida politsentrik g'oya paydo bo'ldi.

Mixxat yozuvlar Old Osiyoning eng qadimgi yozuv uslubi bo'lib, vertikal, gorizontal va egri chizilgan ko'rinishidagi yozuvdir. Uni ham dastlab shumerliklar kashf etgan. Undan so'ng bobilliklar mixxat yozuvni o'zlashtirgan va rivojlantirganlar. Akkad, Xet davlatida, Urartuda, Suriya va Ossuriyada mixxat yozuvdan foydalanishgan. Shundan so'ng eronliklar va ehtimolki O'rta Osiyoliklar ham bu yozuv turidan foydalanganlar. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o'rtalarida mixxat xalqaro diplomatik yozuvga aylangan. Qadimgi Sharqning shahar-davlat xukmdorlari bir-birlari bilan bo'lgan aloqa xatlarini, ilk davlatlarning kodekslari va xatto savdogarlar tovarlarining narx-navolarini ham mixxat yozuvlarda yozishganlar. Eng qadimgi mixxatlar Shumer, Akkad, Ur kabi Mesopotamiya shahar xarobalari va saroylarini o'rganish mobaynida ko'plab topilgan. Ular asosan sopol parchalariga, loy parchalariga, qoya toshlarga, terilarga bitilgan. Qadimgi zamon tarixchilari Gerodot va Strabon mixxatlarini "ossuriya harflari", Afenet esa "xaldey harflari" deb ataganlar. Miloddan avvalgi VIII asrda Ossuriyada harfli yozuv kashf etilganidan

so'ng mixxat yozuvlar unutilib ketgan. O'rta Osiyo tarixi uchun juda muhim bo'lgan Persepol mixxatlarini to'liq o'qishga muvassas bo'lgan olim Georg Grotefenddir. U 27 yoshida, 1802-yilda Persepol saroyida bitilgan Doro, Kserks, Gishtasp ismlarini muvaffaqiyat bilan o'qiydi va ilk marotaba mixxatlarining sirini ochadi.

Gerodot asarlari bilan yaxshi tanish Grotefend, Ahamoniy shohlar o'z so'zlarni "Men kim, ulug' shoh, shaxanshoh", - degan so'zlar bilan boshlab "Ahamoniy" so'zi bilan tugatganligini yaxshi biladi va Persopol mixxatlarida ham bu so'zlar qaytarilganligini anglatadi. Shu tarzda mixxat harflari o'qildi va Qadimgi Sharq tarixi o'z sirini ochib boshladi. Ingliz olimi va sayyohi G. Roulinson esa fors mixxat yozuvlarini, ayniqsa Behistun qoya bitiklarini muvaffaq bilan o'qiydi. Behistun qoyasi Shoh yo'lining Hamadon-Bobil yo'li bo'yida, dengiz sathidan 520 metr balandlikda joylashgan. Doroning buyrug'i bilan shu qoyaga bitiklar bitilgan. G. Roulinson Behistun bitiklari bo'g'inli yozuvlar ekanligini isbotlaydi. Bitiklarda yozilgan Baqtriya so'zini, Baqtriyaning Ahamoniy imperiyasi tarkibiga kirganligini, uning 12 satrapligi, Xorazmning esa 16 satraplik bo'lganligini birinchi marta o'qigan tadqiqotchidir. G. Roulinsonning eng buyuk xizmatlaridan biri uning ossuriya mixxatlarini o'qib ossuriyashunoslik faniga asos solganligidir. Uni faxr bilan tadqiqotchilar "ossuriyashunoslik fanining otasi", - deb ataydilar. Uning ilmiy izlanishlari butlay fanga ilgari noma'lum bo'lgan Ossuriya podshohligi tarixi kiritib keldi.

Miloddan avvalgi XIII-XI asrlarga oid bo'lgan moddiy madaniyat izlari suyak va metall parchalariga bitilgan sirti yozuvlar. Ularning soni 100 mingdan oshib, Jahon jamoachiligini diqqat e'tibori qadimgi Xitoy tamadduniga qaratilgan va 300 dan oshib olinlar to'planishgan. Olimlarning qiziqishi ortib, ustama-ust tashkili etilayotgan ilmiy konferensiyalar o'z natijasini berayotgani yo'q. Eng yaxshi saqlangan 41 mingta yozuvning umumiy ko'rinishi nashr ham etildi. Bugungi kunga qadar esa In tamadduni yozuvlariga bag'ishlangan 1200 dan ortiq ilmiy monografiya nashr yuzini ko'rdi. Atiga 1 mingta belgi-yozuv o'qildi, xolos. Bu yozuvlar insonlar ismlari, geografik nomlardan iboratligiga ko'plab olimlar ko'nikma xosil qilishdilar. Bu yozuvlar In tamaddunining har xil davriga oid bo'lib, vaqt o'tgan sari takomillashib borgan. Arxeologlar sirti yozuvning tarqalish geografiyasini ham aniqlab bo'lishdi. U hozirgi Xenan o'lkasi va unga qo'shni hududlarda uchradi. Xitoyshunos olimlarning umumiy fikriga ko'ra In yozuv uslubi uzoq o'tmishga va rivojlanish bosqichlariga ega. Bas shunday ekan, In tamadduni ildizini qayerdan izlash kerak? O'tgan vaqt mobaynida Qadimgi Xitoy tarixida Yanshao va Lunshan madaniyatlari ochildi va In yozuv uslubi o'z sirini ochib boshladi, xitoy qadimgi yozuvlari ildizlari o'rganila boshlandi. Yanshao va Lunshan yodgorliklaridan sopolarga bitilgan belgi-simvollar topildi. Shu ma'balar asosida Dun Szo-bin miloddan avvalgi III ming yillikda Xitoyda ilk yozuv paydo bo'lganligi nazariyasini ilgari Sug'di. Bu g'oya ko'plab olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ayniqsa, Go Mo-jo tadqiqotlaridan so'ng qadimgi xitoy yozuvining paydo bo'lishi tarixi o'z

yechimini topdi. Uning izlanishlariga ko'ra qadimgi xitoy yozuviga bundan 5-6 ming yillar oldin asos solingan bo'lib, eng qadimgisi Yanshao madaniyatiga oid. Banpo yodgorligidan topilgan, soppollarga bitilgan belgilardir. Bu belgilar soppollarga o'tkir asbob bilan tinab yozilgan bo'lib, oddiy chiziq, burchak, qarmoq, qo'shuv, ayiruv shaklidadir.

Go Mo-jonning yozishicha "... bu belgilarning ma'nosini hozircha o'qiy olmagan bo'lsada, bizning ajdodlarimiz o'z fikrini shu belgilar asosida ifodalay bilganligi, xitoy yozuvining ibtidosi, xitoy iyeroglifikasining boshlanishidir". Albatta, Go Mo-jo tadqiqotlarining kamchiliklari ham bor. U eng avvalo, Banpo va In yodgorliklari yozuvlarini taqqoslab o'rganishi kerak edi. Bu yozuvlarning bitilgan vaqt orasida ikki ming yillik oraliq vaqt bo'lsa-da, mutanosiblik yoki nomutanosiblik tomonlari o'rganilmagan. Go Mo-jo bilan bir vaqtda, u bilan parallel ravishda tadqiqotlar olib borgan boshqa bir xitoy tadqiqotchisi Yuy Sin-u kasbdoshining xatosini takrorlamadi. Uning tadqiqotlarida Banpo va In yodgorliklari yozuvlari taqqoslandi. Ikkiti yozuvda son belgilarining bir xil tarzda ifodalanganligi, nayza va madanlarning ifodalinishi bir xil ko'rinishda belgilanganligi isbotlab berildi. Shu tariqa qadimgi Xitoy tamadduni qadimgi sharq tamaddunining eng qadimiy o'choqlaridan biri sifatida fanga kirdi. Banpos va In yodgorliklari belgilari xaqiqatdan ham o'xshashliklar bor. Ehtimol bu tasodifiy, chunki belgilar juda oddiy qilib ifodalangan, ularning genetik aloqadorlik birligi xususida ilmiy izlanishlarni to'xtatmaslik kerakligi tabiiy xol, albatta.

Xuddi shunday bo'ldi, so'z guan (lunshan) topilmalari haqida, u yerdan topilgan ikkita sopol idish sirtida bitilgan yozuvlar to'g'risida bormoqda. Biringinchi idishda bolta ifodalangan bo'lib, Banpos va In yodgorliklari belgilarida ham boltalar xuddi shu alfozda ifodalangan. Ikkinchi idishda quyosh, olov va tog' birga ifodalangan bo'lsa, in bitiklarida ular alohida chizilgan, lekin tasviriy jihatdan bir xil ifodalangan. Buni ilova qilinayotgan rasmdan osongina kuzatish mumkin. Lunshan yozuvi haqiqatdan ham, vaqt jihatidan Banpos va In yozuvlarini bog'laydigan eng noyob topilmadir. O'tkazilgan tadqiqotlar xitoyning piktografik belgilari va iyeroglifikasining genetik jihatdan yagona bir yo'nalishda rivojlanib kelganligini isbotlaydi.

Yozuv - ilk sivilizatsiyalarning asosiy belgisi hisoblanadi. Ingliz olimi G.Chayld yoki hozirgi zamon rus tadqiqotchisi V.Gulyayev yozuvni ilk shaharlarning va sivilizatsiyalarning asosiy belgilaridan biri deb biladilar, o'zbek arxeologi va tarixchi olimi T.Shirinov esa urf - odatlarga kuchli bo'yinuvcu, og'zaki ijod rivojlangan, davlat boshqaruvi esa kam rivojlangan jamoalarda yozuvning bo'lishini ilk shaharlarning ikkinchi darajali belgisi deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, ilk shaharlar, shaharlar bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan ilk davlatlar boshlangich yozuv usuli, ya'ni inson o'z fikrini ifoda etishsiz sivilizatsiyalarning va ilk davlatlarning vujudga kelishi ham mumkin emas. Chunki, shakllangan ilk davlatlarning hisob-kitob, kanselyariya va aloqa ishlari bo'lishi tabiiy hol. Fikrimizcha, boylikning oshishi sonning,

xo'jalikni boshqarish jarayonining murakkablashishi esa yozuvga ehtiyoj tug'dirgan. Qadimgi Sharq tarixidan ma'lumki, Mesopatamiyada - eng qadimgi shahar-davlat Shumerda mil.av. IV ming yillikda yozuv eng avval rasn, so'ng mixxat belgilar ko'rinishida paydo bo'lgan. Mil.av. III ming yillik so'ngida Misir iyeroglifikasi paydo bo'lishi bilan yagona Misir shohligi vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda ilk yozuvlarning paydo bo'lishi va xususiyatlari

O'ra Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi xalqlaridan birini shaklar (saklar) va massagellar tashkil etadi. Bu xalqlarning ham o'z yozuvlari mavjud bo'lgan. Ayrim yozma manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra ularda ashyolarga asoslangan yozuv keng tarqalgan.

O'ra Osiyo xalqlari tarixida ashyoviy yozuvning o'rni nihoyatda baland va juda qadimdan ma'lum bo'lgan. Ammo izlanishlar shuni tasdiqlamoqdaki, O'zbekiston tarixida bu soha tadqiqotchilar tomonidan umuman o'rganilmagan va ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Qadimgi xalqlarda ashyoviy yozuvning nihoyatda rivojlanganligini biz tarix olasining qoldirgan ma'lumotlari asosida ham bilsak bo'ladi. Gerodotning yozishiga qaraganda Ahamoniyalar hukmdori va islohotchisi Doro I skif qabilalari ustiga urush ochganda ko'chmanchilardan qush, sichqon, qurbaga va boshqa paykon solingan ashyolar majmuasini oladi. Bu ma'lumot tarixchilar tomonidan juda ko'p marotaba muhokama etilgan va predmetlarning etimologiyasi xususida quyidagi umumiy fikrga kelishgan "... agar sen qushlar singari osmonlarga uchmasang, sichqonlar singari yer qatriga kimasang, qurbagalar singari botqoqlarga sho'ng'ib kelmasang tirik qaytmaysan, shu paykonlar senga atalgan". Bu ma'lumot ashyoviy yozuvning qadimgi xalqlar o'rtasida keng tarqalganligining yozma manba yordamida isbotlanishidir.

Insonlarning ashyolar yordamida fikrini bildirishi, ya'ni ashyoviy yozuv tizimi juda qadimdan shakllangan va simvollarning paydo bo'lishiga olib kelganligini tasdiqlaydi.

Jargo'ton yodgorligi tadqiqotchilari asarlariga murojaat qilinganda ular qabrlardan juda ko'plab predmetlarning mitti shakllari topilganligi to'g'risida ma'lumotlar berishadi. Ular ko'pincha bronzadan va loydan yasalgan bo'lib, shakl jihatidan doira shaklli altar, ish va jang qurullari, narvon, haykal kabi ko'rinishda ifodalangan. Yana shu narsa ham ma'lumki, mitti predmetlar hech qachon bir dona emas, eng kamida uchta, ya'ni kompleks holatda uchraydi.

Bronzadan yasalgan mitti ashyolarni tadqiqotchilar metallni asrash, iqtisod qilish maqsadida metall predmetlarning o'zini emas balki obrazlarini yasab, mayit bilan birga ko'mgan deb hisoblashadi. Bu farazning ham fanda yashashga haqqi bor albatta, ammo olamdan o'lgan aziz insonlar xotirasi uchun kishilar hech qanday predmetni ayamaslik holatini inobatga olsak yuqoridagi fikr o'z ahamiyatini yo'qotadi. Biz bu mitti predmetlarning vazifasi xususida haqiqatga yaqin bo'lgan yangi fikr bildirmoqchimiz. Ayrimoqchi bo'lgan fikrimiz shundan iboratki, Jargo'ton yodgorligi qabrlarida uchraydigan mitti predmetlar

ashyoviy yozuvlar majmuasidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek ular kompleks holda uchraydi.

Predmetli yozuv o'sha davr insonlari uchun juda ham oddiy, tushunarli bo'lganligi va tez anglab olinganligi tabiiy hol, albatta. Chunki bu yozuv usuli ularning falsafiy dunyoqarashlari hosilasidir. Ularning ongida ifodalangan fikrlarning ashyolar ko'magida ifodalanish holatidir. Yuqorida keltirib o'tilgan skiflar va Doro I o'rtasidagi muomala vositasi har ikkala xalq uchun nihoyatda tushunarli bo'lganligi aniq, ammo zamonaaviy tarixchilar uchun jumboqliqicha qotilaveradi. Bu tabiiy hol albatta, xuddi o'zbek xalqi etnografiyasida mavjud bo'lgan so'zlarning va odatlarning ekvivalent ma'nolarining mavjudligi bu fikrga asos bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlari bilan G'arbiy Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida O'rta Osiyoga G'arbiy Osiyodan oromiy yozuvi kiritib kelgan. Bungacha O'rta Osiyoda fors mixxatidan foydalanishar edi. Oromiy yozuvi mixxatga qaraganda ancha soddaro bo'lib, taxminan yigirmata harfdan iborat bo'lgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Xorazm, Baktريا, Parfiya va So'g'd davlatlarida shu oromiy yozuvda kitoblar yozilgan. Shuningdek, davlat ahmariyatiga molik diplomatik hujjatlar ham shu yozuvda rasmiylashtirilgan edi. Bu davlatlarda qisman yunon yozuvi ham istemolda bo'lgan. Oromiy yozuvda xat o'ngdan chapga qarab yozilgan. Bu yozuvda uni tovushlarni ifodalash uchun harflar bo'lmagan. Oromiy yozuvi zaminida fors yozuvi shakllangan. Bu hududda o'sha davrda bir nechta mustaqil davlatlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z yozuviga ega edi. Bu yozuvlar quyidagilardan iborat:

1. **Pahlaviy yozuvi.** Bu yozuv oromiy yozuvidan kelib chiqqan eng qadimgi yozuvdir. Pahlaviy yozuvining ikki turi mavjud: 1. Pahlaviy yozuvi, 2. Arshakiy yozuvi.

Pahlaviy yozuvdan keyinchalik so'g'd yozuvi, milodning III asrida esa qadimgi xorazm yozuvi shakllangan. Milodning VI asrida yana shu yozuv asosida O'rta-yenisey yozuvi paydo bo'lgan.

2. **Sug'd yozuvi.** Zarafshon daryosi vodiysi va hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida Sug'd davlati (grekcha nomi - Sogdiana) mavjud bo'lgan. Bu davlat qisman hozirgi Tojikistonning ayrim tumanlarini ham o'z ichiga olgan. Bu davlatda sug'd yozuvi deb ataladigan yozuvdan foydalanishgan. Bu yozuv oromiy yozuvining pahlaviy variantidan shakllangan. Sug'd yozuvi keyinchalik vujudga kelgan uyg'ur yozuvi, mo'g'o'l yozuvi va manchjur yozuvlari uchun asosiy element bo'lib xizmat qilgan. Bu yozuvning dastlabki bosqichida harflar alohida-alohida yozilgan. Vaqt o'tishi bilan ularni bir-biriga ulab yozish rasm bo'lgan.

3. **Baktريا yozuvi.** Bu yozuv Baktريا davlati hududlarida amalda qo'llanilgan. U oromiy-pahlaviy yozuvi variantlaridan biri bo'lib, Baktriadagi mahalliy so'zlashuv tiliga moslab, isloh qilingan yozuvdan iboratdir.

4. **Parfiya yozuvi.** Bu yozuv eramizdan avvalgi III-I asrlarda Parfiya davlati hududida amalda qo'llanilgan. Parfiya davlati Kaspий dengizining janubiy - sharqiy qirg'oqlarini o'z ichiga olgan. Bu hudud aholisi parfiya tilida so'zlashgan. Bu til esa qadimgi fors tili variantlaridan biri bo'lgan dary tiliga yaqin bo'lgan. Bu til fonetikasi va grammatikasi nuqtai nazaridan oromiy tilidan farq qilgan. Shuning uchun bu yozuv ham oromiy yozuvidan ma'lum darajada farq qiluvchi yozuv hisoblangan.

Parfiya yozuvi Sosoniylar sulolasi davridan boshlab keng miqyosda qo'llanila boshlangan. Xususan, Ardasher I davridagi matnlar asosan uchta tilda: o'rta-fors, parfiya va yunon yozuvlarida bitilgan.

Yunon-makedonlar bosqini va ellinistik davlatlarning tashkil topishi natijasida Markaziy Osiyo hududida yunon yozuvining o'rni oshdi. Biroq parfiyaliklar ichki ma'muriy-boshqaruv ishlarida o'z yozuvlaridan foydalanishda davom etgan.

Parfiya yozuvi ana'anaviy asosda oromiy yozuvi prototipi bo'lib, 22 ta harfdan iborat bo'lgan. Biroq ayrim xususiyatlari bilan oromiy yozuvdan farq qilgan. Masalan, ba'zi harflar so'z o'rniida qo'llanilishiga qarab ikkita tovushni ifoda etgan.

Parfiya davlatining poytaxti shahri Mixrdakirt qal'adan (Eski Niso) sopol bo'lakka yozilgan 2700 dan ko'proq sopol parchalari topilgan. Ushbu yozuv parchalari asosan xo'jalik hujjatlar bo'lib, ularda ko'proq vino haqida, vino keltirilgan qishloq nomlari, vino miqdori, uning tarkibi va boshqalar yozilgan. Parfiya yozuvi oromiy yozuvi asosida podsho Mitridat I davrida (miloddan avvalgi II asr o'rталarida) ishlab chiqilgan, bu yozuv miloddan avvalgi II-III asrlarda mamlakat bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, shu davrda Mixrdakirt shahrida davlat arxivi tashkil topgan. Parfiyada o'z tilida yozilgan yozuvdan tashqari, yunon tili va yozuvi ham muomalada bo'lgan. Parfiyada mutaxassislar ta'kidlashicha, 2800 ga yaqin oromiy tilida yozilgan yozuv parchalari ham topilgan.

5. **Qadimgi xorazm yozuvi.** Bu yozuv oromiy yozuviga juda yaqin bo'lgan. Bu alibho Ahamoniylar dinastiyasi davridagi klassik oromiy yozuvi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u o'zida qadimgi oromiy yozuvi an'alarini yaxshigina saqlab qolgan. Ushbu yozuv eramizning II asrigacha amalda qo'llanib kelgan.

6. **Аvesto yozuvi.** Аleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) imperiyasi qulaganidan keyin, O'rta Osiyodagi davlatlar, shuningdek Parfiya, Xorazm davlati, Eron o'z mustaqilliklarini qayta qo'lga kiritganlar. Eronda Sosoniylar dinastiyasi davlat tepasiga kelgach, o'zlarining qadimgi muqaddas kitoblari bo'lgan "Аvesto"ni qayta tiklash masalasi ko'tarilgan. Ma'lumki, o'n ikki ming mol terisiga yozilgan bu kitobni A.Makedonskiy o'z yurtiga olib kelgan. Uning foydali tomonlarini o'z faellasufariga tanishtirib, so'ng uni yo'q qilib yuborgan edi. Biroq "Аvesto" kitobi yozilgan yozuvni hech kim bilmagan va biladiganlardan hech kim hayot emasligi sababli, bu kitobni tiklash mumkin emas edi. Shu sababli eramizdan avvalgi VI-III asrlarda Eronda mazkur "Аvesto"ni qayta yaratish maqsadida yangi yozuv ijod qiladilar va bu

yoʻzuv tarixiga "Avestoyozuvi" nomi bilan kirgan. Keyinchalik bu yoʻzuv pahlaviy yoʻzuvi bilan bir qatorda mahalliy aholi tomonidan qoʻllana boshlagan. Bu yoʻzuvda tilda mavjud boʻlgan qisqa va choʻziq unlilar yunon yoʻzuvida qanday ifodalansa, shunday ifodalangan. Umuman unli tovushlarni ifodalash uchun esa, harflarning soni 35 ta boʻlgan. Bu yoʻzuv qadimgi fors tili hisoblangan daryi tilining fonetikasini hisobga olgan holda tuzilgan boʻlgani uchun uzoq vaqt amalda qoʻllanib kelingan va eramizning VII asrigacha arablarning bostirib kelgunigacha Eron hududida qoʻllanib kelingan.

7. Oʻrxun-yenisey yoʻzuvi. Eramizning VI asriga kelib, Oʻrta Osiyoda Turk xoqonligi davlati vujudga keldi. Bu davlat gʻarb tomondan Vizantiya bilan, janub tomondan Eron va Hindiston bilan, sharq tomondan Xitoy bilan chegaradosh boʻlgan. Xullas, Azov dengizidan Uzoq Sharqgacha boʻlgan ulkan territoriya bu davlatga qarashi boʻlgan. Bu davlat turkiy qabilalar davlati boʻlib, Oʻrxun-yenisey yoʻzuvi bu davlatning yoʻzuvi hisoblangan. Bu yoʻzuv ham pahlaviy yoʻzuvi asosida vujudga kelgan boʻlib, unda soʻgʻd va oromiy yoʻzuvlari elementlari mavjud boʻlgan.

8. Uygʻur yoʻzuvi. Bu yoʻzuv soʻgʻd yoʻzuvi variantlaridan biri boʻlgan va Oʻrxun-yenisey yoʻzuvi bilan parallel qoʻllanib kelgan. XIV-XVI asrlarda moʻgʻullar oʻz til xususiyatlarini hisobga olib bu yoʻzuvni isloh qilishgan va moʻgʻul tili yoʻzuvini yaratishgan. Keyinchalik uygʻur va moʻgʻul yoʻzuvi asosida manchjur, oyrot, buyrat tillari yoʻzuvi vujudga kelgan.

Markaziy Osiyodagi ilk yoʻzuvlarning oʻrganilishi

Koʻnna Sharq tarixida qadimgi yoʻzuvlarni jamlash, ularni deshifrovka qilish, yaʼni sharhlash ishlari jaxon tarixida fransuz olimi J.F.Shampolyon faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, bu yoʻnalish tarixi faqat XVIII asrning oxirida shakllangan. Rus tarixshunoslik va sharqshunoslik fanlarida qadimgi yoʻzuv turlarining shakllanish shart-sharoitlari, uning oʻziga xos asosiy taraqqiyot bosqichlarini yoritish ilk bora V.A.Istria nomi bilan bogʻliq. XX-asrning 60-yillarida rus tiliga qadimgi xalqlar deshifrovkasi ushlab va muammolari tarixiga bagʻishlangan asarlar tarjima qilindi. Bular chech tarixchi filologi Chestmir Loukotskiyning "Yoʻzuvning taraqqiyoti" va mashhur nemis olimi Iogannes Fridrixning "Uritilgan tillar va yoʻzuvlarning deshifrovkasi" asari tarjima qilingan. 1963-yilda nemis olimi Ernest Dyubelxoferning "Belgilar va ajoyibotlar" kitobi nashr etildi. Ernest Dyubelxofer Iogannes Fridrixdan farqli oʻlaroq oʻzining asarida ittifoq (qadimiy) zamonlarga borb taqaladigan yoʻzuvning ilk koʻrinishlariga toʻxtalib "buyum yoʻzuv" fikrini suradi.

"Buyum yoʻzuv" yoki "Buyumiy yoʻzuv" Ernest Dyubelxofer fikricha, keyinchalik piktografiya yaʼni "rasmi xat" bilan almashgan. "Belgilar va ajoyibotlar" asari muallifi bu jarayonni shumer xatining taraqqiyoti misolida taʼriflaydi va buni "xatlardan mixxatlarga" deb ataydi. Ernest Dyubelxofer fikricha, belgi-yozuv va umuman xat taraqqiyotida yoʻzuv bitiladigan material juda muhim hisoblangan. Olim fikricha, Ikki daryo oraligʻining janubiy

qismida buyumga mixxat uslubida yozish qulay boʻlganligi uchun yoʻzuv uchun maxsus loy shakllar tayyorlangan.

Yoʻzuv uning birinchi bosqichi-belgi yoʻzuvining kashf etilishi insoniyat tarixida buyuk madaniy toʻntarish hisoblanadi. Taniqli tarixchi va arxeolog olimlar Z.Choriyev va Sh.Shaydullayevlar "Inson tafakkuri taraqqiyotining qutlugʻ qadamlari" maqolasida Oʻrta Osiyoning qadimiy taraqqiyotida yuz bergan qutlugʻ qadamlardan biri-piktografik belgini yoʻzuvning paydo boʻlishi deb hisoblaydilar. Mualliflar fikricha, bu jarayon Oʻrta Osiyo xususidan vatanimiz hududida bronza asrida yaʼni miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid ekanligini taʼkidlaydilar. Bronza asri Qadimgi Sharqda ilk davlatlarga asos solingan davrdir. Shuningdek bu davr ilk sivilizatsiyalar shakllangan davr hamdir. Arxeologik davrlarishga koʻra, bu davr bronza asriga toʻgʻri keladi.

Mustaqillik yillalarida Oʻrta Osiyo xususidan vatanimiz hududida keng koʻlmda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar qadimiy madaniyatning Keleti (Murgʻob vodiysi, Janubiy Turkmaniston) va Tiliabuloq (Koʻhlang togʻlari janubiy yon bagʻirlari, Janubiy Oʻzbekiston) kabi yangi oʻchoqlari kashf etildi. Oʻrta Osiyoning bronza davri madaniyatlariga nisbatan bu davrning taniqli tadqiqotchilari V.M.Masson, V.I.Sarandidi, I.N.Xlopina, A.Asgarov, A.Sagdullayev, T.Shirinov va boshqalar "madaniyat" iborasini ishlatganlar. Bronza asrining tadqiqotchilari Qadimgi Sharqning miloddan avvalgi III-II ming yilliklardagi madaniyatlariga nisbatan "sivilizatsiya" atamasini qoʻllaydilar. Masalan, bu borada "Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi", "Qadimgi Hind yoki Xarappa sivilizatsiyasi" kabi atamalarini taʼkidlab oʻtishning oʻzi kifoyadir. Bronza asri qadimgi Sharqda boʻlganidek Oʻrta Osiyoda ham ilk shaharsozlik, shahar madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etgan davrdir. Janubiy Turkmaniston (Margʻiyona) va Janubiy Oʻzbekiston hududida kashf etilgan qator madaniyatlar, Olintepa, Jarqoʻton kabi shaharlar buning isbotidir. Ana shu qadimgi markazlarni oʻrganish jarayonida talay belgilar topildi va butlar fanda Oʻrta Osiyo xususidan Oʻzbekiston hududidagi eng qadimgi piktografik yoʻzuvlar deb eʼtirof etilmoqda. Piktografik yoʻzuvning eng rivojlangan namunasi Gʻoz piktografik yoʻzuvi hisoblanadi.

Harfga xususidan oromiy alifbosiga asoslangan partiya yoʻzuvining eng qadimgi namunasi 1946-yilda Eski Niso (Ashgʻabat shahri atrofi)da oʻrganilgan. Bu sopol sirtiga bitilgan partiya yoʻzuvi namunalari Partiya podsholari arxivi boʻlib, Partiya davlatining miloddan avvalgi III milodiy III asrlar jittimoiy - iqtisodiy munosabatlari tarixini oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. XX asrning 50-60-yillarida Oʻzbekiston hududida qadimgi yoʻzuvni oʻrganish borasida muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Mashhur tarixchi, etnograf va arxeolog olim S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiya aʼzolari qadimgi Xorazm davlati poytaxti Tuproqqaʼa shahri arki-aʼlosini tadqiq etish davomida oromiy alifbosida bitilgan "Xorazm podsholari arxivi"ni topishga muvaffaq boʻldi.

Keyingi yillarda Affig'iyalar davri Xorazmning shaharlaridan biri bo'lmish Toqg'al adan V.A.Gudkova boshchiligidagi o'stadonlar atrofiga bitilgan yozuv namunalari topildi. Bu ikki yodgorlik majmuidan topilgan yozuvlar ham qadimgi Xorazmdagi agrar munosabatlari, patriarxal o'la nomlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston hududida yozuv taraqqiyotida So'g'd alohida o'rin tutadi. So'g'd yozuvining ilk bora juda katta arxivi 1933-yilda Mug' tog'ida Mug' qal'asi topilmalari orqali ma'lum. Davr taqozosi bilan juda yaxshi saqlangan bu arxiv ilk o'rta asrlar davri So'g'dda yuz bergan siyosiy voqealarni, ilk o'rta asrlarda mavjud aholi gunahlarini, nikoh masalalarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mug' tog'idan kasf etilgan so'g'd va arab tilida bitilgan bu noyob xatlarni o'qish, o'rganish va sharhlash ishlariga juda mashhur va ma'lum tarixchi, sharqshunos, tarixchi-lingvist olimlar jalb etilgan edi.

Mug' qal'asidan topilgan hujjatlari ustida I.Y.Kratchkovskiy, V.A.Kratchkovskaya, so'g'd yozuvlari bilan A. A.Freyman, M. N.Bogolyubov, O.I.Smirnova, A.L.Ivshits kabi tanqli olimlardan iborat guruh ish olib bordi. Natijada I.Y.Kratchkovskiy va V.A.Kratchkovskayaning Mug' tog'ida Mug' qal'asidan arab matnida ikki xujjatga bag'ishlangan maqolasi, M.N.Bogolyubov va O.I.Smirnovaning "Mug' tog'idan topilgan so'g'd hujjatlari" ruknida "Mug' tog'idan topilgan yuridik xujjatlar va xatlar" kabi asarlari nashr etildi. Jamii yetmishdan ortiq bu Mug' hujjatlari hanuzgacha So'g'd o'lkasi va davlatining V-VII asrlardagi siyosiy tarixini, bu davrga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'tagan asrning 50-yillarida So'g'd o'lkasi yozuvining ba'zi bir namunalari Buxoro So'g'dining ilk o'rta asrlardagi markaziy shaharlaridan biri Varaxshadagi buxorudollar saroyini o'rganish davomida qayd etilgan. 1960-yillarning o'rtalari so'g'd xatini o'rganishda muhim bosqich bo'ldi. Samarqand (Afrosiyob) dagi ixshidlar saroyini o'rganish jarayonida devoriy suratga bitilgan so'g'd vertikal yozuvi kasf etildi. Keyinchalik Afrosiyobda tanqli arxeolog olimlar Sh.S.Toshxo'jayev, G.V.Shishkina, M.X.Ismiddinov, H.Oxunboyev, fransuz arxeolog olimlari professor P.Bernat, F.Grene tadqiqotlari jarayonida ham suyak va sopol sirtiga bitilgan so'g'd va yunon yozuvlari topilgan.

Vatanimiz hududida yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyotida qadimda o'z tartibiga Surxon vodiysi, janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini birlashtirgan Baqtriya o'lkasi alohida o'rin tutadi. Baqtriya mahobatli (lapidar) yozuvi Surxo'tal (shimoliy Afg'onistondagi Bag'lon hududi) da XX-asrning 50-yillarida topilgan edi. Surxon vodiysida, ayniqsa qadimgi dehqonchilik makazlarini o'rganish davomida sopol sirtiga bitilgan talay yozuvlar topildi, hozirda tarix va arxeologiya fanida bu topilmalarga nisbatan piktografik belgi yozuv iborasi mutakamlanib qo'yildi.

O'zbekiston qolaversa, butun O'rta Osiyo tarixida yagona hisoblangan yozuv namunalari Sopoli madaniyatining Sopoli, Jarqo'ton kabi qal'a va

shaharlarida qayd qilingan. Surxon vodiysida qayd etilgan piktografik yozuvlardan so'ng navbatdagi tur yozuvlar, yunon xatlari hisoblanadi. Yunon xati namunalari Oks (Amudaryo)ning bo'yida joylashgan Kampirtepa yodgorligida o'rganilgan. 1977-yildan uzluksiz ravishda o'rganilayotgan Kampirtepa (tarixiy manbalarda Pandaxeyon, Pardaxvi) shahar qal'asidan sopol sirtiga, qayin po'stlog'iga bitilgan qadimgi yunon, qadimgi baqtriya yozuvlari parchalari topildi. 1967-yildan buyon uzluksiz ravishda qazuv ishlari olib birlayotgan Dalvarzintepa yodgorligida ham bir necha bo'lak sopol sirtiga bitilgan qadimgi baqtriya va ayniqsa "Dalvarzintepa oltin buyumlari xazinasidagi yombilardagi qadimgi hind (Kxarosthi) yozuvlarini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Yombilardagi yozuvlar G.A.Pugachenkova, E.V.Rivladze va boshqa qator olimlar fikricha, oltin og'irligi bilan bog'liq bo'lgan. Surxon vodiysining Kushon podsholigi davriga oid Ayritom yodgorligida 1979-yilda mahobatli "Ayritom yozuvi" namunasi topildi.

Ayritom yozuvi Surxo'tal yozuvidan so'ng dunyoda ikkinchi lapidar (mahobatli) baqtriya yozuvi sanaladi. O'zbekistonning qadimiy o'lkalari yozuvi tarixida Eski Termizdagi Qoratepa va Fayoztepa buddaviylik ibodatxonalardan topilgan qadimgi yozuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. 1961-yildan buyon Qoratepa buddaviylik ibodatxonalari majmuidasi B.Y.Stavitskiy boshchiligidagi arxeologik guruh 1994-yilga qadar arxeologik-qazuv ishlarini olib bordilar. 1998-yildan buyon Qoratepa O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti va Xalqaro Buyuk Ipak yo'li akademiyasining birlashtirilgan Qoratepa arxeologik guruhi (rahbarlar: Sh.Pidayev, Kato Kuidzo) qazuv ishlarini keng ko'lamda davom ettirmoqdalar. Birgina 1961-yildan 1994-yillar oralig'ida Qoratepa 150 dan ortiq qadimgi hind yozuvi namunalari, baqtriya yozuvlari topildi. Qoratepadan topilgan qadimgi hind yozuvi namunalari V.V.Vertogradova tahliliga jalb etgan va ularga bag'ishlab maxsus kitob nashr etgan. 1961-yildan hozirga qadar mutasili o'rganilayotgan Qoratepadan topilgan yozuv namunalari o'rganish ishlari V.A.Livshits, B.Xenning, V.G.Lukonin, V.V.Vertogradova, T.V.Grek, Y.Xarmatta, arab yozuvlarini S.B.Pevzner kabi olimlar munosib xissa qo'shganlar. 1998-yildan buyon Qoratepa buddaviylik ibodatxonalardan topilgan yozuvlar ustida professor J.Fussman ish olib bormoqda. Eski Termizning Fayoztepa o'rnidagi buddaviylik ibodatxonasida dastavval 1968-1976-yillarda L.I.Albaum, 2003-yil Sh.Pidayev, 2004-2006-yillar T.Amayev boshchiligidagi amalga oshirilgan ishlar tufayli ham ko'plab qadimgi baqtriya va qadimgi hind yozuvi namunalari topildi. Fayoztepadan o'tagan yillar davomida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli 140 dan ortiq qadimgi hind va qadimgi baqtriya yozuvi namunalari topildi. Fayoztepadan topilgan qadimgi baqtriya va qadimgi hind yozuvi namunalari O'rta Osiyoda bu turdagi yozuvning eng qadimgisi hisoblanadi. Termiz buddaviy ibodatxonalari O'rta Osiyoda bu dinning taqalishida o'rni muhim bo'lgani kabi bu inshootlarda qayd etilgan qadimgi hind yozuvlarining ahamiyati ham cheksizdir.

Ilk o'rta asrlar davrida ham Tohariston (Baqtriya milodiy 383-yildan e'tiboran Tohariston)da baqtriya yozuvi mavjud bo'lganligidan Zangiera (Qulog'iterra) yodgorligidagi topilgan baqtriya yozuvi darak beradi. Zang (Qulog'iterra) yodgorligini o'rganish davomida qayin po'stlog'iga bitilgan qadimgi hind qo'lyozmalari ham topilgan. Ilk o'rta asrlar davri O'rta Osiyoga xususan sirdayo va amudaryo oralig'idagi hududga ko'plab turkiyzabon xalqlarning kelib o'rnatilgan davri hamdir. Qadimgi turkiy xat namunalari Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar davri shaharlari va Vaxsh vodiysidagi Ko'firqal'a shahridan topilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, O'zbekiston hududida yashagan xalqlar qadimdan o'zlarining mustaqil davlatlariga ega bo'lganlar. Shuningdek davlatchilikning muhim elementlaridan biri bo'lgan yozuv masalasi ham bu hududlarda ijobiy hal qilingan bo'lgan. Har bir davlat o'zining mustaqil yozuviga ega bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi xalqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlar va ularning o'rganilishi.
3. Pahlaviy yozuvi haqida ma'lumot bering.
4. Uyg'ur yozuvining taixi haqida ma'lumot bering.
5. O'rtin Yemsey yozuvining O'rta Osiyo xalqlar tarixidagi o'tmiga baho bering.
6. Avestodagi yozuvlar va ularning o'rganilishi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Авесто. Тарихий-адабий ёлгорлик / А Махкамов таржимаи. – Т, 2001.
2. Ахунджанов Э. История книги в Туркестане. Древность. Средние века. – Челябинск, 2009.
3. Бокиев А., Шайдуллаев А., Ёйлошова З. Окс цивилизацияси. – Т.: Уагй nashr, 2015.
4. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Т.: УМЭД, 2008.
5. Ртвеладзе Э., Дившиц В. Памятники древней письменности. – Т.: Узбекистан, 1985.
6. Каюмов А., Исхоков М., Отахужаев А., Соликов К. Кадимги ёзма ёлгорликлар Укув кулланима. – Т.: Ёзувчи, 2000.

5-Mavzu: Markaziy Osiyoda qo'llanilgan boshqa xalqlar yozuvlari va ularning xususiyatlari

Reja:

1. Markaziy Osiyo hududlarida yozuv paydo bo'lganga qadar siyosiy-madaniy vaziyat va boshqa xalqlar yozuvlarining kirib kelishi
2. Oromiy yozuvining paydo bo'lishi va tarqalishi. Markaziy Osiyoda oromiy yozuv yodgorliklari
3. Qadimgi hind yozuvlari va ularning Markaziy Osiyoda qo'llanilishi
4. Yunon (ellinizm) davri yozuvi
5. Manixey (moniy) yozuvi

Tayanch ibora va tushunchalar: qadimgi ibtidoiy san'at, qoyatosh tasvirlari, epigraflika, epigraflik namunalar, qadimgi yozuvlar, belgisi – rasmiy yozuv, harfli yozuvlar, oromiy yozuvi va tili, finikiy yozuvi, braxma, kharoshiki, yunon yozuvi, manixey yozuvi.

Markaziy Osiyo hududlarida yozuv paydo bo'lganga qadar siyosiy-madaniy vaziyat va boshqa xalqlar yozuvlarining kirib kelishi

Ibtidoiy jamoa tuzumi davri san'ati ilk namunalari taxm. mil. av. 30-mingyilliklarga mansub. Ibtidoiy san'at ibtidoiy jamoa kishisiga dunyoni o'zgartirishda, oltirgan tajribalarini avloddan avlodga uzatuvchi kuch, dunyo to'g'risidagi tushuncha va bilimlarini aks ettiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Tushunchalar ibtidoiy odam uchun o'z tushuncha va ma'naviy madaniyatini, tasavvurini ifodalashga xizmat qilgan. Shular zaminida asta-sekin inson fiolliyatiining turli shakli va ko'rinishlari yuzaga kelgan. San'atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich bo'ldi. Ibtidoiy jamoa ichida jiftimoiy aloqalarni yuzaga kelishiga, ma'naviy olamni, ularning go'zallik haqidagi tushunchalarini shakllanishiga xizmat qilgan san'at o'z rivojida animizm (tabiat hodisalariga insoniy fazilatlarini berish) va totemizm (hayvonlarga sig'inish, urug' jamoasining kelib chiqishini biror hayvonga taqalishi) kabi afsona va qarashlarga tayanagan. Dastlab sodda shakli, belgi tarzidagi tasvirlardan asta-sekin hayvonlar kususiyati, ko'rinishi, xarakterini haqiqiy va to'laqonli tasvirini yaratishga o'tibdan va shular asosida kishilar hayoti, yashash tarzi haqida keng mulohaza yuritilgan murakkab kompozitsiyalar yaratish jarayoniga yetib borgan, realistik shakllar zaminida esa soddalashtirilgan handasiy shakllar darajasiga qadar ko'tarilgan belgi va simvol orqali murakkab his-tuyg'u, fikrlarni ifodalovchi naqsh mujassamlari va yozuvlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Ibtidoiy san'atning ilk namunalarida ovchilik bilan shug'ullangan inson o'z muhitini - ov manzaralarini aks ettirib g'orlarning devorlariga, qoyatoshlar va b. ga lablagan tasvirlarda (bo'yab, bo'rta hosil qilib ishlangan), loydan tayyorlangan, toshni yo'nib ishlagan haykallarda ovlaladigan hayvonlar (zubr, ot, kiyik, pantiom, yovvoyi hayvonlar va b.), odamzodlarni (ko'proq ayollarni) ifodalagan

(Fransiyaning La-Ferrasi, Lasko g'orlari, Ispaniyaning Altamir g'ori, Sahroi Kabirning Tassilin-Ajar degan joyidagi qadimiy odamlar yashagan qarorgohlar va b.). Ibtidoiy san'atkorlar tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) ga mansub asarlarida hayotni sinchkovlik bilan kuzatganlari ko'zga tashlanadi. Odam va odamsifat maxluqlar, qo'l izlari, chizma belgilar va boshqa tasvirlar kam uchraydi. G'ordagi tasvirlar qora, qizil, sariq va jigarrang mineral bo'yloqlar bilan ishlangan, barel ko'rinishidagi tasvirlar kam, sodda realizmga xos haykaltaroshlik (odam va hayvon shakllari), badiiy (suyak va yog'och) o'ymakorlik namunalari paydo bo'lgan. Tabiat ibtidoiy afsonalarga asoslangan insoniy sifatlarga ega bo'lgan obrazlarda aks ettirilgan. Me'morlik rivojlanib, uylar yerto'la tarzida dumaloq, to'rtburchak shaklida qurilgan, bunday xonalarga uzun yo'laklar o'rgali kirilgan. Ba'zan xomashyolar sifatida yirik hayvonlarning suyaklaridan foydalanilgan. Bunday san'at namunalari Ukraina, Belorussiya, Sibiridan ko'plab topilgan.

Ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tilishi san'atda yangi an'analarni yuzaga keltirgan. Tasviriy san'atda ko'p shaklli mujassamotlar paydo bo'lib, odamlar va hayvonlar harakatida, kurashda tasvirlana boshlagan. Amaliy bezak san'atining ko'p turlari (kulollik, to'qimachilik, metallga ishlov berish va b.) rivojlangan. Murakkab va mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi tasvirlar yuzaga kelgan, bezak naqsh yanada jadal rivojlangan, to'zg'or buyumlari, xonalar, kiyimlar naqshlar bilan bezatilgan. Mistr, Hindiston, Old, Kichik va O'rta Osiyo, Xitoyda dehqonchilik afsonalari bilan bog'liq san'at (naqshi sirlangan sopol buyumlar) keng tarqalgan, bezak naqshlar bilan bir qatorda mayda haykaltaroshlik rivojlangan. Me'morlik jamoa manzilgohlari qurilishida namoyon bo'lgan. O'rta Osiyo va Ikki daryo oralig'ida ko'p xonali uylar xom g'ishtli, novdalardan yig'ilgan sinchli, poli loy suvoqli qilib qurilgan. Neolit davrida yirik toshlardan iborat megalitli qurilmalar paydo bo'lgan.

Yozuv — muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi mulqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining to'la ma'nodagi ibtidosi, boshariyatning uzoq va murakkab tadrifiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan). Yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan. Og'zaki til (nutqning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi, ishlab chiqarish va savdo kengiyadi, boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va boshqa shartnomalar tuziladi, qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi, diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi; xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji

kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozuv zaruriyatiga aylanadi.

Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrifiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Rasmiy yozuv (piktografiya) yozuv yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan. Rasmi bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Piktografiya yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Arxeolog olimlarning bundan juda ko'p ming yilliklar ilgari insonlar tomonidan chizilgan turli rasmlarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlari ma'lum. Toshlariga, suyaklarga, g'or devorlariga o'yib ishlangan silma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasvirlar mavjud — bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir. Ana shu ibtidoiy tasviriy san'at ikki yo'nalishda — umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya'ni yozuv sifatida shakllana borgan. Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadimiy davrlarda anglab yetganlar. Shuning uchun ham rasmiy yozuv (piktografiya) dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo'lgan deyish mumkin. Piktografiyaning og'zaki til bilan bog'liq bo'lmaganligi uning turli til vakillari tomonidan ham tushunilaverishini ta'min etgan, ammo unda ifodalangan mazmunning turlicha, ixtiyoriy talqin etilishiga yo'l qo'ygan, mavhum tushunchalarni bunday yozuv orqali ifodalash deyarli mumkin bo'lmagan. Davlat tuzumi rivojlanib, turli yozishmalarga va bu yozishmalarning ayni bir xil talqin qilinishiga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borgan sari piktografik yozuvning o'z tomonlari ko'proq ko'zga tashlana boshlagan. Bu hol piktografik yozuvning taraqqiyotiga, ideografik va yerografik yozuvning shakllanishiga olib kelgan.

Rasmlarning soddallashtuvi, ularning o'zlarini ifoda etgan buyumlarning nomi, ramziyga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og'zaki til bilan doimiy bog'lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab beradi. Yozuv belgilari ideografik, yerografik belgilar sifatida muayyan so'zlarning ifodalashiga aylanadi, bu yozuv "og'zaki yozuv" yoki "ideografik yozuv" nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimiy logografik yozuv tizimlari (mistr yerografikasi, shumer mixxatlari, xitoy yerografikasi va b.) mil. av. 4-ming yillikning oxiridan mil. av. 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma'nodagi yozuv tizimlari dastlab qadimiy Sharqda vujudga kelgan.

Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi bo'lgan yozuvi bo'lib, u mil. av. 2-ming yilliklarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Harf-tovush yozuvining shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida inqilob bo'lgan. Bu yo'nalishdagi ilk yozuv ilkki yozuvdir. Finkiya alifbosining paydo bo'lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashirish borasida olg'a qo'yilgan qadam bo'lgan. Birinchi marta sof tovush yozuvi sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Shuning

uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon mil. av. IX asrdan boshlangan.

Harf-tovush yozuvi dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o'zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini hisobga olgan holda moslashtirish yo'li bilan bo'lgan.

O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turi yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avestio, pahlaviy, o'rxun-yenisey (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kiril, lotin yozuvlaridir.

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda qadimda yuzaga kelgan ko'plab yozma manbalarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati kattadir.

Epigrafik manbalar – epigrafik manbalarining yozma metosdagi o'rni (qat'iq jismlar – tosh, metall, sopol, va b.) asosan, qadimgi va o'rta asrlarga oid yozuvlar (bitiklar) ni to'plash, nashr etish va shartlashdan iboratdir. Qadimgi epigrafik manbalar Eronidagi bitiklar, turkiy bitiklar, mixxalarda yozilgan Ahamoniylar (mil.avv 550–330-yillar) tarixiga oid forsiy matnlar (Behistun bitiklari, Persopol bitiklari, Naqshi Rostam), turkiy tildagi qadimgi yozma yodgorliklar (ko'k turk, uyg'ur, moniy, braxma, sug'd, suryoniy, arab, lotin, arman yozuvlarida bitilgan) kiradi. O'zbekiston hududidagi epigrafik manbalar. Temuriylar davri epigrafik manbalar (masjidlari, madrasalar, maqbaralar, qabrovlari va b. yodgorliklarda yozilgan yozma metos).

Oromiy yozuvining paydo bo'lishi va tarqalishi. Markaziy Osiyoda oromiy yozuv yodgorliklari

Qadimgi Sharqda oromiy yozuvining paydo bo'lishi bevosita semit qabilalari uyushmasiga kirgan oromiy bilan bog'liq. Dastavval Suriyaning cho'l qismida istiqomat qilgan oromiyning Suriya va Mesopotamiyaning dehqonchilik uchun qulay bo'lgan unumdor vohalariga kelib o'rnatilishi miloddan avvalgi II ming yilning oxirida sodir bo'lgan. Miloddan avvalgi XI–VIII asrlarda oromiyning Mesopotamiya hududida bir qancha kichik davlatlari vujudga kelgan. Suriyaning Damashq va Xamat xududlari oromiyning muhim markazlari hisoblangan. Bu qabila nomi bilan atalgan oromiy yozuvi shimoli-g'arbiy semit tiliga mansub bo'lib, qadimgi yahudiy va finikiya tili bilan qardosh. Taxminan, miloddan avvalgi I ming yillikdan oromiy yozuvda finikiya harflari qo'llanila boshlangan. Ossuriya davlati tomonidan oromiyning omniy ravishda ko'chirilishi, Tigr va Yefrot daryolari oralig'idagi hududda oromiyning keng tarqalishi, savdogar va tijoratlar tomonidan savdoda oromiy tilining keng qo'llanilishi miloddan avvalgi I ming yillikda Mesopotamiya oromiy tilining asosiy mulqot tiliga aylanishiga olib kelgan.

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda o'rganish uchun qulay 22 harfdan iborat oromiy yozuvi Old Osiyoda hukmron bo'lgan akkad, shumer va urutu mixxatlarining qo'llanilishini keskin kamaytirgan. Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda ko'plab xalq va elatlarni o'z tasarrufiga birlashtirgan Kichik Osiyoda Sirdaryo bo'ylari va shimoli-g'arbiy Hindistongacha ulkan

sarhadlarni tarkibiga qamrab olgan dunyoning eng qadimgi va ulkan imperiyasi ahmoniyalar Eronida oromiy tili asosiy mulqot, ma'muriy boshqaruv va ish yurituvchi tilga aylangan.

Oromiy yozuvi – g'arbiy som yozuvlaridan biri, oromiylar mil. av. I-ming yillikning boshlarida finikiy yozuvi asosida shakllantirgan konsonant yozuv. Oromiylar finikiy yozuvining alifbo tarkibini o'zgartirmagan holda (oromiy alifbosi ham faqat undoshlarni ifodalovchi 22 harfdan iborat bo'lgan), unga ayrim o'zgarishlar kiritganlar: harflarni tashkiliy etuvchi unsurlar sonini kamaytirish yoki unsurlar shaklini o'zgartirish orqali juda ko'p harflarning shakllarini so'dalashganlar va yozuvni tez yozishga moslashtirganlar. Oromiy yozuvda so'zlar asosan ajratib yozilgan: dastlabki so'zlarni ajratuvchi belgilar – bir vertikal chiziq yoki nuqta qo'llangan, keyinchalik esa so'zlar o'rtasida bo'sh joy qoldirish bilan so'zlar o'zaro ajratilgan. Oromiy yozuvda harflar alohida-alohida, ilg'urasiz (2) harfni bir harf shakliga keltirmasdan) yozilgan; o'ziga xos xususiyatlaridan biri d va g harflarining farqlanmasligidir. Oromiy yozuvi va oromiy tili mil. av. VI–IV asrlarda yangi Ossur va qadimgi Fors davrlarida butun G'arbiy Osiyoda, hatto Misr, Kichik Osiyo va Hindistonda devonxonalarning rasmiy yozuvi va tiliga – xalqaro aloqa vositasiga aylangan. Oromiy yozuvi natijada monumental tosh bitiklarda, balki sopol buyumlarda (sopol parchalarida) va papiruslarda saqlanib qolgan. Bu yozuv g'arbiy som yozuvlarining mil. av. III–II asrlardagi ko'plab oromiy variantlarining, suryoniy, kvadrat shaklli yahudiy, arab, pahlaviy, so'g'd, uyg'ur, mo'g'ul yozuvlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan. Oromiy yozuvdagi eng qadimgi yozma yodgorliklar mil. av. IX–VIII asrlarga mansub.

Oromiy ko'ib Eronida mahalliy fors, Midiyada (midiyalik), O'rta Osiyoda parfiyalik, bag'riyalik, so'g'dlik va xorazmlik amaldorning og'zaki talaffuzi davomida ma'muriy va boshqa ishlarni oromiy tiliida rasmiylashtirgan. Tabiiyki, har bir viloyat (satraplik) amaldori oromiy ko'ibga ma'muriy ishlarni o'z tilida bayon etgan. Ko'ib esa ayri bir paytda har bir amaldorning mahalliy tilda bayon etgan fikrini oromiy tiliga o'g'ira borgan. "Ayni shu jarayon tushayti, – deb ta'kidlaydilar arxeolog va tarixchi – lingvist olimlar B.V.Rivcladze, V.A.Livshits, oromiy va mahalliy (O'rta Osiyoda – parfiya, bag'riya, so'g'd, xorazm) tillarining o'ziga xos leksik va grammatik mutanosibligi yuzaga kelgan. Bu bilan bir vaqtda oromiy tiliga mahalliy tillarning ta'siri kuchaygan, oromiy tiliga ayniqsa mahalliy ma'muriy atamalar va iboralar kirib borgan, oromiy so'zlar tuzilishi o'zgarib borgan".

O'rta Osiyoda oromiy xatining eng qadimgi namunasi miloddan avvalgi V–IV asrga oid. Sopol idish – xum sirtiga bitilgan bu yozuv arxeolog olim M.Mambetullayev tomonidan Katta Aybuyirga'l'a shahrini o'rganish davomida topilgan. Mutaxassislar fikricha bu xat bo'lagi tili xorazm emas, balki oromiy bo'lgan. Garchand shunday bo'lsada, bu xat oromiy yozuvining Oks va Yaksart oralig'idagi sarhadida tarqala boshlaganligining ilk namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq so'nggi tadqiqotlarga ko'ra qadimgi Eronda - Ahamoniylar davlatida oromiy tili va yozuvi qadimgi fors mixxati bilan bir qatorda davlatlarning ikkinchi tili va yozuvi bo'lib qolgan edi. Ahamoniylarning poytaxti - Taxti Jamshid (Persepol)dan oromiy tili va xatida bitilgan 500 dan ziyod loy taxtachalar topilgan. Milodiy tarixning birinchi ming yilligidan O'ra va Markaziy Osiyoda amalda qo'llanilgan bir qator yozuvlar - xorazm, avesto, sug'd, parfiyoni, paxlaviy, suryoni, moniy, uyg'ur va boshqalar oromiy yozuvi asosida shakllandi.

Oromiy tarmog'iga mansub yuqoridagi qator yozuvlar, asosan, o'ra davr eron tillarining matnlarini bitishga xizmat qildi. Ulardan so'g'd va moniy yozuvlari qisman turkiy til matnlariga moslashtirildi. Uyg'ur yozuvida esa qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek tili yodnomalari ma'lum darajada saqlanib qoldi. So'f oromiy tili va yozuvda bitilgan matnlar O'zbekiston hududi, umuman, O'ra Osiyodan hozirgacha topilgan yo'q.

Oromiylar (arameylar) - Arabiston yarim orolidan chiqqan ko'chmanchi somiy qabilalar. Mil. av. XIV-XI asrlarda G'arbiy Osiyo bo'ylab tarqalganlar. Ikk bor mil. avv. 3-mingyillik o'rtalariga oid manbalarda qayd etilgan. Oromiy tili milodning boshlarida G'arbiy Osiyoning asosiy og'zaki nutqiga aylangan. Oromiylarning avlodlari - hozirgi ossuriylar (oyzorlar).

Oromo tili - kushit tillaridan biri. Efiopiyaning makaziy va sharqiy hududlarida hamda Shimoliy Kenyada tarqalgan, 8 mln. dan ortiq kishi so'zlashadi. Lajjalari shimoliy (tulama, borana va boshqa) va janubiy (baraceta, uata va boshqa) guruhlariga bo'linadi. Efiop alifbosi asosida yozuvi 1977-yilda joriy etilgan. Oromiy tilida davriy matbuot chop etiladi, boshlang'ich maktablarda o'qish-o'qitish ishlari amalga oshiriladi, radio eshittirishlar olib boriladi.

Qadimgi hind yozuvlari va ularning Markaziy Osiyoda qo'llanilishi

Kushon podsholigi davrida Baqtriya bir necha tur yozuvlar qo'llanilgan. E.V.Riveldzening ta'kidlashicha birgina Tarmia (Termiz) atrofidagi qishloq va ibodatxonalarda Kushon podsholigi davrida o'lti turdagi yozuv qo'llanilgan. Bular oromiy xati asosida shakllangan oromiy-baqtriya yozuvi, qadimgi yunon alifbosi manbaida rivojlangan baqtriya yozuvi, qadimgi hind yozuvlari brahma va kxaroshthi, kelib chiqishi noma'lum va hanzugacha aniqlanmagan yozuvlardir.

Kushon davlatining ilk shakllanish bosqichida (miloddan avvalgi I milodiy I asrlar) Baqtriya o'lkasida paydo bo'lgan xatlar sirasiga qadimgi hind yozuvlari hisoblangan brahma va kxaroshthi ham kiradi. Bu turdagi yozuvlarning Oks (Amudaryo)dan shimoldagi hududda paydo bo'lishi shimoli-g'arbiy Baqtriya ya'ni Surxon vodiysida buddizmning kiritib kelishi bilan bog'liq ibodatxonalarining buniyod etilishi sabab bo'lgan.

O'ra Osiyoning janubiy qismida buddaviylikning paydo bo'lish sanalari haqida tarixchi arxeologlar (V.A.Litvinskiy, G.A.Koshelenko, B.Y.Stavitskiy, E.V.Riveldze) turlicha fikr bildirganlar. Jumladan bu nuqtai-nazarlarning eng so'ngisi arxeolog olim E.V.Riveldze tomonidan bildirilgan. E.V.Riveldze rahbarligida Toxariston ekspeditsiyasi a'zolari Kamptitepa

o'rnida mavjud bo'lgan shahar-qal'ani asrimizning boshlarida o'rganishlari davomida shahar qal'alaridan birida Yunon-Baqtriya podshosi Agatokning (bu hukmdor taxtini taxminan miloddan avvalgi 180-165-yillarda idora etgan) orqa tarafda (numizmatikada bu revers deyiladi) stupa tasviri tushirilgan tangasini topishga muvaffaq bo'lganlar. (Stupa - sanskritcha so'z bo'lib koinotning mujassami degan ma'noni bildiradi) Asosiy tana qismi silindr shaklida va tepa qismi gumbazsimon ko'rinishga ega bo'lgan inshoot.

Buddistlar uchun stupani ziyorat qilish buddaviylik to'at-ibodatining amallarida biri hisoblangan-mualliflar). Bu tangadagi stupa tasviriga asosan, E.V.Riveldze O'ra Osiyo shu jumladan Shimoliy Baqtriya aholisining buddizm bilan ilk bora tanishuvi miloddan avvalgi II asrda sodir bo'lgan degan fikrni bildirgan. O'ra Osiyoda eng qadimgi budda ibodatxonalari ilk bora Tarmia (Termiz)da buniyod etilgan Tarmia (Termiz) va umuman O'ra Osiyoning eng qadimgi buddaviylik ibodatxonasi Fayoztepa o'rnida mavjud bo'lgan.

Arxeologiya fanining yangi ma'lumotlariga ko'ra, Fayoztepa o'rnida ibodatxonaga miloddan avvalgi I milodiy I asrlar oralig'ida asos solingan. Kushon podsholigi hukmronligi davrida Surxon vodiysi ya'ni shimoli-g'arbiy Baqtriya birlin-kekin bir qancha buddaviylik ibodatxonalariga asos solingan. Bular eski Termiz yodgorligidagi yerning ostki va uski qismlarida buniyod etilgan umumiy maydoni 7 gektardan ortiq Qoratepa buddaviylik ibodatxonalari majmua, shahar tashqarisidagi Zo'rmo'la va vohaning Kushon davri makazari-Zartepe, Ayritom va Dalvarzintepa ibodatxonalardir.

Qadimgi hind yozuvlari O'zbekiston xududida asosan Surxon vodiysining buddaviylik ibodatxonalarini o'rganish orqali ma'lum. So'g'd, qisman Xorazm, ilk o'ra asrlarda Farg'onada buddaviylik san'ati namunalari mavjud bo'lsada (VII-VIII asrlarda Quva shahrida buddaviylik ibodatxonasi mavjud bo'lishiga qarag'andan) bu o'lkalarda hanzugacha qadimgi hind yozuvi namunalari kashf etilmagan. 2004-2006-yillarda Fayoztepa o'rnida ibodatxonani saqlash bilan bog'liq bo'lgan arxeologik tadqiqotlar davomida 70 dan ortiq turli hajmdagi sopol sirtiga qora siyohlarda bitilgan qadimgi hind yozuvlari namunalari topildi. Bu turdagi yozuvlar Qoratepa ibodatxonalari majmua (1998-yilgi ma'lumotlarga ko'ra) 150 dan ortiq bo'lib, yilma-yil yozuvlar soni ortib kelmoqda. Qoratepa ibodatxonalari majmua 1961-1994-yillar davomida to'plangan qadimgi hind yozuvlari hindshunos olimi V.V.Vertogradova tomonidan "*Индийская эпиграфика из Копы-мене и Чмапон Термезе. Проблема дешифровки и интерпретации*" M., 1995 ("*Эски Термиздаги Qoratepaning hind epigrafikasi*") nomida alohida kitob holida chop etilgan.

Tarmia (Termiz)ning buddaviylik ibodatxonalarini o'rganish davomida to'plangan qadimgi hind (brahma va kxaroshthi) xatlarida sopol idishlar sirtiga turli mazmunda xatlar bitilgan. Bu yozuvlarning ba'zi birlari buddaviy alifbosi va tasavvurlarini diniy hikmatlar shaklida tang'ib qilgan. Yozuvlarning yana bir qismi idish, uni taqdim etgan shaxs va idish egasiga bog'langan. Qoratepadan topilgan idishning birida bu ibodatxonaning

o'rinishda "Kanishta ibodatxonasi" deb nomlanishi aniqlangan. Fayoztepa, Qoratepadan topilgan xatlarda shuningdek bu ibodatxonalarda mavjud bo'lgan ta'limot bilan bog'liq iboralar bitilgan. Hindshunos olimlar tomonidan qilingan (V.V. Vertogradova, R. Solomon J. Fussman va h.k.) Fayoztepa va ayniqsa Qoratepa ibodatxonalari majmuidida topilgan hind yozuvlarining chuqur tahliliga ko'ra, Tarmita va uning atrofiga Kushon davrida buddaviylarni Xinyana ta'limining Maxasanghika maktabi mavjud bo'lgan. Maxasanghika maktabi vakillari buddaviylikka boddhisavva (shahzoda Siddharthning yoshligi) obrazini va stupaga sig'inish kabi to'at-ibodatning yangi ko'rinishlarini kiritganlar. Bu jarayon shimoliy-g'arbiy Baqtriya davriy jihatdan Fayoztepa o'rnidagi ibodatxonaga (miloddan avvalgi I milodiy I asrlar) asos solinishi bilan bog'liq. Fayoztepa va Qoratepa ibodatxonalari majmuidan topilgan davriy jihatdan milodiy I-IV asrlarga mansub qadimgi hind yozuvlari xatining chiroqlig'i bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, bu turdagi yozuvlar tajribali kalligraf yoki kalligraflar tomonidan bitilgan.

O'ra Osiyoda eng qadimgi budda ibodatxonalari ilk bora Tarmita (Termiz)da bunyod etilgan. Tarmita (Termiz) va umuman O'ra Osiyoning eng qadimgi buddaviylik ibodatxonasi Fayoztepa o'rnida mavjud bo'lgan. Arxeologiya fanining yangi ma'lumotlariga ko'ra, Fayoztepa o'rnidagi ibodatxonaga miloddan avvalgi I milodiy I asrlar oralig'ida asos solingan. Kushon podshohligi hukmronligi davrida Surxon vohasi ya'ni shimoli-g'arbiy Baqtriya bitta ketin yodgorligidagi yerning ostki va ustki qismlarida bunyod etilgan umumiyl maydoni 7 gektardan ortiq Qoratepa buddaviylik ibodatxonalari majmuidi, shahar va Dalvarzintepa ibodatxonalardir. 629-yilda Tohariston bo'ylab safar qilgan xitoylik Syuan Szan Tarmita (Termiz) mulkligida 10 budda ibodatxonasi va bu ibodatxonalarda mingga yaqin koshin borligi, Chag'oniyonda (ilk o'ra asrlarda Surxon vohasining shimoliy qismini o'z tasarrufiga olgan mulkligi, ibodatxonalari borligini ta'kidlagan. Ilk o'ra asrlarga oid Zangtepa (Surxondaryo viloyatining Angor tumani) imoratlarining birida qayin po'stlog'iga brahma yozuvida bitilgan 12 sanskrit qo'lyozma parchalari topilgan.

Brahma va ksharoshthi yozuvlarida bitilgan xatlarni va umuman buddaviylik matnlarini baqtriyaik buddaviy koshinlar chuqur o'zlashtirishga Oqibatda Tarmita (Termiz) va umuman Baqtriya - Tohariston o'lkasidan tungan taniqli targ'ibotchilar yetishib chiqqan. Toxaristonlik buddaviy rohib Dxarnaraksha 284-yildan 313-yilgacha Chan'anda (Xitoy poytaxtiga yaqin joy) yuzdan ziyod buddaviy asarni Xitoy tiliga tarjima qilgan va bir necha ming koshin ta'lim olgan ibodatxonaga asos solgan. Tarmita (Termiz)lik koshin

Dxarnamitra Tibetda buddaviylikning qaror topishida va buddaviy asarlarning xitoy tiliga tarjima qilishda muhim rol o'ynagan.

Yunon (ellinizm) davri yozuvi

Miloddan avvalgi 330-yilda Ahamoniylar Eroni davlati hukmronligiga barham bergan makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari 329-yildan Transokseaniya (Oks va Yaksart daryolari oralig'idagi hudud) ga yurish boshlaganlar. Miloddan avvalgi 329-327-yillarda Spitamen boshchiligidagi so'g'd va baqtriyaiklarning qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramasdan Oks va Yaksart daryolari oralig'idagi xudud makedoniyalik Iskandar qo'shinlari tomonidan egallangan. Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlarining So'g'd va Baqtriya o'lkalariga yurishi katta vayronagarchilik va tushkunlik bilan ajralib turadi. Bu jarayonni So'g'd va Baqtriya mavjud bo'lgan shaharlarning grek-makedon qo'shinlari tomonidan egallanishi (Afrosiyob-Marogand), bu o'lkalardagi aksariyat qishloq va shaharlarda hayot izlarini batamom so'nishidan kuzatish mumkin. Birgina Surxon vohasida makedoniyalik Iskandar yurishi arafasida mavjud bo'lgan 40 dan ortiq qishloq, qal'a va shaharlarning aksariyati grek-makedon qo'shinlarining harbiy muhorabasidan so'ng batamom tushkunlikka yuz tutgan. Makedoniyalik Iskandar tomonidan uning yurishi davomida qayta tiklangan va yangidan asos solingan shahar va shahar-qalalar o'zining ilk bosqichida grek-makedon qo'shinlariga harbiy tayanch bo'lib xizmat qilgan. Iqtisodiy va madaniy hayotni qayta tiklanib izga tushishi esa Salavkiylar hukmronligi davrida sodir bo'la boshlagan. Yunon-Baqtriya davlati shakllangan davda (miloddan avvalgi III asrning 50-yillarida) bu o'lkalarda iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayoni yununda jadallashgan, ilg'or yunon va mahalliy (baqtriya, so'g'd) mudaniyatlarining o'zaro birlig'i va xamkorligi sodir bo'lgan.

O'zbekiston hududidagi qadimgi o'lkalarning (Baqtriya, So'g'd, Xorazm) miloddan avvalgi IV asrning oxiri va miloddan avvalgi I asrga qadar mavjud bo'lgan yozuvlar tarixiga murojaat etsak, tarixchi lingvist olim (V.A. Livshin, E.V. Riteladze va h.k.) ahamoniylar Eroni davlatining makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi grek-makedon qo'shinlari tomonidan zabt etilishidan so'ng ham idora ishlarni o'zining yurgizish davom etgan. Ayni bir vaqtda davlat ishlari yuritilishda qadimgi grek tili va yozuvi ham qo'llanilgan.

O'zida yunon shaharsozlik xususiyatlarini to'la mujassam etgan Oyxonim o'rnidagi shaharda (Oyxonim Qunduz daryoning Amudaryoga qo'shilib joyida joylashgan ellinizm davri shahri. Dastavval bu shahar taniqli fransuz arxeolog olimi P. Bernar tomonidan Oksdagi Iskandariya deb atalgan edi. Keyinchalik P. Bernar hamkasblari F. Grenec, K. Rapenlar bu shaharni yunon-baqtriya shohi Yevkraid nomi bilan bog'lab Yevkraiidiya deb ataganlar) qadimgi grek yozuvi namunalarining juda ko'plab topilishi, Yunon-Baqtriya davlatining rasmiy boshqaruvi yunon tilida yuritilgan. Miloddan avvalgi III-I asrlarga oid yunon xatlari namunalarini O'zbekiston hududida

Kamptirpa shahar-qal'asida (XX asming 70-yillarida E.V. Riveldze boshchiligidagi tadqiqotlar) Baqtriya o'lkasining tarkibiy qismi bo'lgan Janubiy Tojikistonning Yavan (T.I. Zeymal tadqiqotlari) shuningdek Vaxsh va Panj daryolari qo'shilish joyida joylashgan Oks-Amudaryoga bag'ishlanib bunyod etilgan Taxti Sangindagi "Oks ibodatxonasi"ni o'rganish davomida to'plangan. (XX-asming 70-yillarida B.A. Litvinskiy boshchiligidagi Janubiy Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari talqinotlari)

Fransuz olimlarining Oyxonim yodgorligida ko'p yillar davomida amalga oshirgan arxeolog tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Oyxonim o'rtida miloddan avvalgi IV asming oxiridan ellin davri shahri vujudga kelgan bo'lib, bu shahar qariyb miloddan avvalgi II asming oxiriga qadar mavjud bo'lgan. Oyxonim (Oksdagi Iskandariya yoki Yevkratiya) shahri aholisining bir qismi yunonlar bilan bir qatorda mahalliy aholi ya'ni baqtriyaliklar bo'lgan. Baqtriyaliklar bu shaharni barpo etilishida va umuman shahar hayotida qolaversa, butun Yunon-Baqtriya podshohligi iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar. Oyxonim yodgorligidan topilgan grek yozuvlari orasida baqtriyalik amaldorlar ismlarining qayd etilishi bunga misol bo'la oladi. Oyxonim yozuvlari tarkibida miloddan avvalgi II asming o'talariga oid sopol idish bo'lalgiga oromiy uslubida bitilgan xat uchragan. Xat xo'jalik ma'nosida yaratilgan bo'lib, uch to'liq bo'lmagan qator va undan ko'chirmadan iborat. Oyxonim yodgorligidan topilgan bu xat bo'lagini olimlar P.Bernar va V.A. Livshits oromiy emas, baqtriya tilidagi yozuv deb aniqlagan. Oromiy alifbosi asosida shakllangan bu xatni mutaxassislar (P.Bernar, V.A. Livshits, E.V.Riveldze) oromiy-baqtriya yozuvi deb nomlanganlar. Bu yozuv Yunon-Baqtriya davlati hukmronligi davrida grek tili va yozuvi bilan bir qatorda mahalliy baqtriya aholisi bilan bog'liq ma'muriy idora ishlarini yurgizishda qo'llanilgan.

Manixey (moniy) yozuvi

Oromiy tartmog'iga mansub harf tovushli yozuvlardan biri. Bu yozuv turi "monaviy", "monuviy" ba'zan Yevropacha talafluz bilan "manixey" tarzida nomlanib kelinadi. Ko'p sonli manbalarda bu yozuvni moniy dinining asoschisi, mashhur musavvir Moniy ibn Ratak (216-276-yillar) yaratgan deyiladi. Abu Rayhon Beruniy ham shu fikrni aytadi. Ba'zi manbalarda esa moniy yozuvi III-IV asrlarda moniy dinining ko'hlari tarafidan qo'llanilgan aytiladi. Moniy yozuvi ham boshqa ko'pchilik yozuvlar singari o'ngdan-chapga qaray yoziladi va o'qiladi. Bu yozuv o'ta fons (pahlaviy), parfiyoni, sug'd, qadimgi turkiy tillaridagi matnlarni yozish uchun ishlatilgan. Moniy yozuvdagi yodgorliklar qaysi tilda yaratilgan bo'lmasin, ularning mazmuni deyarli moniy dini atisidalarni aks ettiratsi. Shuning uchun moniy yozuvdagi yodgorliklar yaxlit ravishda "moniy dini adabiyoti" deb yuritiladi.

Yodgorliklari V asrdan boshlab, VIII asrlargacha ko'chirilgan. Ulardan saqlanib qolgan namunalari XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston - Turon vohasidan topilgan. Eromiy (pahlaviy, parfiyoni, sug'diy) tillardagi matnlar

nisbatan ko'proqni tashkil etadi. Qadimgi turkiy matnlar bir muncha oz. Moniy yozuvdagi qadimgi turkiy yodgorliklarning to'la va eng kattasi "Xustanif" (moniyatning ibodat kitobi)dir. Bu yozma yodgorlikning ikki nusxasigina bizgacha yetib kelgan. Ularining biri Berlinda ikkinchisi Londonda saqlanadi bu yodgorlikning yaratilishi taxminan VII asrga mansub bo'lib, qolgan moniy matnlari, asosan, parchalardan iborat (moniy turkiy parchalarining bir qismi Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi). Qadimgi turkiy matnlar bitilgan moniy yozuvda 23-27 ta harf bor.

Nazorat savollari

1. Ibtidoiy san'at va yozuvning yuzaga kelishi qanday shart-sharoitlarda yuzaga kelgan?
2. Epiqrafik manbalarning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini qay darajada?
3. Oromiy yozuvi qachon va qaysi hududda paydo bo'lgan?
4. Oromiy yozuvi qaysi hududlarga qay tarqalgan?
5. Markaziy Osiyoning qaysi hududlarida oromiy yozuvi yodgorliklari topilgan?
6. Qadimgi hind, manixey (moniy) va yunon (ellinizm) yozuvlari Markaziy Osiyoning qaysi hududlarida keng tarqalgan?

Adabiyotlar

1. Ахунджанов Э. История книги в Туркестане. Древность. Средние века. — Челябинск, 2009.
2. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). — Т.: УМЭД, 2008.
3. Ртвеладзе Э., Лившиц В. Памятники древней письменности. — Т.: Узбекистан, 1985.
4. Каюмов А., Исхаков М., Отахужаев А., Соликов К. Кадимги ёзма ёлгорликлар ўқув кўпланма. — Т.: Ёзувчи, 2000.
5. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон хуудлида ёзувнинг пийдо бўлиши ва тараккиёти. — Т.: Янги аср авлоди, 2007.

6-Mavzu: Qadimgi Baqtriya, qadimgi Xorazm yozuvlari

Reja:

1. Qadimgi Baqtriya yozuvi
2. Qadimgi Baqtriya tili hujjatlarda Markaziy Osiyo tarixi
2. Qadimgi Xorazm yozuvi va uning ilmiy-tarixiy ahamiyati

Tayanch ibora va tushunchalar: . Baqtriya tili va yozuvi, Yunon-Baqtriya, qadimgi Xorazm yozuvi, Kata Oybo'yirgal'a, qadimgi hujjatlar.

Qadimgi Baqtriya yozuvi

Baqtriya, antik davr mualliflari asarlarida Baktriana O'rta Osiyoning qadimgi tarixiy-madaniy o'lkalaridan biri. Bu o'lkada forsida Baqtrish, zardo'shtilikning muqaddas kitobi "Avesto"da Bahdi nomi ostida tilga olingan. Bahdi Eronga nisbatan Sharqda joylashgan o'lkada degan ma'noga ega. Baqtriya o'lkasi tarkibiga Oks (Amudaryo)ning o'rta va yuqori oqimidagi xududlar, jumladan Tojikistonning janubiy qismi, Surxondaryo viloyati va Shimoliy Afg'onistonning Hindikush tog'lariga qadar yerlar kirgan. Bu o'lkada qadimgi Sharqda hozirda ham baqtriyona deb ataladigan ikki o'rtaqchi tuyalari, otlari va qimmatbaho la'l tosh (lazuri)lari bilan ham mashhur bo'lgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'ralarida ya'ni taxminan miloddan avvalgi 545-539-yillarda Baqtriya alamoniyat eroni qo'shinlari tomonidan zabt etilib, bu davlatning satrap (viloyat)ligidan biriga aylantirilgan. Miloddan avvalgi 329-327-yillar oralig'ida Baqtriya makedoniyalik Iskandar qo'shinlari tomonidan egallanib, uning imperiyasi parchalanishi oqibatida ma'lum bir davr oralig'ida Salavkiylar (miloddan avvalgi 311-yildan miloddan avvalgi III asming 50-yillariga qadar) tasarrufida bo'ldi. Miloddan avvalgi III asming o'rta qismidan boshlab Baqtriya Yunon-Baqtriya davlatining asosiy o'zagi hisoblangan.

Baqtriya tili va yozuvi - bu O'zbekiston janubida (Surxon vodiysi) va chegaradosh Tojikiston, shimoliy Afg'oniston yerlarida joylashgan tarixiy madaniy viloyat aholisining tili hamda yozuvidir. Baqtriya yozuvi ikki xil - oromiy va qadimgi yunon alifbosi asosida rivojlangan.

Baqtriya tili va yozuvlari yaxshi o'rganilmagan. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriyalar so'zlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari asosan miloddan birinchi asrlarga taalluqlidir. Miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada makedoniyalik tili va yozuvi yunoncha bo'lgan. Taxminan, miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy yozuvi asosida boxariy yozuvi ishlab chiqiladi, degan ilmiy farazlar mavjud. Chunki Oyxonim yodgorligida miloddan avvalgi II asr birinchi yarmiga tegishli boxtar yozuvi topilgan. Qadimgi Baqtriyada o'sha asrlarda bir vaqtin o'zida boxtar va yunon tili va yozuvi, braxma va kxorasha yozuvlari ham muomalada bo'lganligi haqida yozma va numizmatika materiallari topilgan.

Baqtriya yozuvining rivojlanishida yuqorida ta'kidlaganimizdek oromiy yozuvining o'rni muhim bo'lib, miloddan avvalgi II asrda oromiy-baqtriya yozuvi yuzaga kelgan. Eski Terniz (Tarnita) atrofidagi Fayoztepa o'rtidagi buddaviylik ibodatxonasini arxeolog L.I. Albaum tomonidan (1969-1976-yillar davomida) tadqiq etish jarayonida milodiy I asrga oid oromiy-baqtriya yozuvi uchragan. 2004-2006-yillarda arxeolog T. Annayev rahbarligidagi Fayoztepa ibodatxonasini qayta o'rganish jarayonida sopol sirtiga bitilgan davriy jixatdan miloddan avvalgi I milodiy I asr oralig'iga oid ikki xat bo'lagining topilishi oromiy-baqtriya yozuvi shakllanib rivojlana borish jarayonlarini bir qadar o'yinlashitiradi.

Baqtriya umuman O'zbekiston tarixida qadimgi til va yozuvning taraqqiyotida, gollaversa butun bir Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Kushon podsholigi davri (miloddan avvalgi I milodiy III asrlar) alohida o'rin tutgan. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalarning katta guruhini tarixiy manbalarda yuqechi (tohar)lar deb nomlangan. Bu yirik qabilalar uyushmasining ilk vatani yozma manbalarga ko'ra hozirgi Xitoy xalq respublikasining Gansu o'lkasi hisoblangan. Miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida bu qabilalar ittifoqi O'rta Osiyoning janubiy xududlari tomon yurish qilib, makedoniyalik Iskandar merosxo'rari boshqargan Yunon-Baqtriya davlatining hukmronligiga barham berganlar.

Miloddan avvalgi I asrda Buyuk Kushonlar davlatining shakllanish jarayoni yuz bergan. Kushon podsholari Kujula Kadfiz, (milodiy 30-80-yillar) Vima Tokto (milodiy 80-90 yoki 80-110-yillar) Vima Kadfiz (milodiy 90-100 yoki 110-120-yillar), ayniqsa Kanishka (milodiy II asrning birinchi choragi yoki birinchi yarmi) hukmronliklari davrida bu podsholik xududiy jihatdan kengaygan va ravnaq topgan. Kanishka davriga kelib Hindistonning katta qismi, Pokiston va Sharqiy Turkiston xududlarini o'z tasarrufiga olgan Kushon podsholigi ko'pina dunyoning to'rt yirik imperiyalari xususidan g'arbda Rim, Partiya va Sharqda Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan davlatlardan biriga aylangan. Ko'pina dunyoning yirik davlatlari bilan mavjud bo'lgan iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar o'z navbatida Kushon podsholigining iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa hozirgi Hindiston va Pokiston xududlarining katta qismini Kushon davlati tarkibiga kiritishi O'rta Osiyoning janubiy qismida dunyo dinlaridan biri buddizmni va uning bilan bog'liq me'moriy inshootlar, san'at va shu jumladan yangi yozuv turlarining ham paydo bo'lishiga olib keldi.

Numizmatik materiallar orasida Yunon-Baqtriya podshohlari rasmi hamda yunon yozuvi bitilgan ko'plab tangalar topilgan. Dastlabki Kushon podsholari Yevkratid va Gelioel tangalariga taqrid qilib tangalar zarb qila boshlaydilar. Bu tangalarning old tomonida noma'lum shohning boshi, orqa tomonida yunonlar xudosi Zevsning haykali tasvirlangan. Muhimi shundaki, bu tangalarning asosiy qismi Surxondaryo yodgorliklaridan topilgan. Materiallar tahliliga ko'ra, bu tangalar Dalvarzintepada zarb qilingan. Taxmin qilinishicha, bu tangalar Guyshuan

hokimlari tomonidan zarb ettirilgan. Dastlab bu tangalarning orqa tomonida yunon xudosi Zevs tasvirlansa, tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, vaqt o'tishi bilan tanganing orqa tomoniga endi Zevs o'rninga o'ring surati zarb qilina boshladi. Tangaga joylashtirilgan ot surati yangi davlat paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday tangalar hozirgacha asosan Surxondaryo yodgorliklaridan topilmoqda. Demak, dastlabki Kushon davlati shimoliy Baxtriyada tashkil topgan, uning poytaxti esa aynan Dalvarzinpepa bo'lgan. Tangalarda o'ring tasvirini paydo bo'lishi bilan uning old tomonidagi noma'lum shoh surati o'rinda aniq shoh tasviri paydo bo'ladi. Uning yuz qiyofasi Xolehayondan topilgan haykallarga o'xshab ketadi. Tanganing orqa tomonida endi o'ring o'zi emas, oltik, ot mingan kishi tasviri tushirilgan. Bu yerda yunon harflari bilan bitilgan to'rtta so'z ham bor. Birinchi so'z "hukmdor", ikkinchi so'z "Geray", uchinchi so'z haligacha o'qilmagan, to'rtinchi so'z "Kushon" deb o'qiladi. Shunday qilib, guysuan-kushon urug'idan bo'lgan birinchi hukmdorning nomi ma'lum bo'ldi. Afsuski, hozirgacha Geryning hukmdorlik vaqti aniqlanmagan. Taxmin qilinishicha, u mil. avv. I asrning II yarmida hukmronlik qilgan. Xitoy manbalarida Kudzuia Kadfzning podshohligi yuechi qabilalari Baxtriyaga kelib, yuz yillarcha vaqt o'tgach, Guysuan 5ta yuechi qabilalarini birlashtirib, Guysuan podshohligini tashkil etganligi haqida xabar beriladi. Demak, Geray Kudzuilagacha Guysuanaga hokimlik qilgan. Kudzuia Kadfz esa uning o'g'li yoki nabirasi bo'lib chiqadi.

Kushon davlati tarixida milodiy II asrning birinchi choragi yoki birinchi yarmida hukmronlik qilgan Kanishka alohida o'rin tutadi. Podsho Kanishka Bag'londa (hozirgi Afg'oniston xududi) bobokalonlari sharafiga sulolaviy ibodatxona bunyod etish bilan bir qatorda davlat ahamiyatiga molik quyidagi islohotlarni ham amalga oshirgan. Birinchi podsho Kanishka o'z nomidan zarb etilgan tangalardagi yunoncha laqablar baxtriya yozuvi bilan almashirilgan. Tangalardagi grekcha laqab (titulatura) o'rninga baxtriyacha "Shaonano shao Kaneshki kushano" ya'ni "Shohlar shohi Kanishka kushon" laqabi paydo bo'lgan; Kanishkaning bu islohoti hukmdorning mahalliy ya'ni O'rta Osiyoga xos an'analarga sodiqligiga yana bir ishora bo'lib, Kushon davri madaniyati, shu jumladan uning davriga kelib to'liq shakllangan tanga — pul muomalasining yanada taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan juda ulkan hududni o'z tasarrufiga olgan Kushon podshohligida dinlar bargorotligini ta'minlashga erishgan. Bu jarayon podsho Kanishka tomonidan buddaviylikka homiylik qilish, uni davlat dini deb e'ton qilish bilan bir qatorda Kushon davlati tasarrufiga xududa mahalliy dinlar shu jumladan zardo'shtiylik va Yunon dunyosiga xos ma'bud va ma'budalarga topinishni ta'minlanganligida kuzatiladi. Kanishkaning bu siyosati o'z davlatda mavjud bo'lgan dinlarga nisbatan bag'rikenglik ya'ni tolerantlikni yana bir namoyon etadi.

Uchinchidan butun davlat aholisi manfaatlaridan kelib chiqib bahar tilini umumdavlat tili deb tan olinishiga erishgan. Bu eng katta va tom

ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea'dir. Zero, umudavlat tiliga eishish mustaqillik yo'lini tanlagan har bir davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

To'rtinchidan podsho Kanishka tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning mantiqiy yakuni sifatida podsho ismlari davlat ya'ni boxtar tilga moslashtirib o'zgartirilgan. Bu milliylik mustaqil davlatning buyuk yutuqlaridan biridir.

Podsho Kanishka islohotlarining bir ko'rinishi uning tomonidan otabobolari sharafiga Bag'londagi Surxo'tol sulolaviy ibodatxonasi va uning zinapoyalari poylariidan biriga bitilgan "Katta Surxo'tol yozuvi" deb nomlangan mahobatli yozuvda o'z aksini topgan.

Shunday qilib, kushonlar davlat tepasiga kelgach, boxtar tili va yozuviga katta yo'l ochiladi. Kanishka davrida boxtariy tiliga davlat maqomi berilib, boxtar tili va yozuvi barcha sohalariga kirib boradi va yunon tili va yozuvini siqib chiqaradi. Budda dini ibodatxonalari peshaxalarida boxtar tili va yozuviga Kanishka va uning vorislarning farmonlari o'z aksini topadi. Masalan, sulolaviy ibodatxonalar hisoblangan Surxo'tal va Rabatak ibodatxona peshaxalaridagi yozuvlar bunga misol bo'la oladi. Hatto, Kanishka Rabatak ibodatxonasi devorlarida ajdodlari va o'zini suratini ishlatgan va ularning nomlari keltirilgan. Ajdodlar ro'yxatida (Kudzuia Kadfz, Vima Tako, Vima Kadfz) uning bobosi sifatida Vima Tako ismi keltiriladi. Rabatak sulolaviy ibodatxonada Kanishkaning bobosi Vima Tako nomini birinchi bor keltirilishi tarix fani uchun kutilmagan yangilik edi. Ungacha Kushon tangalarining orasida ismsiz shoh Soter Megas nomi bilan tangalar mavjudligini bilamiz. Ammo, u tangalar Vima Takotoga tegishlimi yoki Vima Kadfzga? Bu muammo edi. Bizningcha, nomisiz shoh tangalari Vima Takotoga tegishi bo'lsa kerak. Chunki, Vima Kadfz nomidan zarb etilgan tangalar bor. Shunday ham bo'lsin, u holda nima uchun Vima Tako o'z ismi bilan tanga zarb ettirmay, ismsiz shoh nomi bilan pul chiqartirgan. Bu masala ham hozircha muammo bo'lib qoladi. Rabatak yozuvining yana bir muhim jihati borki, u ham bo'lsa, Kushon podshosi Kanishka o'zi va sulolaviy ajdodlarining kelib chiqishini oriyatlardan ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu ma'lumot o'zbek xalqi etnogenezi uchun juda muhim faktidir.

"Baxtriya yozuvi va tili"ning tarix, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga kiritilishi bevosita mashhur olim V.Xenning nomi bilan bog'liq. 1957-yilda Shimoliy Afg'onistonning Bag'lon xududidagi Surxo'tol deb nomlangan Kushon podsholari sharafiga bitilgan mahobatli xahning topilishi fanda baxtriya yozuvining o'rganilish tarixini boshlab bergan edi. V.Xenning tomonidan "Katta Surxo'tol yozuvi"ning to'liq o'qilishi "Baxtriya yozuvi" atamasining tanga kiritilishiga va unga qadar bu kabi xat namunalariga nisbatan "to'xtar", "kushon" va "kushon-baxtriya" xatlari kabi nomlarning qo'llanishiga batamom chek qo'ydi.

Baxtriya yozuvi ta'rif 629-630-yillarda Toxariston (Baxtriya o'lkasi milodiy 383-yildan boshlab Tohariston deb atala boshlangan Xitoycha Tuxolo. Toxariston nomining kelib chiqishi qadimgi yunon va rim mualliflari qoldirgan,

miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida Yunon-Baqtriya podshohligining hukmronligiga barham bergan qabla nomi toharlarga bog'liq. Tohar so'zi xalqning nomini anglash bilan bir qatorda IV asrdan boshlab geografik ma'no ham kasb etib, tohar xalqi kelib o'rnatilgan o'lkaning nomini ham anglagan.

Tohar so'zi etimologiyasi (Tibet etimologiyasiga ko'ra) "oq bosh" degan ma'noni bildiradi. Tohariston hududiy jihatdan Baqtriya teng bo'lib, o'z tasarrufiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini birlashtirgan bo'ylab safar qilgan xitoylik buddist sayyoh Syuan Szan (Syuan Dzan) ma'lumotlarida uchraydi. "Ularning asosiy harflari 25 ta. Ular chapdan o'ngga o'qiladi". Mutaxassislar boxtar xatini ikki ya'ni mahobatli yoki lapidar hamda kursiv ko'rinishda mavjud bo'lganligini ta'kidlaydilar. O'zbekiston hududidagi eng dastlabki baqtriya yozuvlari 1962-yilda arxeolog B.Y. Slavitskiy rahbarligida Eski Termizning Qoratpea g'orsimon buddaviylik ibodatxonalari majmuni o'rganish davomida aniqlangan. Bu yozuvlar ibodatxona devor betlariga bu joyga tashrif buyurgan shaxslar tomonidan kursiv uslubida bitilgan bo'lib, u milodiy III-IV asrlarga oid. Sopol sirtiga qora siyohda bitilgan kursiv baqtriya yozuvlari milodiy II asrga oid. Qoratpea topilmalaridan so'ng bahar kursiv yozuvlari Surxon vohasining bir qancha qadimiy shahar, shahar-qal'a va buddaviylik ibodatxonalari o'rganish jarayonida topilgan bo'lib, ular quyidagicha davrlanadi.

Eng qadimgi baqtriya yozuvlari qayd etilgan yodgorliklardagi inshoot va madaniy qatlamlar va ularning sanalari.

1. Mirzaqulepa. Miloddan avvalgi I milodiy I asrlar.
2. Fayoztepa. Milodiy I asr.
3. Kampirtepa. Milodiy II asrning birinchi yarmi.
4. Qoratpea. Milodiy II-IV asrlar.
5. Ayritom. Milodiy II-III asrlar.
6. Zartepa. Milodiy III-IV asrlar.
7. Dalvarzinlepa. Kushon davri.
8. Xotinrabot. Kushon davri.
9. Xayitobotepe. Milodiy IV-V asrlar.

Surxon vohasi (qadimda Shimoliy-g'arbiy Baqtriya)ning Kushon davriga oid yodgorliklarida kashf etilgan yozuvlar "Katta Surxo'tol yozuvi" singari alohida ilmiy ahamiyatga molik. Bular Ayritom va Kampirtepa yozuvlaridir. Termiz shahridan 20 km sharqda Amudaryo bo'yida joylashgan Ayritom yodgorligi XX asrning 30-yillaridayoq jahonga muzika asboblari o'ynayotgan oq toshga o'yib ishlangan haykallar majmuni bilan mashhur bo'lgan edi. 1979-yilda arxeolog olim B.A. Turgunov tomonidan Ayritomdagi buddaviylik ibodatxonasi bilan bog'liq inshootlari o'rganish davomida yana bir muhim kashfiyot sodir bo'ldi. Buddaviylik ibodatxonasining bir qismida oq toshga o'rnatilgan haykallar majmuni kashf etilib, oq tosh (asos) yuza qismida mahobatli baqtriya yozuvi borligi aniqlandi. Ayritom yozuvi yillar davomida tabiiy ofat va boshqa turti sabablarga ko'ra katta talotat ko'rinishga

qaramasdan bahar yozuvining tarqiyoti nuqtai-nazaridan o'ta beqiyosdir. Ayritom haykallar majmuni va undagi yozuvni tadqiq etgan mualliflar (V.A. Livshits, E.V. Riveldze, B.A. Turgunov) fikricha bu tosh asosda dastavval 350-360 harf bo'lib yuqori qismidagi 5 qatorning har biri 60-65 harfdan, quyi ya'ni 6 qator 51 harfdan iborat bo'lgan. Yozuvdan jami to'rt yoki qisman 260 ta harf saqlanib qolgan.

Ayritom yozuvida Kushon podshosi Xushivkaning to'rtinchi yil hukmronligida Shudra ismi shaxsning Ayritom undagi tashlandiq holga kelib qolgan buddaviylik ibodatxonasini tiklashga yuborilganligi, ibodatxonaga Kanishka nomi berilganligi haqida Ayritom yozuvi O'rta Osiyoda toshga bitilgan yagona mahobatli yozuv sanalishi bilan bir qatorda, Ayritomdagi buddaviylik ibodatxonasining bunyod etilishi va qayta tiklanishi bilan bog'liq sanalarni oydinlashtiruvchi bag'oyatda qimmatli yozma manba bo'lib xizmat qiladi.

Baqtriya yozuvi namunalari aniqrog'i qayin po'stlog'iga bitilgan qo'lyozmalar Termizdan 40 km g'arbda joylashgan Kampirtepa yodgorligi orqali ma'lum. (Kampirtepa ellinizm va kushon podshohligi davriga oid umumiy maydoni to'rt gektardan iborat shahar-qal'a) Kampirtepa tadqiqotchisi tanikli arxeolog olim E.V. Riveldze o'zining bu yodgorlik tarixiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarida Kampirtepa va uning yonidagi miloddan avvalgi V-IV asrlar oid Shor'tepani yozma manbalar bilan taqqoslab Oks bo'yidagi kechuv "Pandaxeyon" deb aniqlagan. Kampirtepa yonidagi Shor'tepa ahamoniyar Eroni hukmronligi davridayoq Oksdagi asosiy kechuv joyi bo'lib xizmat. Kampirtepa yodgorligiga bag'ishlanib chop etilgan so'nggi ilmiy maqolalarda Kampirtepa E.V. Riveldze tomonidan Oksdagi Iskandariya deb talqin etilmoqda).

Kampirtepada qayin po'stlog'iga bitilgan baqtriya yozuvlari 1983-yilda qal'aning shimoli-sharqiy burchagidagi xonalarning birida uchragan. Kampirtepadan har xil kattalikdagi (2,2x1,6 sm; 2,9x1,2-1,3 sm; 0,8x0,3 sm) yoki bir-biriga yopishgan maycha shaklidagi yupqa qayin postloqlarining kengligi 5,0 sm bo'lib 0,1-0,2 sm qalinlikda saqlanib qolgan.

Kampirtepa yozuvlari baqtriya kursiv xatida bitilgan. Yodgorlikdagi bu yozuvlar majmuni Kanishka nomidan zarb etilgan tanga asosida milodiy II asrga oid deb aniqlangan. Milodiy 383-yildan Baqtriya yozma manbalarida Tohariston deb yuritila boshlagan. V asrda Toharistonda va shuningdek, O'rta Osiyoning katta bir qismida o'z hukmronligini o'rnatgan eftaltilarning rasmiy yozuvi Afrosiyob suratlaridagi ma'lumotlarga ko'ra baqtriya yozuvi hisoblangan. Afrosiyob devoriy suratidagi yozuvda Samarqand ixshidlar saroyiga tashrif buyurgan Chag'oniyon elchilari sardori "dapirpat" ya'ni kitoblar boshlig'i ("Chag'oniyon" ma'muriyati sarkotibi-mualliflar) bo'lgan. Baqtriya yozuvi namunasi Zangtepa (Surxondaryo viloyatining Angor vohasi)da 1959-1962-yillarda arxeolog olim L.I. Albaum boshchiligidagi tadqiqotlar davomida ham qaydetilgan.

Xulosa qilib aytganda V-VIII asrlar davomida baqtriya yozuvi Baqtriyaning o'rta yuzaga kelgan Toharistonda keng tarqalgan va o'lkaning

rasmiy xati hisoblangan. Bu fikrni milodiy 629-yilda To'xariston bo'ylab sayohat qilgan xitoylik buddadisi-kohin Syuan Szan yozib qoldirgan ma'lumotlar yana bir bor tasdiqlaydi. "Adabiy asarlar (soni) ularda (To'xaristonda) asta-sekin ko'paymoqda va son jihatidan Suli (So'g'd) xalqidan o'zib ketgan".

Qadimgi Baqtriya tili hujjatlarda Markaziy Osiyo tarixi

Qadimgi Baqtriya, ilk o'rta asrlarda esa To'xoriston deb atalgan Amudaryoning yuqori havzalarini o'z ichiga olgan hudud aholisining tilida yaratilgan baqtriycha hujjatlarning soni bugungi kunga kelib yuzdan oshdi. Ma'lumki, sharqiy eroniy tillar guruhiga mansub qadimgi baqtriyaliklar mil. avv. II-I-asrlarda yunon yozuviga asoslangan o'z yozuv tizimini ishlab chiqqan edilar. Kushon saltanati (mil. avv. II-mil. III-asrlar) o'z tayanch hududi sifatida Baqtriyani tanlagach, rasmiy ish yuritishlarini mahalliy aholi tilida olib bora boshlaydi. Bu an'ana milodiy asr boshlaridan to X asrgacha davom etdi va baqtriycha manbalar xronologiyasi qariyb ming yilga yaqin davrni qamrab oldi.

Kushonlardan so'ng Xionitlar (IV-V asrlar), Kidarilar (IV-V asrlar), Eftalitlar (420-560) kabi davlatlar ham o'z boshqaruv markazlarini Baqtriya (bu davrda To'xoriston) hududida barpo qilgach, baqtriy tilida ish yuritish an'anasini davom ettirishdi. 580-yillardan boshlab To'xoriston Turk xoqonligi tarkibiga kirgan paytda ham baqtriy tilida yozishmalar olib borish, hujjatlar tuzish va tangga zarb qildirish an'analari saqlab qolindi. Hatto, VII asr oxirlari – VIII asr boshlariga kelib, bu yerda arablar hokimiyati o'rnatilishi natijasida arab tili hukmron tilga aylansa-da, mahalliy aholi arab tili bilan bir qatorda o'z elitoylarida baqtriy tilidan foydalanishda to X asrgacha davom etdi.

Aksariyati Shimoliy Afg'onistonning tog'li hududlaridan topilgan va ilk bor o'tgan asrning 90-yillarida taniqli ingliz eronshunosi N. Sims-Villyams tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan baqtriycha hujjatlar oldi-sotdi, ijara berish, hadya kabi huquqiy sohalarni qamrab olishi barobarida, bir qismi amaldorlarning o'zaro yozishmalaridan ham iboratdir. Ushbu tilida yaratilgan hujjatlar, asosan, ilk o'rta asrlarga taalluqli bo'lib, Eftalitlar, Turk xoqonligi va arab hokimiyati ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi.

Baqtriy hujjatlarida bir necha o'nlab, asosan, sharqiy eroniy va qisman turkiy asosli tarixiy shaxs ismlari, lavozim, unvon, sifat (epitet) va laqablar, joy nomlari aks etgan. Xususan, N. Sims-Villyams 10 ga yaqin hujjatlarda turkiy atama, ism va unvonlar o'rin olganini aniqlagan bo'lib, ularning xoqonlikka aloqadorligi bevosita yoki bilvositadir. Darvoqe, garchi baqtriy tili xoqonlikning markaziy hududidan ancha uzoq bo'lgan To'xoriston va Kobul vodiysida yashagan etnoslarning rasmiy yozishma tili bo'lsa ham, ushbu tilida yozilgan hujjatlarning salmoqli bir qismi ayнан xoqonlik boshqaruv tizimiga aloqador unvon va epitetlarni o'zida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Jumladan, ularda ilk o'rta asrlarda ham etnonim, ham davlat nomi sifatida qo'llanilgan turk etnonimiga aloqador *topka, topocayō, oiporopoko* iboralari bilan bir qatorda xoqon, eltabar,

tudun, tarxon, bek kabi xoqonlik boshqaruviga xos o'nlab unvon va epitetlar uchraydi.

Baqtriy tili hujjatlarning Turk xoqonligiga aloqadorlari 640-yillardan boshlanib, to xoqonlikning so'nggi yillari – 740-yillargacha davom etadi. Hujjatlarda xoqonlar tomonidan mahalliy hukmdorlarga taqdim qilingan eltabar unvon, xoqonlikning nazoratchi noiblari – tudun bilan bog'liq ma'lumotlar nisbatan ko'proq uchraydi. Ayniqsa, hujjatlarda boshlama so'z (adresat) "Xoqonning xizmatchisi, (falon hukmdorlik) boshqaruvchisi (bo'lmish) Eltabar huzurida tuzildi" shaklida boshlanishi yoki amaldorlarga nisbatan "qutlug' tapug'lug' bilga sebuk" ("qutlug' xizmatchi, dono, sevkli") tarzida sof turkiy epitetlar uchirishi ularni qadimgi turk davlatchilik an'analari manbasi sifatida o'rganish zaruriyatini qo'yadi.

Bir qator jihatlari bilan mazkur tilagi manbalar sug'diy tili manbalarga o'xshab ketadi. Chunki ular ham sug'diy hujjatlar kabi boshqaruvda baqtriy-turkiy an'analari o'zaro qorishgan hududda yaratilgan. Shuningdek, bunda mazkur hududning qariyb 200 yilcha xoqonlik tarkibida bo'lishi va xoqonlikka aloqador To'xoriston yabg'ulari (620-750), Kobul Tegmishohlari (630-840) kabi sulolalar hukm surib, o'z ish yuritishlarini baqtriy tilida olib borganliklarini ham ko'zdan qochimaslik kerak.

Muaxassislar baqtriyaliklar milodiy 232-yilni o'z eralarining I-yili deb olishganini aniqlaganlar. Masalan, shartli ravishda Doc. N deb raqamlangan hujjatning kirish qismida ko'rsatilgan 407 raqamiga 232 raqamini qo'shsak, 639 raqami hosil bo'ladi. Demak, ushbu hujjat 639-yilda yaratilgan.

Dok. N raqamli hujjat

(639-yilda tuzilgan kufolat xati)

"407 yilda, Xandig oyida, Ashhad kunida muhrlangan ushbu hujjat va kufolat xati shu yerda, ya'ni Samingon viloyatidagi Sandaranda, Rub hukmdorlari mahkamasida shon-sha'rlarga to'la Xogonning tapug'lig' eltabari [bo'lmish] Rub hukmdori Frama-rizm Shaburan huzurida, Parpaz hukmdori hamda Vilarzan mulkining egasi Inal-tarxon Xuxxanning ishtirokida va Rub hukmdorlari nozini Surening ko'z-o'ngida yozildi.

Hozir: Men, Biyan-biching Samsit [ismli] o'g'li, [bizkim] Mchomning mahalliy aholisidamiz, unug'-aymog'imiz (xonadonimiz)ni Biyanbhton deyshtati – Rub hukmdorining xizmatchilarimiz, Sizga – Rub hukmdorlarining xizmatchilari [bo'lmish], xonadoni Burzmiran deb ataladigan Maat aholisiga [mansub] – *Belling Tak* (ismli) o'g'liga, shuni kufolat beramizki, biz jamoa bo'lib shu qarorga kelib: eridan boshlab, kuch bilan biron zarra keltirmaymiz, o'ltirmaymiz yoki [yomonlik] qilmaymiz, na yer-mulka, na qasrga (va) uning atrofiga, na [uning] xo'liga va bolalariga, na [uning] aka-ukasiga, yoki uning o'g'liga, na uning boshqa ota avlod qarindoshlariga, na sug'oritilgan yerlariga, na uzun bog'lariga, na qul qilingan (haramidagi) qizlariga va qullariga, na tillalariga (yoki ulardan iborat narsalar) va kumushlarga, na ... (matn uzilib qolgan, – [legmaymiz] – tarj.] hayvonlarga, minglab dinor [qiyimat]dan boshlab bir

tanlagacha bo'lgan [qiyimadagi] [narsalarga] ziyon keltirmaymiz [va] Vuralan oilasiga nisbatan yo'qotishga sabab bo'ladigan har qanday tabqitlash, bug'unchilik va huquqqa qarshi harakat [sodir etmaymiz]; bu yerda men – Samsi, nima qilib bo'lsa ham [bunday holatlarga yo'l qo'yilishiga qarshi turaman], aka-ukalarim, o'g'illarim, [va] avlodlarim, qonunbuzarlik va bug'unchilik bilan birin ziyorat-zahmat yetkazsak, shunda men – Samsi [va] mening aka-ukalarim, o'g'illarim va ularidan keyingilar [avlodlar], o'zlarimiz o'linga mahkum bo'lamiz va biz Rab hukmdorining xazinasi mingga dinor olin to'laymiz hamda biz yana ming dinor olin to'laymiz sizlarga – Tak, sizning aka-ukalaringizga, o'g'illaringizga va avlodlaringizga. Va shunda, jartima to'lab bo'lingandan keyin [ushbu] kufolat shartnomasi, [va] ni ushbu] muhtalagan hujjat, maqbul va qonuniy kachga ega hisoblanadi...

Shunday qilib, bu yerda yozilganlar hozirdan abadiyatcha [amal qiladi]. Va ning muhtalagan hujjati yozib qo'yilgan. Kim tuzganidan qat'iy nazar, ushbu [hujjat] qonuniy deb hisoblanishi va vaktlarga egaligi to'g'ri bo'lib, siz – Tak [va] sizning xo'jaligingizdagi a'zolar uchun ham yozilgan; bunga kufolat bo'lganiniz uchun biz barcha dushmanlarimizni bartaraf etamiz va o'z xonadonimizni himoya qilamiz".

Baqriya tilida yozilgan hujjatlarning katta qismi tanilgan eronshunos N. Sims-Villyams tomonidan o'qib chiqilgan va 2000-yilda "Bactrian Documents from Northern Afghanistan" ("Shimoliy Afg'onistonning baqriyacha hujjatlari") nomi ostida ingliz tilida nashr etilgan. Mazkur hujjatlardan bir qismi ilk bor o'zbekchaga Sherzod Ziroyev, G'aybullab Boboyorov, Andrey Kubatlar tomonidan tarjima qilingan.

Qadimgi Xorazm yozuvi va uning ilmiy-tarixiy ahamiyati

Qadimgi Xorazm hududida yashagan xorazmiylar deb atalgan xalq qo'llagan oromiy tarmog'iga mansub harf-tovushli yozuv. U yerda yashagan xalq "xorazmiy" deb atalgan qadimgi tilda so'zlashgan. Xorazmiy yozuvi ana shu tilidagi matnlarni yozish uchun qo'llangan. Oromiy tarmog'iga mansub harf-tovushli xorazmiy yozuvi uzog'i bilan IX asrning boshlarigacha amalda bo'ldi. Oromiy alifbosiga asoslangan xorazmiy yozuvda 19 ta harf belgi bo'lgan.

Oromiy tarmog'idagi barcha alifbolar kabi bu yozuv turi ham o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Arablarning O'rta Osiyoni zabt etishi va islom dinining tarqalishi bilan oromiycha xorazmiy yozuvi asta-sekin iste'moldan chiqib boshladi. Bu yozuvdagi matnlar XX asrning o'ttizinchi yillari oxiridan boshlab qadimgi Xorazm hududida olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida topila boshladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi - bu xumning sirtida tasvirlangan xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U Katta Oybo'yirga'l'a shahar xarobasidan topilgan. Arxeologik ma'lumotlariga ko'ra bu yozuv mil.avv. V-IV asrlarga tegishlidir. Mil.avv. IV-III asrlarga oid yana bir qadimgi xorazm yozuvi Qo'yqirilganqal'adan topilgan sopol idishning sirtida saqlangan. Bu manba yagona "aspabarak" - "otliq", "charandoz" so'zidan iboratdir.

1976-1977-yillarda professor M.Mambetullayev rahbarligidagi arxeolog-olimlar guruhi Katta Oybo'yirga'l'ani qazish paytida 3 ta katta xum topib oladi. Bu xumning suv va don saqlash uchun yasalganligi aniqlanadi. Xumlarning birida tilg'i bilan bitilgan yozuvlar mavjud ekanligi ma'lum bo'ladi. Ya'ni, bo'yi 1 metr keladigan o'rta pishirilgan xumdagi qadimgi Xorazm tamadulligiga tegishli bu yozuvlar Markaziy Osiyoda eng eski yozuv sifatida fanda qayd qilingan edi.

Qo'yqirilgan qal'a - miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlarga oid yodgorlik. Hozirgi Qoragalpog'istonning To'rko'l shahridan 22 chaqirim shimoli-sharqda joylashgan. Qal'a ichida qasr, ibodatxona va maqbarasi bo'lgan.

Ibodatxona ichidan sopol tobutlar, idish-tovoqlar, xum va ko'zachalar, mavdonlar topilgan. Xum, sopol buyumlar va ularning bo'laklariga turli yozuvlar qayd etilgan. Ular orasidagi ashyolarning yetitasiga yozuv bitilgan. Ular pishirilgan sopolga tush bilan bitilgan. Bu yozuvlar, tarix arxeologiya va tilshunoslik fanlari dalillariga asoslanib, xorazmiy yozuvining dastlabki namunasi - miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub, deb hisoblanmoqda.

Tuproqal'a. Miloddan avvalgi I va milodiy VI asrlarga oid qadimgi shahar xarobasi. Qoragalpog'istonning hozirgi Berruniy tumani hududida milodiy III-IV asrlarda xorazmshohlarning qarorgohi joylashgan edi.

Tuproqal'adagi yemirilib ketgan ikki qavatli saroyning xarobalaridan juda ko'p moddiy madaniyat ashyolari, haykallar va devorli rasmlar ochildi. Bular orasida bir guruh, yozma manbalar ham mavjud bo'lib, ular yog'och, quritilgan loy va terga yozilgan. Ularning hammasi 100 dan ortiq, hujjatlardan iborat. Bu hujjatlar binoning ikkinchi qavatida saqlanib, o'ziga xos bir butun podshoh arxivini tashkil etadi. Ularning bir turkumi IV-VIII asrlarda yillik aholi jon boshi to'lovlarini, yana bir turkumi xo'jalik hujjatlari - tilxat, vasiga, saroy foydasiga natural soliq, to'lovlar haqidagi qaydlar bo'lib, Qadimgi Xorazmda Afrig'iylar davrlarining ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlari to'g'risida tarixiy dalillar keltirilgan. Tuproqal'adan topilgan podshoh arxivi milodiy III-IV asrlarga taalluqli bo'lib, xorazmiy yozuvi bilan yozilgan. Bu ashyolar mukammal matnlarga ega bo'lgan katta to'plan hisoblanadi.

To'qqal'a. Miloddan avvalgi IV va milodiy III asrlarga oid shahar qal'a hisoblanadi. Nukusan 14 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan. To'qqal'a ichidagi qabristondan 40 dan ortiq, yozuvli "ossuuriy" (sopol tobutlar) topilgan.

Mizdakxon. Miloddan avvalgi ming yillikning o'rta. Qoragalpog'istonning Xo'jayi tumandagi qadimgi shahar xarobasi. Mizdakxondagi qabristondan zarдушitylarning yozuvli ossuuriylari topilgan.

Yakka Porson. Milodiy VIII asrga oid yodgorlik majmuasi. Qoragalpog'istonning Berruniy shahri sharqi (Burgutqal'a cho'li)da xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkomni qazishlar vaqtida qo'lga kiritilgan topilmalar orasida ikkita xorazm bitigi juda qimmatlidir. Ularning biri teriga yozilgan yetti satrning boshlangich qismi. Ikkinchisi yog'ochga yozilib, to'la bo'lmagan uch satrdan iborat. Bu hujjatlar milodiy VIII asrga oid.

Хронологик жиҳатдан навбатдаги хоразмий yozuvi milodiy I-VIII asrlar oralig'ida zarb etilgan qadimgi Xorazm tangalarida uchraydi. Tangalarda Vazamat, Artamax, Sanobar degan qadimgi Xorazm podshohlarining nomlari yozilgan. Uchinchi guruh yozuvlar Tuproqal'dagi qadimgi Xorazm podshohlarining arxividan topilgan. Ular teriga, yog'ochga va g'isht taxtakachlarga yozilgan 114 parcha xo'jalik hujjalari, ya'ni tevarak-atrof qishloqlardan keltirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdori ro'yxati, kiritim-chiqim buxgalteriya hisobi va boshqalar bo'lib, ular milodiy III-IV asrlarga tegishli edi. Qadimgi Xorazm yozuvining to'rtinchi guruhi VI-VIII asrlarga oid bo'lib, bular kumush qadachalardan iborat. Ularning sirtiga usta va egasining nomi bitilgan. Beshinchi guruh yozuvlar Tokqal'adan topilgan ossuariylar sirtiga yozilgan. Tokqal'a yozuvlari butun bir kutubxona. Nihoyat oltinchi guruh yozuvlar Mizdashkan yodgorliklar majmuisidagi Govurgal'adan topilgan.

Olimlar shu paytgacha qadimiy Xorazm hududidagi eng eski yozuv deya qo'yqirilganqal'a (Ellikqal'a tumani hududida joylashgan)da topilgan idishdagi yozuvni hisoblab kelgandi. Qo'yqirilganqal'adagi bu yozuv esa miloddan avvalgi III-II asrga tegishli aramey yozuvidir. Keyinchalik S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan hozirgi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan, qadimiy xorazmshohlar shahri – Tuproqal'ada ham milodiy III-IV asrlarga tegishli yozuvlar topilgan. Katta Oybo'yqal'adan topilgan, xorazm yozuvining eng qadimiy nusxasi hisoblangan xumdag'i yozuvni fors tili bo'yicha mutaxassis, butun dunyoga mashhur tilshunos olim V.A.Livshits "mri XI h III.III. III." deb o'qigan, ya'ni "11 mari 9x". Bu xumning sig'imlilik hajmini bildiradi. "Mari" o'lechoy birligi. Eronda qadimiy Ahmomiylar davridan ma'lum bo'lgan. Qadimiy ma'balarda u "maris" deb nomlangan. 1 mari 16,5-17 litrga to'g'ri kelgan. 9 x esa 1 maridan kamroq o'lehamni bildirgan. Demak, xumning sig'imlilik hajmi deyarli 200 litrga yaqin. Xumni torqan olimlar uni rekonstruksiya qilib, ichiga suv qo'yib ko'rganda 195,5 litr suv sig'gan. Shunday qilib, xumdag'i yozuv uning sig'imlilik hajmi bilan mos kelgan.

Nazorat savollari

1. Baqtiya tili va yozuvi qanday shart-sharoitlarda yuzaga kelgan?
2. Numizmatik ma'balarning Markaziy Osiyo yozma yodgorliklarida turgan o'lm?
3. Qadimgi Xorazm yozuvi haqida ma'lumot bering?
4. Qadimgi baqtiya tili hujjalarda Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi haqida aytib bering?

Adabiyotlar

1. Ахунджанов Э. История книги в Туркестане. Древность. Средние века. — Челябинск, 2009.
2. Исхаков М. Хоразмий ёзуви // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. — 1994 йил 11 февраль.

3. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). — Т.: УМЭД, 2008.
4. Лившиц В. К открытию бактрийских надписей на Кара-тепе // Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. — М., 1969. — С. 47-81.
5. Насруллаев Н. Манбашуносик асослари. Дарелик. — Т.: Navro'z, 2020.
6. Рувеладзе Э. Лившиц В. Памятники древней письменности. — Т.: Узбекистан, 1985.
7. Рувеладзе Э. Надписи и знаки Кампыртепа // МТЭ. Вып. 3. Археологические исследования Кампыртепа. — Т., 2002. — С. 101-109.
8. Фрейман, А. Хорезмийский язык. — М., 1951.
9. Чорисов З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон хуудлида ёзувнинг пилидо бўлиши ва тараккиёти. — Т.: Янги аср авлоди, 2007.

7-Мавзу: Qadimgi fors tilidagi yozma yodgorliklarida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi

Reja:

1. Avesto va uning O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixini o'rganishdagi o'lm
2. Qadimgi fors tosh bitiklarining Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati
3. O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid qadimgi fors tilida bitilgan boshqa yozma yodgorliklar

Tuyanch ibora va tushunchalar: Avesto, Behistun qoyatosh yozuvi, Ahmomiylar, Doro I, Nagshi Rostam, Persepol yozuvi, arxeologik ma'balalar, yozma yodgorliklar, lasvrlar, surallar, tarixiy yozuvlar, mixxat yozuvi, rahlaviv yozuvi, katabalar, relefllar.

Avesto va uning O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixini o'rganishdagi o'lm

Qadimiy sharoit xalqlari madaniy merosining ildizlari uzoq asrlar qatiga kelgan. Ular taqat o'zi vujudga kelgan zamimga oid bo'lib qolmadi. Ular umumbashariy madaniyat va tafakkurning mahsulatidir. Demak, bu yodgorliklarni o'rganish va o'zlashtirish insoniyat jamiyat tafakkuri va ma'naviy madaniyati tarixini bilishda uziga xos o'tin tutadi. "Avesto" kitobi ana shunday qadimiy yodgorliklardan biri.

"Avesto" O'rta Osiyo va Eron xalqlarining eng qadimgi musharak yodgorliklari namunalariandir.

"Avesto" otomiy va rahlaviv yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to'g'iz ho'kiz terisiga yozilgan. Ikk nusxalari asosida sosoniylar (mil. ol. 7-3 asr) davrida 21 kitob holda yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga "Zand" nomi bilan shartlar bitilgan.

"Avesto" to'rt qismdan iborat:

- Yasna ("Diniy marosimlar"),
- Yasht (ma'no jihatdan Yasnaga yaqin),
- Visparad ("Barcha ilohlar haqidagi kitob"),
- Vendidad ("Yovuz ruhlariga qarshi qonunlar majmuasi").

"Avesto" kitobi miloddan oldingi VI asrda yuzaga kelgan. BERNIYNING xabar berishicha, "Avesto"ning qo'lyozmasi o'n ikki ming molning terisiga olinib harflar bilan yozilgan ekan. Iskandar "Avesto"ni kuydirib tashlashdan oldin uning tib, astronomiyaga oid qismlarini Yunon tiliga tarjima qildirgan. "Avesto"ning uch qo'lyozma nusxasi bo'lgan. Uning bir nusxasini Iskandar yo'q qilib tashlagan. Bir nusxasi Yunonistonga jo'natilgan. Bir nusxasini esa zoroastrizm e'tiqodiga sodiq kishilar saqlab qolganlar. Ta'qib va quvg'in sharoitida uni saqlash oson bo'lmagan. Keyinchalik sosoniylar hukmronligi davrida (miloddning III-VII asrlari) zoroastrizm rasmiy e'tiqod sifatida tanilgan. Shunda sosoniylar "Avesto"ni tiklash yo'lida ancha ishlar qilganlar. Uning mazmuni lozim qo'shimchalalar bilan to'ldirilgan holda tiklangan. Bu mazmuni pahlaviy tilida yozib chiqishgan. Shunday qilib, "Avesto"ning hozirgi tahlil uchun asos bo'lgan nusxa buniyod etilgan.

"Avesto" tiklangandan so'ng unga sharhlar bitilgan. Ularni "Zand" deb ataganlar. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotda "Zand-Avesto" termini yuzaga keldi. "Avesto"ning ko'p qismlari bizgacha yetib kelmagan. Ammo hozir mavjud qismlari uning mundariyasi to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Prof. Y. Bertelsning yozishicha, "Avesto"ning bizgacha yetib kelgan qismlarida sakson uch ming so'z bor.

Gatlar "Avesto"ning eng qadimiy va eng qiziqarli qismidir. Yasna tarkibiga kirgan madhlar "Gatlar" (ayrim manbalarda "gohlar") deb nomlanib, ularni Zardushning o'zi yozgan deb taxmin qilinadi. Gatlar tarkibida Jamshid (Yima), Gershasp, Afrosiyob (Alp Erto'nga) kabi afsonaviy qahramonlar hayoti lavhalari uchraydi.

"Avesto" insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e'tiborini tortgan. U haqda F. Nitsche, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Y. an Ripka, O. Makovelskiy, I. Braginskiy va boshqa xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud.

O'zbekistonda "Avesto"ni o'rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Nashaxiy asarlarida "Avesto" ta'limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nozir ilmiy asarlarning qo'lyozma va bosma nusxalari Sharqshunoslik instituti jamg'armasida saqlanadi. Hozirgi o'zbek olimlari A. Qayumov, H. Homidov, M. Is'hoqov, N. Rahmonov va boshqalarning ilmiy tadqiqot va maqolalari e'tiborli.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, A. O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi I-ming yillikning I-yarmida vujudga kelgan. A. da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, xudo yaratgan o'lkalar sanab o'tilar ekan, boyligi va ko'rkanligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava

(Sug'd), Marg'iyo (Marv), Baqtriya (Balk) birinchi bo'lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vurukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. "Avesto"dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo'lgan. "Avesto" uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri - 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avlodlar-avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va hokazo qo'shilib borgan. "Avesto"ni Zardush diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming mol terisiga bitilgan deb tilovlat qilinadi. U Persepolida saqlangan. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. A'shakiylardan Vologes I davri (51-78-yillar)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniylar davri (III-VII-asr)da yaxlit kitob holiga keltirilgan. "Avesto" 21 nask (qism)dan iborat bo'lgan. "Avesto" hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - "Kichik Avesto" (Xurda Avesto) yaratilgan.

Arablar Eronni fath etgach (VII-asr) Zardush dini ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombay shahrida o'z jamoalarida hozirgacha "Avesto"ning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi Ankelet Dyuperron Zardushni izdoshlari jamoasida yashab, "Avesto" tilini va yozuvini o'rganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771-yil). "Avesto"ning bu nusxasi 27 jildan iborat bo'lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gatlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi.

"Avesto"da bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosining, ikki ibtidoining, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning, to'xtovsiz kurashdan iborat. Yaxshilik va ezigulik Xudosi Ahuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik (imsoli Anxramaynu) Ahuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga o'zlashtiradi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. Cheksiz, abadiy fazo va vaqt ham ikki qarama-qarshi qismlardan: yaxshilik va Ahuramazda hukmron bo'lgan abadiy yorug'lik bilan yomonlik va Anxramaynu hukmron bo'lgan abadiy zulmatdan tashkil topadi.

"Avesto" ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govanard (ho'kiz-odam; forsha Quyumars) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekam-u ko'st, baxtiyor yashagan. 900 yil o'tgach shoh Yima if'atiga berilib, man etilgan sig'ir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anxramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on (var) qurib, unga har bir jonzodan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk olin

davri tugagach, Hayr bilan Sharr (yaxshilik va yomonlik) o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik salta-nati bargaror bo'ldi, o'lganlar tiriladi. "Avesto"ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" Muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardusht izdoshlarining ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi. "Avesto" o'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, o'lam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona yozma yodgorliklardan hisoblanadi.

Qadimgi fors tosh bitiklarining Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati

Mil. avv. 558-yilda Erondagi ahamoniylar sulolasining yirik davlatiga podsho Kir II asos soladi. Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi fors podsholari Qadimgi Sharqdagi juda ko'p mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirganlar.

Mil. avv. 545 – 540-yillarda ahamoniylar O'rta Osiyoning Partiya, Marg'iyo, Baqtriya va Sug'd viloyatlarini bo'ysundirganlar. Massagellarga qarshi Kir II ning yurishlari mil.avv. 530-yil damuvaffaqqiyatsiz yakunlangan. Saklarni Doro I mil. avv. 518-yilda istilo qilgan.

Doro I davrida (mil. avv. 522 – 486-yillar) ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududda o'z hukmronligini o'rnatgan. Ahamoniylar davlati jahon tarixida birinchi yirik dunyo davlati deb hisoblanadi. Bu davlat ilk bor ko'p sonli viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan. O'rta Osiyoda ahamoniylar ikki yuz yildan ziyod hukmronlik qilganlar (mil. avv. 330-yilgacha).

Yurtimizning qadimgi tarixini o'rganishda tosh va sopol buyumlarga o'yib yozilgan bitiklar ya'ni katibalarni o'rganish ham katta ahamiyatga egadir. Ahamoniylar davri mixxat yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar mil. avv. VI – IV asrlarga oid bo'lib, Behistun va Naqshi Rustam qoyatoshlarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Ular qadimgi fors tilida turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyruqlaridan va nutqlardan iborat.

Ko'plab tadqiqotchilarning qadimgi fors yozuvlariga bag'ishlangan asarlari mavjud (I.Markvart, E.Xersfeld, R.Kent, A.A.Freyman, A.V.Struve, V.I.Abayev, M.A.Dandamayev va boshq.).

Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi ilk epigrafik manbalardan biri Midiyadagi shoh Doro I (mil. avv. 522-486-yillarda podshohlik qilgan) buyrug'iga binoan qadimgi forsiy, elam va bobil tillarida mixxatning turli ko'rinishlarida tosh qoyaga bitilgan Behistun yozuvidir. U katta deb atalmish yozuvdan va bir necha kichik yozuvlardan iborat. Katta yozuvlarning ma'nosi bir xil bo'lib, matn uch tilda yozilgan.

XIX asrning 30-yillarida assiriologiya fanining asoschilaridan biri, sharqshunos Genri Roulinson bitikning forsiy matnini ko'chirib olgan va deyarli butunlay o'qib chiqishga erishgan, bu esa qadimgi Sharq xalqlarining boshqa

mixxat yozuvlarini o'qishda kait vazifasini bajardi. Ma'nosi bo'yicha yozuv matni – Ahamoniylar davlatida asosan mil. avv. 522-519-yillarda bo'lib o'tgan hodisalarning rasmiy talqinidir. Yozuvning asosiy qismida Kambizning o'limidan so'ng Doro I (Doriyovush)ning davlatini qamrab olgan qo'zg'onlar va beg'vorlikka qarshi, Fors davlatini saqlab qolish uchun olib borgan kurashi haqida hikoya qilinadi. Yozuvda keltirilgan ma'lumotlarni Gerodotning ushbu hodisalar haqidagi hikoyasi to'ldiradi.

Behistun yozuvlari, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi muhim voqealardan biri bo'lmish Marg'iyo (Marv vohasi) Doro I davrida bo'lib o'tgan qo'zg'onlarni yoritishda bebaho manba sifatida xizmat qiladi ("Men Bobilda bo'lgan vaqtimda, mana bu o'lkalar mendan g'irilib chiqdi... Marg'iyo (Marv)... Saklar o'lkasi") Behistun, Persepol yozuvlarini, antik davr va boshqa mualliflar asboblari sinchiklab o'rganish akademik V.V.Struvega ushbu qo'zg'onlar tarixini qayta tiklash imkonini berdi.

Marg'iyo (Marv) davrida Margos daryosi suvlari oqib o'tgan va Ahamoniylar davrida ushbu hududning xo'jalik hayotida muhim rol o'ynagan O'rta Osiyoning yirik vohalaridan biri) qo'zg'on Ahamoniylar sulolasining chekka shajarasiga mansub Doro I taxtga o'tirganidan so'ng ko'p vaqt o'tmay ko'tarilgan. Doro qo'zg'onlarning qo'zg'onchilar ustidan g'alaba qozongan sanasi ham ma'lum: mil. avv. 522-yil. Lekin bu g'alaba qo'zg'onchilarning butkul tor-mor etilganini bildirmaydi. Qo'zg'onchilar rahbari Frada 522-yildan keyinroq asir etilgan. Qo'zg'onlarning kelib chiqishiga O'rta Osiyoning erksevar xalqlari kelgindi. Ahamoniylar va ulardan avvalgi midiyaliklar hukmronligiga uzoq vaqt mobaynida ko'rsatgan qarshiliklar sabab bo'lgan, deb hisoblanadi. Bu yerda Marg'iyo (Marv) nuzulidan mavjud bo'lgan qadimgi urug' demokratiyasining, o'z hukmronligi ostidagi o'troq va ko'chmanchi xalqlarning bo'yunga og'ir soliq to'lovlarini ilayotgan fors hukmdorlarining kuchayib borayotgan ta'siriga ko'rsatgan qarshiligi namoyon bo'lgan.

Masalaning diniy tomoni ham katta rol o'ynagan, deb taxmin qilish mumkin, chunki zardushtiylik ta'limoti ayni Marg'iyo (Marv) davrida o'ziga xos demokratik ko'rinishlarni qabul qilib, deyarli umumxalq ta'limotiga aylangan edi. Ikk Ahamoniylar davrida esa bu din hali Eronda keng tarqalmagan edi.

Marg'iyo (Marv) davridagi qo'zg'on qitich va olov bilan bostirildi. Behistun yozuvi matnidagi ma'lumotga ko'ra, o'ldirilgan qo'zg'onchilarning o'zi 55000 kishini tashkil qilgan. Demak, keltirilgan raqam bo'rtitib ko'rsatganligi ehtimoli nazarda tutilganida ham bu qo'zg'on keng, umumxalq miqyosida olib borilganligidan dalolat beradi. Qo'zg'onlarni avvaliga qabillar boshliqlarining qurultoyi boshqardi, so'ngira esa, "Frada ismli bir ermi, marg'iyo (Marv)ni, uni ular eng katta qitich bo'yidilar" (Behistun yozuvlarining III, 11-12-satrlari).

Qo'zg'onlarni bostirish Baqtriya satrapi, fors Dadarshishga topshirilgan edi. U o'ziga yuklangan vazifani tezda bajardi va qo'zg'on mil. avv. 522-yilning oxirlarida bostirildi. Behistun bitigiga ko'ra, Doro Dadarshishga quyidagi

topshirgini bergan: "Bor, o'sha qo'shinni tor-mor et, u menga qarashi emas" (III, 12-25).

Xulosa qilib aytilish mumkinki, Doro I ning qo'zg'olonchilarga qarshi harakat qilishga shoshilgani tasodifiy emas edi. Marg'yona o'z boyliklari (rivojlangan chorvachiligi, dehqonchiligi, xususan, uzumchilik) va ko'p sonli aholisi bilan Ahamoniyar davlatida muhim o'rin egallari edi. Bundan uning Partava, Sug'd, Xorazm va Baqtriya bilan bir qatorda satrapiya sifatida ajratilganligi dalolat beradi. Buning ustiga Marg'yona Girkaniya bilan chegaradosh edi.

Tadqiqotchilar Doro I ning bu yurishi haqidagi hikoyada uning g'alabalari bo'rtirib ko'rsatilganligiga urg'u beradilar va quyidagicha taxmin qiladilar: uning saklar boshlig'i Skunxani qabilaning boshqa aslzoda namoyandasi bilan almashirgani saklarning qat'iy va keng ko'lamda ko'rsatgan qarshiliklari oldida Doroning faqat shu chora bilan cheklanishga majbur bo'lgani va bu qarshilikni butunlay bostirishga kuchi yetmaganidan dalolat beradi.

Behistun bitigi matnining o'zbekcha tarjimai eronshunos V.I. Abayev tomonidan rus tiliga qilingan yangi tarjimadan bajarildi.

Behistun bitigi. "Men — Doro, buyuk shoh, shahanshoh, Fors shohi, viloyatlar shohi, Vistaspaning o'g'li, Arshunning nevarasi, Ahamoniy Shoh Doro deydi: mening otam — Vistaspa, Vistaspaning otasi — Arshama, Arshamaning otasi — Ariaramna, Ariaramaning otasi — Chishpish, Chishpishning otasi — Ahamon. Shuning uchun biz Ahamoniyalar deb atalamiz. Azaldan o'z o'ziga egamiz, azaldan urug'imiz shohona bo'lgan.

Eng qadimgi ajdodlarimiz to'g'risida ma'lumot beruvchi dastlabki epigrafik yodgorlik Behistun yozuvi hisoblanadi. Behistun yozuvi (shuningdek, Bisuton, Bistun yoki Bisutun; forsha: "Xadoning joyi" ma'nosini anglatuvchi, eski forsha: bagastana) — Eronning Kirmonshoh viloyatidagi Behistun tog'ida jarlikda ko'p tili yozuv va katta qoyatosh reyefi, g'arbiy Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinida, buyuk Doro (miloddan avvalgi 522-486-yillar) tomonidan tuzilgan. Eski fors, Elamit va Bobil (Akkad tili turi): kabi uch turdagi tillarning matnlar jamlanmasidan iborat qoyatosh mixxali yozuvlari.

Buyuk Doro muallifligida yozilgan bu yozuv miloddan avvalgi 522-yilning yozida Fors imperiyasi podshosi sifatida taxtga o'tirilibidan to miloddan avvalgi 486-yilning kuzida vafotigacha bo'lgan davrdagi muhim tarixiy manbalarni o'z ichiga oladi. Yozuvlar Doro I ning qisqacha tarjimai holi, jumladan, uning nasibi va ajdodlariga talluqli bitiklar bilan boshlanadi. Ahamiyat jihatidan Misr va Xitoy bitiklari bilan teng hisoblanadi. Unda qadimgi Ahamoniyar sulolasi tarixi va kelib chiqishi, shuningdek sulolaviy shajara daraxti ham berilgan. Undagi ayvinqsa qadimgi Fors imperiyasi tarkibiga kiruvchi xalqlar haqidagi ma'lumotlar eng muhimlaridir. Chunki, unda hali arxeologlar va tarixchilar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan 23 ta qadimiy o'lka va ularda yashovchi xalqlarning qisqacha tasnifi berib o'tilgan. Xususan, yurtimizda yashagan qadimgi saklar, massagetlar va ulardan keyingi avlod xalqlari bo'lmish xorazmiylar, baqtriyaliklar haqida malumotlar berilgan. Behistun yozuvi Shimoliy Eronda, Kirmonshoh shahridan 30

km masofada, Zagros tog'ida tik qoyaga o'yib yozilgan. Uning uzunligi 22 metr, balandligi esa 7,8 metrni tashkil etadi.

Yozuv taxminan 15 m (49 funt) balandlikda 25 m (82 funt) kenglikda va 100 m (330 funt) Bobil va Midiya poytaxtlarini (Bobil va Ekbatana) bog'laydigan qadimiy ohaktoshli jarlik yo'lida joylashgan. Buning sababi bu yo'ldan o'tgan har bir odam podshohlikning tarixi qanday bo'lganligini bildirish maqsadida qilingan, bu esa o'sha paytda tarixga va unda o'z nomini abadiy qoldirishga shohlarning qunchalik e'tibor berishini bildiradi. Qadimgi fors tilidagi matn besh ustundan iborat 414 satrni: Elamit matni sakizita ustunda 593 satrni, Bobil tilidagi matni esa 112 satrni o'z ichiga oladi. Berilgan tasvirda ko'rinib turibdiki, Doro o'zining shohlik belgisi sifatida boshida toj kiygan holatda va chap oyog'ini isyonchi odamning ko'kragiga qo'ygan holda tasvirlangan. Shahanshohning orqasida esa ilkita soqchi joylashgan va shohni qo'riqlayapti. Podshodan o'ng tomonda bo'yinlarida sirtmoq va zanjirband holata birin ketinlikda turgan isyochilar joylashgan. Doro ularga hukm o'qiyapti. Ularning ustida Zardushtiylikning muqaddas xudosi Ahuramazda joylashgan. Bu esa Doroga xudoning marhamati ila berilgan taxtni va g'alabani bildiradi.

1835-yilda Eron Shohining harbiy kuchlariga tayinlangan Britaniya Sharqiy-Hindiston kompaniyasi armiyasining ofiseri Ser Genri Roulinson yozuvni asroydli o'rganishga kirishadi. Bu davrda shaharcha "Behistun" deb atalardi, mos ravishda yodgorlik "Behistun yozuvi" deb nomlangan edi. Unga borishni imkonini yo'q o'ltirishga qararnasdan, Roulinson mahalliy bolaning yordami bilan jarlikni o'ltirishga va eski fors yozuvini nusxalashga muvaffiq bo'lgan. Ammo faqat qadimiy fors tilidagi yozuvlarni ko'chira olgan xolos. Elamit tili jar bo'ylab joylashgan, Bobil yozuvlari esa undan to'rt metr balandda edi, shu sabab ularga yetib borolmaganliklari tufayli o'rganishni keyingacha qoldirishgan.

Genri Roulinson ossuriologiya fani, yani eroniy va mesopotamiya tillarini o'rganuvchi talim otasi deb yuritiladi. Roulinson asosan mixxal yozuvini o'chishga qo'shgan hisssasi bilan tanilganlarning tasniflari yordamida matnning sirini o'chishga kirishadi yani tarjimani boshlaydi. Birinchi bo'linda u Geradot o'zining sharqiy mamlakatlarga qilgan safarini yoritgan asarda kelingan shohlarning nomlarini ketma ketligini topadi, biroq nomlar Geradotning yunoncha transkripsiyasidan boshqacharoq edi, misol uchun Doro nomi *Daryavus* deb keltirilgandi, gerodotnikida *Darios*.

Belgilarni nomlarga moslashtirish orqali Roulinson mixxatni 1838-yilda matnlarni deshifrofkaladi va uni Britaniya Qirollik Jamiyati (Buyuk Britaniya va Irlandiya Qirollik Osiyo Jamiyati, odatda Qirollik Osiyo Jamiyati (RAS) nomi bilan tanilgan, o'zining 1824-yil 11-avgustidagi qirollik nizomiga binoan, "Osiyo bilan bog'liq adabiyot, san'at va ilm-fan bilan bog'liq narsalarni tekshirish va rag'batlantirish" bilan shug'ullangan.) va Parijdagi Société Asiatique "Osiyo jamiyati" (Osiyoni o'rganishga bag'ishlangan fransuz talim jamiyati. U 1822-yilda Osiyo haqidagi bilimlarni rivojlantirish va tarqatish missiyasi bilan tashkil etilgan)ga topshiradi. Roulinson keyinchalik o'z harbiy majburiyati yuzasidan

Afg'onistonga ketadi va 1843-yilda Eronga qaytib keladi, o'z ishini yakunlashga kirishadi. Bu safar u fors va elam yozuvlari orasidagi bo'shliqni taxtalar bilan to'ldirish orqali kesib o'tadi va keyinchalik elam yozuvidan nusxa ko'chirdi.

Roulinson boshqa bir qancha olimlar, xususan Edward Xinks, Julius Oppert, Uliyan Genri Foks Talbot va Edvin Norris bilan alohida yoki hamkorlikda ishlagan holda, bu yozuvlarni deshiptladi va oxir-oqibat ularni to'liq o'qiy olish qobiliyatiga ega bo'ldi. Behistun yozuvining qadimgi forschga bo'limlarining tarjimai matnning elam va babil qismlarini keyinchalik shiflash qobiliyatiga yo'l ochdi, bu zamonaviy Assurologiya(Assyriology)ning rivojlanishiga katta yordam berdi.

Yozuvning birinchi qismida Buyuk Doro o'zining nasl-nasabi va ajdodlarini keltirib o'tadi. U shuningdek Shohlar avlodidan ekanligi va Ahuramazda inom etgan davlatning to'qqizinchi hukmdori ekanligini bayon qiladi. Eron shohlarining Zardushtiylik diniga bo'lgan katta e'tibori diqqatga sazovor.

Hukmdor shuningdek, uning qo'l ostidagi hududlarni keltirib o'tadi. Unda jami 23 ta hududni sanab o'tadi. Shuningdek ularning joylashuvi va qanday xalqlar yashaganligi, qancha soliq to'laganligi, ayniqsa qay yo'sinda nimalar orqali o'ipon berganliklari keltirilgan. Bu orqali biz bu xalqlarning nima bilan shug'ullanganliklari va nimalar yetishtirganligini bilishimiz mumkin. Xalqlarning tosh yuzasiga o'yima tasvirlar orqali tasvirlangani tufayli undagi xalq kiyinish madaniyatiga taluqli qimmatli malumotlarni olish mumkin. Doro I tomonidan bo'lingan mamuriy-hududiy birlik, u ma'lum bir hududda yashovchi xalq va qabilalarning bir biriga yaqinligi va qarindoshligi bo'yicha guruhlariga bo'lib, ular yashovchi hududni chegaraladi va satraplik maqomini beradi. Ularga Podsho xonadonidan bo'lgan va yaqin insonlarini Satrap boshlig'i qilib tayinlaydi.

Naqshi Rostam – Bir qator chehel olinlari tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Persepolidan juda ko'plab noyob yodgorliklar ochib o'tirilgan. Ular orasida Apadana zinlari ustiga ishlangan tasviriyl suratlal alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda Ahamoniyarlarga tobe bo'lgan 23 satraplikdan o'ipon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Persepolidan 5 km uzoqlikdagi masofada uning shimol tarafida Husaynkub qoyalarida ahamoniyarlardan Doro I, Kserks I, Artakserks I va Doro II larning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sosoniyl sakardalaridan Rustam nomi bilan ham bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam bitigi deb ham ataladi. Rustam 636-yil arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan. Kitobalarda Ahamoniylar davlati ko'klarga ko'tarilib maqalgan. Ayniqsa Doro I surati ostiga o'yib ishlangan bitikda buni yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu bitiklarning muhim ahamiyatiga ega ekanligi shundaki Ahamoniyarlarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la ro'yxati yozilgan.

Naqshi Rustam Eron sakardasi - sosoniylarning Yazdigard III armiyasi bosh qo'mondoni Rustam (636-yil arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomiga qo'yilgan. Naqshi Rustam Doro I, Artakserks I va Doro II larning Ko'hi Rahmat bag'riga kavlalab joylashtirilgan maqbaralaridan iborat. Doro I maqbarasi

to'rtburchak shaklida, zardushtiylik an'anasi asosida yaratilgan bo'lib, eng qadimgi yodgorlikdir (qarang Doro qabri kitobalari). Maqbaradan pastda, chap tomonidagi relyefda sosoniylar podshosi Shapurning Rim imperatori Valerian ustidan g'alabasi (milodiy 260-yil) va Valerianning ot minib turgan Shapur I oyog'iga tiz cho'kib, bosh egib turgani tasvirlangan. Relyef ostidagi yozuvda forslarning Zakavkazegga yurishi ifodalangan (milodiy 262-yil). Maqbaralarning qarshisida buri - Zardusht ka'bsi joylashgan. Uning tomi katia hajmdagi yassi tosh pitalar bilan yopilib, devorlarida deraza o'mida ochiq joylar qoldirilgan. Eron, Kavkaz va O'rta Osiyo aholisi uylariga o'xshatib qurilgan bujning devorlariga pahlaviy, partiya va yunon yozuvlarida Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan mamlakalar, bu ziyoratgohga keltirilgan hadyalar ro'yxati berilgan. Naqshi Rustam manzaralari va kitobalari Ahamoniylar va Sosoniylar bosib olgan mamlakalar va xalqlar tarixi, etnografiyasi va madaniyatini o'rganishda muhim manbadir.

Persepol yozuvi. Sherov shahining shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan Persepol shahridan topilgan yozuvlar va tasviriyl sural - relyeflar katta ilmiy qiymatga ega bo'lgan toplimalardir. Persepol - asosan Doro I va Kayxusrav (yunonchada Kserks I) davrida qurilgan, hashamatli qasrlari bo'lgan Ahamoniylar poytaxtlaridan biri. Keyinchalik u oxirgi ahamoniy Doro III ustidan qozonilgan g'alabani nishonlayotgan Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari tomonidan vayron qilingan va xarobaga aylantirilgan.

Persepolning tarixiy obidalari orasida Ahamoniy shohlarning jumladan, Doro I ning yozuvlari bor. Quyida keltirilayotgan parcha mazmun jihatidan yuqorida keltirilgan Behistun yozuvi matniga yaqin. "Ahuramazda itodasi bilan men mana bu viloyatlarning ustidan fors xalqlarning kuchi bilan hukmronlik qildim, ular mendan qo'rqadilar va menga o'ipon keltiradilar. Suziyona, Midiya, Armaniston, Sparda, qit'adagi va dengizdagi yunonlar va quyosh chiqishidagi viloyatlar - sagartiyalar, Partava, zariaklar(dang'iyonlar), Ariya, Bagrtiya, Sug'diyona, Xorazmiya, satrigidlar, Araxoziya, Hindiston, Gandhariya, saklar".

Erondagi qadimgi Persepol shahridan baqtriyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar va saklarning o'yib ishlangan rasmlari ham topilgan (Doro I va Kserks podsholar saroy devorlaridagi bo'rtna rasmlarda turli xalqlarning o'ipon keltirish manzarasi tasvirlangan). Persepol saroyidagi rasmlar O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tasvirlaridir (ularning qiyofasi, kiyimlari, qurollari ma'nosida).

Turli xalqlar "qatorida sug'diyalar 8-gurunda ko'rsatilgan. Ular yetti kishidan iborat bo'lib, shohga idishlar, gazmolalar, noma'lum hayvon terisi va ikki qo'yni yetaklab kelayotgani tasvirlangan.

O'n birinchi guruhda uzun cho'qqili galpog'dagi saklar ko'rsatilgan. Ular kiyim-kechaklarni ko'tarib va otni yetaklab bormoqdalar.

O'n beshinchi guruhda baqtriyaliklarning besh vakili idishlarni va tuyani olib beryotganligi tasvirlangan.

O'n yettinchi guruh xorazmliklar bo'lib, ularning dudama xanjar, harbiy boltal, blaguzuk va otni olib kelayotgani ko'rsatilgan.

Bu tasvirlarda Sug'd, Bactriya, Xorazm va saklar yurti soliq to'lovchilarining ahamoniyarlarga turli xil buyumlar (kulolchilik, to'qimachilik, zarqarlik, harbiy qurollar) hamda Qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan otlar va tuyalarni olib kelayotgan manzarasi o'z aksini topgan.

Kayxustravning Persepolidagi devlarga qarshi yozuvi. 1935-yil Persepolidan topilgan ikki tosh jadvaldagi yozuvning sanasi mil. avv. 486-480-yillar bilan belgilanadi. U uch tildadir (asosiy matn qadimgi forsiy, qolganlari esa bobli va elam tillarida). Yozuv – devlarga (dayva – mahalliy qabila ma'budlari, ular tabiat va jamiyatning qora va yovuz kuchlarini o'zlarida mujassamlashtirgan ruhlar deb hisoblangan) sig'inishga qarshi va Ahuramazdani yagona iloh deb tan olishga qaratilgan qadimgi Eron diniy islohotining aks sadosidir. Yozuvda aks ettirilgan hodisalar ayni qayerda sodir bo'lganligi haqida olimlar bir fikrga kelmaganlar. Bu Bobil, Eron yoki O'rta Osiyoning viloyatlari bo'lishi mumkin. "Bayrak parvardigor Ahuramazda bu yerni yaratdi, shu osmoni yaratdi, odamni yaratdi... Kayxustravni podshoh qildi... Shoh Kayxustrav aytladi: "Ahuramazda irodasi bilan men hukmronlik qilgan mamlakatlar, Erondan tashqari, (mana) bulardir; men ularni boshqarar edim, ular menga o'ipon to'lar edilar; buyurganimni ular bajio keltirar edilar; mening qonumimga riyoga qilar edilar: Mitiya, Sziziyona, Araxoziya, Armaniston, Drang'iyona, Partava, Ariya, Bactariya, Sug'diyona, Xorazm... dahlar, Kaumavanga saklari, uchi o'ktir qalpog'i saklar... Va shu mamlakatlarning qay birida oldin devlarga sig'inar edilar. So'ng'a, Ahuramazda irodasi bilan, men bu devlar sajdagohini voyron qildim va "Devlarga sig'inma", deb amr qildim... Ahuramazda meni va xonadonimni va bu o'lkani ham (har xil) halo-gazodan asrasin".

Pishiq sopol taxtachlarga o'yib yozilgan bir kitabada Doro I hukmronligining dastlabki yillarida mil.avv. 494-490-yillar orasida Suzada bunyod etilgan saroyning qurilishi tafsiloti bayon etilgan. Ushbu bitiklarda qurilishda ishlatilgan materiallarning qeyasi mamlakattan keltirilganligi ko'rsatib o'tilgan. Masalan: Lidya va Bactriyadan oltin, qimmatbaho toshlar So'g'diyonadan, feruza Xorazmdan olib kelinganligi bitilgan. Bu haqda Suzadagi bitiklarda Doro I ning quyidagi so'zlari keltirilgan: "Suzadagi saroyi men bino qilganimda uning bezaklari uzog yurtlaridan olib kelingan. Ulaka yog'ochi – Gandaxaradan, oltin – Sard va Bactriyadan, yaltiroq toshlar va lojnavard – So'g'diyonadan, firuza – Xorazmdan, kamush va bronza – Araxoziyadan, tosh ustunlari – Elamdan yetkazib berilgan".

O'zbekiston hududi ham, Eron, Hindiston, Misr, Mesopotamiya, Yunoniston, Rim, Xitoy singari mamlakatlar kabi ilk madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Lekin, uning qadimiy madaniyati haqida ma'lumotlar juda kam saqlangan. Biz yurtimizning faqat miloddan avvalgi VI asrlardan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma'lum darajadagi yozma ma'lumotlarga egaiz.

Eron, Hindiston va ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim manbalarida saqlangan ma'lumotlarga qaraganda qadim zamonlardan hozirgi O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak, massaget va boshqa qabilalar urug'chilik tuzumini

boshdan kechirganlar, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda yurtimiz hududlari Ahamoniylar, yunon-makedonlar asoratiga tushib qoladi. Ushbu davrda bu yerda istiqomat qilayotgan xalqlar hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Bosqinchilar va yurtimiz xalqlari o'rtasidagi tinimsiz kurashlar, xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi harakatlari ulkan saltanatlarining kuchsizlanishiga, mahalliy xalqlarni ular asoratidan ozod bo'lishiga olib kelgan.

Ahamoniylar, yunon-makedoniyaliklar davlatining tanazzulga yuz tutishi natijasida mamlakatimiz hududida mustaqil bir nechta davlatlar vujudga kelgan. Bular: Yunon – Bactriya, Kushon, Qang', Dovon kabi davlatlar edi. Ushbu qadimiy davlatlarning har biri o'ziga xos bo'lgan tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Mamlakatimizning davlatchiligi va uning ijtimoiy-siyosiy tarixida qadimgi davlatlarning har biri o'ziga xos o'ringa egadir.

Tosh va sopolga o'yib yozilgan kitobalarda, "Avesto", "Podshohnoma", "Ming bir nafar huquqiy ajrim", "Shohnoma" kabi asarlarda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati, e'tiqodi o'ziga xos tarzda bayon qilingandir.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid qadimgi fors tilida bitilgan boshqa yozma yodgorliklar

"Xvaday namak" ("Podshohnoma") qadimgi Eronning 627-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan ma'lumot beruvchi afsonaviy tarixiy asar bo'lib, pahlaviy tilda yozilgan. Sosoniylar podshosi Yazigard III (632-651 yillar) ga yaqin kishi tomonidan 632-637-yillar oralig'ida yozib tamomlangan. Asar ayniqsa Ahamoniylar, Ashkoniyalar va Sosoniylar tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

"Xvaday namak" mashhur shoir, olim va tarjimon Abdulloh ibn Muqaffa (721-757-yillar) tomonidan tarjima qilinib, "Siyar al-muluk" deb atalgan. Lekin, asarning o'zi ham, uning tarjimasi ham bizgacha yetib kelmagan. Uning ayrim parchalari Ya'qubiy, Tabariy, Ibn al-Asir, shuningdek Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida saqlanib qolgan.

"Matakani hazar datastin" ("Ming bir nafar huquqiy ajrim") asari VIII asrda pahlaviy tilida yozilgan bo'lib, unda Eronning Sosoniylar davridagi davlat tuzilishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Asarning faqat ayrim qismlarigina saqlangan.

"Ajoyib as-Sakiston" (Sakiston viloyatining ajoyibolari) asari Eronning ko'lna viloyatlaridan bo'lgan Sakiston y'ni Setstonga bag'ishlangan. "Shahristonhoi Eron", "Ajoyib as-Sakiston" asarlari pahlaviy tilda VIII asrning ikkinchi yarmida yozilgan. "Shahristonhoi Eron" asarining matni va qisqacha inglizcha tarjimasi J.Asana hamda Modi tomonidan 1897 va 1899-yillarda Homboyda chop etilgan.

Qadimgi Eronning ijtimoiy – siyosiy hayotiga oid ma'lumotlarni bir qator "Mazdak haqida qissa", "Zairta haqida rivoyat", "Podshoh Xusrav va uning mahrami" kabi tarixiy jissalarda uchratamiz.

Sosoniylar davlatining ichki va tashqi siyosati asoslarini o'rganishda "Andarznama" ("Nasihatnoma"), "Tojnama" kabi erik – didaktik xarakterdagi asarlarning ham qimmatini kattadir.

"Shohnoma" – Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub ushbu asar uch qism va 65 ming baytadan iborat doston bo'lib, u 976-1011-yillar orasida yozilgan.

"Shohnoma"ning birinchi qismi afsonaviy bo'lib, "Avesto" materiallariga asoslanib yozilgan va Eron hamda Turon xalqlarining diniy aqidalari va rivojlanishidan bahs yuritadi.

Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi qismi qahramonlik dostoni bo'lib, qadimgi Eron podshohlari va ular zamonida o'tgan qahramonlar Rustam va Kova siymolari talqin qilinadi.

"Shohnoma"ning uchinchi qismi tarixiy doston bo'lib, unda Eron va Turonning zardushitlikning paydo bo'lishidan tortib to arablar istilosigacha bo'lgan siyosiy hayoti talqin qilingan.

"Shohnoma"ning qo'yozma nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxonalarida, shuningdek Sharqshunoslik instituti qo'yozmalar fondida saqlanmoqda. Asarning to'la matni 1829-yil Hindistonda, 1838-1878-yillarda Fransiyada, 1877-1884-yillarda Germaniyada, 1934-1936-yillarda Eronda, 1960-1971-yillarda Rossiyada chop etilgan. Rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan.

"Shohnoma" matnlarini tiklash ustida manbashunoslik tadqiqot ishlari Boysung'ur Mirzo ibn Shohruh Mirzo Hirolda olib borgan. Ko'p tarixchilar, xususan Muhammad Mirxond undan manba sifatida foydalangan. Alisher Navoiy esa bu asarda lof ko'pligini qayd etgan.

Ahamoniyilar davri yozuvlarida yuritimiz xalqlarining o'tmish tarixiga tegishli quyidagi ma'lumotlar bor: viloyatlar va elatlarning nomlari, siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat to'g'risida ma'lumotlar.

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda yuqorida keltirib o'tilgan bitik va yozma manbalarining har biri o'ziga xos o'rin va ahamiyatga egadir. Ularning har biri yuritimiz tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Qadimgi davrga xos ijtimoiy-siyosiy voqealar yozma manbalarda qanday talqin qilinadi?
2. Tosh va sopolga o'yib yozilgan katibalar, bitiktoshlar qanday ahamiyatga ega?
3. Eron yozma manbalarida O'rta Osiyo xalqlari tarixi qanday aks etgan?
4. Behistun qoyatosh yozuvining Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati?
5. Naqshi Rustam yodgorligi haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Avesto. Tarixiy-adaabiy ёлгорлик / А. Махмамов таржимаси. – Т., 2001.
3. Avesto. Ёшт китоби / Рус тили таржим асидан М. Исхоков изоҳли таржим аси. – Т.: Шарк, 2001.
4. Avesto. Видеват китоби /М. Исхоков таржимаси. – Т.: ТошДШИ, 2007.
5. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (кадимги ва ўрта асрлар). – Т., 1992.
6. История Узбекистана в источниках. / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
7. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Т.: УМЭД, 2008.
8. Каюмов А., Исхоков М., Отаҳўжаев А., Содиков Қ. Кадимги ёзма ёлгорликлар ўқув кўлланима. – Т.: Ёзувчи, 2000.
9. Ўзбекистон тарихи. Хростоматия. 1-жилд. Ўзбекистон энг кадимги ва кадимги даврларда. – Т.: Фан, 2014.

8-Мавзу: Qadimgi yunon va rim yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi

Reja:

1. Qadimgi yunon manbalarida Markaziy Osiyo hududlarining yoritilishi
2. Qadimgi rim mualliflari asarlarida Markaziy Osiyo tarixi

Tayanch ibora va tushunchalar: yozma manbalar, tarixchi olimlar, geograflar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo-sotiq, aloqalar, Essil, Gerodot, Ktesiy, Ksenofont, Aristotel, Aristobul, Artian, Kvint Kursor Ruf, Diodor, Pompey Trog, Plutarx, Strabon, Polibiy, Pliniy, Tasiy, Klavdiy Ptolemei.

Qadimgi yunon manbalarida Markaziy Osiyo hududlarining yoritilishi
O'zbekistonning qadimgi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi yunon va rim manbalari Essil, Gerodot, Yevtrpid, Ktesiy, Ksenofont, Efir, Aristotel, Aristobul, Artian, Kvint Kursor Ruf, Diodor, Pompey Trog va Yustin, Plutarx, Strabon, Polibiy, Pliniy, Tasiy, Klavdiy Ptolemei kabi ko'plab mualliflar tomonidan yaratilgan. Mazkur mualliflar asarlarida qadimgi Yunoniston tarixi, Aleksandr Makedonskiy yurishlari, Rim imperiyasi tarixi, ushbu

davlatlarning ko'lamini, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivoji, turli hududlarda yashovchi xalqlar, savdo yo'llari kabilar haqida ma'lumotlar qayd etilgan.

Qadimgi yunon va rim manbalarida Markaziy Osiyo hududida yashovchi turli xalqlarning joylashgan o'rni, yashash tarzi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, savdo-so'iq aloqalari kabilar haqida ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari o'lkamizning qadimgi davrlar tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan ushbu siyosiy voqealarda ishtirok etgan O'rta Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida yoritilgan.

Gerodot (mil. avv. 484 – 425) – yirik qomusiy olim. Kichik Osiyodagi Galikarnass shahrida tug'ilgan. U 10 yil mobaynida (mil.avv.455–445 yillar) Liiviya, Mistr, Ossuriya, Bobil, Ekbatanga sayyohat qilib, qadimgi Sharq tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar to'plagan. Gerodot Ellada va Sharq mamlakatlarining qadimgi davridan to' mil.avv. 479-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat "Tarix" asarini yaratadi. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi. Siseron (mil.avv.106-43) Gerodotni tarix "otasi" deb atagan.

O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning "Tarix" kitobi ayniqsa qimmatlidir. O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqidagi ma'lumotlari asarning I, III, VII, IX jildlarida o'z aksini topgan. Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri bo'lib hisoblangan. Uning muallifi Gerodot qadimda "tarixning otasi" deb nom olgan. Gerodotni Old Osiyo, Mistr, Bobil, Eron va "dunyo chegaralarida" joylashgan xalqlar va davlatlar tarixi ham ancha qiziqitgan. Qadimgi Yunonistonda mavjud tasavvurlarga ko'ra, O'rta Osiyo va Hindiston o'lkalari inson yashagan dunyo – oykumenaning sharqiy chegaralarida joylashgan. Gerodot O'rta Osiyoda hech qachon bo'lmagan va bu hudud haqida o'zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Gerodot "Tarix" kitobini mil.avv. 455 – 445-yillar davomida yaratgani bizga ma'lum. Bu muhim asarida Gerodot, Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmliklarni (xorazmiylar shaklda) 3 marta, saklarni 11 marta, massagellarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlari, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlarining asosiy qismi forslarning sak-massagellarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo'shinlari safida yuritilgan xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog'-aslahalari, yo'lbo'shchilari, fors-yunon urushlarida ko'rsatgan jasorati, mintaga xalqlarining ahamoniylar davlatiga bo'yusinishi va maxsus yillik soliq to'lashi, sak-massagellarning urf-odatlari, turmush tarzi va diniy e'tiqodi, O'rta Osiyodagi Akas daryosining suvlaridan foydalanishi haqida va boshqa ayrim ma'lumotlardan iborat.

Gerodot O'rta Osiyoda aholi joylashuvi umumiy hududiy chegaralaridan bexabar bo'lgan.

Gerodot ma'lumotlaridagi "Baqtriya xalqi" tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. "Xalq" ma'nosini beruvchi "etnos" suzi Gerodot asarida juda ko'p uchraydi (tadqiqotchilar hisobiga ko'ra, tarixchi bu atamani 145 marta tilga olgan) va ikki joydagina bu etnonim Baqtriyaga nisbatan ishlatilgan.

Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar G.A. Stratanovskiy tomonidan rus tiliga o'g'rilgan Gerodotning "Tarix" asaridan olingan.

Gerodotning aytishicha, Doro I Ahamoniylar davlatini 20 ta o'lkaga bo'lgan. Tarixchi O'rta Osiyo xalqlari haqida bunday xabar qiladi:

Tarix, III kitob, 92. "Baqtriyaliklardan eglargacha bo'lgan xalqlar 300 talant soliq to'laganlar. Bu – o'n ikkinchi o'lkaga".

III, 93. "Saklar va kaspilyar 200 talant to'laganlar. Bu – o'n beshinchi o'lkaga. Parfiyaliklar, xorazmiylar, sug'diylar va arviylar 300 talant to'laganlar. Bu – o'n oltinchi o'lkaga" (Bir talant 25,92 kg. kumushdir).

Gerodot muntazam ravishda ahamoniylar harbiy qo'shinlaridagi mintaga xalqlarining jangchi vakillari haqida yoritadi:

Tarix, VII, 64. "Baqtriyaliklarning ust-boshi midiyaliklarning ust-boshiga o'xshagan, ular o'q-yoy va kalla nayzalar bilan qurollanganlar. Saklar esa (skif qabilasi) uzun cho'qqili tig'iz qalpog'lar hamda ishton kiyib, kamon va xanjamlar bilan qurollanganlar, yana ularida ikki qirrali jangovar boltalar – saganislar bo'lgan. Ushbu qabila (aynan skif qabilasi) aminiy saklar deb nomlangan. Forslar skiflarning hammasini saklar deb ataganlar. Baqtriyaliklar va saklarning sardori Giskap – Doro va Kirning qizi Atossaning o'g'li bo'lgan".

VII, 86. "Baqtriya chavandozlarining qurollari piyoda askarlari qurollariga o'xshagan".

Tarix, I, 201. "Shu xalqlarga ega bo'lgandan so'ng, Kir massagellarni isitilo qilish maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Bu massagellar jasur va behisob qabiladirlar. Ular shaharda, quyosh chikishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida issadonlarga ro'para bo'lib joylashganlar. Ba'zilar ularni skif qabilasi deb hisoblashganlar".

I, 202. "Hikoyachilarning habarlariга ko'ra, Araks Istr daryosidan yirikroqdir, aksincha, boshqa dirlari esa uni kichikroq daryo deb hisoblaydilar. Araks daryosida orollar ko'p... Araksning bir o'zani keng ochiq joyda oqib, Kaspdiy dengiziga qo'yiladi. Kaspdiy dengizi – bu boshqa dengizlar bilan bog'lanmagan dengizdir".

I, 215. "Massagellarning kuyim-kechaklari va turmush tarzi skiflarnikidan uncha farq qilmaydi. Ularning oltiq va piyoda qo'shinlari bo'lib, odada ular kamon, nayza va harbiy cho'qmorlar bilan jang qiladilar. Ularning hamma narsalari oltin va misdan ishlangan. Cho'qmor, o'q va nayzalar uchlarini misdan ishlangan, ularning ust-boshlari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jahatqlarini ham ust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar. Temir va kumushdan

yasalgan buyimlar ularning to'g'orida ishlatilmaydi, chunki bu metallar massagetlarning yerlarida umuman uchramaydi, biroq oltin va mis ularda juda ko'p".

1, 216. Massagetlarning urf-odatlari haqida mana nimalarni aytish mumkin: Oltidagi erkaklarning har biri bitadan ayolga uylandi, ammo, ular oltidagi ayollarning ishtagini bilan birga jinsiy aloqada bo'lishi mumkin. Massaget bron bir ayolga ilakishib qolsa, o'zining o'qadonini uning yurtasi eshigiga ostib, ichkariga kiradi va shundan so'ng barmayli hatir o'zga xonadon bekasi bilan jinsiy aloqada bo'lishi mumkin. Ularda inson uchun (hech qanday) qat'iy norma belgilanmagan. Lekin, agar kimki o'ya qarisa, uning barcha qorindosh-urug'lari yig'ilishadilar va qariyoni o'ldirishib, uning etini qurbonlikka so'yilgan hayvon g'o'shti bilan birga qaynatib yeydilar. Bunday o'lim ular uchun eng faxriy o'lim hisoblanadi.

Boshqa sabablar bilan o'lgan kishilar go'shtini ular istemol qilmaydilar, ammo yerga ko'madilar. "Bug'doyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik (Araks daryosida baliq serob) bilan shug'ullanadilar hamda sut ichadilar. Massagetlar ichida ulug'langan yovona xudo — bu Quyoshdir. Quyoshga ular otlarni qurbon qiladilar, chunki dunyodagi eng chaqon xudoga tez chopar jonligini qurbon qilish lozim deb o'ylaydilar".

Mil. avv. 530-yilda oylarida Kir II massagetlarga qarshi yurish boshlagan. Bu voqealar "Tarix"ning birinchi kitobida tasvirlangan. To'marining yurtiga podsho Kir tomonidan sovchilarning yetib kelishi; podshoga lumushga chiqish Kir taklifining To'maris tomonidan rad qilinishi; forslarning Araks daryosidan kechib o'tishi va massagetlar yerlarining ichkarisiga kirib borishi; To'maris boshchiligidagi massagetlarning harakatlari natijasida forslarning butunlay qirib tashlanishi.

Gerodot "Tarix" asarining III — kitobida (117-bob) Akas suvi majarasida Skial va Gekaleydan olgan ma'lumotlarga asoslanib quyidagilarni haber qiladi: "Osiyoda har tarafdin tog' bilan qurshalgan bir vodi' bor, tog'da beshita dara bor. Bir vaqtlar bu yerlar xorasmiylarga qaragan va xorasmiy gitkan, partyan, sarang va jamaneylarga chegaradosh bo'lgan. Ana shu vodi' atrofida tog'lardan Akas deb ataluvchi katta daryo oqib tushgan. Shu daryo besh irmoqqa bo'linib, yugoridagi xalqlar yerlarini sug'organ... Ammo forslarga qaram bo'lgandan keyin bu xalqlar mana qanday ahvonga tushdilar. Shoh tog'daralarini berkitirib, to'g'on darvozalar qurdiradi. Vodi'ya suny ko'l hosil bo'ladi. Ilgari shu suvlardan foydalanib kelgan qabilalar endi bu imqonyatlardan mahrum bo'lib, dahshatli holatga tushadilar. Qishda, albatta, boshqa joylardagidek, ilohiyot ularga ham mangarichlik yuboradi, yozda esa ular ekadigan tarq va kunjut doim suvsiz qoladi. Mutlaqo suvsiz qolganda ular xotin-bola chaqalari bilan Parsuaga boradilar, shoh saroyi qarshisiga turib olib baland ovozlar bilan achinarli holda farvod qiladilar. Ulardagi suv tankistligini ko'rgan shoh ar'zgo ylar tomonidagi to'g'on darvozalarini ochishni buyuradi. Yerlar sug'orilgach, yana to'g'oni berkitishni buyuradi, endi boshqa suvga tashna qabilla yerlariga suv

ochadilar. Biroq, men bilmik, to'g'on darvozasi ochish uchun shox katta pul (boj)lardan tashqari) olar ekan. Ishlar ana shunday".

Gerodotning Akas daryosi suvlaridan foydalanish haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, bir guruh olimlar (F. Alxaym, V.B. Xenning, I. Gershevich) ahamoniylar davridan oldin O'rta Osiyoda markazi Marv va Xirrot bo'lgan "Katta Xorazm" davlati rivojlangan degan muammoni ilgari surdilar.

Gerodotning "Tarix" asarida O'rta Osiyo hududi bilan bog'langan geografik tushunchalar kam uchraydi. Shular jumlasidan, daryolar Araks, Akas va Kaspiy dengizidir. Gerodot Baqriya markazi Baqra shahrini va shu viloyatdagi Barka nomli manzilgohni ikki marta tilga olgan (Gerodot, IV, 204; VI, 9; IX, 113). Boshqa daryolar, tog'lar, qo'llar yoki shaharlar va joylar haqida tarixchi xabar bermagan. Ba'zi xalqlarning hududiy joylashuvi (saranglar, tamaneylar) bizga noma'lum bo'lib qolgan.

Gerodotning asarida O'rta Osiyo jangchilari Kserks qo'shinlari safida qadimgi dunyo tarixida mashhur yunon-fors urushlaridagi Maraton va Salamin janglarida qatnashganlari haqida ma'lumotlar bor. Maraton jangida saklarning otlig qo'shinlari nihoyatda katta jasurlik ko'rsatganlar (Tarix, IX.71).

Manbada saklar va Baqriya suvorilari ahamoniyliklar qo'shinlaridagi eng jasur qismlardan biri sifatida yoritilgan. Gerodot xabariga ko'ra, Kserksning otlig qo'shinlarida faqat ayrim xalqlargina maxsus xizmat qilganlar — forslar, midiyaliklar, saklar, baqriyaliklar, hindlar, liviyaliklar, kaspilyar, parkaniylar va arablar (Tarix, VII, 88).

Ktesiy (mil. avv. V asr ikkinchi yarmi — IV asr boshlari) Gerodotning tarixiy an'alarini davom ettirgan yunon tarixchisi bo'lib, u Kichik Osiyodagi Knid shahridan kelib chiqqan. U mil. avv. 404-yildan boshlab ahamoniyliklar podshosi Artakserks II (mil. avv. 404 — 359) saroyida tabib vazifasi'ni bajargan. Podsho saroyida u Sharq chegaralarida joylashgan uzoq shaharlar, mamlakatlar va xalqlar haqida ko'pdan-ko'p hikoyalar eshitgan. Qadimgi yunon afsonalari ta'sirida tartyalangan Ktesiy qadimiy Sharq dostonlari va tarixiga ham juda qiziqib, Fors podsholigi hududida ishqomat qilgan ayrim xalqlarning tarixi va madaniyatiga oid ancha ma'lumotlar yig'ib olgan.

Ayniqsa tarixchini Hindiston va Baqriya qiziqtingan. Uning Hindistonga nisbatan katta e'tiborini tushunish mumkin, chunki qadimgi yunonlarning tasavvurlarida, bu o'lka quyosh chiqishida birinchi va dunyoning sharqiy chegaralarida oxirgi mamlakat bo'lib hisoblangan. Hindistonga chegaradosh Baqriyaning olini, qimmatbaho yarqiroq toshlari, kamon va nayzalar bilan qurollangan chavandozlari Eronda mashhur edi. Shu bois Ktesiy "Persika" asarining katta bir qismini baqriyaliklar tarixiga bag'ishlagan.

Erondan yurtiga qaytgandan so'ng Ktesiy qadimgi forslar tarixini yoritishni rejalashtirgan. Biroq to'plangan ma'lumotlar aynan forslar tarixi mundariyasi doirasidan chiqib baqriyaliklar tarixini yoritishga ham xizmat qilgan. "Persika" — "Fors tarixi" deb nomlangan asar mil. avv. 398-yildan so'ng yozilgan.

Ktesiy Ossuriya hukmdori Nin va Baqtriya podshosi Oksiart (boshqa manbalarda Zoroastr – Zardusht) urushlari haqida hamda Kir II ning baqtriyaliklar bilan urushi to'g'risida hikoya qiladi. Odatda bir guruh olimlar Ktesiyi Gerodotga nisbatan ishonchsizroq muallif deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Ossuriya podsholari hech qachon Sharqning uzoq chegaralariga yurishlar qilmaganlar, bundan tashqari, Baqtriyaning qo'shinlari uncha qudratli bo'lmagan va Ossuriyaga qarshi chiqolmagan deb faraz qilinadi.

Ktesiy Baqtriyaning ko'p sonli istehkomlari va shaharlari hamda mustahkamlangan poytaxti haqida, bu shaharni gamal qilgan Ossuriya podshosi Nin to'g'risidagi shunday yozadi: "...Nin baqtriyaliklarga qarshi yurishini boshlagan. U Baqtriyaning qal'alarini, aholisining ko'pligi va jasurligi haqida xabarlar bo'yicha, o'ziga bo'yishirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Shu qo'shinlarga sardor bo'yicha, Nin Baqtriya yuriga bostirib kiritgan, ammo viloyatdagi xilma-xil tog' daralari uning qo'shinlarini alohida qismlarga bo'yicha majbur qilgan.

Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida bir mashhur Baqtra nomli shahar bo'lgan. U mamlakatning markazi bo'yicha, ko'p shaharlar ichida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralib turgan, unda podsho qal'asi alohida joylashgan".

Hatto XX asrning o'rtalariga qadar qadimshunoslar Ktesiyning Baqtriyada qudratli qal'alar va shaharlari haqidagi hikoyalarga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashgan. Biroq keyingi arxeologik kashfiyotlari natijasida Baqtriya hududida ko'p sonli istehkomlar, mudofaa devorlar va burjlar bilan mustahkamlangan mil. avv. VII – VI asrlarga oid ko'pna shaharlar aniqlandi. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog'ida miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq qishloq-qo'rg'onlar, qal'alar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan. Birgina Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Pshaktepa, Beshqo'ton, Talashkan, Jondavat, Bandixon, Bo'yirchi, Qizilcha, Obishir, Sho'trepa kabi yodgorliklarni eslash kifoya. Ular mudofaa devorlari, mudofaa burjlari bilan mustahkamlangan qal'alar va qo'rg'onlardir. Qadimgi aholi u davrlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Uy-qurilishi, diniy va dunyoviy monumental binolar qurilishi, ko'p tarmoqli xunamandchilik va savdo-sotiq, ayniqsa uning kulolchilik, metallurgiya, zargarlik, to'qimachilik va ko'chilik sohalari Baqtriyada yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi.

Gekatey va Gerodot asarlaridan kelib chiqqan "Katta Xorazm" davlati masalasi, shuningdek Ktesiyning Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi ilmiy muammosiga asos bo'yicha xizmat qildi.

Gekatey (taxm. mil. avv. 550 – 490). Qadimgi yunon tarixchilaridan yana boshqa biri – Gekatey haqida qisqa bo'lsa ham aytib o'tish lozim. Gekatey Millet shahridan bo'yicha (mil. avv. VI – V asrlar) qadim tarixchilar orasida birinchi bo'yicha ahamiylar satrapialarining to'xtatini keltirgan va Qadimgi Sharq xalqlari tarixiga oid ma'lumot bergan (jumladan, partiyaliklar, xorasmiylar, baqtriyaliklar

va arviyaliklar haqida ham yozgan). Uning ma'lumotlaridan Gerodot va Ktesiyilar foydalananganlar (Ktesiy o'z asarida ahamiylarning podsho saroyi hujjatlardan foydalaniganligi haqida e'lon qiladi). Gerodotdan oldin Hindiston haqida Skitlik xabar qilgan. U podsho Doro I ning buyrug'ini bajarib, Hind daryosi orqali kemalarda suzib, Arabiston dengiziga chiqqan va Qizil dengizni bo'yab Misr qit'asiga eson-omon yetib borgan.

Ksenofont (mil. avv. 430 – 356) qadimgi yunon tarixchisi. Eng mashhur asarlari "Kir anabasisi" ("Kir yurishlari"), "Yunon tarixi" ("Ellenika"), "Kiropeya". Ksenofont "Kiropeya" nomli asarida, Ktesiy xabarlariga o'xshash, Baqtra shahrining ossuriyaliklar tomonidan gamal qilinishi to'g'risida ma'lumot beradi. "Kiropeya"da muallif "ideal" hukmdor qiyofasini yaratishga uringan va forslarning "ideal" davlati misolini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bu personaj asli Ahamaniylar davlatining asoschisi Kurush bo'lgan. Ushbu asarda keltirilgan ayrim ma'lumotlar Gerodot va Ktesiydan olingan, bu bilan u tadqiqotlar e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya urushlari haqida ham yozadi.

Mil. avv. 329-yilda Makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va Sug'diyona yerlariga harbiy yurishlari boshlangan. Bu yurishlar O'rta Osiyo tarixida eng yuksal o'rganilgan mavzulardan biridir. Aleksandrning qo'shinida jangchilar bilan birga bo'yajak tarixchilar Ptolemei, Aristovul, Onesikrit, Kallisten va Xareslar xizmat qilib, o'z kundaliklarida turli xil siyosiy va madaniy voqealarni yozib borganlar. Ularning ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan, lekin dastlabki manbalardan so'ngi yunon tarixchilari va geograflari foydalananganlar. Jumladan, Diodor "Tarixiy kutubxona", Strabon (mil. avv. 61 – mil. 24) "Geografiya", Pompey Trog (mil. avv. I – mil. I asr) "Filipp tarixi" asarlarini, Plutarx (mil. 46 – 127), Klavdiy Ptolemei (II asr) o'z hikoyalari haqida Pliniy (I asr) "Tabiiy tarix" nomli kitobini yaratdilar. Ammo Aleksandr yurishlari haqida keng va to'liq ma'lumotlar rimlik Kuint Kuriy Ruf va yunon Arrian asarlarida saqlangan.

Diodor (mil. avv. 90 – 21) yirik tarixchi olim bo'yicha, asli Sisiliyaga qarashli Argirya shahridan. Diodorning "Tarixiy kutubxona" nomli asari 40 kitobdan iborat. Mazkur tarixiy asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan milodiy I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. Shuningdek, O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi xalqlar (skitlar, saklar, massagellar, baqtriyaliklar va boshq.), O'rta Osiyo va Eron munosabatlari xususida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Diodor o'z asarlarida Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Efor, Polibiy va boshqa shu kabi mualliflarning ma'lumotlaridan foydalanagan. "Tarixiy kutubxona" asarining bizgacha 15 kitobi yetib kelgan xolos. Bular 1-5 hamda 11-20 kitoblar. 9 va 10 kitoblarning ayrim qismlariga saqlanib qolgan. Mazkur asar 1774 – 1775-yillarda I. Alekseyev tomonidan (olti qismda) va 1874 – 1875-yillarda F.G. Mishchenko tomonidan ikki qism qilib nashr etilgan.

Arrian (mil. 90/95–175) – yunon yozuvchisi, tarixchi va geograf olim. Olim mil. Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. "Aleksandr haqida", "Partiyaliklar

haqida", "Hindiston" va 7 jildidan iborat "Aleksandr anabasis" nomi asarlar muallifi. Anabasis — bu "davlat ichkarisiga dengizdan uzoklashgan harbiy yurish" yoki "Aleksandr yurishlari" deb tarjima qilinadi. Quyida Arrian va Kussiy Ruf asarlaridan olingan ayrim ma'lumotlarning tarjimai keltiladi (ular rus tiliga M.Y. Sergeyenko va V.S. Sokolovlar tomonidan tarjima qilingan).

"Aleksandr yurishi" ("Aleksandr anabasis") — Arrianning yunon tilidagi yetti kitobi ichida eng muhim asari bo'lib, unda muallif Aleksandr yurishini deyarli kumma-kun bayon qilishga uringan, boshqa mualliflar mashhur sarkarda haqida yozganlariga nisbatan to'laroq va tartibliroq hikoya qilgan.

Arrian Makedoniyalik Iskandarning O'rta Sharq va O'rta Osiyo hududlariga harbiy yurishlari haqida yozgan antik dunyo tarixchilaridan bo'lib, yurtimiz qadimgi xalqlari, ularning urf-odatlari, jangavor mard o'g'lonlar ekanligi hamda yengilmas Iskandar qo'shiniga kutilmaganda paydo bo'lib, ilk bor zarba bergan jasur xalqlar ekanligi haqida noyob ma'lumotlar beradi.

Shuni ham aytish kerakki, Arrian "Aleksandr yurishi"ni Adrian davrida va shubhasiz, Rim imperatorlariga hushomado'ylik qilib yozgan. Mualliflarning fikricha, ular ideal davlat rahbari, jangchi va sarkarda bo'lgan Aleksandr bilan o'zlarini taqqoslashlarni xush ko'rishgan. Arrian maddohona xususiyatga ega "Yurish" asarini yozar ekan, bayonining sifat va aniqligi bilan farq qiladigan turli manba va qo'llanmalardan foydalangan. Ammo Arrianning o'zi keltirgan ma'lumotlar har doim ham aniq emas. Shunga qaramay, "Aleksandr yurishi" nafaqat Aleksandarning harbiy yurishlari, balki uning Markaziy Osiyoni ham o'z ichiga olgan imperiyasidagi xalqlar va davlatlar haqida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi.

Akademik S.A. Jebelevning so'zlariga ko'ra, "Arrian ("Anabasis")ning umumiy ustunligi asosan shundaki, u o'z tarixiy asarida Aleksandr davrining rasmiy axborotidan boshqa manbalarga nisbatan kattaroq hajmda foydalandi. Arrian o'z manbalariga tanqidiy yondashganligini alohida ta'kidlash lozim".

Antik davr hikoyalari ikkita asosiy: tarixiy va adabiy yo'nalishlar yuzaga keldi. Arrianning asari birinchi yo'nalishning eng yuksak cho'qqisidir.

Arrian, III kitob, 27-bob, 9. "Aleksandr yaqinlashib kelishi haqida eshitib, Bess Oks daryosidan kechib o'tadi va kemalarini yondirib, Nautaka — sug'diyalar yeriga yo'l oladi". 10. "Spitaman va Oksiani bilan birga sug'diyalar suvorilari hamda Tanais daryolari unga ergashadilar. Bagtriya chavandozlari Bessning qochishidan xabar topib, har tomonlarga qarab o'z uylariga yo'l oladilar.

Aleksandr Drapsakga yetib ketadi, qo'shinlariga dam berib, ularni Bagtriyadagi eng yirik shaharlar — Aorn va Bagtra tomonga yurgizadi. Bu shaharlarni hujum qilib zabt etadi va Aorn qal'asida Androkohning o'g'li Arxelay boshchiligidagi qo'riqchi qo'shin qoldiradi. Himoyasiz taslim bo'lgan boshqa bagtriyalarga hokim bo'lib fors Artaboz tayinlanadi".

2. "U o'zi Oks daryosiga qarab yo'l oladi. Oks Kavkaz tog'laridan boshlab oqadi, hind daryolaridan tashqari Aleksandr Osiyoda qurgan daryolar ichida bu

eng yirik darvozi; unumun eng yirik daryolar Hindistonda joylashgan. Oks Girkaniyadagi katta bir dengizga quyiladi".

IV, 5, 2. "Spitaman o'z jangchilarni bilan Maroganda qal'asini qo'riqlayotgan makedonlarga hujum qiladi Aleksandr Marogandaga yordamchi qo'shin yuborganidan xabar topib, Spitaman qal'a qamalni to'xtatib, Sug'diyonadagi basileya — poksho shahriga oltanadi. Farnux va uning lashkarboshlari Spitaman davlatidan butunlay siqib chiqarishga harakat qiladilar va Sug'diyona chegaralariga yetib kelib, ko'chmanchi skiflarga hujum qiladilar". 4. "Spitaman yana 600 ta skif o'liqlarini o'z qo'shiniga qo'shib oladi va skif itifoqdoshligidan ko'ngli ko'tarilib, hujum qilayotgan makedonlarga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Skif dasthlarining tekisligida turib u dushmaning hujumini ham kutmadi, dushmaniga hujum ham qilmadi; faqat uning chavandozlari piyoda makedonlarning atrofida ot qo'yib chopib yurdlar va ularga o'g'aydilar". 5. "Farnuxning askarlaridan ular osonlik bilan qutuladilar, chunki ularning otlari chiqqomroq bo'lib, o'sha paytda hali charchamagan edi, Andromax qo'shinlaridagi otlar esa olis yo'llarda charchab, yemish kamligidan zaiflashgandi. Skiflar jang maydonida turgan va cheginayotgan makedonlarga o'qvat bilan hujum qiladilar". 6. "Ko'pdan-ko'p makedonlar yaralanadi va halok bo'ladi; xullas, jangchilar to'rtburchak bir qator saqlanib, Polittimet (Zarqashon) darysti tomonga chekinadilar; bu yerda o'rmon bo'lib, o'rmondagi changalzorlar vorvarlarning o'qlariga to'siq bo'ladi va piyoda askarlarning harakatlari qo'proq foyda keltiradi".

15, 5. "Aleksandr Farnasmanga minadorlik bildiradi va do'stlik itifoqchiligi haqida shartnoma tuzib, Pont dengizi tomonga yurishga hozir vaqti yo'q, deb javob beradi. U Farnasmanni Bagtriya sarvapi fors Artaboz huzuriga yuborib, ularni jo'natadi".

Strabon (mil. avv. 64/63 — milodiy 23/24) — qadimgi Yunonistonning atiqli geograf olim. Strabonning eng muhim ijod mahsuli 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomi asar bo'lib, u qadimgi dunyo geografiyasini o'rganishda eng qimmatli manba hisoblanadi. Asarda Osiyo mamlakatlari ham katta o'rinni bergan. Bu 11-16 kitoblarni o'z ichiga olgan.

Strabon "Geografiya"sida Girkaniya, Parfiya, Bagtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari; Oks va Yaksart daryolari haqida, qadimgi xalqlar: saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, shuningdek Bagtriya va Parfiya munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Strabon, "Geografiya". XI kitob, XI bob, 3: "Qadimgi zamonlarda bagtriyalar, sug'diyalarning turmush tarzi va urf-odatlari ko'chmanchilarning turmushi tarzidan ko'p farq qilmagan, ammo bagtriyalarning a'nanalari ancha yuqori madaniyatga ega bo'lgan; lekin ular haqidagi Onesikritning fikri magrovga kirovor bo'lmaydi. Uning so'zlariga ko'ra, qariik va kasallikdan qatitq toltiqgan odamlarni ular maxsus bogilgan va o'zlarining mahalliy tillarida "go'ykonlar" deygan tilarga tashlaganlar, Bagtriyalar poytaxti devorlaridan tashqari joylar toza

bo'lgan, lekin davlat ichkarisidagi hududning katta bir qismi odamlar suyaklari bilan to'ldirilgan. Aleksandr bu ufqni odamlar yo'q qildi. Shunga o'xshagan hikoyalarni kassiyalar haqida ham aytib beradilar: ular 70 yoshdan oshgan o'z ota-onalarini qamab qo'yadilar va och qoldiradilar".

XI. 4. "Ayishlaricha, Aleksandr Bagtriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilinganlari jumlasidan Bagtriyadagi Karida (bu yerda Kallisten qo'lga tushib qamoqqa olingan), Sug'diyonadagi Maroganda va Kira – Yakart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu foy, davlatning chekkasi bo'lgan. Aleksandr Kirni hurmat-izzat qilgan bo'lsa ham, bu shahar aholisining ko'pdan-ko'p qo'zg'onlari sabablariga ko'ra, uni vayron qilishga buyruq bergan...".

XI. 5. "Sug'diyona ichidan oqayotgan daryoni, Aristovning aytishicha, makedonlar Politem deb atashgan (xuddi shunday ular boshqa ko'p nomlarni almashirganlar va qisman o'zgartirganlar). Artylar yeridan oqayotgan Arty daryosiga o'xshab, bu daryo davlat yerlarini sug'oritib, dastl va savro viloyatiga intiladi va qumlar ichida yo'qolib ketadi".

Qadimgi rim mualliflari asarlarida Markaziy Osiyo tarixi

Diodor (mil. avv. 90 – 21) yirik tarixchi olim bo'lib, asi Sitsiliyaga qarashi Argirya shahridan. Diodorning "Tarixiy kutubxona" nomli asari 40 kitobdan iborat. Mazkur tarixiy asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan milodiy I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan. Shuningdek, O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi xalqlar (skiflar, saklar, massagellar, bagdriyaliklar va boshq.), O'rta Osiyo va Eron munosabatlari xususida ham qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Diodor o'z asarlarida Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Efor, Polibiy va boshqa shu kabi mualliflarning ma'lumotlaridan foydalangan. "Tarixiy kutubxona" asarining bizgacha 15 kitobi yetib kelgan xolos. Bular 1-5 hamda 11-20 kitoblar. 9 va 10 kitoblarning ayrim qismlariga saqlanib qolgan.

Diodorning o'zi yozishicha, u "Kutubxona"ni yozish uchun o'tiz yillik umrini sarflagan. Kitob Sharq, Yunoniston va Rim tarixining sinxron tavsifi o'z ichiga olgan. Bu asar mazmuni bo'yicha, asosan, yig'ma ko'rinishda va xronologik jihatdan har doim ham aytarli aniq emasligiga qaramay, o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki uning ahamiyati, eng avvalo, bizgacha yetib kelmagan manbalardan ko'chirilgan o'z ichiga olganidir. Xususan shuni aniqlanganki, Markaziy Osiyo bo'yicha asosan, Ktesiyga asoslanib ma'lumot beradi. U Ktesiy matnlarini qay darajada to'liq bergani, Ktesiy asarlari unga ma'lum bo'lgan bo'lmaganligi yoki Ktesiy ma'lumotlarini o'zicha bayon etgan boshqa mualliflarning ma'lumotlardan foydalangani hali tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmagan.

Diodorning asari Aleksandriyning hayoti va yurishlari haqidagi qisqa ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan, ammo, afsuski, ushbu asarning Aleksandr So'g'dda bo'lgan davrini yorituvchi qismi saqlanib qolmagan.

Diodorning Aleksandr shaxsiga munosabatiga kelib, u butunlay maqolalardan iborat: Aleksandr - buyuk sarkarda, ajoyib jangchi, askarlarning otasi, qatig'o'l, lekin odil va hokazo. Kamdan-kam holatlariga (qoni janglar, g'ulabalar, o'limalar, Aleksandr dushmanlarining jazolanishi va qiyog'i haqidagi jo'shqin hikoyalarda) Diodor Aleksandriyning unga berilgan tavsiflar bilan hamohang bo'lmagan qimishlarini sanab o'tadi.

Mazkur asar 1774 – 1775-yillarda I. Alekseyev tomonidan (olti qismda) va 1874 – 1875-yillarda F.G. Mishchenko tomonidan ikki qism qilib nashr etilgan.

Pompey Trog (mil. avv. I asr – mil. I asr o'rtalari) mashhur Rim tarixchisi. Uning "Filipp tarixi" nomli asari 44 kitobdan iborat bo'lib, kitobda Ossuriya podshosi Nin davridan toki muallif yashagan davrigacha bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan. Lekin Filipp II va Makedoniyalik Aleksandr davri tarixiga alohida e'tibor qaratilgan.

Pompey Trogning asari ellinizm davridagi noma'lum yunon muallifining tarixiy to'plamining qayta ishlangan bir shaklidir. Pompey Trogning asari haqida uning "Mugaddima"laridan ham xulosaga kelish mumkin, Pompey Trogning asari bizga mil. II-III asrlardagi rim tarixchisi Mark Yunian Yustinning qisqacha bayonida yetib kelgan.

Mazkur asar yozilishida muallif Gerodot, Ktesiy va Polibiy ma'lumotlaridan foydalangan. "Filipp tarixi" asarida skiflar, Bagtriya, Makedoniyalik Aleksandr davrida Bagtriya va So'g'dda qurilgan shahar va katta inorotlar, Aleksandr vafotidan keyin sodir bo'lgan voqealar, Parfiya podshohligining tashkil topishi, Bagtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Pompey Trog asarining biz uchun qiymati shundaki, unda Artemitilik Apollodorning allagachonlar yo'qolgan asaridan foydalangan. U ulkan asar bo'lib, unda Mitridat urushlari munosabati bilan Partava, demak Markaziy Osiyo tarixi keng yoritilgan edi.

Kvint Kursor Ruf (mil. avv. I asrning oxiri – mil. I asrning o'rtalari) mashhur Rim tarixchisi. Makedoniyalik Aleksandriyning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mumlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" nomli kitobni yaratgan. Kursor Ruf o'z asarini yozishda Polomey Lag va Aleksandr safdoshlari Oneskrit va Kallistening xotira va kitoblaridan keng foydalangan. Muallif O'rta Osiyo xalqlarining boshqichilarga qarshi kurashi, xususan, Spitaman boshliq qo'zg'onni keng yoritgan. Biroq Ariyanga nisbatan uning hikoyalari badiiy to'qimalar ko'p uchraydi.

Kursor Ruf VII kitob, IV bob, 26: "Bagtriyaning tabiiy boy va turli-tumandir. Ba'zi joylarda ko'pdan-ko'p daraxzorlar va tok novdasi, shirin meva serob hosil qiladi: unumdor yerlarni ko'p sanoqli buloq-daryolar sug'oradilar; hovldor tuprog'ida bug'doy ekiladi; boshqa yerlar o'tloqlar uchun qoldiriladi". 27. "Davlatning katta bir qismini hosillovchi dasthlar egalaydi: suvsizlik tufayli tushlab qo'yilgan yerlarda na odamlar, na mevalar bor. Pondan (Qora dengiz) oqayotgan shamollar tekisliklarga qumlarini surib keltiradi; o'lis musofadan qum

uyunlari katta tepaliklarga o'xshab ketadi, shu yerda burungi yo'llarning izlari yo'qolib qoladi". 28. "Shu boisdan ham bu tekisliklardan o'tib yurganlar, xuddi dengizchilarga o'xshab, o'z yo'llarini tundagi yulduzlar orqali topadilar".

V. "Aleksandr baqiriyilar viloyatini Ariaboz idorasiiga topshirib, bu joydagi qo'riqchilar qo'shini bilan birga ot-arava yuklarini qoldiradi. O'zi esa harakatdagi qo'shinlarga yo'lbo'shchi bo'lib, Sug'diyona so'hasiga yo'l oladi...".

V. 13. "Xallas, kechki payt u Oks daryosiga yetib ketadi. Ammo uning izidan kelayotgan ko'pdan-ko'p jangchilar unga yetolmaydilar va orqada qoladilar, shu sababli u baland tog' Ustida o't yondirishga buyruq beradi, ortda qolganlar uchun alanga muri lagerga yaqinlashib kelishlarini bildiradi".

V. 16, 17, 18. "Ushbu tunni Aleksandr katta ruhly hayjon bilan uyqusiz tugadi. Keyingi kun ham oson bo'lmadi, kemalar yo'q edi va daryoning ochiq qirg'oqlarida ko'prik qurish uchun daraxtzorlar ham bo'lmagan. Shu vaziyatdan u yagona xulosa chiqaradi. U askarlarga somon bilan to'ldirilgan meshlarni tarqatishga qaror qiladi, ular meshlar ustida daryodan suzib o'tishni boshlaydilar: daryodan birinchi bo'lib kechib o'tganlari qo'riqchilar xizmatini bajarib, boshqalarni kutib oladilar. Shu tarzda qo'shinlar oltinchi kuni daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olishga muvaffaq bo'ladilar".

VII. 6, 17. "Aleksandr Marogandaga yetib ketadi. Uning mudofaa devorlarining uzunligi 70 stady; shahar qo'rg'on ikinchi devor bilan o'ralgan".

VII. 1, 2. "Tanais o'rtidagi skif davlatining podshosi makedonlar tomonidan daryo bo'yida asos solingan shahar qullik bo'yinurug'i bo'lishini sezib, uni vayron qilish va makedonlarni daryo qirg'og'idan uzog masofaga qirib chiqarish uchun katta bir oltiq qo'shin bilan birga o'z akasi Karatazis nomli yo'lbo'shchini yuboradi. Tanais baqiriyilarni yevropalik skiflardan ajratadi". 4. "Ular Istr daryosining narigi yog'ida boshqa bir viloyatni egallab, Osiyoning chegarasini yarlarda joylashgan Baqiriyaga ham qo'shni bo'ladi. Ular joylashgan shino'l yerlaridan narivogda qalin o'rmonzorlar va odam yashamaydigan jimjit so'yon yerlar boshlanadi. Tanais va Baqiriyaga bo'ylab joylashgan yerlar, umumiy madaniy izlarga ega". 5. "Aleksandr tayyorgarlik ko'rmasdan birinchi bo'lib jang qilishga erishadi, uning ko'z o'ngida dushman chavandozlari o'lda chopadilar, u esa yaradorlikdan butunlay tuzilmagan... Xallas, u do'stlarini maslahatga chaqiradi".

6. "U dushmanidan emas, noqulay vaziyatdan qo'rqan edi. Baqiriyalar isyon ko'tardilar, skiflar bezovta qilardilar, uning o'zi zo'rga oyogda turib, otga minishga ham, yo'lbo'shchi bo'lib askarlarni ruhlantirishga ham imkon topmadi...".

30. "Yetib kelayotgan xabarlar uning to'xtovsiz g'alabalari shu niga mos kelmas edi".

31. "Yugoridagi hikoyaga ko'ra, u baqiriyalar qo'zg'oloniga qaydard Spitmanunga qarshi Menedemi yuboradi. U makedonlar yaqinlashib kelishi haqida eshitib va shahar atrofiga qamalib qolishdan saqlanish uchun panogohga bekiniadi, shu yerdan o'tishi mumkin bo'lgan dushmanga hujum qilishga qaror qiladi".

32. "Yo'l pistirma uchun qulay joyini kesib o'tadi, shu yerda u daxlarni yashitiradi. Har bir olg'inkitla qurallangan chavandoz minadi, kutilmaganda ular muvbat bilan yerga tushib oltiqlar jangdagi dushmanlarga to'sqinlik qiladilar".

33. "Jangchilarning eptilligi oltarning chaqonligiga o'xshab ketadi. Spitman chavandozlarni o'rab olishga buyruq berib, dushmanlarga qarshi birdaniga ortdan, to'para va yon tomonlardan hujum qiladi".

34. "Menedem barcha tomondan o'rab olinadi, u notanish joyda pistirmaga tushgan va boshga hech iloji yo'qligini ko'rib, o'z jangchilariga son jihatdan ushbu bo'lgan dushmanlarni qirib tashlashga va mag'rur halok bo'lishga chaqiradi".

35. "Uning ostida kuchli ot bo'lgan, ko'p xollarda varvarlar safga tashlab, ularga dastxatli zarar keltiradi. 36. "Dushmanlar unga ko'pdan-ko'p o'q otadilar. Sonosiz yaralardan zaiflanib... u jonidan judo bo'ladi va ot ustidan yerga tashib qoladi".

39. "Bu jangda 2000 ta piyoda askarlar va 300 ta chavandozlar halok bo'ladi. Jang maydonidankelgan askarlarni o'lim jazosi bilan qo'riqib, Aleksandr mag'lubiyat haqidagi xabarini ehtiyotlik bilan sir saqladi".

Gay Pliny Sekund (22/24 - 79) - rimlik mashhur yozuvchi, tarixchi olim. "Germaniylarning urushlari", "Pomponiy Sekundning hayoti" nomli asarlar muallifi. Oltinchi 37 kitobdan iborat ("Yestestvennoy istorii") "Oddiy tarix") asari eng mashhur bo'lib, unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Mazkur asarda O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston qadimiy tarixi, hududida yashagan xalqlar, Oks (Amudaryo), Yaksart (Sirdaryo) va ularning skifcha nomlari, Baqiriyaga va uning tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Klavdiy Ptolemei (taxminan 90/100 - 160/170) - mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan.

Mashhur "Almagest" - "Al-majasty" (18 kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini o'z ichiga oladi), "Optika" (5 kitobdan iborat), "Germanlar haqida tushuncha" (3 kitobdan iborat) va, nihoyat, "Geografiya" shular jumlasidandir. Lekin olinga shuhrat keltirgan asarlari "Almagest" va "Geografiya"dir.

"Geografiya"ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24-bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega. Shuuni muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27 ta xarita ilova qilingan.

Ptolemei "Geografiya"da Girkaniya, Marg'i'yona, Baqiriyaga, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqiriyaga va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek o'sha mamlakatlar va ular bilan ulash o'lkalari va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

Markaziy Osiyoning qadimiy tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlari benihoya qimmatlidir. Qadimgi yunon va rim yozma

manbalari orqali Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi, Vatanimiz haqidagi qadimgi yozma yodgorliklar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Yunon va Rim olimlarining tarix va geografiyaga oid asarlari ma'lum darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.

Nazorat savollari

1. Qadimgi yunon manbalarida Markaziy Osiyo hududlari qanday yoritilgan?
2. Markaziy Osiyo hududlari qadimgi rim manbalarida qay tariqa yoritilgan?
3. Qadimgi yunon va rim yozma manbalari asosida Markaziy Osiyo tarixini o'rganishning o'ziga xos ahamiyati nimada?
4. Qadimgi yunon va rim manbalari qanday ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi?

Adabiyotlar

1. Manbashiunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Арриан. Поход Александра / Пер. М.Е. Сергеев. – М.-Л., 1962.
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асрлар). – Т., 1992.
4. История Узбекистана в источниках / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
5. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского / Пер. и примеч. под ред. В.С. Соколова. – М.: МГУ 1963.
6. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
7. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А. Стратановского. – М.-Л.: Наука, 1964.
8. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Ўзбекистон энг қадимги ва қадимги даврларида. – Т.: Фан, 2014.

9-Мавзу: Qadimgi va ilk o'rta asrlardagi Xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo hududlari tarixining yoritilishi

Reja:

1. Xitoy yozma manbalarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari va ularning mohiyati
2. Qadimgi Xitoy yozma yodgorliklarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi
3. Ilk o'rta asrlardagi Xitoy yozma manbalarining Markaziy Osiyo tarixida tutilgan o'rni va ahamiyati

Tayanch ibora va tushunchalar: ilk o'rta asr yozma manbalari, Xitoy solnomalari, "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi"), "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi"), "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi"), "Yey-shu" ("Yey sulolasi tarixi"), "Sulolalar tarixi", Xitoy manbalarining ahamiyati.

Xitoy yozma manbalarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari va ularning mohiyati

O'zbekiston tarixining qadimgi va ilk o'rta asrlari davriga oid yozma yodgorliklar orasida xitoy solnomalari alohida o'rinda ega hisoblanadi. Ushbu yozma yodgorliklarda o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'muriy boshqaruv tizimi, bu yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi va xo'jalik faoliyati, O'rta Osiyoning xalqaro savdo-elchilik aloqalarini yoritib berruvchi ma'lumotlar uchraydi.

Xitoy manbalari ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlari ko'zlab yozilgan, xitoy imperatorlari ko'kka ko'tartilgan maqalalar, ilohiy lashtirilgan, boshqa xalqlarning tarixi esa ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni, u yoki bu hududda ishqomat qilgan xalqlar, shuningdek, bir-biriga qarshi turgan qo'shnlarning umumi soni aniq ko'tarilgan.

Xitoy solnomalari ichida Turk xoqonligi tarkibiga kirgan Xorazm, Sug'd, Shosh, Farg'onaning xoqonlik davridagi boshqa qismlari tarixi bo'yicha Xitoy manbalari ilohiyatda muhim hisoblanadi.

Xitoy manbalarining mualliflari ichida bir guruh tarixchilarning asarlari masalan: saroy tarixchilaridan Vey Shou (506–572) yozgan "Vey-shu" ("Vey sulolasi tarixi"), Tan davlatining dastlabki yillarida (629–656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuu Jinzang kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi") – Suy davlati (581–618) tarixiga bag'ishlangan asar, Tan sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarmida yozilgan "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi", 630-yil.), 941–945 yillarda Tan sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhini yozgan "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi", X asr)da O'zbekiston va unga yondosh hududlar haqida ma'lumotlarni o'zida aks etgan. "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi", 630-yillar), "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi", 630-yil) va "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi", X asr) tarkibida O'rta Osiyoga tegishli joylar Choch, ya'ni Toshkent, Farg'ona, Ustrushona, Samarqand, Buxoro, Kesh yoki Shahrisabz, Naxshab, ya'ni Qarshi, Xorazm, Toxariston haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Ularda o'zining ma'muriy boshqaruv tizimi, bu yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi va xo'jalik faoliyati, O'rta Osiyoning xalqaro savdo-elchilik aloqalari va boshqa har xil ma'lumotlar o'tin olgan.

Bir so'z bilan aytganda xitoy manbalari O'zbekiston qadimgi tarixini yoritishda o'ziga xos o'rinda tutadi.

Qadimgi Xitoy yozma yodgorliklarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi. Sima Syan (tax. mil.av. 145 yoki 135–86-yillar) – Xitoy

tarixshunoslarining o'tasi hisoblanadi. Uning mashhur asari "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") hisoblanadi.

"Tarixiy xotiralar" dastlab "Tayshi-gun shu" ("Bitkichlar boshlig'i hazratining kitobi"), so'ngira "Tayshigun szi" ("Bitkichlar boshlig'i hazratining xotiralar"), keyinroq esa "Tayshi szi" ("Bitkichlar boshlig'i xotiralar") deb atalgan va oxirgi qisqartirilgan nom Sharqiy Xan sulolasining (mil. 25-220-yillar) imperatori Xuandi (147-165) davrida berilgan. Mazmunan olganda, unda asar yozilgunga qadar kechgan 3 ming yillik tarix bayon etilgan. Shuning uchun "Shi Szi" Qadimgi Xitoyda ilk bor yangi uslubda bitilgan umumiy tarix hisoblanadi. U 130 bobdan iborat bo'lib, shundan 12 bobi qadim zamonda o'tgan hokimlar, amaldorlar va ularning shajaratlariga, mamlakatda sodir bo'lgan yirik voqealarga 10 bobi imperatorlar, hokimlar, oliy tabaqali amaldorlar faoliyati va ularning shajaratlari, muhim davlat ishlarga; 8 bobi ilm-fan, urf-odatlarga, san'at, suv xo'jaligi ishlari, iqtisodiyot va qonun-qoidalariga; 13 bobi mayda hokimlik va sulolalar tarixiga; 30 bobi mil. av. XI-III asrlarda o'tgan mayda davlatlar va ular orasidagi munosabatlar tarixiga hamda hukmdorlar, amaldorlar, yirik shaxslar shajaratlari va ularning faoliyatlariga bag'ishlangan. Qolgan 70 bobi nisbatan pastroq darajali hukmdorlar, ma'muriy va harbiy amaldorlarga mahalliy hukumat boshliqlari faoliyati va ularning shajaratlariga, xitoylarning atrofiida yashagan xalqlarga, ular tomonidan tashkil etilgan davlatlar va hokimliklarga bag'ishlangan.

Umumlashirilgan holda ular "Lechiyuan" ("Qator bayonnomalar yoki tazkiralari") deb ataladi. So'ngi bir bobi muallif hayoti, faoliyati, shajarasiga va mazkur asarning yozilish tarixiga bag'ishlangan bo'lib, u "Tayshi ziyuy" ("Bitkichlar boshlig'ining so'zi") deb nomlangan. Ushbu bobda "Shiji'da bayon etilgan ayrim tarixiy voqealarga va shaxslarga muallifning munosabati, bahosi va mulohazalari hamda xitoylarga qo'shni bo'lgan xalqlar va mamlakatlar, Xan sulolasi bilan aloqada bo'lgan davlatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

"Shiji"ning yozib tugatilgan vaqi mill. av. 104-91-yillarga to'g'ri keladi. Uning ayrim yo'qolgan qismlarini Yuandi (mil. av. 48-31) va Chengdi (mil. av. 32-5) ismi G'arbiy Xan imperatorlari davrida yashab o'tgan Chu Gaozun (tug'ilgan va vafot etgan yili noma'lum) ismli oliy darajali ilmiy unvonga ega bo'lgan tarixchi to'ldirgan. "U-di chiyuan" ("U-di tazkiras"), "Sanvang shiya" ("Uch hokim shajarasi"), "Guy Se chiyuan" ("Guy Se haqida bayon") kabi boblar, Xan xonadoni bilan qaridosh bo'lib qolganlarga oid ma'lumotlar va U-di dan keyingi imperatorlar tazkiralari ana shu to'ldirilgan qismlardan sanaladi.

"Shiji"ning muallifi Sima Chyan (Sima Chian, rus adabiyotida Sima Syan, yoshlik davridagi ismi Sizichjan) hisoblanadi. U hozirgi Xitoyning Shensi o'lkasidagi Xancheng shahridagi Lungmen nomli joyda saroy tarixchisi Sima Xan oilasida tug'ilgan. Uning tavallud topgan va o'lgan vaqi aniq emas. Ayrim yapon yillarida tug'ilgan va 42-43 yil umr ko'rgan. Boshqa bir guruh olimlarning ko'rsatishicha, Sima Chyan 60 yil yashagan va Xan sulolasining oltinchi imperatori U-di (mil. av. 140-85)dan keyin vafot etgan.

U Xan sulolasi saroyidagi ko'zga ko'ringan tarixchi oilasida tavallud topganligi sababli Sima Chyaning hayot yo'li saroyda xizmat qilishdan boshlangan. Imperator U-di davrida Sima Chyan bir necha yil saroy soqchisi (*lungching*) lavozimida ishlagan, so'ngira Bashu nomi qo'shni davlatga elchi qilib yuborilgan. Mil. av. 108-yilda ilgari otasi egallagan saroy bitkichlari (imperator uchun hujjatlar tayyorlovchilar) boshlig'i lavozimiga tayinlangan. Mil. av. 100-97-yillarda Li Lin (vaf. 74) ismli laskartboshi 5 ming suvoriyga bosh bo'lib, xunlarga hujum qilganda, asirga tushib qolgan. Xunlar uni qatl emasdan, bek lavozimiga tayinlaganlar.

"Shiji'da Sima Chyan ushbu laskartboshining Xan xonadoni uchun ko'rsatgan xizmatlarini ham bayon qilgan. Bundan norozi bo'lgan U-di Sima Chyanga qamoq jazosini buyurgan. Sima Chyan qat'iy xafa bo'lib, alanzadalik bilan tarix yozishga kirishgan. Mil. av. 96-yilda Sima Chyan qamoqdan ozod etilib, imperatorning safarlari arafasida o'tkaziladigan marosimlar boshqaruvchisi lavozimiga (*chiungshuling*) tayinlangan. Ushbu vazifani bajarish davrida Sima Chyan ko'p o'lkalarda bo'lgan va fursatni qo'ldan boy bermay, ko'rgan-bilganlarini yozib borgan.

"Shiji"ga kiritilgan Farg'onaga oid ma'lumotlar imperator U-di tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlariga yuborilgan elchi Chjang Chyaning to'plab kelgan ma'lumotlari asosida yozilgan. Elchining kundalik daftri yoki yozma hisoboti saqlanmagan. Uning g'arbga elchi qilib yuborilishi esa G'arbiy Xan xonadoning tashqi siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bimbarin, mahallarning guvohligiga ko'ra, U-di davrida, ya'ni mil. av. 140-85-yillarda G'arbiy Xan davlati har tomonlama yuksalgan, moddiy imkoniyati va harbiy qudrati oshgan davlat edi. Uning asosiy maqsadi qo'shni xalqlarni o'ziga buyusundirib, ularning yerlari hisobiga Xitoyning hududini kengaytirish edi. Ammo o'sha davrdagi Xan xoqonligi ushbu maqsadni ro'yobga chiqarishga ko'pdan beri to'siq bo'lib kelayotgan yagona kuch edi. Qolaversa, U-dining o'zi ham xunlarni tor-mor keltirib, ularning nazorati ostidagi yerlarni va boyliklarni tortib olishni juda istardi. Lekin xunlarga qarshi amalga oshirilgan harakalar natija bermaganidan so'ng, U-di masalaga boshqacha yondoshdi. U uzoqda joylashgan va ilgari xunlardan aziyat chekkan davlatlar va xalqlar bilan birlashtirib, ulardan foydalangan holda Xan xoqonligini yo'qotish rejasini tuzdi. U-dining fikricha, bunday xalqlarning biri hozirgi Afg'oniston va O'zbekiston hududida joylashgan va xitoy manbalarida "Day-nuziye" (zamonaviy o'qilishi *Da-yuechi*) edi. Shuning uchun U-di mazkur xalq hukmdori huzuriga elchi yuborishni tozlim topdi. Bu vazifani bajarish uchun Chjang Chyan tanlandi.

Shu joyda shartlab o'tish joizki, "Day-nuziye" atamasi "Guz-yer" yoki "O'g'iz-yer" toponimining xitoycha transkripsiyasi bo'lishi "nuziye"ga "ulug'", "buyuk" ma'nosini anglatuvchi "day" ("da") so'zini qo'shish asosida shakllangan. "Ruziye" atamasi esa mil. av. 176-yilgacha bo'lgan 800 yilga yaqin davr davomida Tangriog'ning Sharqiy Turkiston qismidagi yaylovlarni maknaz qilib yashagan turkiy davlat nomi bo'lib, u "guzlar yoki o'g'izlar yerlari" ma'nosini bildirgan.

Mil. av. 176-175-yillarda Ruziye davlati sobiq, fuqarolari - xunlar tomonidan eg'darilgach, mazkur davlat hukmdorlari odamlari bilan Amudaryo bo'yalariga ko'chib ketgan. Mana shu ko'chgan ruziyeliklar xitoy manbalarida "day-ruziye" ("da-yuechi") deb nomlangan. Bularning mazkur daryo janubida tashkil etgan davlati ham xitoy manbalarida shu nom bilan atalgan.

Chyang Chyan Xitoydan mil. av. 139-yilda safarga olandi. Biroq, Ulug' Ruziye davlatiga boradigan yo'llarning hammasi xunlar nazorati ostida bo'lganligi tufayli Farg'onaga yetib kelish uchun u 10 yildan ortiq vaqt sarfladi. So'ng farg'onaliklar yordamida Ulug' Ruziye mamlakatiga borishga muvassas bo'ldi. Ammo ushbu mamlakat xukmdori U-dining taklifi qabul qilmadi, ya'ni Chyang Chyang toshirilgan vazifa amalga oshmadi. Biroq u Xan xonadoniga Farg'onaga va uning atrofidagi davlatlar haqida muhim ma'lumotlar olib keldi. Ayniqsa, Farg'onaga nisbatan katta bo'lingan davlat ekanligi, unda Xitoy uchun zarur bo'lgan zotli tezhopar otlar borligi haqidagi ma'lumotlar U-di ni qutqartirdi va unda shunday otlarga ega bo'lish, ular orqali o'z qo'shinlarining jangovarligini oshirib, xunlar ustidan g'alaba qozonish rejalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Zero, o'sha zamonda xunlarning qo'shinlari oltiq askarlardan tashkil topganligi uchun ular urushda Xitoy qo'shinidan ustun edi. Chyang Chyangning ma'lumotlari va G'arbiy Xan imperatorining amaliy harakatlari "Farg'onaga tazkiras" da aks etgan.

"Shi Szi"ning to'liq matni olti jild qilinib, 1959-yili Pekinda chop etilgan. Asar rus tiliga I.Ya.Bichurin va bir qator tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan. E.Shavann tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1905-yillarda 5 jildida chop etilgan. R.V.Vyatin, V.S.Taskin tomonidan ruschaga tarjima qilinib, uning bir qismi to'rtta kitob bo'lib 1971, 1975, 1984, 1986-yillari bosmadan chiqqan.

Yaqinda "Farg'onaga tazkiras" zamonaviy uyg'ur tiliga tarjima qilindi. Unda bir qator kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Eng avvalo, e'tirof etish kerakki, bayon etilgan ma'lumotlar tushunari bo'lishi uchun tarjimaga asl matnda yo'q so'zlar katta qavsga olinmasdan qo'shib yuborilgan. Berilgan izoh va sharhlar mavhum savol va masalalarga aniqlik kiritish va ularning yechimini topish uchun yetarli emas. Uyg'urcha tarjima arab alifbosida bo'lganligi sababli, bu yozuvni bilmaganlar asardan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Boz ustiga, atamalar aks ettirilgan iyerogliflarning qadimiy o'qilishiga e'tibor berilmagan. Bu esa ularning mahalliy nomlari qanday bo'lganligini bilishni qiyinlashtiradi.

"Shij" aslida xitoy qamishidan yasalgan uzunligi taxminan 30-40 sm, eni 3-4 sm bo'lgan taxtachalarga o'yib yozilgan. So'ngra har 21 ta taxtacha bir-biriga yonma-yon bog'lab chiqilgan va bu bir bet hisoblangan. Har bir taxtachada yugoridan pasiga qarab 18 tadan iyeroglif yozilgan. Bet raqami qoq o'rtagidagi 11-taxtachada keltirilgan. "Farg'onaga tazkiras" 21 betdan iborat bo'lgan. Eni tor va bir-biriga bog'langan taxtachalardan tashkil topgan kitoblarning har bir bobini bir o'rnama qilib saqlangan. Shu bois u jyan (*juan*), ya'ni o'rnama deb nomlangan.

Qoq'oz ixtiro qilingandan so'ng taxtachalardagi yozuvlar qoq'ozga aynan ushirlangan. Kitob shakliga kelirishda betlar raqam qo'yilgan joydan ikkiga bo'lib taxlangan. So'ngra taxlangan tomonidan tekislab, o'ng tomondan tikilgan. Mayjud

odatga ko'ra, bunday usul bilan tikilgan bir jild kitobning hajmi 90-100 bet yoki har biri 2 betdan bo'lgan. 40-50 varaqdan iborat bo'lgan. Maxsus voqealar, mamlakatlar yoki tarixiy shaxslarga bag'ishlangan boblar (*juan*)ning hajmi kichik bo'lib qolgan hollarda bunday tikilgan jildlar bir nechta boblardan iborat bo'lgan.

"Shij"dan keyin yozilgan sulola tarixi "Xanshu" (Xan sulolasi tarixi) hisoblanadi. Uni saroy tarixchilaridan iborat katta bir guruh yozgan. Bu tarixni saroy tarixchisi Ban Gu oxiriga yetkazgan. Shuning uchun, "Xanshu"ni Ban Gu yozgan, deb aytilish odat bo'lib qolgan. Shu o'rinda Ban Gu haqida ikki og'iz so'z. Ban Gu (39-92-yillar) - yirik tarixchi olim. Anlin (Shansi viloyati) shahrida Xan sulolasi (mil.avv.206 - milodiy 220-yillar) da xizmat qilgan yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug'ilgan. 47-55-yillari Loyanda oliy o'quv yurtida ta'lim olgan.

"Xanshu" (Xan sulolasi tarixi)ning hajmi 200 bob bo'lgan. Ban Gu ning valofidan keyin mazkur tarixga yana 20 bob, jumladan, falakiyotga oid boblar kiritilgan. Mazmunan asar G'arbiy Xan sulolasi (mil. av. 206 - milodiy 8) va undan keyingi 15 yillik tarixga bag'ishlangan bo'lib, u "Shij"ning davomi hisoblanadi. Ammo uning tuzilishi Sima Chyan asaridan biroz farq qiladi. "Shij"da Markaziy Osiyo tarixiga tegishli ma'lumotlar "Buyuk Farg'onaga tazkiras" va "Xun tazkiras" deb nomlangan maxsus boblarda berilgan bo'lsa, "Xanshu"da "G'arbiy mamlakatlar tazkiras" kabi boblarda zikr etilgan.

"Keyingi Xan sulolasining tarixi" ("Xou Xanshu") yozilgandan so'ng mazkur tarix "Avvalgi Xan sulolasi tarixi" ("Chyan Xanshu") deb ataldi.

"Syan Xan shu" 1962-yili Pekinda 12 jildda nasr qilingan. 1938-1944-yillarda G.Dubbs va Baltimor tomonidan inglizchaga tarjima qilingan.

Kangkuya (Kangjuy) davlati haqida

Kangkuya davlatining hukmdori qishida Leyuyeni shahrida yashaydi. Ushbu shahardan Changangacha bo'lgan masofa 2300 ti (1324 km)ga tengdir. Kangkuya davlati Duxuga itoat qilmaydi. [Bu shahardan] Leyuyeni zaminiga borish uchun olti 7 kun yo'l yurish kerak. [Kangkuya davlati] xukmdori (vang) yozda Fanneyda yashaydi. [Bu joydan Changangacha] bo'lgan masofa 9104 ti (5244 km) keladi. [Yan] Shgning ayishicha, hukmdor sovuq qishda va issiq yozda bir joyda yashamaydi.

[Kangkuya davlatining] aholisi 120 ming tugun (*qita*), 600 ming askarlari, 120 ming kishidan iborat. Sharq tomonida fushbu davlat markazidan vakolatchi (*duxu*) turadigan joygacha 5500 ti (3168 km) masofa mavjud. [Ushbu davlat aholisining] ufq-odatlari Ulug' ruziyelarga (*day-ruziyeda-yuechi*) o'xshaydi. Sharq tomonida [Kangkuya davlati] xunlar (*shyomn*)ga itoat qiladi.

Farg'onaga davlatining hukmdori Kiveyshan shahrida turadi. [Bu yerdan] Changangacha 12 ming 550 ti keladi. Aholisi 60 ming oila, 300 ming kishidan iborat. [Shulardan] askarlikka yaroqli 60 ming nafar. [Hukmdor qo'l ostida] bir vazir va bir vazir yordamchisi bor. [Farg'onadan uning] sharqidagi qo'riqchibek mahkamastigacha 4031 ti (2322 km), shimolidagi Kangkuya (Kangjuy) poytaxti Piyedekyan (Biyen, Beyyan) shahrigacha 1510 ti (921 km ga yaqin), janubi-

g'arbida Ulu'g' Ruziye (Da-yuechi) [mamlakatigacha] 690 ti (393,4 km) keladi. [Farg'ona davlatining] shimoliy hududi Kangkiya, janubiy hududi Ulu'g' Ruziye (Da-yuechi) [davlati] bilan chegaradoshdir. [Farg'ona davlatining] yeri, iqlimi, bo'yigi, aholining urf-odati Ulu'g' Ruziye va Bag'riya bilan bir xil. Farg'ona atrofiga uzundan musallas qilinadi. [Bu yerdagi] boylar 10 ming poldan ziyod musallas saqlaydi. [Bu] musallas bir necha o'n yil tursa ham buzilmas va [mahalliy aholi] uni ichishni xush ko'rar ekan. [Bu yerdagi] otlar beda bilan boqilar ekan.

(O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. I-jild. O'zbekiston eng qadimgi va qadimgi davrlarida. - T.: Fan, 2014. 358-365-betlar).

Fan Xua (398-445-yillar) — tarixchi. Avval kichik davlat lavozimida turgan va 424-yili viloyat hokimligiga ko'tarilgan. Davlatga qarshi isyonda g'atashganlikda ayblanib qat' etilgan. Fan Xua Xitoyning avvalgi Xan sulolasi (25-220-yillar) davridagi tarixini o'z ichiga olgan "Xou Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi") nomli 130 bobdan iborat katta asar yaratgan muallifdir. Ushbu asar O'ra Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25-221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Uning hajmi 97 bobdan iborat. Markaziy Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar ushbu tarixning "Shiyu" ("G'arbiy mamlakalar") deb nomlangan 88-bobida keltiriladi. Ammo unda Farg'ona tarixiga oid ma'lumot alohida bo'limda keltirilmaydi.

Keyingi Xan sulolasi yemirilgandan keyin Xitoy bir necha asr davomida mayda davlatlarga bo'linib ketgan. Lekin sulolalar tarixini bitish an'anasini yo'qolmagan. Shu bois bir qator mayda sulolalar tarixlari bitilgan. Mazkur sulolalar tarixlari ichida Farg'ona o'ld ma'lumot "Jinshu"ning 97-bobidan o'tin olgan. Bu ma'lumot "Buyuk Farg'ona davlati" ("Day-yuan-guo") nomli sarlavha bilan berilgan. Bundan tashqari, ushbu asarlarda Kangkiya davlati va qadimiy Sharqiy Turkistonda mavjud bo'lgan Qarashar, Kuchar davlatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ma'lumotlar N.Y. Bichurin tarjimalarida yo'q, ammo N.V. Klyunov ularni rus tiliga tarjima qilgan.

III o'rta asrlardagi Xitoy yozma manbalarining Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni va ahamiyati

O'zbekiston hududidagi davlatchilik masalalarini yoritishda ilk o'rta asrlarga taalluqli xitoy yilnomalarining o'rni beqiyos. Ular orasida saroy tarixchilaridan Vey Shou (506-572) yozgan "Vey-shu" ("Vey sulolasi tarixi"), Tan sulolasining dastlabki yillarida (629-656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan Suy sulolasi (581-618) tarixiga bag'ishlangan asar "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi"), Tan sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarimida yozilgan "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi"), 630 y., 941-945 yillarda Tan sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhini yozgan "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi", X asr) ma'lumotlarining nisbatan batafsilligi bilan ajralib turadi. Ularda mamlakatimiz hududida va unga yaqin qo'shni o'lkalarda mavjud bo'lgan vo'ha hukmdorliklari nomlari: Shi

(Choch / Toshkent), Boxanna (Farg'ona), Sudulushana (Ustrushona), Kan (Samargand), An (Buxoro), Shi (Kesh / Shahrissabz), Nashebo (Naxshab / Qarshi), Xosyun (Xorazm), Tuxolo (To'xoriston) va hokazo shakllarda keltirilgan. Yilnomalardagi ma'lumotlar, garchi qisqa bo'lsa-da, mazkur hukmdorliklarning deyarli 200 yillik tarixi, xususan, hukmdorlar nomi va unvoni, boshqaruvchi sulolalarning kelib chiqishi, aholining turmush tarzi, kasb-kori va urf-odatlari, Xitoyga yuborilgan elchiliklar va ular tomonidan sovg'a sifatida yuborilgan mahalliy buyumlarining turlari va h. k. larga doir qimmatli tarixiy tasavvurlar beradi. Shuningdek, ushbu yilnomalar G'arbiy Turk xoqonligi tarixining deyarli butun davrini qamrab olgan bo'lib, xoqonlikning tashkil topishi, yuksalishi va tanazzuli, barcha xoqonlarning siyosiy faoliyatiga doir ma'lumotlar deyarli uzluksiz berilganligi, xoqonlik va uning tarkibidagi vo'ha hukmdorliklari orasidagi munosabatlarga doir ilk tarixiy ma'lumotlar mavjudligi bilan ham ahamiyatlidir.

Qadimgi xitoyliklarda o'ziga xos tarix yozish an'anasini mavjud bo'lib, unga ko'ra, g'arbiy xitoy atamalar, xususan, joy nomi, shaxs ismi, unvon va h. k. atamalar xitoy tili qonuniyatlari asosida, ba'zan xitoychaga o'g'rilgan, ba'zan esa mahalliy shakliga yaqin bir tarzda berilgan. Masalan, yilnomalarda Toshkent nomi xitoychaga tarjima qilingan holda Shi "tosh" tarzida, mahalliy nomi — "Choch" toponimiga yaqin shaklda esa Chyechji tarzida o'rin olgan. Shunga o'xshash holat boshqa hukmdorliklar nomlarida ham ko'zga tashlanadi: Farg'ona Ninnyuan yoki Boxanna, Samargand Kan yoki Samogyan, Buxoro An yoki Buxo, Ustrushona Sao yoki Sudulushana va h. k.

"Vey sulolasi tarixi"ni saroy tarixchilaridan biri Vey Shou (506-572) yozgan. Asar 130 bobdan iborat. Uning ayrim qismlari yo'qolganidan so'ng, manba "Bey-shi" ma'lumotlari hisobidan to'ldirilgan. Mazmunan u 386-534 yillarda mavjud bo'lgan Shimoliy Vey va 534-550 yillarda hukm surgan Sharqiy Vey sulolalarining tarixi hisoblanadi. Ma'lumki, ushbu sulolalarning asoschisi dun-xu (sharqiy g'uz)lar tarkibiga kirgan shyanbi (syantbi)larning sardori Tobaguy hisoblanadi. Avvaliga mazkur sulolaning nomi Day bo'lgan. Ammo sulola tashkil topgan yilning o'zidayoq uning nomi Veyga o'zgartirilgan. 398 yilda Pingcheng (XXR tarkibidagi hozirgi Ichki Mongoliyadagi Datung) shahri uning poytaxti qilib belgilangan. Shimoliy Vey davlati kuchayganida, uning xududiga Xuaxxe daryosining qirg'oqlari, hozirgi Ichki Mongoliya va Xitoy Xalq Respublikasining Gansu o'lkasi (Xeshi yo'lagi)ning yerlari kirgan. Markaziy Osiyo davlatlari bilan filol diplomatik va savdo aloqalarini olib borgan. Shuning uchun Vey sulolasiga kiritilgan ma'lumotlarni aniq va asosli deb hisoblash mumkin.

Odatda Vey sulolasi tarixining ayrim yo'qolgan qismlari "Bey-shi" asosida to'ldirib borilgan, deyiladi. Lekin ikkinchi asarni yozishda uning muallifi o'zidan oldin yozilgan asarlardan, jumladan, "Vey-shu"dagi ma'lumotlardan foydalangan. Shunga ko'ra, bu to'ldirishni asardan olingan ma'lumotni yana joyiga qaytarish, deb bilish to'g'ri bo'ladi. Bu mulohaza "Vey-shu"ning mavqeiini tushirmaydi. Asarda O'ra Osiyo, xususan Xorazm haqida Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. "Bey-shu"ning matni 1958-yili Shanxyda chop etilgan.

“Suy sulolasi tarixi” – Suy davlati (581-618) tarixiga bagʻishlangan tarixiy asar boʻlib, ushbu sulola barham topib, uning oʻrnida tashkil topgan Tan davlatining dastlabki yillarida (629-656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan. Asarning 55 bobi 637-yilda yozib tugatilgan. Qolgan 30 bobini yozishga yana 20 yil vaqt ketgan. 1024-yilda asar ilk bor chop etilgan. Ammo ushbu nusxa saqlanmagan. 1208-1224-yillarda asar ikkinchi marta toshbosmadan chiqarilgan. Uning ayrim qismlari saqlanib qolgan. Asarning 1297-1307-yillarda uchinchi marta bosmadan chiqarilgan nusxasi yaxshi saqlangan. XVII-XX asrlar davomida qayta chop etilgan “Suy-shu” mana shu nusxaga asoslangan.

Asarning hajmi 85 bob (jyuan)dan iborat boʻlib, shundan 5-bobi imperatorlar hayoti va faoliyatini tasvirlash, 30-bobi tarixiy voqealar, urf-odatlariga, geografya va falakiyotshunoslik kabi sohalariga oid maʼlumotlarni bayon etish va qolgan 50-bobi yirik shaxslar, gʻayri etnoslar va mamlakatlarga oid xabarlarini bayon etishga bagʻishlangan.

Ushbu asar Xitoyning V–VI asrlardagi tarixini oʻz ichiga oladi. “Suy shu” Xitoyda tarixchilar jamoasi tarafidan yozilgan birinchi tarixiy asar hisoblanadi. Mazkur asarning boshqa asarlardan farqli tomoni shundaki, unda Xitoy imperatorlarining iqtisodiy siyosati, qoʻshinlarining tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlarini haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Suy va Tan imperiyalari Turk xoqonligi bilan jiddiy munosabatda boʻlganligi tufayli ushbu asarda turklarga oid maʼlumotlar salmoqli oʻrin egallagan. Asarning uchinchi qismidan joy olgan “Shiyuy” (“Gʻarbiy mamlakatlar”) nomi bobida Turkiston tarixiga, jumladan, Fargʻonaga oid maʼlumotlar ham keltiriladi. “Suy-shu” 24 tarixning 9-jildidan joy olgan.

Asar koʻp jildli Xitoy tarixiga oid “Sulolalar tarixi” tarkibida uning 9-jildi boʻlib, 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

“Bey-shi” – Tan sulolasining dastlabki davrida, yaʼni VII asrning birinchi yarimida yozilgan shimoliy sulolalar tarixi, uning umumiy hajmi 100 bob (jyuan)dan iborat. Unda 386-618-yillardagi tarixiy voqealar bayon etilgan. Shu davrda qadimiy Xitoyning shimoli va gʻarbi-shimolida “Shimoliy Vey” (“Bey-Vey” – 386-534), “Sharqiy Vey” (“Dung-Vey” – 534-550), “Gʻarbiy Vey” (“Shi-Vey” – 535-555), “Shimoliy Chi” (“Bey-chi” – 550-577) va “Shimoliy Chjou” (“Bey-chjou” – 557-583) kabi 5 ta mayda davlatlar mavjud boʻlgan. Bu 5 ta davlat etnik kelib chiqishi xitoy boʻlmagan va qadimiy Xitoyning shimoliy va gʻarbiy tomonidagi qoʻshni xalqlar tomonidan tashkil etilgan. Jumladan, Shimoliy Chi va Vey nomlari bilan atalgan 3 ta davlat kelib chiqishi turklar bilan bogʻliq boʻlgan syanblar tomonidan tashkil etilgan. Shuning uchun ham ular xitoy sulolalari hisoblanmaydi. Sharqiy Vey va Gʻarbiy Vey sulolalari esa Shimoliy Vey sulolasining boʻlinib ketishi natijasida tashkil topgan.

“Bey-shi” 643-yilda mazkur 5 ta davlat tarixini va 581-618-yillarda mavjud boʻlgan hamda xitoylar tomonidan tashkil etilgan Suy sulolasi tarixini jamlash va umumlashtirish asosida yozib tugatilgan. Uning muallifi Li Yanshou (tugʻilgan va

oʻlgan yillari nomaʼlum) Tan sulolasi saroyida xizmat qilgan yirik tarixchilardan hisoblanadi. U “Jin” va “Suy” sulolalari tarixi (“Suy-shu”, “Jin-shu”) va “5 davlat tarixi” (“Sanguo chji”) kabi bir qancha tarixiy asarlar yozishda qatnashgan. “Bey-shi” 24 tarixning 9-jildidan joy olgan. “Bey shu”ning matni 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

941-945-yillarda Tan sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhini ushbu sulola tarixini yozib tugadi, u “Tan-shu” (“Tan sulolasi tarixi”) deb nomlandi. Bir asrdan soʻng, yaʼni 1044-1060-yillarda Ou Yangshyu va Sung Si “Tan-shu”ning ayrim qismlarini qisqartirish, tuzatish, toʻldirish va yangi boblar qoʻshish asosida Tan sulolasining tarixini qaytadan yozib chiqdilar. Mazkur tarixga turklarga oid maʼlumotlar koʻproq kiritilgan. Shundan keyin oldin yozilgan Tan sulolasi tarixi “Jyu Tan-shu” (“Tan sulolasining avvalgi tarixi”), sulolaning keyin bitilgan tarixi esa “Shin Tan-shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”) deb nomlandi.

Ouyuan Syu (1007-1072-yillar) va Sun Si (998-1061-yillar) – Sun (Janubiy va Shimoliy Xitoy) sulolasi 960-1279-yillarda hukmronlik qilgan tarixchilari hisoblanadi. Imperator Jen-Szun (1023-1063 yillar)ning topshirigʻi bilan 940-945-yillarda “Szyu Tan shu” (“Tan sulolasining eski tarixi”) asarini yozganlar. Ushbu asarda bir qancha kamchilik va nuqsonlar aniqlangach uning oʻrniga shu sulolaning yangi tarixini 1043 – 1060-yillari yozganlar. Yangi asar “Sin Tan shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”) deb nomlangan. Har ikkala asar ham oʻziga xos afzalliklarga ega boʻlib, maʼlum darajada bir-birini toʻldiradi. Asarda 618-907-yillar oraligʻidagi voqealar yoritib berilgan. “Sin Tan shu”da Samarqand, hozirgi Eron, Afgʻoniston hamda Sharqiy Turkiston (Xarashahar, Kucha, Qoshgʻar) haqida maʼlumotlar uchraydi.

XVIII asrda yana bir Xitoy tarixchilaridan Shen Bin – Chjen yuqorida keltirib oʻtilgan “Szyu Tan shu” va “Sin Tan shu”ni yaʼni har ikkala tarixni bir-biriga bogʻlab, unga “Sin Szyu Tan shu xiao” (“Tan sulolasining bir-biriga qoʻshilgan yangi hamda eski tarixi”) deb nom qoʻyadi.

Har ikki tarixiy asar hozirgi davrgacha yetib kelgan va ular “24 tarix” tarkibiga kiritilgan. “Jyu Tan-shu”ning hajmi 200 bobdan, “Shin Tan-shu” hajmi esa 225 bobdan iborat. Asar koʻp jildli “Sulolalar tarixi”ning 12-jildi sifatida 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

Markaziy Osiyo, xususan qadimiy Oʻzbekistonning uzoq oʻtmishdagi, ilk oʻrta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini oʻrganishda xitoy manbalari juda muhim rol oʻynaydi. Chunki ushbu yozma yodgorliklarda oʻlkaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va maʼmuriy boshqaruv tizimi, bu yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi va xoʻjalik faoliyati, Oʻrta Osiyoning xalqaro savdo-elchilik aloqalarini yoritib beruvchi maʼlumotlar uchraydi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Xitoy yozma manbalari Markaziy Osiyo tarixini yoritishda qanday oʻrin tutadi?

2. İlk o'rta asrlardagi yozma manbalar Markaziy Osiyo tarixini yoritishda qanday ahamiyatga ega hisoblanadi?
3. Xitoy yozma manbalarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari va ularning mohiyati nimalardan iborat?
4. Markaziy Osiyo tarixini yoritishda Xitoy yozma manbalari qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar

1. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Axmedov B. Uzbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va urta asrlar). – T., 1992.
3. Борокова Л. Народы Средней Азии III–VI веков (по древним китайским и западным источникам). – М.: Институт востоковедения РАН, 2008.
4. История Узбекистана в источниках. / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
5. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Т.: УМЭД, 2008.
6. Отакужаев А. Хитой манбаларида туркий ва сугдий умумийлик хақида // Этнос ва маданият: анъанавийлик ва замонавийлик: Академик К. Шонниёзов ўқишлари туркумида этнологтарнинг V Республика илмий конференцияси материаллари. – Т., 2010. – Б. 74-80.
7. Холжаев А. Сведения древнекитайских источников по этнической истории Центральной Азии. – Ташкент: Навруз, - 2017.
8. Uzbekiston tarixi. Xrestomatiya. 1-jild. Uzbekiston eng qadimgi va qadimgi davrlarda. – T.: Fan, 2014.
9. Uzbekiston tarixi" (xrestomatiya) 2-jild. 1-kitobi (Ilk urta asrlar manbalari (V-VIII asrlar). – T.: Fan, 2014.

10-Mavzu: Sug'd tilidagi yozma manbalarda Markaziy Osiyo tarixi

Reja:

1. Sug'd yozuvining shakllanishi va uning asosiy xususiyatlari
2. Sug'd tilidagi yozma yodgorliklarda Markaziy Osiyo tarixi
3. Sug'd yozma yodgorliklarining ilmiy jihatidan o'rganilishi

Tayanch ibora va tushunchalar: yozma manbalar, hucuriy hujjatlar, sug'dliklar, Sug'dyona, numizmatik materiallar, o'rtoq yozuv, somi alifbosi, sug'd yozuvi, Mug' tog'i, Choch, Farg'ona, Ustunshona, Xo'jand, Panjikent, Samarqand, Yentay, Oltay, alifbo, rimi yozuvi, mug'ur yozuvi.

Sug'd yozuvining shakllanishi va uning asosiy xususiyatlari

Ma'lumki yozma manbalar insoniyat tarixida ancha qadimdan shakllangan bo'lib, uning negizini yozuv tashkil qiladi. Yozuv o'z navbatida jamiyat madaniy taraqqiyotining tarixidan so'zlaydi va yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi orqali mulqot vositasi vazifasini o'taydi. Yozuv jamiyatda uzoq masofada mulqot o'rnatish va informatsiyani saqlash zaruridan kelib chiqib yaratilgan. Yozma manbalar qo'lyozma fondlari, muzeylar, kutubxonalar, shaxsiy kolleksiyalar va h.k. joylarda mavjud. Yozma manbalarni yaratilish vaqtiga qarab qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr hamda regional aspektda tilar, siyosiy tuzilmalar, alohida manbalar shaklida qismlarga ajratish mumkin.

Sug'dlar Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo viloyatining qadimgi aholisi. Bu mintaqada Sug'dlar etnik uyushma sifatida mil. av. XII–XI asrlarda paydo bo'lgan. Avesto kitobida Gava nomli yurtda Sug'dlar yashaydi deb ko'rsatilgan ("Videvat", Ifagard). Ahamoniylar qo'yatosh bitiklaridagi Sug'dlar nomli qatlam satrlar aholisi sug'dlar bo'lgan. Sug'dlar har ikki volada derqonchilik va shahar madaniyatining shakllanishida muqim rol o'ynagan. Mil. av. VIII–VII asrlarda Ko'kera, Afrosiyob, Uzunqir, Saangiterra, Yergo'rg'on shahar xarobalari o'rta bo'lgan qadimgi shaharlar Sug'd xalqi shaharsozligining ilk yirik markazlari edi.

Sug'dlar uzoq muddat turli sallaqalar tarkibida bo'lib kelganlar. Jumladan, ahamoniylar, uptonlar, kushonlar, xioniyalar, efaliylar, kidariylar, Turk xodonglari davrida ham nisbiy mustaqillik ruhini saqlaganlar.

Mil. av. II–I asrlardan boshlab sug'dlar o'z hududlarida yangi konfederativ davlat tizimi atrofida birlashdilar. Asosiy po'yaxt shaharlar Samarqand boshchiligidagi Kesh, Buxoro, Naxshab (Nasa) kabilar edi. Ayni shu davrdan umim-sug'd alifbosi yozuvi amal qila boshlagan va uning ko'plab yodgorliklari bizgacha yetib kelgan.

Sug'dlar Buyuk irak yo'li xalqaro munosabatlarda katta nufiga ega edilar. Sug'dlar o'z yozma yodgorliklarida xalq sifatida "Sug'ndik nob", "Sug'd xalqi" deb atalgan.

Sug'dlar Sharqiy Turkistonga savdo bilan kelib, Buyuk irak yo'lidagi shahar va qishloqlarda, IV–V asrlar davomida (balki oldinroq) shu yerlarda qolib yashaganlar. Bu yerdagi viloyatlarining ko'pchiligida savdo-sotiq ishlari sug'dlarning qo'liga bo'lgan. Dunxuan va Guanchnou viloyatlarining hokimi ma'lum vaqtlargacha sug'dlardan bo'lgan. VI–VIII asrlar davomida butatining ham ko'pchiligi turkiylashib kelgan.

Sug'd yozuvining shakllanishi, taraqqiyot yo'li, turli bosqichlarda yaratilgan, uning yodgorliklari paleografik tahlili masalalari hali bajarilgan emas. Sug'd yozuvi yodgorliklarining qariyb asrimiz boshidan boshlangan ilmiy nashrlarda turli munosabatlar bilan yo'li-yo'lakay aytilgan paleografik mulohazalar yetarli emas. Zero, butun bir davrni tashkil qilgan sug'd yozuv madaniyatining 1300 yillik tarixiy yo'li o'ziga xos qator muammolarni keltirib chiqardi. Ularni hal etish jiddiy tadqiqot ishtarini talab etadi.

Sug'dlarda fonetik yozuvning paydo bo'lishi sug'd tili adabiy qoʻllatlarining shakllanishi bilan baravar kechgan. Dastlab qisqa xo'jalik yozuvlari, tangalarda siyosiy deklarativ maqsadlardagi yozuvlar asta-sekin tiling doimiy grammatik normalarini ham shakllantira bordi. Bu o'rinda uzoq an'analar bilan bog'lik folklor, mitologik syujetlarning xalq orasida asrlar osha muayyan shakllarda yashab kelgani ham muhim rol o'ynaganligi tabiiy. Lekin shu syujet va bayonlarning yozma traditsiyasi qadimiy davr ma'naviyatining qomusi bo'lgan "Avesto" kabi kitoblarga ularning birlasha borishi O'ra Osiyodagi ko'p xalqlar gatori sug'd xalqining ham ma'naviy birligini vujudga keltirdi. Yozuvning funksional doirasini yanada kengayishiga olib keldi.

shug'a yozuvi soniy alifbolar singari konsonant yozuv bo'lgan, ya'ni harflar asosan undosh tovushlarni ifoda qilgan; uni tovushlar maxsus belgilarga ega bo'lmagan. Dastlab unda 22-23 harf mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi qadimiy oromiy prototipiga borib taqalgan va joylashishi ham oromiy alifbosidagi singari bo'lgan. Keyinchalik, IV asr boshlarida ba'zi harflarning alifbodan chiqib ketishi, ba'zi harflarning shaklan bir-biriga yaqinlashuvi, o'xshab qolishi natijasida harflar soni 17 tadan iborat bo'lib qolgan. Uning tartibi *a, b, g, d, h, v, z, x, t (qatliq), y, k, m, n, c (ayn), n, ch, r, sh, t (yumsheq til uchi portlovchisi)* dan iborat edi. Shug'a yozuvi *shod, shi-*

ommuvotiq tarzda unga xizmat qilgan alifboda oromiy nuq tovushlarini ifodalashga moslashtirgan belgi tizimi amal qilgan. Masalan, q(qof), d(dalet), T(tiqi), s(sagege) ayn kabi tovushlar o'z harfiy belgilariga ega bo'lgan. Bu tovushlar sug'da tilida bo'lmagan sababli sug'dcha matnlarda amal qilgan harflar soni bor yo'g'i 18 tadan oshmagan. Lekin bular asosan undosh tovushlarni ifoda etgani, so'zlarni o'z ichida qisqa unilar tilni biluvchilar tomonidan tuyg'u orqali tiklab o'qilgani nisbga olinsa, harf soni kamligi sezilmagan.

Sugʻd yozuvi asosan gorizontal holatda oʻngdan chapga yozilgan. Ammo sugʻdlar VI asr oxiridan boshlab vertikal yoʻnalishda ham (devorlar va yaralard) yozganlar, vertikal satrlar chapdan oʻngga tomon joylashib borgan.

Yozuvning shakllanishi masalasini tekshirishdan tashqari sug'd paleografiasining yana bir muhim vazifasi sug'd yozuvi taraqqiyoti bosqichlarini uning yodgorliklarida saqlangan yozuv ko'rinishlari asosida o'rganishdan iboratdir. Bular quyidagilar: milodiy asr boshlariga oid tangalarda saqlangan ilk bosqich sug'd yozuvi (bundan qadimiyroq namunalar hali topilgan emas); sug'd yozuvining II asr oxirlari, yoki IV asr boshlariga oid yodgorligi "Eski xaltalar"da aks etgan maklama shakli); Afrosiyobdan topilgan ilk hujjatlar xati - 1961 yili M.Fedorov tomonidan topilgan sopol parchasidagi yozuv va 1975-yili G.Shishkina tomonidan xorazmiy tiliga, Parfiya va Sug'dda mahalliy partiyoniy va sug'd tillariga moslab ishlatish tendensiyasi vujudga kela boshladi. V.B.Xening fikricha, qadimgi Eronning Fors viloyatida zarb etilgan tangalarda oramiy tilidagi yozuvlar o'rini miloddan avv. II asrda eroniy tilidagi matnlar egallay boshlagan. Lekin O'rta Osiyo sharoitida oramiycha asosdagi yozuvni mahalliy tillarga moslashtirish, xususan, Xorazmda III asrda yodq Parfiyada ham taxminan shu vaqtda amalga oshirilganki, tabiiy ravishda Eronda, bevosita oramiylarga qo'shni o'lkada yozuvning "mahalliylashuv" jarayoni ertaroq boshlangan bo'lishi mumkin. Biroq yetarlicha dalillar bo'lmaganligi tufayli yozuv tarixining bu davri haqida muayyan to'xtamga kelingan emas.

Bulardan tashqari, sug'd paleografiyasi sug'dcha matnlarni yozish uchun qo'llangan boshqa yozuvlarni ham tadqiq etadi. Jumladan, milodning III asrida yashab ijod etgan rassom, olim va o'zi yaratgan diniy dunyoqarash targ'ibotchisi Mo'tomiy nomi bilan bog'liq yozuv hamda qadimgi suryoniy yozuvi asosida vujudga kelgan xristian-sug'd yozuvi, bularning alfavit tizimi, ichki qonuniyatlari, ya'ni harf belgilarining nutq tovushlarini ifodalash prinsiplari, tashqi paleografik xususiyatlari kabi har o'ziga xos mustaqil muammo, deb qaralishi mumkin. Chunki mazkur ikki alfavitli yozuv tizimi funksional xususiyatlari, amal qilish doirasi hamda yozuvning sifat hamda mazmun darajasiga ko'ra ancha murakkab va qiyinchilishgan shakllarni edi.

miqdoriga muvofiq birlik, o'nlik va hokazolar bilan to'ldirib berilgan. Masalan, 185 yozilishi lozim bo'lsa 100 ilk, 20 ilk va birlıklar qo'shilişidan iborat raqam orqali ifoda topgan.

Sug'd yozuvining milodiy I asrga oid eng qadimiy namunasi Samarqand yaqinidagi Tali Barzu degan joydan topilgan, eng so'nggi namunalari esa VIII asr oxiri – IX asr boshlariga mansub. Yodgorliklarning ko'pi XX asrda Sharqiy Turkistondan topilgan. Shulardan biri 808–821-yillarda hukmronlik qilgan xoqon sharafiga bitilgan, uch tilidagi (sug'd, qadimiy turk va xitoy) qabr toshi yozuvidir. Sug'd yozuv namunalarining aksariyati IV–VIII asrlarga tegishli bo'lib, ulardan Mug' qal'a xarobasidan topilgan hujjatlar (1933-yil) muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar va sug'd yozuvining ba'zi boshqa yodgorliklarida sug'd adabiy tili me'yorlari, uning adabiy-badiiy uslubiy yaqqol seziladi. Sug'd yozuvi o'z navbatida, qadimiy turkey-runik yozuvi hamda uyg'ur yozuvini shakllantirish uchun asos bo'lgan.

Sug'd paleografyasi masalalaridan yana biri yozuvning primitiv shakllardan kursiv tezkor xat usullarigacha tadrifiy taraqqiyot jarayonini o'rganishdir. Masalan, eng qadimgi tangalardagi yozuvda harflar so'z doirasida grafik mustaqil birlıklar sifatida ifoda topsa, "Eski xatlar"da oramiycha asos alfavitga xos arxagema arxalk elementlar saqlangan holda yozuvda ayrim belgilarni ulab yozish tendensiyasi paydo bo'ladi. Lekin hali buni tom ma'noda Sug'd kursivi deb qarash qiyin. Afrosiyob sopolchasidagi va yog'ochga yozilgan hujjatlardagi yozuv esa kursivlik va tezkorlik xususiyatlari bo'yicha "Eski xatlar" va Mug' arxivi yozuvlari oralg'ini tashkil qiladi. Budda mamalari kitobiy husnixat, toshga bitilgan ayrim sug'd mamalari yozuvi bilan tashqi o'xshashlikka ega. Masalan, "sutra" yozuvi (ya'ni budda dini shartlari va axloq prinsiplarini bayon eigan mamalardan qilingan sug'dcha tarjimalarni yozishda qo'llangan kitobiy husnixat turi) bilan Bug'ut (Mo'g'uliston) tosh yodnomasidagi sug'dcha matnning yozuv xususiyatlaridagi umumiylik bu fikrga asos bo'la oladi. Demak, umuman "sutra" yozuvi Bug'ut yodnomasi bitilgan davrda rasman ma'lum bo'lgan va undan noshirlik kalligrafiasidagina emas, balki turli tumush zaruriyatlarida ham foydalanilgan.

Sug'd yozuvining taraqqiyot bosqichlari so'ngida uning mukammal kursiv shakllari, husnixat uslublari va ular asosida vujudga kelgan sug'd-uyg'ur yozuvi tizimi turadi. Grafik shakllarning tadrifiy davomi sifatida tashqi jihatdan sug'd-uyg'ur kursivi va keyinchalik sof uyg'ur yozuvi paleografyasini ham sug'd paleografyasi doirasida tekshirish ma'quddir.

Sug'd paleografyasi maqsad va vazifalari orasida yozuv materiallari va qurollari masalasini o'rganish ham muhimdir. Yozuv materiallarining yozuv grafik shakllariga ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki shu asosda yozuvning texnik imkoniyatlarini, shakllari o'rtasidagi munosabatni, material va yozuv qurollarining yozuv shakliga, uning takomiliga ta'sirini, individual husnixat xususiyatlarini o'rganish mumkin.

Paleografik tadqiqotlar davomida muhtlar va ularning loyga, sopol idishlarga bosilgan izlaridagi yozuvlar, gemmalardagi yozuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Lekin bu toifa yodgorliklar hali nihoyatda siyrak. Jumladan, Mug' tog'i hujjatlaridan biridagi muhr qoldig'i, Yergo'rgondan topilgan muhr bosilgan loy bo'lagidagi yozuv, yana shu yerdan topilgan sopol buyumlar parchalariga bosilgan muhr izlaridagi xira yozuv qoldiqlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Sug'd yozuvi amaliyotining so'nggi bosqichi IX–XI asrlar orasiga tushadi. Bu davr Markaziy Osiyoda arab yozuvining hukmronligi o'rnatilgan edi. Lekin Markaziy Osiyoning sharqiy, shimoliy-sharqiy chekka hududlarida, Sharqiy Turkistonda sug'd yozuvidan foydalanish hali davom etar edi. Qizig'i shundaki, IX–XI asrlarda bu mintaqalarda yashagan turkiy aholi ham sug'd tili va yozuvidan foydalanган. Masalan, X–XI asr boshlarida Talas vodiysidagi Qulonsoy va Teraksoslar bo'yab xarsang va goya toshlarga o'yib yozilgan xo'iro' tashrifnomalar turkiylar tomonidan yozib qoldirilgan. Ularda L harfini r harfiga diakritik qo'shimcha kiritish orqali ifodalanishi sug'diy yozuvga uyg'ur yozuvida o'rnatilish ulguragan. L+r+diakritikadan iborat imlo qoidasining aks ta'siri deb baholalanishi mumkin. Ushbu yodgorliklar (XI asr boshlari) sug'd yozuvining qo'llanish xronologiyasida so'nggi chegaradek turibdi.

Shunday qilib, sug'd yozma yodgorliklarining paydo bo'lish va tarix salmasidan tushish oralg'ida o'rta hisobda 1200–1300 yil vaqt kechgan. Bu manzarani yozuvning paydo bo'lishi, alfbo tizimining takomillashib borishi, grafik uslubiy shakllarining rivojlanish bosqichlari orqali yuqorida ko'rib chiqdik.

Sug'd tilidagi yozma yodgorliklarda Markaziy Osiyo tarixi

Sug'diy yozuv orqali bizgacha milodiy asr boshlaridan to X–XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida turli davr va hududlarga oid ko'plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari), metall, sopol yog'och, charam, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan mamalar, shaxsiy maktublar, diniy, axloqiy-falsafiy matnlarining parchalari, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar bor.

Ana shunday yodgorliklarning katta guruhini Mug' qal'a qasri xarobalaridan topilgan sug'd hujjatlaridir. Mug' tog'idagi sug'd hujjatlarining topilish jarayoni 1932-yildan 1933-yilning kech kuzigacha bo'lgan oraliqni tashkil etadi. Yuqorida qayd etganimizdek birinchi hujjatning topilishi cho'pon Jo'raali Mahmudali nomi bilan bog'liq. Zaxmatobodlik A.Po'lo'diy topilma haqida xabar topib, uni saqlab qoldi. Noyob hujjat Dushanbega yetkazilgan. Uning fotomussaxsi Sankt-Peterburgga jo'natilib mutaxassslar qo'lliga tekkani edi.

1933-yil davomida A.Pulodiy tomonidan Mug' qal'asida uyushtirilgan qazishma va izlanishlar natijasida qo'lla kiritilgan Mug' tog'i hujjatlari "V" harfi bilan belgilandi. A.I.Vasilyev qazishmalari vaqtida topilgan bir turkum hujjatlariga "A" harfi berildi. 1933-yil noyabr oyida A.A.Freyman ekspeditsiyasi tomonidan topilgan hujjatlar "B" harfini oldi. Cho'pon Jo'raali Mahmudali tolgan birinchi hujjat esa L.1 deb belgilandi. Shunday qilib "V" turkumda 19 hujjat, "A" turkumda 21 hujjat, "B" turkumda 29 hujjat hamda L.1 raqamli Jo'raali Mahmudali tolgan hujjat-jami 70 hujjat 1934-yilda A.A.Freyman tomonidan tavsif qilindi.

Mug' tog'i sug'd hujjatlari tarkibiga 1934-yil yozida A.Po'lodiy yuborgan 8 dona charmga yozilgan matnlar kelib qo'shildi. Bu turkum fanda "Nov" deb nomlangan sharti so'z bilan ma'lum. Shuningdek, Mug' tog'i sug'd hujjatlari majmuidagi ikkita arab tili kufa yozuvida bitilganlari bor. Uchta xitoy yozuvi bilan bitilgan hujjatlarning mazmun jihatidan arxivga aloqasi yo'q. Ularning orqa tomoniga sug'd matnini yozish uchun foydalanilgan. B-13 raqamli charm parchasi yuzasidagi bir dona hujjat esa qadimgi turkiy yozuvida bitilgan. Ushbu hujjat haqida 1934-yili "Sug'd to'plami"ni tayyorlash paytida yetarli ilmiy tasavvur yo'q edi. Shuning uchun A.A.Freyman o'z tavsifida bunday yozadi: "Xitroq kuthang yuzga charm yuzasidagi hujjat. Hajmi 14x10 sm. Hujjatlarning tili aniqnamadi. Yozuvi o'ngdan chapga yo'nalgan. Harflari o'zaro ulanmay yozilgan. Hujjatlarning bir nechta joyi o'yilib yozilgan. Matn qismining 8 joyida teshikchalar hosil bo'lgan. Qatorlar soni besh yurimta. Har bir qator charm yuzasining 4 sm uzunligini egallagan. Hujjatlarning ostki qismida bir nechta noaniq belgi ham bor". Keyinchalik bu hujjat ustida A.N.Bernshtam ish olib borib, uning turkiy-runiy yozuv bilan turkiy tilda bitilgan hujjat ekanligini aniqladi va ilmiy nashrini e'lon qildi.

"Sug'd arxiv" deb yuritilgan bu yozma hujjatlar majmuasida jami 79 ta hujjat bo'lib, ulardan 74 tasi sug'd tilida (shundan 29 tasi teriga, 22 tasi qog'ozga, 23 tasi yog'ochga) yozilgan edi. Qolganlari arab tilida yozilgan edi.

Davlat hujjatlari Sug'd podshosiga tobe Panj (Panjikent) hokimligi saroyidan Mug' qal'a qasriga borib qolishining boisi shundaki, arablar bosqini davrida Panjikent hokimi Devashitich arab istilochilariga qarshi sug'd-choch-farg'ona-turk harbiy ittifoqini tuzish maqsadida, u o'lka va mamlakat boshliqlari bilan diplomatik yozishmalar olib boradi. Samarqand ikshidi (podshosi) Tarxunning qat'i'yatizigidan norozi bo'lib, bir vaqtning o'zida Samarqand taxti da'vogari deb e'lon qiladi va arablarga qarshilik ko'rsatishni boshlab yuboradi. Ammo, arablar kuchli kelib, Devashitich qo'shinlari bir nechta zabtalaridan so'ng tog' tomon chekinadilar va tog'dagi Mug' qal'aga oila va barcha yaqinlari bilan joylashib oladilar. Devashitich Mug' qal'aga chekinganda saroy arxivini ham birga olib ketgan bo'lgan.

Arab qo'shinlari mudofaachilarni u yerda ham tinch qo'ymadi. 722-yilda ikki orada qattiq janglar bo'lgan, qal'a esa vayron qilingan. Arab qo'mondonligi Devashitichni Xurosondagi xalifalik noibi hukmiga yuboradi. Devashitich Xuroson noibi qo'ygan shartlarni qabul qilgach, uni Sug'dga go'yo qaytarib yuboradi. Ammo, xufiya buyruq asosida Rabinjon (Kattag'o'rg'on shahri yaqinidagi ilk o'rta asrlar shahar xarobasi) zardushiyalar qabristonida oyoq-qo'llarini yog'ochga mixlash yo'li bilan qatl qiladilar.

Mug' qal'asida qolib ketgan sug'd arxivi rosa 1210 yil o'tgach, 1932-33-yillarda topildi. Mutaxassis olimlar Mug' qal'a hujjatlari o'rganib bir nechta turkumlarga ajratganlar. Ana shu tadqiqotlarga ko'ra, A-14 hujjat Sug'd elchisi Fatufarning Chochdan jo'natgan maktubi bo'lsa, V-8 yer xarid qilish haqidagi sug'dcha hujjat, V-4 tegirmon ijarasi haqidagi hujjat, nov-3-sug'dcha nikoh

guyohnomasi, Nov-4-kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari, A-9-qo'shni hokimliklardagi ahvol to'g'risida Devashitichga uning ayg'oqchisi yozgan maktub va boshqalar.

A-9-raqamli hujjatni ko'rib chiqadigan bo'lsak, hujjat 19,5-11 sm yuzali churninging o'ngi va teskarsiga o'ziga xos individual xat ushlabi bilan bitilgan sug'diycha matndir. O'ng beti charming eni bo'yab, orqa beti esa bo'yiga to'ldirilgan. Hammasi bo'lib o'ng betida 15, orqa betida esa 26 qator yozuv bor. 25-26-qatorlar orqa betadagi matn yo'nalishiga teskari holda yozilgan. "Va yozildi Aspanak Devg'un tomonidan Aspanning buyrug'iga binoyan" deb ta'kidlanadi unda. Shunday qilib, A-9 hujjatini yozgan sug'diy xatot yoki miizaning ismi Aspanak Devg'un ekan deb o'ylash mumkin. Lekin asosiy matn kotibining xat uslubida so'z boshidagi p harfi, so'z o'rtasidagi k va y belgilari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Teskari yo'nalishdagi ikki satr xati esa boshqacha. Xat o'ralgach bu satrlar boshqa kishi tomonidan yozib qo'yilgan bo'lsa kerak. Xususan, bu xatning belgilari o'ziga xos. Umuman, oxirgi 2 satr xati A-12, B-2, B-3 kabi qator hujjatlar kulgiga o'xshaydi. Hujjat noshiri V. A. Livshitsning fikricha, A-9 hujjati uchun avval yozuv bitilgan charmni yuvib tozalasgan. Shunda eski matn qisman o'chmay qolib ketgan. Demak, Aspanak Devg'un o'g'li yuvib tashlagan matnning kotibi bo'lgan, deyish ham mumkin. Bu hujjat VII-VIII asrlarda Romitish Vgashfarn, Venonok kabi kotiblar bilan bir qatorda Aspanak Devg'un o'g'li ismli sug'diy kotib ham bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

A-9 raqamli hujjat xat janriga mansubdir. Lekin unda sug'diy maktublarga xos kirish va yakunlovchi formulalar yo'q. Shuning uchun maktubning kimga yozilgani ham noma'lum. Lekin undagi xabar va ma'lumotlarning Sug'd hukmdorligi (konfederatsiyasi)ning siyosiy-harbiy ahvoriga bevosita aloqadorligi hisobga olinsa, xat adresati hukmdor Devashitich bo'lgan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari maktub matnida "maray" unvoni uchraydiki, bu "afshin (hukmdor)" ma'nosida bo'lib, bir nechta hujjatlarda Devashitichga nisbatan qo'llangan.

A-9 hujjatining adresati juda bo'lmaganda muhim amaldor ekanligi xat mazmunidan yaqqol ko'rinib turadi. Masalan, muallif Ustrushana, Parg'ar, Xo'jand kabi qator shahar va viloyatlardagi ahvolni bayon etadi. Aftidan, u arablar bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitim haqida gapiradi. Parg'ar yerlarini tashlab ketmaslik lozimligini ta'kidlaydi. Chunki bu yerlarda yaqin kelajakda muayyan mav'xatar yo'q.

Hujjat 722-yil avgust oyining birinchi haftasida yozilgan deb taxmin qilinadi.

Ushbu hujjatlarning tarixiy jihatdan ahamiyati beqiyos. Chunonchi, ularda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Xo'jand, Panch (Panjikent), Samarqand kabi vo'ha hukmdorliklariga aloqador voqe'liklar, mintaqada arab istilosi va unga qarshi muvaffaq hukmdorliklarning ittifoqchilikdagi harbiy harakatlarni tashkil etishga undovchi yozishmalar, xususan, ushbu harakatlarning tashabbuskori bo'lgan turk xoqonlariga Panch hukmdori Devashitichning murojaati va hokazolalar o'r'in olgan.

Ma'lumki, bu davrda Amudaryo-Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlarda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd (Samarqand, Panch, Maymug', Ishtixon, Kushoniya / Kattago'rg'on, Kesh, Naxshab va h.k.), Buxoro, To'xoriston va Xorazm kabi o'ralab kichik voha hukmdorliklari mavjud bo'lib, o'z ichki boshqaruvlarida deyarli mustaqil bo'lgan mazkur siyosiy uyushmalar mintaqadagi yirik sahnada – G'arbiy Turk xoqonligi (568-740) tarkibida edi.

Darvoqe, Mug' tog'i hujjatlaridan bir nechta xoqonlikka aloqali ravishda "xun (turk) hukmdori", "xoqondan kelgan mansab / yorliq" kabi iboralar bilan birgalikda, xoqon, tudun, eltabar, tarxon kabi unvonlar va Chakin Cho'r Bilga, O'r-tegin singari xoqonlikka xos ism va epietlar o'rin olgan. Ushbu tiladagi manbalarning xoqonlik tarixini yoritishdagi ahamiyati shuki, sug'diy mualliflar xoqonlikning ichki hayotidan yaxshi xabardor bo'lishgan. Shu sababli, ularda o'rin olgan xoqonlikka xos boshqaruv tuzumi va davlatchilik an'analarga oid ma'lumotlarni original dalillar sifatida baholash mumkin. Darvoqe, sug'diyalar Turk xoqonligi aholisining sezilarli qismini tashkil etgan va turkiylar bilan yonma-yon, aralash yashagan etnos sifatida xoqonlik boshqaruvida faol ishtirok etganini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, Sug'd vohasidagi bir qator hukmdorliklarda sug'diy-turkiy boshqaruv an'analari o'zaro sintezlashgan bo'lib, bu ularning ish yuritish tizimida ham o'z ifodasini topgan.

Bu holat ayniqsa Panch hukmdorligi hayotida yaqqol ko'zga tashlanib, boshqaruvda sug'diy va turkiy etnos vakillarining baravar ishtirok etishganida o'z ifodasiga ega. Xususan, taxminan VII asrning ikkinchi yarmida Panchda turkiy-sug'diy aralash sulola tashkil topib, uni dastlab Bichut, keyinchalik uning o'g'li Chakin Cho'r Bilga (693-708), keyinchalik uning qizlari vositasida kuyovi, sug'diy amaldor Devashch (709-722) boshqarganlar.

Bu paytda butun Sug'd konfederatsiyasida bo'lganidek, Panchning ma'muriy-siyosiy boshqaruvida ham nisbiy bo'lsa-da, konfederatsiya shaklidagi o'ziga xos ichki tuzulishga ega boshqaruv mavjud edi. Ilk o'rta asrlarga taalluqli yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Yuqori Zarafshon vohasidagi hozirgi tuman (rayon) yoki kattaroq qishloqlarga to'g'ri keluvchi qator ma'muriy birliklar – rustoqlar Panch hukmdorligi tarkibiga kirgan. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida Panchga tegishli bo'lgan quyidagi mulk (mayda hokimlik)larning nomlari keltiriladi: Maxiyon, Parg'ar, Kshitut, Martushkat, Madm, Kum, Zarovat, Iskadar, Xshikand, Varz, Krut, Faimiy, Paxut, Eftmaut, Shavkat, Anzab, Butaman va hokazolar.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, aslida hududiy jihatdan muayyan bir qishloq darajasida bo'lgan mazkur ma'muriy birliklar o'z atvonom boshqaruviga ega bo'lganligi bois, ularni ma'lum ma'noda "mayda hokimliklar" deb atash ham mumkin. Panch hukmdorligiga qarashli mazkur kichik mulklar o'sha davrdagi arab-fors tarixiy asarlarida ko'proq "rustoqlar shaklida qayd etilgan. Ulardan ayon bo'lishicha, har bir rustoq o'z boshqaruvchisiga ega bo'lib, o'z navbatida ular Panchning bosh hukmdoriga bo'yusinishgan. Umuman olganda, arab-fors

manbalarida qayd etilishicha, Movarounnahrda Buxoro, Samarqand, Ustrushona kabi nisbatan yirik hukmdorliklarda ham Panchdagiga o'xshab rustoqlar bo'lgan. Ahamiyatli shuki, tuman yoki kattaroq qishloq shaklidagi mazkur mayda hokimlik (mulk)lardan aksariyatining nomi sug'diy hujjatlarda qay shaklda uchrasa, hozirda ham qariyb o'sha ko'rinishda saqlanib qolgan.

Shunday qilib, Mug' tog'i hujjatlarining o'rganilishi tarixining ilk bosqichi uchun birinchi galda hujjatlarining izchil va batafsil tavsifi, paleografik tahlili muhim edi. Chunki hujjatlarining topilishi favqulodda shov-shuvga sabab bo'lgan hodisa bo'ldi. Mug' tog'i sug'd arxivi bevosita Sug'dning o'z hududlaridan chiqqan birinchi sug'diy yozma yodgorlik edi.

Sug'd tilidagi yana bir hujjat Afrosiyobdan, Samarqand ixshidi Varxuman saroyi devoridan topilgan. Varxuman 651-yilda hokimiyat tepasiga kelishi sharafiga shohona saroy qurdirgan. Saroy qalin paxsadan qurilgan monumental (11x11 m.) bino bo'lib, uning devorlari rang-barang devoriy suratlar bilan bezatilgan edi. Saroy devorining bir tomonida Chag'oniyon mamlakatidan Samarqandga tashrif buyurgan elchilik karvoni chizilgan bo'lsa, saroyning ikkinchi devorida U'zq Sharqdan (ehimol Xitoydan) dengiz suvida yelkanli ulkan kemada suzib kelayotgan elchilar tasvirlangan. Uchinchi devor o'rtasida eshik bo'lib, uning o'ng tomonida muqaddas Varukasha dengizida bolalarini suzayotganligini tizzasidan suvga kirib, tomosha qilyotgan go'zal ayollar, suzib yurgan baliq va toshboqalar tasvirlansa, eshikning chop tomonida erkaklarni ot ustida chovg'in o'yini o'ynayotganliklari tasvirlangan.

Yana bir devorda 3 yarusda suratlar, suratlarining yuqori yarusi to'liq saqlanmagan. Uning ikkinchi yarusida podsho Varxuman taxti ravonda o'z ayonlari, unga tobe hududlarning hokimlari bilan (ular 11 hokimlik boshliqlari bo'lsa kerak, chunki taxti ravon yaqinida 11 ta bayroq xiptilab turibdi) elchi mehnontlarni kutmoqda. Saroyning birinchi qavatidan ikkinchi qavatga, go'llarida qimmat baho sovg'alari bilan pillaoyadan yuqoriga ko'tarilayotgan elchilar tasviri tushirilgan. Birinchi yarusda (qavayda) qabulga navbat kutayotganlar qatorida, bir chekkada, uzun xalat qiygan musavvir surati ham bor. Uning xalati etagiga 11 qatorli sug'dcha xat bitilgan. Xatda Samarqandga kelgan elchilar haqida ma'lumotlar bor. Elchilarni Chag'oniyon va Choohdan kelgani aniq. Chunki xatda ular yozilgan. Xatning buzilgan, uqalanib kelgan joylarida yana nimalardir yozilgan. Xatda Samarqand Smarakansa talaffusida berilibdi. Shunday talaffusdagi Samarqand nomi Dunxuan maktablarida va Mug' gal'a hujjatlarida ham bor. Demak, sug'diyalar o'z tillarida Samarqandni "Smarakansa" deb atashgan.

XX asrning 70-yillarida mlbodiy IV asrga tegishli yog'ochga bitilgan sug'dcha hujjat Afrosiyobdan topilgan. Sug'dshunos M.Is'hakovning xabar berishicha, bu xat samarqandlik bir savdogarni o'z hamkasbiga qarza bergan puliga tilxat ekan. Xat mazmuni va qarz shartlarining tahliliga ko'ra, qarz oluvchi qarz beruvchiga sudxo'rlik shartlari qo'yamay, qaytarish muddati kelganda, qarzga olgan pul qiymati barobarida qarzni qaytarish qayd qilingan. Buning uchun qarz beruvchi qarz oluvchi bilan bozorga borib, berilayotgan pulga qancha so'yishga

layyor novvos kelishini aniqlaganlar. Qaytarish vaqtida ham xuddi shunday qilib, qarz qaytarilgan. Ushbu tilxat ana shu haqda bo'lgan.

Qadimda yirik xalqaro savdo punktlaridan biri shimoliy – g'arbiy Xitoy shahri Dunxunda bo'lib, aynan mana shu shaharda 3 ming samarqandlik savdo ahli joylashgan samarqand kvartali tashkil topgan. Dunxuan savdo faktoriyasi savdogarlari ona vatani - ona shahri Samarqand bilan uzviy aloqada bo'lib, Samarqandga karvonlar orqali xatlar yuborib turishgan. Ana shunday xatlardan 9 tasi egasiga yetib bormay, Dunxuan pochta-minorasida qolib ketgan. U xatlar miqdori 313-317-yillarda yozilgan bo'lib, ularni o'lgan asrning boshlarida ingliz arxeologlari topib o'rganaganlar. Sug'd tiliida yozilgan bu xatlar tarixda "Qadimgi sug'd maktablari" nomi bilan mashhurdir.

Sug'd yozuvi ko'p sohalarga kirib borgan. Masalan, Pahlavon Rustam to'g'risidagi xalq dostonida "Kalila va Dimna" to'g'risidagi ikkita parcha sug'dcha bayon qilingan, VIII-IX asrlarga doir diniy mazmundagi bir necha budda, xristian, manixey matnlari, budda ilohiyati, budda adabiyoti asarlarini o'z ichiga olgan bir guruh hujjatlar sug'd tili va sug'd yozuvida bitilgan.

Sug'd yozma manbalarini ilmiy jihatdan o'rganilishi

Sug'dshunoslik tadqiqotlarining ilk qadamlaridan boshlab qadimiy yunon, ahamoniyalar Eroni, Xitoy manbalarida, shuningdek, o'rta asr arab va fors tili manbalarida aks etgan Sug'd mamlakati tushunchasini tarixiy-geografik, siyosiy-ilimiy ma'noda izohlashga qaratilgan ilmiy mulhazalar olg'a surilgan. Masalan, V.Tomashek birinchi bo'lib, sug'd atamasini "yarqiragan", "porloq" kabi ma'nolarda talqin qilgan va qo'shimcha ravishda bu so'zni eroniy so'x - "quymoq" o'zagi bilan bog'lab, muqaddas olovda poklanib qo'ygan yer deb ta'riflagan.

V.Tomashek ushbu asarda Sug'd mamlakatining tarixiy huquqlari haqida ham fikr yuritgan. U xitoy sayyohi Syuan-Szan, Yoqut Hamaviy va al-Yaqubiy (IX) kabi arab mualliflarining fikrlariga suyanib, Sug'dning Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo vohalarini qamrab olgani haqida fikr yuritadi. Bu masala atrofida ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Jumladan, O.I.Smirnova sug'd atamasi haqidagi turli fikrlarni maxsus qiyosiy tahlil etgan. O'z vaqtida bu masala V.V. Bartoldning ham e'tiborini tortgan edi. Jumladan, V.V. Bartold o'zining "Sug'd" nomli maqolasida yuqoridagi ma'lumotlarni yanada chuqurroq tahlil etishga harakat qilgan. U Syuan-Szanning Chu daryosidagi Sug'dlar mamlakati boshlanadi degan fikrini to'g'ri izohlaydi. Ya'ni, V.V. Bartoldning fikricha, Syuan-Szan sug'dlar yashagan va savdo bilan shug'ullangan manzillarni ham Sug'd hududlari deb tushungan.

Dastlabki sug'dshunoslik tadqiqotlari boshlangan paytda (1870-yillar) hali fanda sug'd yozma yodgorliklari mavjudligi ma'lum emas edi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, Sharqiy Turkistondagi bir qator tarixiy manzillardan til e'tibori bilan noma'lum turkum yozma yodgorliklar topildi. Nihoyat, ularning sug'd xalqiga mansub ekanligi asoslandi.

Ushbu topilmalar sug'dshunoslikda bevosita sug'd yozma yodgorliklariga suyanib ish ko'rish imkonini yaratdi.

Sug'd bilan bog'liq yo'nalishda Yevropa fani doirasida dastlabki manbashunoslik tadqiqotlari qayd etilgan davrdan ancha ilgari boshlangan deyishga asos bor. Masalan, 1820-yillardayoq rossiyalik olim K.Fren Markaziy Osiyoning qadimiy tangalari orasida Sug'dga oid turkumni ajratgan. Lekin ularni talqin qilishda qiyosiy material yo'qligi sababli Sug'dga mansublik jihatdan xulosa chiqarmagan. XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyoning turli mintaqalarida topilib, dunyo numizmatik xazinalarida to'plangan ko'p miqdordagi sug'dcha yozuvli tangalarni tasnif va tadqiq qilish imkoniyati tug'ildi. Bu ish bilan fransuz olimi Allot De-La Pyu shug'ullangan. O'z maqolalarida u miloddan avval II-I-mi. I-II asrlarga oid ilk davr sug'd tangalarini tahlil etgan. Allot De-La Pyuning xulosalari bu sohada dastlabki urinish bo'lgani uchun ayrim nuqsanlardan holi emas edi. Birinchidan, ilk sug'd tangalarining tarqalish hududlarini faqat Buxoro vohasi bilan cheklangan deb tushungan. Ikkinchidan, bu tangalar miqdori V-VI asrlargacha bozor munosabatlarida amal qilganini e'tiborga olmagan.

XX asrning birinchi o'n yilliklari davomida sug'dshunoslik fan yo'nalishi sifatida shakllanibgina qolmay, balki bir qadar tajriba ham o'tirtdi. Bu davr Sug'd munbashunosligining yetakchi olimlari sifatida F.K.Myueller, K.G.Zaleman, R.Gotyo, F.A.Rozenberg kabilar faoliyat ko'rsatdilar. Lekin ularning tadqiqotlari sug'd manbalarining ayrim turlarining qamrab olgan edi. Masalan, F.K.Myueller xristian jamoalari ehtiyojlari uchun suryoniy tilidan sug'dgacha tarjima qilingan diniy matnlar ushbu tadqiqotlar olib bordi. Bir necha matnlarni ilmiy izohlar bilan nashr etirdi. K.G.Zaleman asosan moniy diniy jamoalarida amal qilgan sug'd matnlari ustida, R.Gotyo esa buddaviy mazmundagi matnlar bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, F.K.Myueller 1889-yilda Sharqiy Turkistondagi Qorabolg'asun nomli shahar xarobasidan topilgan uch xil yozuvli tosh lavhadagi matnlarning biri sug'dcha ekanligini aniqladi. Keyinchalik bu matn V.Radlov tomonidan yozma yodgorliklar atlasiga (album) 32-33,35-jadvalllar sifatida kiritilgan.

1904-1907-yillar davomida Sharqiy Turkistonda ish olib borgan A.Steyn rahbarligidagi ingliz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qo'lga kiritilgan "Eski xatlar" nomi to'g'iz maktabdan iborat matnlar turkumi o'zining dunyoviy mazmuni bilan sug'dshunoslikda alohida o'rin tutadi. Bu o'rinda esa ular ushbu tadqiqotlar haqida qisqacha fikr yuritarniz. "Eski xatlar" shaxsiy maktablar bo'lib, ularning tarixiy bahosini belgilash ancha mushkul kechgan. Nihoyat, yozuvining murakkabligi, til xususiyatlarining kam o'rganilganligi, ularning nashri kechikishiga sabab bo'lgan. 1928-yilda nemis olimi X.Rayxelt "Eski xatlar"ni ilk bora nashr qilishga (nemis tiliga tarjimasi va izohlari bilan) muvaffaq bo'ldi. Ammo u matndagi ko'plab atamalarini, tarixiy tushunchalarni to'liq izohlab bera olinadi. Ayniqsa, xatlar turkumining tarixiy sanasini aniqlashga to'liq erisha olinadi. X.Rayxelt "Eski xatlar" sanasiga yana ikki olim munosabat bildirgan.

Ularining biri Yan Xarmatta bo'lib, "Eski xatlar"ni milodiy 195-yilda yozilgan deb hisoblaydi. Bu fikrga qarama-qarshi V.B.Xening "Eski xatlar"ning mazmuidan kelib chiqib, IV asrning ikkinchi o'n yilligi bilan aniqrog'i 313-317-yillar bilan bog'liq deb ko'rsatadi.

XX asr o'talaridan boshlab sug'dshunoslikda ayrim umumlashtiruvchi hamda bibliografik ma'lumolarni tartibga solib beruvchi ilmiy ishlar ham paydo bo'la boshladi. Bu sohada ilk qadam R.Gotyo tomonidan boshlab berilgan edi. 1942-yilda M.Y.Drezden "Sug'diyona bibliografiyasi" nomi maqolasini chop etirib, sug'dshunoslikda bunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida to'liq ma'lumot berdi.

Sug'dshunoslik bo'yicha bibliografik tadqiqotlar keyingi yillarda M.Y.Drezden, M.Boys, E.A.Dabbs kabi olimlar tomonidan davom etirildi. Sug'dshunoslikning qariyb 75 yillik natijalari yirik umumlashtiruvchi tadqiqot sifatida yuzaga kelgan. Bunga oid ma'lumotlar "Основы иранского языкознания" kitobining II jildida bibliografik ilova qilib berilgan. Bundan tashqari sug'd yozma yodgorliklari ustidagi tadqiqotlar 1988-yili "Введение в иранскую филологию" kitobining ikkinchi nashriga ilova qilingan bibliografiyada aks etgan.

Dastlabki davrda Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A.V.Vasilyev, I.Y.Krachkovskiy, M.N.Bogolyubov, O.I.Smirnovalar V.A.Livshits tarafidan chuqur o'rganilgan.

1932-yil kech kuz pallasi leningradlik A.A.Freyman boshchiligidagi Mug' qal'aga ekspeditsiyaga jo'nab ketdi. 1933-yil yozida ekspeditsiya o'z ishini davom ettirib Mug' qal'aga xarobasidan 80 ta hujjatni qo'lga kiritdi. Shundan 74 tasi sug'd yozuvi hamda sug'd tilida bo'lib chiqdi. Hujjatlarning dastlabki ilmiy tavsifi yaratildi. A.A.Freymaning bu ishi Mug' tog'i sug'd hujjatlarining sinchkovlik bilan bajarilgan paleografik tahlili ham edi. Bu muallif Mug' tog'i hujjatlarini mazmuniga ko'ra dastlab ikki guruhga ajratgan edi: xatlar (makublar) va xo'jalik hujjatlar. Bunga qo'shimcha mulohaza "Согдийский сборник"da e'lon qilingan edi. Bu ham bo'lsa ayrim hujjatlarining Mug' tog'i arxiviga Devashitch bilan taqdirini bog'lagan bir turkum sug'd zodagonlari kelinganlar, degan fikr edi.

Mug' tog'i hujjatlarining dastlabki ilmiy nashrlari 1934-yildan boshlab paydo bo'ldi.

Mug' tog'i sug'd hujjatlarining to'liq nashri yuzaga kelguniga qadar bu muhim yodgorliklarni tadqiq qilish ishiga M.N.Bogolyubov, O.I.Smirnova, V.A.Livshitslar kirib kelishdi. Ular o'trasida hujjatlar mazmuidan kelib chiqib, mavzu taqsimoti ham paydo bo'ldi. M.N.Bogolyubov bilan O.I.Smirnovalar xo'jalik hujjatlarini, V.A.Livshits esa yuridik hujjatlar va xatlar bilan shug'ullandilar. Nihoyat, ko'p yillik tadqiqotlar Mug' tog'i sug'd hujjatlarining to'liq ilmiy nashrini amalga oshirish imkonini berdi. Bu ish davomida to'g'rirog'i 1934-yilgi "Согдийский сборник" to'plamidayoq Mug' tog'i hujjatlariga sharti raqam-shifrlar berish boshlangan edi. Natijada Mug' arxivi hujjatlarini A, B, V turkumlariga ajratilgan. "A" turkum Mug' qal'a xarobasida qazishmalar o'tkazgan

A.I.Vasilyev topgan hujjatlarining, "B" turkum A.A.Freyman ekspeditsiyasi topgan hujjatlarining sharti nomlari bo'lib qoldi. 1934-yil A.Po'lodiy Sankt-Peterburgga yuborgan hujjatlariga esa Nov deb sharti nom berildi. Sankt-Peterburgga 1932-yilda jo'natilgan fotomusxa hujjat I.1 raqami bilan belgilandi. Shunday qilib, bugungacha qadar tadqiqotchilar A1, A2 ..., B1, B2 ..., V1, V2 ..., Nov 1, Nov 2 ..., shifrlar belgilari asosida Mug' tog'i sug'd hujjatlarini ustida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

1961 va 1965-yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobda V – VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochildilar. Devorlar turi mazmunde rasmlar bilan bezatilgan. Oldinda oq fil ustida taxtiravonda malika, fil ortidan qorabayir, to'riq va saman mingan uchta ayol tasvirlangan bo'lib, ulardan birinchisining qo'liga sug'dcha "malikaning yangasi" degan so'zlar bitilgan. Ayollarni tuva mingan ikki nafar erkak kuzatib bormoqda. Xonaning g'arbiy devorida shohona liboslarda qimmatbaho tuftalar ko'targan kishilar tasvirlangan. Devorda 16 qator sug'd yozuvi ham bitilgan. Unda "Men Chag'omiyon dapirpadi (elchisi) Buxorod hukmdor Turonosh nomidan podshohga hurnat va e'tirof ichor etgani Samarqandga kelim", degan mazmunde so'zlar bitilgan. Demak, Afrosiyobdagi tasvirlarda elchilik munosabatlari o'z ifodasini topgan bo'lib, undagi yozuvlar VII asr o'talaridagi xalqaro munosabatlari tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'd yozuvlari Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondan ham topib o'rganilgan. Bular orasida ayiqsa Aurel Steyn (1862 – 1943) tarafidan 1907-yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talas daruosining o'ng solhida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joydoshgan Qulonsoy hamda Teraksoy daralarida qoya toshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga molik. Bu yozuvlar IV – XI asrlarda O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'trasidagi savdo aloqalari va bunda so'g'dylarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo'tan hujjatlarini A.Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V.A.Kallaur, M.YE.Masson, D.F.Vinnik, A.A.Asanaliyev, K.Ashiraliyev, U.Ismag'ulovlar tarafidan o'rganilgan.

Mamlakatimiz tarixi, xususan unda yashagan qadimiy xalqlar tarixini o'rganishda, so'g'd tilida yozilgan "Xalqlar ro'yxati" deb atalgan bir hujjat (VIII asr) o'ta muhimdir. Unda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elarning nomi keltirilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham o'ziga xos sug'dshunoslik maktabi vujudga kelgan. Professor M.Is'hoqov, A.Otaxajayev, G'.Boboyorov, B.G'oybov va uning shogirdlari sug'd yozuvi, sug'd tili va adabiyotining turli jihatlarini, xususiyatlarini o'rganib kelmog'dalar. Sug'd yozuvi yodgorliklarining asosiy qismi Sankt-Peterburg, London, Parij, Berlinda saqlanmoqda.

Sug'd yozma yodgorliklari Vatanimiz tarixini o'rganishda o'ta muhim ahamiyatga egadir. Chunki ular qadimgi Sug'd tarixiy-madaniy o'lkasi hayotini,

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini, bu yerda kechgan siyosiy jarayonlarni, davlatchilikning tadbiri bosqichlarini, harbiy voqealarni, arab istilosi va ozodlik uchun kursh lavhalarini ehtidan turib qarash asosida emas, balki bevosita har bir vaziyat ichida turib yorituvchi nuqta yozma manbalardir.

Xullas, yuqorida qayd qilingan yozuv namunalari, garchi ularning deyarli barchasi avvalgi sug'd yozuvi rasmalaridan iborat bo'lishiga qaramay, O'ra Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimgi tarixi va madaniyati haqida qimmatli va nuqub ma'lumotlar beradi. Shuningdek, ularni ilmiy tahlili asosida o'zbek etnogenezi va etnik tarixini o'rganish uchun ham tegishli ma'lumotlar olish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Sug'd yozuvining shakllanishi qanday yuz bergan?
2. Sug'd yozma manbalari Markaziy Osiyo tarixi qanday darajada yoritib berilgan?
3. Sug'd yozma manbalari ilmiy jihatdan o'rganilishi qaysi davrlardan boshlangan?
4. Sug'd yozma manbalari ilmiy jihatdan o'rganish qaysi davlat tadbircilar tomonidan olib borilgan va bu tadbircilar qanday ahamiyat kasb etadi?
5. O'zbekistonda sug'd yozma manbalari o'rganish borasida kimlar tomonidan ilmiy tadbircilar olib borilgan?
6. O'zbekistonda sug'd yozma manbalari o'rganish borasida olib borilgan ilmiy tadbircilar qanday ilmiy yangiliklarni yuzaga chiqardi?

Adabiyotlar

1. Manbashiunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Idrol 2019.
2. Ахмедов Б. Узбекистон халклари тарихи манбалари (қадими ва ўрта асрлар). – Т., 1992.
3. История Узбекистана в источниках. / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
4. Исхоков М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва таракқиёти. – Т., 1989.
5. Исхаков, М. М. Палеографическое изучение согдийских письменных памятников: дисс. на соискании ученой степени д-ра ист. наук. – Т., 1992.
6. Исхоков М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Т.: Фан, 1992.
7. Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Т.: УМЭД, 2008.
8. Мансуров Ў. Суғд ёзма ёдгорликлари манбаъшунослиги масалалари. Тарих фанл. номзоди... дисс-я. – Т., 2003.
9. Каюмов А., Исхоков М., Отаҳужаев А., Содиков К. Қадими ёзма ёдгорликлари ўқув кўпланма. – Т.: Ёзувчи, 2000.

10. Рувеладзе Э. Лившиц В. Памятники древней письменности. – Т.: Узбекистан, 1985.

11. Согдийские документы с горы Муг. – М., 1962-1963.

12. Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадими ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). – Т.: Фан, 1989.

13. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Ўзбекистон энг қадими ва қадими давриларда. – Т.: Фан, 2014.

14. Ўзбекистон тарихи (хрестоматия) 2-жилд 1-китоби (Илк ўрта асрлар манбалари (V-VIII асрлар). – Т.: Фан, 2014.

11-Мавзу: Қадимги туркий узувнинг раудо бо'лиши ва туркий тилда битилган манбалар

Reja:

1. Туркий тиллар ва туркий битиллар раудо бо'лишининг шарт-шароитлари ва хусусиятлари
2. Ko'k turk yozuvi: раудо бо'лиши, асосий жиҳатлари ва о'rganilishi
3. Туркий битиллар торилган асосий ҳудудлар ва ularning o'rganilishi
4. Туркий битиллар маъини ва unda Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi

Таванч ибора ва тушунчалар: moddiy va ma'naviy madaniyat, Turk xoqonligi, turk bitiklar, turk bitiklari, ko'ina turk-tin yozuvlari, nuqub yodgorliklar, "Yenisey bitiklari", "To'rtinchi bitiklari", "Bilga xoqon bitiklari", "Kul teğin bingi", "O'ngin bingi", "Oltin bingi", "Sharqiy Turkiston bitiklari", "Yettisay bingi", "Farg'ona bingi", "Amudaryo bingi".

Туркий тиллар ва туркий битиллар раудо бо'лишининг шарт-шароитлари ва хусусиятлари

O'ra asrlarda Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston va unga tutash hududlarda yuz bergan muhim voqealardan biri eng avvalo Turk xoqonligining yuzaga kelishi edi. Bu xoqonlikka 551-yili Markaziy Osiyoning sharqida Yumip asos solingan. 563-567-yillari Turk xoqoni Istemi (Dizovu) Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, Eftaliylar davlatiga zarba berdi va ularga qarashli yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada Turk xoqonligi Amudaryo va Orol dengizigacha cho'zilgan o'z hokimligini o'tmadi. VI asmning uchinchi choragida tirklar shimoliy Xitoyda joylashgan Sijou va Si davlatlarini ham bo'ysundirdilar. 576-yili Bosfor (Kerch)ni egalladilar. 581-yili esa Xersonesni qamal qildilar. Tuz orada tirklar sharqda Sargi dengizidan, yali Tinch okeani sohilidan to Qrim va Qora dengizgacha oralida ulkan imperiyani yaratdilar. Bu davlat tarixda Turk xoqonligi nomi bilan kirdi. O'ra Osiyo va shimdan butun Markaziy Osiyo uzoq muddatga xoqonlik tarkibiga kirdi.

VI asr o'rtalariga borib Turk xoqonligi zaminida ilk katta yer egaligi munosabatlari shakllana boshladi. Shuning bilan bir qatorda o'zaro urushlar kuchaydi va bundan Suy imperiyasi (581-618-yillar) hukmdorlari ustalik bilan foydalandilar. Oqibatda Turk xoqonligi ikki qismga – Sharqiy va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

Turklar Sosoniyalar Eroni va Vizantiya imperiyasi bilan harbiy va diplomatik munosabatlarda bo'ldilar. Bu voqea va hodisalar birinchi galda qadimgi turklar ixtiro qilgan runik yozuv bilan xoqonlikning turli yerlarida qoyatoshlarda va yozuvga mos bo'lgan boshqa materiallarda bitib qoldirilgan.

O'zbek xalqlarining jamiki turkiy xalqlarning arab yozuviga qadar ma'naviy madaniyati to'g'risida arxeologik yodgorliklar qatori yozuv madaniyati ham to'la qoni ma'lumot beradi. Bugungi kunda 25 dan ortiq turkiy xalqlar mavjud. Bu xalqlarning tili ming yillardan buyon yashab kelmogda. So'zlashuvchilar soni jihatidan turkiy tillar dunyoda beshinchi o'rinni egallaydi. Bu tilda turkiy qavmlar asrlar davomida o'zlarining og'zaki va yozma adabiyotini, tarixini yaratganlar va bugungi kunda ham yaratmoqdalar.

Markaziy Osiyodagi qadimgi turkiy qavmlarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid topilmalarni olimlar uch guruhga bo'lishgan. *Birinchi guruhga* turkiy qavmlarda marhumni dafn qilish urf-odatlarini bog'liq topilmalar kirgan. Bular asosan, qadimgi mozorlarni o'rganish davomida aniqlangan. *Ikkinchi guruhga* balballar ya'ni xotira yodgorliklari vatot etganlarning qabrlari ushiga qo'yiladigan toshlar va tosh haykallar kirgan. *Uchinchi guruhga* kirgan dalillar bu – turkiy yozuvlaridir. Turkiy yozuvlar – turkiy xalqlarning etnik tarixini o'rganishda boshqa omillarga qaraganda muhim manbadir. Qolaversa, yozuvning siyosiy maqsadi ham borki, yozuv *birinchidan*, davlatning belgisi sifatida muhim vazifani bajaradi. Dunyodagi ko'plab davlatlar masalan: Isroil, Xett, Shumer kabi davlatlar eng avvalo o'ziga xos yozuv madaniyati tufayli tarix sahnasiga chiqqan. Ayni paytda mazkur xalqlarning nomi yashab kelayotganiga sabablardan biri ham yozuvdir. *Ikkinchidan*, yozuv ma'lum bir xalqning ijodiy qobiliyati va madaniyati tarixini isbotlashda, dunyo xalqlari orasida o'z o'rniga ega ekanini ko'rsatishda ham muhim omildir. *Uchinchidan*, yozuv inson fikrini abadiylashtiradi.

Yozma yodgorliklarning tarixiy mohiyati haqida izlanishlarga murojaat etish turkologiyaning turkiy tafakkur rivojidagi o'rini hamda el o'tmishidagi tarixiy va madaniy jarayonlarning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Ma'lumki, *“Turkologiya – shakllanish jarayoni turkiy bo'lgan, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning tilini, adabiyotini, tarixini, etnografiyasini, madaniyatini, yana ruhoni, madaniy qadriyatlarini tadqiq etuvchi ilming shasi*. Turkologiya ilmining nomlanishi hozirgi turkiy xalqlarga xos, ularning ajdodlari, VI-IX asrlarda yashab, O'rta, Yengisay, Talas va boshqa yozma yodgorliklarni kelajak avlodlarga meros etib qoldirgan, bir-necha urug' va qabilalar ittifoqidan tashkil topgan makroetnikalik birligi – turklarning nomi bilan shakllanib, rivojlandi va ni, turkologiya fani turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarning tillari, tarixi, etnografiyasi, dunyog'arashi, og'zaki ijodi, urf-odat va an'analari, dialektal o'ziga

xoslik o'zaktarida mujassamlashgan umumiylik kabi jihatlarni o'rganuvchi fan. Turkologiya fani turklarning tadiriy takomil bosqichlarida ushbu elga xos bo'lgan tarixiy-g'oyaviy jarayonlar evolutsiyasini o'rganish uchun birlamchi manba sifatida toshbitiklardan ham foydalanadi. “Hozirgi turkologiya fanida turli xil belgilar bilan yozilgan turkiy yodgorliklar keng tarqalgan hamda ular o'rganilgan bo'lib, bular runik, uyg'ur, manixey, braxma, arab, arman-qipchoq, chig'atoy bitiklaridir”. Bu toshbitiklar turklar tarixini o'rganish bilan bir qatorda har bir ijtimoiy-tarixiy davrga xos bo'lgan g'oyaviy jarayonlarni o'rganishda ham muhim rol o'ynaydi. Zero, har qanday muvaffaqiyatning asosida jamiyat a'zolarida g'oyaviy yaxlitlik, umumifooliyatni ta'minlashda safarbar qiluvchi g'oyaga sodiqlik xislatlari yotadi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda turk runologiyasining tarixiy ildizlarini tadqiq etish turkiy xalqlar o'tmishini, jumladan milliy tarixining yanada teranroq mohiyatini tasdiqlash bilan bir qatorda tarix, lingvistika, etnografiya va filologiyaning muhim qirralarini o'zida mujassamlashtirgan Turkologiya fanining ham yanada qadimyroq xarakterini ta'minlashga xizmat qiladi.

Turk runologiyasining tarixiy ildizlari bevosita qadimgi turklarga xos bitik shakliga borib taqaladi. Bitik muayyan tilga mansub tovushning belgilardagi ifodasi bo'lib, tarixning ma'lum davrida muayyan xalqning madaniy darajasini ifodalaydi. Ya'ni, bitik – har qanday sivilizatsiyaning o'ltov indikatorlari sifatida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda muayyan elning madaniy inqoniyatlari ko'rsatkichi bo'lib, davrga xos tarixiy jarayonlarni ifodalashga xizmat qilgan. Ma'lumki, “Yunon va lotin manbalariga tayangan holda Yevropa hududida qadimdan buyon to'rt asosiy til faoliyat ko'rsatgan devishimiz mumkin: bular – yunon, lotin, xun va got tillari bo'lib, xun va got tillari skif tillaridir”. Yuqorida keltirilgan iqtibosda bizning e'tiborimizni tortgan skif tillari xun va qadimgi turk tili uchun boshlang'ich asos bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, qadimgi turk tilining tarixiy ildizi xunlar tiliga borib bog'lansa, xunlar tili o'z navbatida skiflar tilidan ibtido oladi.

Qadimgi turklarning ajdodlari (skif-sak, xunlar) qo'liga kiritgan muvaffaqiyatlar qadimshunos olimlar tomonidan e'tirof etilgan va e'tilayotgan bir pallada insoniyat madaniy hayotida yuz bergan buyuk o'zgarish – piktografiyadan tovushlarni ifoda etuvchi belgilarga o'tish bosqichi qadimgi turklarning ajdodlari bo'lgan skif-saklarni ham cheklab o'tgan emas, albatta. “Turkiy xalqlarning arab yozuviga qadar ham o'ziga xos bitigi bo'lgan. Bu bitiklar xuddi hozirgi yozuvimiz singari harflar orqali ifodalangan va u uzog taraqqiyot bosqichi davomida shakllangan. Barcha xalqlar yozuvi kabi qadimgi turkiy xalqlarning bir necha ming yillar davomida shakllangan yozuv madaniyati ham uzog vaqt jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan”. Shu bois, turklarga xos bo'lgan bitik shakli taqatgina miloddning VI-VIII asrlariga xos bo'lmagan, balki miloddan oldingi IV-III asrlarga mansub ekanligini isbotlashga harakat qilamiz.

Bu borada ayrim tadqiqotchilarning diqqatga sazovor fikrlari ham mavjud bo'lib, ular farazimizni tasdiqlashga xizmat qiladi. K.A. Akshuev bu borada bunday deydi: “Ehtimol, ko'chmanchilar hatto miloddan avvalgi VI-V asrlarda yozuvni egallagan, bu haqda Isiq qal'asidagi skif qabridan topilgan kumush idishdagi sirti

yo'zuv guvohlik berib turipti". S.Klyashorniy esa ushbu fikrga tayangan holda uning deshtifrovkasi kelajak avlod zimmasidadir, degan fikrni ilgari suradi. So'ngra, A.Amanjlov tomonidan Issiq bitigi deshtifrovka qilinib, u turk bitigi ekanligi isbotlanganligi fanga ma'lum. I.L.Kizlasov bunday deydi: "Turk-Osiyo runik xati hozircha fanga noma'lum bo'lgan semit bo'g'in bitigiga borib taqaladi. Alfavitning tuzilishi insoniyat yozuvining bronza asrida (miloddacha bo'lgan X-IX asrlar) mavjud bo'lgan boshqachaga aloqador. Diniy e'tiqod bilan aloqador yozuv hujjatlari shunchalik arxaik edi, Yenisey epigrafyalari qiyosida aks etganligi taajjublidir. Ushbu ikki xususiyat (alfavit tuzilishi va yozuv hujjatlari ko'rinishi) qadimda turk xalqlari o'zlarining dastlabki tarixiy vatani janubiy Sibir va Markaziy Osiyoda proto-turk yozuvini o'ziga singdigan mavjud din bilan hamohang edi. So'ngra, Osiyo runik bitigi uzor tarixiy yo'lini bosib o'tib, turk tili talablari asosida islohotlarga uchradi. Shu tariqa runlar sifat jihatidan saqlanib, turk xalqlarining ikkinchi tarixiy vatani Sharqiy Osiyoga olib o'tilib, VIII-X asrlarda O'rta Osiyo va janubiy Sibir xotira toshlarida namoyon bo'la boshladi".

"Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga turkiy run (O'rxun-Yenisey), uyg'ur va qisman moniy (yoki monaviy), brahamon, sug'd va suryoniy bitiklarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg'ur bitiklari turkiy xalqlarga xos bitiklardir". Bu yerda uyg'ur yozuvini to'latilgicha turk yozuvi de'vish bahsi. Zero, unda so'g'diy yozuv elementlarining ham mavjudligini S.G.Klyashorniy, M.I.s'hoqov va A.Otaxov j'ayevlar ta'kidlab o'tganlar. Chunonchi: "Bosma uyg'ur yozuvi so'g'diy yozuvining davomi". Bu yerda qo'shni xalqlar madaniyatining o'zaro tasirini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, "o'rta asrning ilk davrlarida Janubiy Sibir va O'rta Osiyoning yozma yodgorliklarini yaratishda uchta mustaqil run alifbosi: taniqli O'rxun va Yenisey, shuningdek yangi va hali rasshtifrovka etilmagan janubiy Yenisey bitigi ishlatilgan. Ularning barchasi mustaqil epigrafik guruhlar sifatida o'rganilishi lozim". Demak, bu sohada hali o'rganilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina bo'lib, tadqiqotlar davom etishi tabiiy. Tadqiqotlarning davomiyligi bu borada yangidan-yangi qitralarning ochilishini ta'minlaydi. "1975-1999-yillarda dala tadqiqotlarini tashkillashtirgan Mo'g'uliston Fanlar akademiyasining Tarix instituti va Turkiy tadqiqotlar markazi O'rxun yodgorliklarini o'rganishda katta hissa qo'shdi. Ekspeditsiya a'zolari, shuningdek, Kul tegin, Bilga hoqon, To'nyuq, Terxin va Tesin bitiktoshlari va boshqa yodgorliklarning matnlaridan nusxa ko'chirishdi. Ushbu faoliyat tufayli qadimgi turkiy tilda ro'yxatdan o'tgan matnlar soni oltmish beshgacha oshib ketdi. Ba'zi asl nusxalar qayta tekshirildi, muammolar yechimida ilgari tan olingan noaniqliklarni bartaraf etish uchun puxta ekspertiza o'tkazilgan".

Qadimgi turklarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga xos bo'lgan O'rxun-Yenisey yozma yodgorliklarining tarixiy ildizlari miloddan oldingi birinchi ming yilliklarga borib taqalishi insoniyat sivilizatsiyasidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar parallel ravishda o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelinganligini tasdiqlaydi.

Ko'k turk yozuvi: paydo bo'lishi, asosiy jihatlari va o'rganilishi

Turklardan O'rxun bitiklari degan yozma obidalar qolgan. Bu obidalarining shunday atalishiga sabab, ular Shimoliy Mo'g'ulistondagi O'rxun daryosi bo'yilaridan topilgan. Ko'p zamonlar bo'itliklarni (Sibirning turli joylardan undan ham avvalroq topilgan boshqa yozuvlarni ham) o'qish amri mahol bo'lgan. O'rxun obidalarining topilishiga ishini olg'a siljildi. Bunda misr iyerogliflari va mixxat ushida bo'lgan kabi parallel yozuvning mavjudligi (bu gal xitoy tilida) hal qiluvchi rol o'ynadi. Ulardan ma'lum bo'lishicha, bu yodgorliklar (ular ikkita edi) Turk xoqoni Mo'g'ulion va uning inisi Kul Tegin sharafiga bunyod qilingan edi. Kopengengenlik olim Tomson o'ta murakkab va ko'p sonli kombinatsiyalar, taxminlar, almashitib ko'rishlar orqali turkiy yozuv jumbog'ini hal etishga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin O'rxun obidalari yozuvini tadqiq etish jadal ketdi va endilikda uni o'qishda qiyinchilik sezilmaydi. O'rxun yozuvi qanday yuzaga kelganligi hali aniqlangan emas. Bu yozuvlar uslubdan Old Osiyoning qadimgi hukmronlari bo'lgan Doro, Kayxusrav va boshqalarning bitiklarini eslatadi. Uslubdagi ayrim o'ziga xosliklar esa bizni bu o'rinda faktlar aniq taqdim etilgan emas, balki ularga ma'lum stilistik ana'nalarga ko'ra badiiy ishlov berilgan, degan xulosaga kelishimizga majbur etadi. O'rxun yozuvi har holda Mo'g'ulion va Kulegin (VIII asrdan ko'p ham ilgari yuzaga kelmaganini taxmin qilish mumkin. Shunday ekan, ushbu va boshqa bitiklarni yozma ana'nalari ta'sirida paydo bo'lgan deyolmaymiz. Ularni og'zaki so'z san'atiga bog'liq holda tadqiq etish haqiqatga yaqinroq bo'lar edi. Shu fikrga asos bo'ladigan dalillarga bitiklarning boshqa o'rinalarda ham duch kelishimiz mumkin. Bitiklarda "ko'rar ko'zum ko'rmas bo'ldi" degan ibora bo'lib, turklar uni hozir ham qo'llaydilar. Turkiy xalqlarning ota-bobolari 22 harfli oromiy yozuvidan foydalanib, o'zlarining 26 harfli turk-run (sak tili va yozuvini) kashf etganlar. Biz turk-run yozuvining oromiy yozuvi asosida shakllanganligini inkor etmagan holda, sak tili va yozuvi asosida O'rxun-Enasoy yozuvi shakllangan, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki 1970-yilgacha turkiy yozuv milodning VI-VII asrlarda paydo bo'lgan, degan fikr yetakchi edi. Unga nisbatan O'rxun-Enasoy atamasini ishlatganlar. Qadimgi turkiy yozuv uchun O'rxun-Enasoy yozuvi atamasi qo'llanilgan bo'lib, undan voz kechish vaqti yetdi. Turkiy yozuv O'rxun-Enasoy tomonidan g'arbga emas (chunki bunda 38 harfiy belgi bor), Markaziy Osiyodan (bunda 26 harfiy belgi bor) Sharq tomon tarqalgandir. O'rxun-Enasoy atamasi yozuv yodgorliklarining mahalliy guruhligiga anglatadi. Turkiy xalqlarining eng qadimgi yozuvi fanda noma'lum bo'lganligi uchun run yozuvi deb, keyinchalik turkiy run yozuvi, qadimgi turk yozuvi, ko'kturk yozuvi topilgan o'miga qarab o'rxun yozuvi, yenisey yozuvi, o'rxun-enasoy yozuvi nomlari bilan ham yuritilgan. Ibn Arabshoh o'zining "Ajoibu'l-maqdur fi navoibi Taymur" (Temur falokatlarida qismatning qiziqliklari) deb atalgan kitobida ushbu yozuv va uning nomi haqida qisqa ma'lumot berib, shunday fikrlarni bayon qilgan: "Xitoda ularning (turklarning) dultarchin deb ataladigan yozuvi bor. Ko'rdim, harfi qirg' bita. Ko'pligining sababi, ular qalin va ingichka (tovush)larni, shuningdek ayirgichlarni (alohida) harf hisoblaydilar,

natijada, qo'shimchalar va har bir qo'shimcha harf tug'ilgan". Ko'kturk yozuvi haqidagi dastlabki ma'lumotlar gollandiyalik olim Nikolas-Kornelisszon Vitsening (1641-1717-yillar) asarida uchraydi. U gollandiyalik elchixonra xodimlari bilan 1664-yilda Moskvaga kelib bir yil yashadi. Moskvada turkiy xalqlarga oid materiallar yig'ib, keyinchalik shu materiallar asosida "Shimoliy va Janubiy Tartariya" nomli asarini yaratdi. Ushbu asarda Rossiya yashovchi ko'plab xalqlar tillari, jumladan, turkiy tillarga oid leksik materiallar berilgan. Verxoturdan (hozirgi Sverdlovsk viloyati) uchta uzoq bo'lmagan joyda nomal'm alifboda yozilgan bitiklar mavjudligi qayd qilingan.

Mahalliy aholi bu yozuvlarni bitiktosh deb atagan. 1675-yilning boshlarida Rossiyaning Xitoydagi elchisi bo'lib ishlagan Nikolay Govrilovich Spatariy qaydnomalarida ham Enasoy daryosi bo'yidagi toshlarga o'yib bitilgan nomal'm yozuvlar haqida ma'lumot uchraydi. Yekaterina II ning ko'rsatmasiga ko'ra, Sibir general-gubernatori Yakobi Enasoydagi beshita dulbarchin yozuvlarida ko'chirima oladi. Pallas 1793-yilda bulardan bittasini chop ettiradi. Ancha munozaralarga sabab bo'lgan siri yozuvni birinchi marta daniyalik olim V. Tomson o'qidi. Shundan keyin ushbu yozuv yodgorliklari turkiy xalqlarga mansubligi aniqlandi. Olim 1893-yil 15-dekabrda Daniya qiroiligi Fanlar akademiyasida runik yozuvlarini o'qiganligi haqida ma'ruza qildi. Dulbarchin yozuvining o'rxun varianti 40 ta, enasoy varianti 41 ta harfdan iborat. Uni tovuqlarni ifoda qilish uchun o'rxun variantida 4 ta, enasoy variantida 5 ta harf ishlatilgan. Ayrim harflar bir tovushni ifodalash uchun xizmat qilsa, ba'zi harflar bir necha tovushni ifodalaydi. Yumshoq undosh tovush uchun alohida, qat'iq undosh tovush uchun alohida harflar qo'llanadi. Qat'iq va yumshoq variantiga ega bo'lmagan tovushlar uchun, asosan bita harf shakli ishlatiladi. Uni tovuqlarni ifodalaydigan harflar so'z boshi va o'rtasida ko'pincha yozilmagan. So'zlar o'ngdan chapga qarab, bir-biridan ikki nuqta bilan ajratib yozilgan.

Yana bir no'zir va noyob topilmalardan turkiy-runik yozuvi sopol buyumlar. Birinchi bo'lib 1960-yillarda arxeolog V. Bulatova boshchiligidagi ilmiy-ekspeditsiya Quva tepaligini o'rganish paytida turkiy-runik yozuvi tushirilgan sopol parchasini topgan edi. Ana o'sha paytdan beri bunday yodgorliklar to'g'risida hech kim yangi ma'lumotlarga duch kelmagan edi. Faqatgina so'ngi yillardagi qazilmalar chog'ida topilgan bir topilma tarixchilarniz uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Ushbu buyum VIII asrlarga mansub bo'lib, aynan arab istilochilarining Markaziy Osiyoga bostirib kirgan davrlariga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, farg'onaliklar arab istilosi davrida va undan keyin ham turkiy-runik yozuvdan foydalanib kelganliklari mana shu topilma tufayli ma'lum bo'ldi. Mazkur sopol parchasida atigi ikki turkiy-runik yozuvi bilan turkcha "Shunga olingan" degan jumla bitilgan xolos. Garchi bu so'zlar tariximizga doir ma'lumot bermasada, bunday yozuvi yodgorlik topilishining o'zi katta tarixiy ahamiyatga ega.

Ko'kturk yozuvining kelib chiqishi, shakllanishi xususida hozirgacha bir fikrga kelmagan. Olimlar bu borada turli qarashlarni bildirishgan. Xususan,

Xelsinki universiteti professori fin olimi Xeykel 1900-1901-yillarda dulbarchin yozuvi harflari run yozuvdan kelib chiqqan va turkiy xalqlarga skandinaviyaliklar orqali o'tgan, degan qarashni ilgari surgan.

O'Donner ko'kturk harflarining kelib chiqishi Kichik Osiyoning Ikiya, finikiy, hiti va friji harflari bilan bog'liq, degan fikrni aytdi.

Fin-ugor jamiyati nashr qilgan asarning uchinchi jildida bu harflar mazkur yozuvlarga yaqinligi ko'rsatilgan. Turkiy qabilalar etnik tarkibini o'rganagan N.N. Aristov "agar hitlarning turonlik bo'lganliklari e'tirof etilsa, hiti harflarining asosi turkiy qabila tamg'alariga borib taqaladi", deb yozgan.

V. Tomson ko'kturk yozuvdagi ba'zi harflarning semit-pahlaviy alifbosidagi harflarga o'xshashligini bildirdi. Tomsonning bu fikrini V. Radlov ham qo'llab-quvvatladi.

N.D. Sokolov ko'kturk harflari kelib chiqishi jihatidan oromiy yozuviga borib taqaladi, lekin u turkiylar tarafidan o'z tillari milliy xususiyatlariga moslashtirilgan, degan qarashni ilgari surdi.

Ba'zi olimlar ko'k-turk yozuvi so'g'd, fors yozuvlaridan kelib chiqqan degan fikrni bildirtdilar. Masalan, 1906-yilda ingliz olimi Arnold Steyn Xitoy devorining g'arb tomonidan ko'p hujjatlar topdi. Mazkur hujjatlarining ko'pchiligi xitoy yozuviga, bir qismi esa nomal'm harflar bilan bitilgan edi. 1911-yilda R. Goto va A. Kouli nomal'm yozuvdagi hujjatlarni o'rganib, oromiy alifbosidan kelib chiqqan so'g'd yozuviga, bu yozuv esa qadimgi turkiy run yozuvlari uchun asos bo'lgan degan fikrni ayitishdi.

Ye.D. Polivanov 1925-yilda turkiy yozuvlarining kelib chiqishi haqida yozgan maqolasida, ko'kturk yozuvining ildizlari turk tamg'alariga borib taqaladi. Shu bilan birga ularda so'g'd va pahlaviy yozuvlarining ta'siri bor, degan fikrni bildirdi.

Qozoq olimi A. Amanjolov dulbarchin alifbosi eramizgacha bo'lgan I ming yillikda shakllanib bo'lgan edi. Uning shakllanishiga bevosita qadimgi grek, shimoliy va janubiy semit, finikiya yozuvlari asos bo'lgan, degan qarashni ilgari surgan.

Ahmet Jafar o'g'li qadimgi turkiy alifbo turkiylar tomonidan milliy zaminida turkiy tamg'alar asosida yaratilgan, deb hisoblaydi.

O'zbekistondan ham bir qancha ko'kturk yozuviga bitilgan yodgorliklar topildi. Andijon viloyati Marhamat tumanida joylashgan Lo'mbicepadan 1988-yili topilgan ko'zadagi yozuv, Qashqadaryoning Shahrisabz hamda Dehqonobod tumanining Chashminiron qishlog'idan topilgan idishdagi yozuvlar, shuningdek Toshkent viloyatining Yuqori Zaratshonidan, Farg'ona viloyati hududlaridan topilgan yozuvlar turkiy yozuvlar taraqqiyotini o'rganiganisda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Q. Sodiqov, N. Raxmonovlar mazkur yozuvlar bilan boshqa hududlardan topilgan yozuvlarni o'zaro qiyoslab, qadimgi turkiy yozuvlar dastlab Markaziy Osiyoda shakllangan, degan xulosaga kelganlar.

Turkiy bitiklar topilgan asosiy hududlar va ularning o'rganilishi

O'ra va Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy-madaniy yuksalishi, davlatchilik tarixi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning yuzaga kelishi, diniy qarashlari, ularning qo'shni sharq xalqlari bilan kechgan madaniy munosabatlarga bog'liq holda yozuv madaniyatida o'zgarishlar yuz bergan. Ba'zi yozuvlar xalqning madaniy, ijtimoiy-siyosiy yuksalishi, davlat va jamiyat boshqaruvining taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa birlari ko'proq diniy ta'sirlar yoki qo'shni xalqlar bilan kechgan madaniy, iqtisodiy, savdo aloqalari natijasida qabul qilingan. Masalan, qadimgi turklar moniy, brahma, suryoniy yozuvlarini qo'shni xalqlar bilan kechgan diniy munosabatlar tufayli qabul qilganlar. Turkiy jamoalarda moniylik, buddizm, nasroniylarning yoyilishi ushbu yozuvlarning ham qabul qilnuviga sabab bo'lgan edi. Shuning uchun ham moniy yozuvini faqat turk-moniy jamoalari, brahma xatini buddistlar, suryoniy xatini esa nasroniylar qo'llagan. Uyg'ur xati esa butkul o'zga bir madaniy, iqtisodiy munosabatlar tufayli shakllandi; turkiy xalqlar uni sug'd yozuvi negizida yaratdi. Bu o'lkalarga islomning kirib kelishi bilan arab yozuviga o'tildi.

Qadimgi turkiy bitiklarni mazmuniga ko'ra bir qancha guruhga ajratish mumkin. Ular monumental matnlar, tarixiy, badiiy, diniy-falsafiy, ilmiy asarlar, rasmiy hujjatlar, kishilar o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalik ishlariga tegishli qaydlar, magik yozuvlardan iborat. Qadimgi turkiy yozuvlarda yaratilgan va kunimizga qadar yetib kelgan barcha asarlarni bir to'plamga jamlashning imkoni yo'q.

Turkiy xalqlarning eng eski yozuv yodgorliklari ko'k turk yozuvida bitilgan. Fanda bu yozuv "turkiy run", "o'rxun-yenisey" nomlari bilan ham mashhur.

Qadimgi turkiy bitiglarida Birinchi va Ikkinchi Turk xoqonliklari davri (VI–VIII yuz yilliklar)da yashagan turkiy xalqlar "ko'k turklar" deb atalgan. Ushbu atamada "ko'k" sifati "rang" (ko'k, zangori rang) emas, balki "ildiz, asl, tub" ma'nosida ishlatilgan. Bitiklardagi o'tidan kelib chiqib, hozirgi zamon turkshunosligida qadimgi turk davlatlarini "Ko'k Turk xoqonliklari", ular qo'llagan yozuv "ko'k turk alifbosi" deb atalmog'da.

Ko'k turk yozuvidagi yodgorliklar topilgan o'ringa ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Mo'g'ulistonidan topilgan bitiglar;
- Sibiridan (Oltay o'lkasi, Yenisey tevaragidan) topilgan bitiglar;
- O'ra Osiyo hududidan (Talas va Farg'ona vodiylaridan) topilgan bitiglar;
- Qozog'iston hududidan topilgan yodgorliklar;
- Shimoliy Kavkazdan topilgan bitiglar;
- Sharqiy Yevropadan (Dunay daryosi tevaragidan) topilgan bitiglar.

Bitiglar qabr toshlari, qoyalar, sopol va metall buyumlari, yog'och va qog'ozga bitilgan. Ular mahmullarning xotirasiga bag'ishlangan matnlar (tarixiy-badiiy asarlar), tashrifnomalar, rasmiy matnlar, diniy-falsafiy asarlar, xo'jalik ishlariga tegishli qaydlar, magik yozuvlardan iborat. Muhimi, ko'k turk yodgorliklarining katta bir qismi tarixiy asarlardir. Mazkur bitiglar bir paytning

o'zida g'oyaviy-badiiy, janr xususiyatlari, yoziluv uslubiga ko'ra badiiy asarlar sifatida ham o'rganiladi. Ularda o'sha zamonlarda yashab o'tgan xoqon, chertigboshi, yirik amaldor, donishmandlarning kechinishi, qahramonligi, o'sha zamonadagi tarixiy voqealar izchil, badiiy tilda bayon etilgan.

O'ra Osiyodagi turkiy-run yozuvlari topilishining o'ziga xos tarixi bor. Bu yozuvlar O'zbekistonda garchi o'tgan asrning o'rtalarida topilgan bo'lsa ham, mazkur yodgorliklarni o'rganish XIX asrning oxirida Turkistonda boshlangan edi. O'sha paytda Turkiston havaskor arxeologlar to'g'arigi tashkil etilgan edi. Avliyootadan topilgan birinchi qadimgi turkiy yozuvdagi bitiktosh ana shu to'g'arik a'zolari tomonidan o'rganildi.

1925-yil 23-sentyabrda "Iltipara Beroxa" gazetasida e'lon qilingan "Eski yodgorliklar bo'ri" nomli maqolada arxitektori M.M. Loginov va professor Denike Avliyootadan topilgan yodgorlik to'g'risida batafsil ma'lumot berildi. Bu yodgorlik aslida Avliyoota uyezdi boshlig'i V.A. Kallaur tomonidan topilgan edi.

1932-yili Talas vodiysining Aleksandr tog' tizmalari yonbag'ridan – Achchiqtoqshdan M.Masson tomonidan bir taxtacha topildi. Taxtacha archa yog'ochdan qilingan bo'lib, uning to'rt tomoniga ham o'tkir asbob bilan ingichka qilib yozuv bitilgan. Bu yozuv O'ra Osiyoda yog'ochga yozilgan yigona yozuv edi. Taxtachani M.Masson Ermitajga topshirgan.

1930-yillarda O'sh atroflaridan Masson va S.Ye. Malov ko'pgina turkiy – run yozuvlarini topgan.

Qadimgi turk manbalari orasida XVII asrda Sibir, Mo'g'uliston, Oltay hamda O'ra Osiyodan topilgan runiy bitiklar alohida atamayga va qimmatga ega. Bu yozuvlarning hozir yetti guruhli ma'lum. Bular: Lena – Baykalbo'yi bitiklari, Yenisey, Mo'g'uliston, Oltay, Sharqiy Turkiston, O'ra Osiyo bitiklaridir. Bu bitiklar O'ra Osiyo, shuningdek, O'zbekiston xalqlarining arablar istilosi marhasidagi ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotini o'rganishga yordam beradi.

O'rxun-Yenisey bitiklari - V – VIII asrlar (ba'zi manbalarda VIII – X asr)ga munsub. O'rxun va Yenisey daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qad. german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun uni runik yozuv deb ham atalgan. Rus xaritashtunos olimi N.U. Renczev tarafidan XVII asr oxirida Yenisey havzasida (hozirgi Yakasi avtonom v'oyatiga qaraydi) topilgan.

Mo'g'ulistonidan topilgan bitiklar orasida To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon va Ongin kabilarini qayd etib o'tish mumkin.

To'nyuquq bitigi - Ulan-Batoridan 66 km janubi-sharqda, Bain Sokto manzillida joylashgan va ikkinchi turk hogonligining asoschisi Eltarish xoqon (681 – 691)ning maslahatchisi saklarda To'nyuquqqa atalgan va 712 – 716-yillari yozilgan. 1897-yili rus olimi D.A. Klemens (1848 – 1914) va uning xotini Yel'avca Klemenslar tarafidan ochildi, V.V. Radlov (1899), V. Tomsen (1922), X. Sheder (1924), D. Ross (1930) hamda G. Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matn nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan

chop etilgan. Obida G'.A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982).

Kulegin bitigi. Bilga xoqonning (716 – 734) inisi Kulegin (vafoti 731-yil) sharafiga yozilgan. Mo'g'ulistonning Koshho Saydan vodiysida Ko'ksin O'rmon daryosi bo'yidan rus arxeolog va etnograf olimi N.M.Yadrinsev (1842 – 1894) tomonidan 1889-yili topilgan.

Bitik V.V.Radlov (1891), A.Xeykel (1892), V.Tomsen (1896), P.M.Melioranskiy (1897), X.Scheder (1924), S.Y.Malov (1951), G.Aydarov (1971)lar tomonidan nemischa, fransuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. O'zbekistonlik olimlardan A.Fitrat, O.Sharafiddinov, A.Qayumov, N.Raxmon, T.Salimov, G'.Abdurahmonov va A.Rustamov kabilarining xizmatlari katta.

Bilga xoqon bitigi. Kul tegin bitigidan 1 km janubi-g'arbda Ko'ksin O'rmon daryosi havzasidan topilgan. Obida 735-yili bitilgan. V.V.Radlov, S.Y.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan o'rganilgan va chop qilingan.

Ongin bitigi Mo'g'ulistonning Koshho Saydan vodiysidan topilgan va kimga atalganligi aniq ma'lum emas.

Obida 1892-yili V.V.Radlov tarafidan (estompaj) va 1957-yili J.Kloson tomonidan (inglizcha tarjimasi va tadqiqot bilan) nashr qilingan.

Bulardan tashqari, Qarabalsag'un shahri (Ulan-Bator)dan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xayto Tamir, Cho'yren, Baysin-Udzur, Bayan-Xo'ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltodan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qo'shog'och hamda tog'li nohiyalardan topilgan bitiklarni aytib o'tish mumkin. Bular O'rmon-Yemsey bitiklaridan firqali o'laroq, etnografik materialga boydir. Oltodan topilgan yozuvlar E.R.Tenishev, A.K.Borovkov, K.Seydakmatov, P.M.Melioranskiy, V.M.Nadelyayev hamda D.D.Vasilyev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g'orlarga joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o'rin tutadi. Bitiklar V.Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qirg'izistonda topilgan bitiklar (asrimizning 60-70 yillarida topilgan) hali chuqur o'rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidagi (Ayriton, Tereksoy, Qulonsoy, Toldiq'teg'on, Ujor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolgar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qozog'iston hamda Qirg'iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilar S.Sodiqov, M.Y.Masson, A.N.Bernsham, A.S.Omanjlov, G.Musaboyev, Ch.Jumag'ulov hamda G.Karag'ulovlar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgan, Kofirnihon, shuningdek, So'g'dan ham topilgan va A.N.Bernsham, B.A.Litvinskiy, Y.A.Zadneprovskiy, E.R.Tenishev, V.A.Bulatova tarafidan o'rganilgan.

Qadimiy turk-runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgan, Kofirnihon, shuningdek So'g'dan ham topilgan. Ushbu bitiklar A.N.Bernsham, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, E.R.Tenishev, Yu.A.Zadneprovskiy tarafidan o'rganilgan.

Turkiy bitiklar o'z navbatida Markaziy Osiyo tarixiga oid qadimiy yozma manbalardan biri bo'lib, Markaziy Osiyo shu jumladan, O'zbekiston hududlarining ilimiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi haqida ma'lumot beruvchi bitiklardir.

Turkiy bitiklar mazmuni va unda Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi

To'nyuq bitiklari Turk xoqonligi davrida yashab o'tgan davlat arbobi va sarkarda To'nyuq xoqoniga tiklangan. Bitig muallifi To'nyuqning o'zidir. Bitigda uning oti *bitga To'nyuq* deb qayd etilgan. Otiga qo'shilayotgan bitig so'zi uning unvoni bo'lib, "bilmond, alloma" degan ma'noni bildiradi. U ulug' donishmand, xoqon maslahatchisi bo'lgani uchun shunday unvonga erishgan.

Bitigning yozilgan sanasi aniq emas. Ba'zi olimlar u 712–716-yillar orasida yozilgan, ba'zilar 720, ayrimlar 725–726-yillarda bitilgan deya taxmin qiladilar. U. Serkaya matnida kechgan tarixiy voqealarni tahlil qilar ekan, bitig, taxminan, 732–734-yillar orasida yozilgan, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, To'nyuq bu kezar 85 yoshlarda bo'lgan.

Yodgorlik Mo'g'ulistondagi Bain Sokto manzilidan topilgan. Hozir ham tiklangan joyida. U 62 satr bo'lib, bir-biriga qaratib tiklangan ikki to'rt qirrali toshga yozilgan.

Kul tegin Ikkinchi Ko'k Turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonining kichik o'g'lidir. U 731-yili 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik esa uning og'asi Bilga xoqon tomonidan 732-yili tiklangan. Lekin matn muallifi xoqonning o'g'li Yo'llug' tegindir.

Yodgorlik Mo'g'ulistonning Koshho-Saydan vodiysida Ko'ksin Urxun daryosining qirg'og'idan topilgan. Hozir ham o'sha tiklangan joyida turibdi. Yozuv marmartoshning to'rtala tarafi va taroshlangan qirralarida. Yodgorlikdagi asosiy matn turkiy tilda. Ters yuzida xitoycha matn ham bor. Turkiysi ko'k turk (urxun-yemsey) xatida yozilgan.

Bilga xoqon (xitoy manbalarida Mo'gilan deb atalgan) Ikkinchi ko'k turk xoqonligining asoschisi Eltarishning katta o'g'li edi. U 734-yili o'lgan. Yodgorlik esa 735-yili tiklangan. Yodroma Kul tegin mangutoshidan 1 km. janubi-g'arbda o'zining tiklangan joyida, ag'anab uch bo'lakka bo'lingan ko'rinishda topilgan. Hozir shunga yaqin bir yerda yopiq joyda saqlanmoqda. Yodgorlikni Bilga xoqon o'lgandan so'ng uning o'g'li Yo'llug' tegin o'rnatgan.

Mo'yun-cho'r bitigi 745-yili Ikkinchi Ko'k Turk xoqonligi o'rniiga kelgan Uyg'ur xoqonligining hukmdori Mo'yun-cho'r nomiga bitilgan. Uning sharafiga o'rnatilgan bitigda ko'k turk xoqonligi tarixnavisligining matn tuzish an'analari saqlangan. Biroq matn tilda sharqiy lahjaning ta'siri katta.

Kuli-cho'r yodgorligi Mo'g'ulistonning Ixe-Xushotu degan joyidan topilgan. U Kuli-cho'r sharafiga tiklangan bo'lib, sanasi aniq emas. Matn ko'k turk xatida.

Kuli-cho'r Ikkinchi turk xoqonligida yashab o'tgan mashhur kishilardan. Uning oti mazkur yodgorlikdan tashqari Xoyto-Tamir va Bitga xoqon bitiglarida ham tilga olinadi. Bitiglarda qayd etilishicha, u tardush elini boshqargan.

Yodgorlikdagi yozuv toshning uch tomoniga bitilgan bo'lib, jami 29 qator. Lekin ancha shikast yegan. Shuning uchun matnini to'liq tiklashning imkoniyoti yo'q.

Qorabalg'asun obidalari Uyg'ur xoqonligi davridan qolgan yirik va qadri tarixiy monumental yodgorliklardir. Ular asl holatida saqlangan emas. Mangutoshlardan parchalar qolgan, xolos. Shunga qaramay, tosh parchalarida qolgan bitiglar yodgorlik qadimini nihoyatda oshiradi.

Qorabalg'asun yodgorligining turkiy matni uzun yulduz holida saqlangan bo'luviga qaramay, matn tuzilishi, tili va uslubiy xususiyatlari borasida ayrim muhim xulosalarni aytishga imkon beradi.

Birinchi toshning 8-10-satrlaridagi ilg'ari *kün toğsūq... esidip yaylın ol... kün batsıq...* (*Sharqqa Kuntug'ar ... eshitib, yanglishib, u ... G'arbga Kumbolar ...*) jumalari Kul tug'in bitigidagi ilg'ari *kün toğsıqda bökli qagangqa tegi ... qurıǵaru Temir qapıǵa tegi ...* (*Sharqqa Kuntug'arda Bo'kli xoqoniga qadar ... G'arbda Temirqopıqqa qadar ...*) satrlarini esga soladi. Matnning bu jihati ko'k turk davri monumental matn tuzish an'analari yaxshi bir holida saqlanganidan dalolat beradi.

Suji yodgorligi Mo'g'ulistonidagi Suji dovonining janubidan topilgan. Yozuvi ko'k turk alifbosida. Bitig, taxminlarga ko'ra, IX asrda yozilgan.

Sibirning Oltoy o'lkasi, Yenisey, Kama daryolari tevarigidan topilgan ko'k turk yozuvli toshbitiglar fanda "Yenisey bitiglari" nomi bilan yuritiladi. Ular Urxun bitiglarini singari yirik-yirik emas, kattasi – o'n olti-o'n yetti satrli. Shunday es-da, tili va poetik xususiyati, ahamiyatiga ko'ra muhim sanaladi. Qizig'i, Urxun bitiglaridan farqli o'laroq, ushbu bitiglarda ko'pincha matn o'liklar tilidan so'zlanadi. To'g'ri, ularni matnning o'g'it-qizi otasining o'limidan keyin bitirgan. Lekin u yerda kechgan voqealar, matnning mungli so'zlarini o'rganing tilidan bitgan.

"Irg' bitigi" ko'k turk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan yagona asardir. Qadimgi turkiy tilda irg – "jol", irg bitig – "jol kitobi" degan ma'noni anglatadi. Asar qo'lyozmasi hozir Angliyada, Britaniya kutubxonasidagi S.A. Steyn kolleksiyasida saqlanmoqda.

Asar yakunida uning nomi qayd etilgan: *Anlı amraq oǵlanım, anca bililip, bu irg bitig edǵı-ol* (*Erdi suyuqli o'g'illarim, bilib qo'ying, bu "Irg bitigi" iytilib*). Shundan so'ng matnning yozilgan tarixi, uning kimlarga atalgani bitilgan: *Bars yıl, ektini ay, beş yigirmiä Toyǵıman Manıstandıki kicig dinar buru aguru esidimiz isig Sayun, İlaçık üçün bitildim* (*Men bu kitobni bars yili ikkinchi oyning yigirma beshinchisida Toyǵıman Manıstandagi kichik dindorlar, buru ag'uru (dargasidagi) tinglovchilarimiz isig Sangun va İlaçık uchun ko'chirtirdim*).

Asar tush ta'birarga bag'ishlangan bo'lib, 65 bo'limdan tuzilgan. Har qaysi bo'lim muayyan masala xususida. Kitob yuz betli.

Tush ta'birari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog'liq holda bayon etiladi. Bular yaxshilik va yomonlikning tushda belgi berishidir. Muhimi shundaki, asarda aks etgan yaxshilik va yomonlik timoli turklarning eng qadim tasavvurlariga borib tutashadi.

Asar nihoyasidagi uning moniy jamoasidagi ikki shogird Isig Sangun, İlaçık uchun yozilganligi haqidagi qayd hamda asarda qo'llangan ayrim atamalarga asosan, bitig moniy muhitida yaratilganligini e'tirof etish mumkin. Asardagi obrazlar tizimida, syujet yoki voqealar bayonida aynan moniylik tasavvurlari bilan bog'lanuvchi detallar kuzatilmaydi. Ayniqsa, hayvon ramzlari bilan bog'liq mitologik tasavvurlar asar ilbizlarini ko'k tangri dini, shamanlik inonchi bilan bog'laydi. Anglashiladiki, asarda aks etgan tasavvurlar ildzi ancha chuqur.

Turkiy tildagi qadimgi tarixiy asarlarning katta bir qismi hozirda "uyg'ur yozuvi" deb yuritilayotgan qadimgi turkiy yozuvdadir. Ushbu alifbo o'tmishda turkcha atalgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida uni "turkcha yozuv" deb atagan. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o'g'li Badluzzamonga yozgan maktublaridan birida uni "turkcha xat" deb tilga oladi. Shuningdek, yozma manbalarida tarixchilar, o'sha davrning adabiyot va ilm egalari uni "uyg'ur xati" yoki "mo'g'ul xati" ham deganlar. Qanday atalganidan qat'i nazar, bu xat turkiy yozuv madaniyati tarixida katta iz qoldirgan. Muhimi, X asrda turkiy xalqlar arab xatiga o'ta boshlaganlaridan keyin ham uyg'ur xati o'z mavqei yo'qotmadi, musulmon-turklar orasida XV asr oxiriga qadar arab yozuvi bilan yonma-yon (parallel) ishlatildi, islomni qabul qilmagan turkiy jamoalar ichida (buddistlar orasida) XVIII yuzvillikda ham uyg'ur xati amalda bo'lgan. Shuning uchun ham, arab xatiga qadar yaratilgan eski bitiglar orasida uyg'ur xatidagilari ko'p.

Uyg'ur yozuvli "O'g'uz xoqon" dostoni mazmuni va tiliga ko'ra keyingi davrlarga mansub boshqa versiyalardan ajralib turadi. Qo'lyozmasi hozir Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. Qo'lyozmada dostonning boshlanishi ham, yakuni ham yo'q. Matnning jami 42 sahifa (21 varaq). Har sahifada uyg'ur yozuvli matn 9 qatoridan bitilgan bo'lib, jami 376 satrdir. Qo'lyozmaning bitilgan sanasi ma'lum emas. Xat uslubiga qaraganda, harqalay, XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan ko'rinadi. Doston, shu davrlarda ko'chirilgan bo'lishiga qaramay, uning tarixiy ilbizlari juda qadimga – miloddan burungi zamonlarga borib taqaladi. U turkiy xalqlar og'zaki adabiyotining eng eski namunalariidan sanaladi.

"Xuastuaniv" moniylik dinining o'tinichidir. Asarning oti matnda *N(t)ıǵoşakların suyn yazuǵın ökingü Huastuan(ı)v* deb berilgan. Ushbu jumladagi niǵoşak – sug'diychadan o'tlasigan bo'lib, "tinglovchi" ma'nosini anglatadi, u moniy diniy jamoasida quyi darajani bildirgan; suyn yazuq – juft so'z, "gunohlar, yozuqlar" degan ma'noni bildiradi; ökingü esa hozirgi "o'kinuv, tavba qiluv" so'ziga teng. Shunga ko'ra, ushbu jumladan "Nig'o'shaklarning yozuqlardan o'kinuvchi "Xuastuaniv" degan ma'no kelib chiqadi.

"Xuastuaniv"ning turkiy versiyalari uyg'ur va moniy yozuvlarida. Qo'lyozmalari hozir Sankt-Peterburg, London va Berlin fondlarida saqlanmoqda.

Asar o'n besh bo'limi. Bo'limlari bōlimg deyilgan. Har qaysisi muayyan masalaga bag'ishlangan. Matnda, hatto uning ko'chirish jarayonida asarning tuzilishiga alohida urg'u qaratilgan. Uyg'ur yozuvi matnda jumlarlar qo'sh nuqta (...), bo'limlar esa ikki juft nuqta (...) bilan ajratilgan. Matnda har qaysi bo'lim o'zining tartib ko'rsatkichi bilan boshlanadi: *icinc, tortinc, bishinc, altinc, yitinc, sakkinc* va b.

Qo'lyozma so'ngida, asar tugandan keyin, uni ko'chirgan kotib va tabanonaning tugaganligi to'g'risidagi qayd yozib qo'yilgan: *Būturmis Tarxon. Tugadi m(i)lgo'saklarniy suyin yazaqin okingū Xuastuan(i)vt. – (Matni) tugallagan Tarxon. Tugadi nig o'shaklarning yozuqlardan o'kinav kitobi – "Xuastuaniv".*

O'tmishda diniy asarlar, xususan, moniy yodgorliklarni bitishda yozuvning xos bir uslubi tanlangan. "Xuastuaniv"ning xati ham o'ta chiroyli, uyg'ur yozuvining klassik uslubidadi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") dostonidir. Bu doston hijriy yil hisobi bilan 462 (milodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi clikdan oshganini ta'kidlaydi. Shunga qarab Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillari arafasida tug'ilgan, deb aytla olamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani - Balasog'un (Quz O'rda) XI-XII asrlarning yirik savdo-soliq hamda madaniy markazlaridan biri edi. Bu shahar ikki marta qoraxoniylarning poytaxti ham bo'lgan edi.

Atroflicha bilim olgan Yusuf Xos Hojib o'z davrining peshqadam donishmandlaridan biri bo'lib etishdi. U fors-tojik va arab tillarini, badiiy adabiyotni, tarix, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya va boshqa fanlarni o'rgandi. U buyuk olimlarning ayrim axloqiy va falsafiy qarashlarini, medisinaga doir mulohazalarini tang'ib qildi, zamondoshlarini geometriya kabi fanlarni o'rganishga chaqirdi va hokazo.

Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojib o'z vatandoshi, ulug' olim Mahmud Qoshg'ariy singari, turkiy qabila va xalqlarning tilini o'rgandi, adabiy til uchun, turkiy tilning madaniy hayotida yanada kengroq o'rin olishi uchun kurashdi, xalq og'zaki adabiyoti va yozma adabiyotining boy tajriba va traditsiyalaridan ta'lim olib, mashhur "Qutadg'u bilig" dostonini yaratadi. Bu doston turkiy tildagi yozma adabiyotning ilk yirik asarlaridan biri edi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonini Balasog'unida yoza boshladi; uni Qashqarda yozib tugatdi va qoraxoniylar hukmdorlaridan bo'lgan Tavg'ach Bug'raxonga (Tavg'och ulug' Bug'ro Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon) taqdim qildi. Bug'raxon doston avtorini taqdirlab, unga "Xos Hojib" (muqarram, eshik og'osi) unvonini berdi. Shunday keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan shuhrat qozondi.

"Qutadg'u bilig"ning muqaddimasida ko'rsatilishicha, doston o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar deb baholangan va turli joylarda turli nom bilan yuritilgan. Chinliklar "Adabul-muluk" (deb) ot berdilar. Mochoin Malikaning nadiamlari "Oyinul-mamlakat" (deb) atadilar, mashriqliklar

"Ziyaratul-umaro" deb aytdilar, eronliklar "Shohnomai turkey" dedilar, shuningdek, ba'zilar "Pardonomai muluk" debdilar, turonliklar "Qutadg'u bilig" deb aytdilar.

"Qutadg'u bilig"ning uch qo'l yozma nusxasi ma'lum. Bu nusxalar "Vena" (yoki "Hiro"), "Qohira" va "Namangan" nusxalari deb yuritiladi. "Qutadg'u bilig"ning birinchi nusxasi XIX asrning 20-yillarida Istanbulda topildi. Bu nusxa bilan ko'chirilgan. Qo'l yozmani topgan olim Xammer Purgshall uni Venadagi Qirolik kutubxonasiga topshirdi. Shuning uchun bu nusxa "Hiro" yoki "Vena" nusxasi deb yuritiladi.

"Qutadg'u bilig"ning ikkinchi qo'l yozma nusxasi 1896-yilda Qohirada topildi. Bu nusxa (XV asr) arab yozuvida ko'chirilgan bo'lib, u Hiro nusxasidan birmuncha farq qiladi. Matndagi juz'iy farqlardan tashqari, Qohira nusxasida Hiro nusxasidagi ayrim o'rinlar yo'q.

"Qutadg'u bilig" uchinchi nusxasi 1913-yilda Namanganda topildi va 1914-yilda ma'lumot e'lon qilindi. (Nusxa namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresht degan kishining shaxsiy kutubxonasida sharhunos olim A. Z. Validov tomonidan topilgan.) Bu nusxa ham Qohira nusxasi kabi arab yozuvida ko'chirilgan. "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi boshqa nusxalarga qaraganda birmuncha mukammalroq bo'lib, E.E. Bertelsning taxminicha, u XIII asrning oxiri yoki XIV asrning boshlarida ko'chirilgan bo'lishi kerak. Bu nodir nusxa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharhunoslik institutida saqlanmoqda.

"Qutadg'u bilig"ning prozaiik muqaddimasida ta'kidlanishicha, dostonda to'rt asosiy masala qo'yilgan va bu masalalar majoziy obrazlar qiyofasida mujassamlashtirilgan.

"Qutadg'u bilig" jami Namangan nusxasida 6500 bay'ga 13000 misraga yaqin bo'lib, u 73 fasl-bobga bo'lingan. O'n bir bobi dostonning muqaddimasi bo'lib, muqaddima xudoga, payg'ambarga va to'rt xalifaga bag'ishlangan tardiston boblardan tashqari, yoz tavsifi va Bug'raxon madni, 7 sayyora va 12 burj, til odobi va bilimning foydasi kabi masalalarga bag'ishlangan boblarni o'z ichiga oladi. Dostonning asosiy qismi 12-bobdan, Kuntug'di degan hukmdorning ta'rifi bilan boshlanadi. Dostonda quyidagi voqea hikoya qilinadi:

Kuntug'di degan odli podsho bo'lib, uning shon-shavkati va shuhrati yaqin va uzoq o'lkalarga yoyilgan ekan. Oyuldi degan ogil bir kishi uning xizmatiga kirish istagi bilan poytaxtga kelibdi. U musofirlikning azob-uqubatlarini chekibdi hamda yor-do'st, tanish-bilish ortiribdi. Oyo'ladi Ko'sanish (istanligan) degan do'stiga musofir bo'lib Kuntug'di poytaxtga kelishning sabablarini so'zlab beribdi. Ko'sanish unga madad berib, Kuntug'dining Xos Hojibi bilan tanishtiribdi. Oyo'ladi Kuntug'dining saroyiga borib, uning subhatida bo'libdi. Oyo'ladi yuqirigan Kuntug'di uni saroyga xizmatga olibdi. Oyo'lading mansab-martabasi kundan-kun ziyod bo'lib, oxiri u vazir qilib tayinlanibdi. U saroyda uzoq vaqt xizmat qilib, aql-idroki va tadbirkorligi bilan Kuntug'dini mamnun qilibdi. Biroq

yurti va oilasini sog'inib, O'yo'ti hukmdordan ruxsat olib, o'z yurtiga qaytibdi va birmuncha vaqtdan keyin o'sha erda vafot etibdi.

O'yo'tining O'gdulmish degan o'g'li bor ekan. U otasining so'ziga amal qilib, Kuntug'dining dargohiga kelib, saroyga xizmatga kiribdi. O'gdulmish otasining izidan borb, davlat ishlaridagi faoliyati va donoligi bilan Kuntug'dini shod va mamnun qilibdi. Kuntug'di bilan O'gdulmish o'rtasida turli xil masalalarga doir suhbat va munozaralar bo'libdi. O'qi va olim kishilarning davlat ishlariga katta foyda keltirayotganini ko'rgan Kuntug'di donishmand O'zg'urmishni (O'zg'urmish ham yoziladi) saroyga taklif qilibdi. Uzgurmish tarkidunyo qilib, kishilar orasidan chiqib ketgan ekan. U bir necha xat-xabar va o'qi O'gdulmish bilan bo'lgan suhbatlardan keyin Kuntug'dining taklifini qabul qilib, saroyga kelibdi. O'zg'urmish bilan Kuntug'di davlat idora ishlari, axloq-odob va boshqa masalalar bo'yicha suhbat va munozaralar qilishibdi. O'zg'urmish Kuntug'diga ko'p o'g'it va nasihatlar beribdi.

Yusuf Xos Hojibning davlat hokimiyati haqidagi fikr-mulohazalari dastlab bek-hukmdor qiyofasida mujassamlashadi. Uning fikricha, bek davlatning yagona hukmdori bo'lib, uning amr-irodasi barcha uchun qonundur. Bek xudoning xohishi bilan beklilik mansabiga erishgan kishidir. Xudo biror kishini bek qilmoqchi bo'lsa, avval unga beklilik sifatleri va fazilatlarini ato qilarg' ekan: bek "xudo ato qilgan" o'liy mansabi bilan faxrlanishi, lekin, shu bilan birga o'z zimmasidagi katta va mas'uliyatli vazifalarni sharaf bilan amalga oshirishi kerak; bu vazifalar mamlakatni idora etish, uning osoyishligi va obodonchiligi uchun kurash, mamlakat ishi uchun foydali bo'lgan qonun-qoidalar ta'sis qilish va ularni amalga oshirish, ilm-ma'rifat ahllarini himoya qilish va boshqalardan iborat.

Agar bek ilmi va ma'rifati bo'lsa, u olimlar va donishmandlar qadriga yetadi, ular bilan aloqada bo'lib, o'ziga yaqin tutadi. Bek mayxo'rlik va turli fisoq-fasodga berilmasiligi, ulardan hazar qilishi kerak. Zeroki, baxt-saodat ham mayxo'rlik va fisoq-fasoddan hazar qiladi, ulardan qochadi.

Yusuf Xos Hojib bek va uning amaldorlari haqidagi fikr-mulohazalarini Kuntug'di, O'yo'ti, O'gdulmish va O'zg'urmishlar qiyofasida mujassamlashtirib, ularni o'z davrining saroy ahliga bir namuna qilib ko'rsatishga intiladi. Kuntug'di-adolati hukmdor, jonishmand va ezgu xulq-atvorli kishi. U o'z atrofiga O'yo'ti, O'gdulmish va O'zg'urmish kabi fazilati odamlarni to'playdi, ular bilan kengashadi, maslahatlashadi, mamlakatda tartib-qoida o'rnatadi, zo'limlarga tanbeh berib, mazlumlarni shod qiladi. Uning bunday faoliyati go'yo ziddiyatlarga barham berib, hatto qo'y bilan bo'rini ham inoqlashtiradi.

O'gdulmish va O'zg'urmishlar ham xuddi shunday kishilardir. O'gdulmish otasi O'yo'tining ishi va faoliyatini davom ettiradi. O'zg'urmish, garchi saroyning biror rasmiy lavozimini qabul qilmasa ham, o'g'it va maslahatlar bilan davlat ishlariga yordam beradi. Shoir o'z fikr-mulohazalarini ko'proq O'zg'urmish tili bilan ifodalaydi. O'zg'urmish bek va uning amaldorlarini yaxshilikka yo'llaydi, ularni kibr-havoga, mag'rurlikka berilmasilikka undaydi, beva-bechoraparvar bo'lishga chaqiradi.

"Qutadg'u bilig" XI asrdagi qoraxoniylar davrining ijtimoiy hayoti haqida keng ma'lumot beruvchi asardir. Unda Yusuf Xos Hojib shahar va qishloq xalqini, o'iroq va ko'chmanchi aholini ijtimoiy tabaqalarga ajratadi, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, savdogarlar, olimlar, elchilar, qo'shin boshliqlari, munajjimlar, tush ta'bir qiluvchilar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va roli hamda o'zaro aloqalarini bayon etadi. burch va vazifasi, yurish-turishi va xulq-atvori haqida o'g'it berdi, turli kasb-korlarga, xususan, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka doir juda boy so'z va terminlarni ishlatadi.

Yusuf Xos Hojib hunarmandlar haqida so'zlar ekan, ular "juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib so'zim uzayib ketdi... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar. Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar", - deydi. Chorvadorlarni esa shoir qimiz, sut, jun, suzma, pishloq kabi mahsulotlarni yetishtirib beruvchi kishilar sifatida taqdirlaydi.

Modomiki, dehqonlar, hunarmandlar va chorvadorlar jamiyatning moddiy boyliklarini ishlab chiqarar ekanlar, albatta, hukmdon doiralari ular bilan yaqinda aloqada bo'lishi, ularning mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlashi lozim. Hokim sinfning hayotiy manfaatleri ham shuni talab qiladi.

Yusuf Xos Hojibning hukmdon tabaqalar oldiga qo'ygan qator talablari (o'qimishli bo'lish, ilm-fan ahllariga homiylik qilish, davlatning qonun-qoidalariga to'la amal qilish, halollik va boshqalar) hamda o'g'itlari davlatni mustakamlash, boshboshdoqlikka xotima berish, o'zaro feodal urushlarning oldini olish, xo'jalikni va madaniyatni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Masalan, Yusuf Xos Hojib, garchi savdogarlarni ko'klarga ko'tarib maqtasa va ularni xudo tomonidan "fjforaga yaratilgan" kishilar deb idealashtirsa ham, savdogarlar haqidagi mulohazalari iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda, shubhasiz iljibiy ahamiyatga ega edi.

Yusuf Xos Hojib XI asrning donishmandi, ilm-ma'rifaning jarchisi hamda homiysidir. U ilm-ma'rifatga saodating kaliti deb qaraydi, shuning uchun ham o'z dostonini "Qutadg'u bilig" deb ataydi hamda unda ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini, ilm-fan ahllarini saroyga jalb etishga, ulardan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga chaqiradi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, hukmdor mamlakatni o'z qilichi va siyosati bilan boshqarsa, olimlar el-yurtini aql va donish bilan boshqaradilar, unga yo'l ko'rsatadilar. Shunga ko'ra, shoir kishilarni podaga, olimlarni yo'l boshlovchiga o'xshatadi:

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida Markaziy Osiyo olimlarining ilmiy yutuqlari ham ma'lum darajada o'z ifodasini topdi. U xususan, astronomiya va tibbiyot fanlari yuzasidan kengroq mulohaza yuritadi. Dostonning muqaddimasida yetti sayyora (Sekanir-Zuhul-Saturn, O'ngay - Mushtarir-Yupiter, ko'rud-Mirrix-Mars, Yashiq-Quyosh, Savit-Zuhra-Venera, Orzu-Ulorid-Merkuriy, Yalchig-Oy) va 12 buj haqida alohida-alohida she'rliy parchalar bitadi.

Yusuf Xos Hojibning falsafiy qarashlari, xususan, uning tibbiyotga doir mulohazalari Abu Ali ibn Sino ning ilmiy merosi ta'sirida shakllangan bo'lishi kerak. Shoir "Toji Hakim" nomi ostida Abu Ali ibn Sino ni ko'zda tutgan bo'lishi mumkin.

"Qutadg'u bilig" didaktik dostoni axloq va odobga doir qimmatli pand-nasihatlarni o'z ichiga oladi. Doston muallifi til odobi, sevgi va sadodat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar so'zlaydi, ma'xoflik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish-turishi, o'zini tutishi haqida o'gri beradi. Bular dostonning butun mazmuni va mohiyatiga singdiriladi.

U uylandish va bola tarbiyasi haqidagi 53-bobda oila va bola tarbiyasining murakkab ekanini ta'kidlab, bolani yoshlik chog'idan boshlab yaxshi xulqi qilib etishtirish zarurligini aytadi. Ziyofalar va ularda ishtirok etish, o'zini tutish odobiga bag'ishlangan 55-56-boblarda saroy ahlilariga o'gri beradi. Boshqa boblarda ham axloq va odobning turli masalalari to'g'risida fikr-mulohaza yuritadi. Yusuf Xos Hojib kishi tezda tug'ilib, tezda o'tib ketuvchi his-tuyg'uga asir bo'lmasiligi kerak, deb hisoblaydi hamda sevgini ko'z bilan emas, balki kishining qalbi bilan bog'laydi.

Yusuf Xos Hojib mansabi va mol-davlati bilan takabburlik bilan bog'liq zodagonlarni tanqid qilib, baxt-toleaga ortiq darajada berilib ketmaslik kerak, baxt keladi ham, ketadi ham deb ularni ogohlantiradi.

"Qutadg'u bilig" XI asr adabiyotining muhim yodgorligidir. U turkiy tildagi yozma adabiyot hali u qadar boy tajribaga ega bo'lmagan bir davrda vujudga keldi. Shoir fors-tojik tilda ijod etish traditsiyasi izidan bormadi, balki kat'iyat bilan o'z ona tilida yirik badiiy asar yaratishga kirishdi va uni muvaffaqiyat bilan tugatdi. U xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotining tajriba va traditsiyalaridan foydalandi, xalq og'zaki ijodining maqol va hikmatli so'z kabi injulari bilan o'z asarini boyitdi, fors-tojik tilidagi pandnomalardan ilhomlandi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bilan o'zbek, uyg'ur va boshqa turkiy xalqlarining klassik adabiyotida aruz vazni chuqur ilbiz ota boshladi va yozma poeziyaning yetakchi vazni bo'lib qoldi.

"Qutadg'u bilig" XI asrdagi Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistondagi turkiy xalqlar va qabilalar tilining yodgorligidir. U "Devonu lug'otit turk"dagi qadimgi qo'shiqlar va ayniqsa "O'rta-Osiyo" yodgorliklari tilidan hiyla farq qiladi hamda turkiy tilning adabiy tili sifatida taraqqiy etish jarayonini ko'rsatadi.

Nazorat savollari

1. Ilk o'rta asrlardagi turkiy yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo tarixini yoritishda qanday o'rinni tutadi?
2. Ko'k turk yozuvi va uning xususiyatlari?
3. Turkiy-run manbalarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari va ularning mohiyati nimalardan iborat?
4. Markaziy Osiyo tarixini yoritishda turkiy – run manbalarini qanday ahamiyatga ega?

152

5. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Markaziy Osiyo tarixida qanday o'rinni tutadi?

Adabiyotlar

1. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Аманжолов А. История и теория древне Тюркского письма. – Алматы: Мектеп, 2003.
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (қадимги ва ўрта асрлар). – Т.: 1992.
4. История Узбекистана в источниках. / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1984.
5. Каюмов А., Исхоков М., Отакужаев А., Соликов К. Қадимги Ўзбек ёлғорликлари Ўхув кўллари. – Т.: Ёзувчи, 2000.
6. Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги Ўзбек ёлғорликлари бўйича таълиқотлар). – Т.: Фан, 1989.
7. Ўзбекистон тарихи (хрестоматия) 2-жилд 1-китоби (Илк ўрта асрлар манбалари (V-VIII асрлар). – Т.: Фан, 2014.

12-Мавзу: Араб yozuvining paydo bo'lishi. Араб yozuvnida o'tkazilgan islohotlar, arab yozuvi turlarining shakllanishi

Reja:

1. Араб yozuvining paydo bo'lishi
2. Араб yozuvi va arab xatining turlari
3. Movqo'ushlarda mavjud arab yozuvidagi xat turlari. O'rta Osiyo xatidagi san'atining shakllanishi
4. Араб paleografiyasi va uning o'rganilishi

Tayanch ibora va tushunchalar: *Arab xalifatligi, forslar, arab tili, arab yozuvi, Movqo'ushlar, Xarosan, arab tili manbalari, xat turlari, xatidalar, alifbalar.*

Араб yozuvining paydo bo'lishi

Ibn Abbos rozivalohu anhudan rivoyat qilindi: "Arab lafzi va nutqida birinchi yozgan zot Ismoil ibn Ibrohim alayhissalomdir".

Ali ibn Burhoniddin Halabiy "Siyrat as-sahih" (Ishonchli tarix) asarida: "Arabiy xatida birinchi bo'lib yozgan kishi Ismoil alayhissalomning o'g'li Nizor ibn Ma'add ibn Adnomdir" degan.

(Maknundan rivoyat qilinishicha) Ismoil alayhissalomning farzandlaridan bo'lgan Nafis, Nazr, Taymo va Davmalar arab yozuviga birinchi bo'lib asos solgan

153

bo'lib, ular harflarni bir-biriga ulab yozishni joriy qilganlar, hatto alif bilan ro ni qo'shib yozganlar. Bu (harflarni alohida shaklda Hamis va Qaydortlar farqlab yozganlar. Bu ikkisi ham ismning (alayhissalom) avlodlaridan bo'lgan.

Mas'udiy aytadi: "*Arabiy xatining birinchi tuzuvchisi Miftas ibn Jandal ibn Ya'sob ibn Madyanining avlodlari bo'lib, ular Adnon ibn Uddga nusxan egilar*".

Ullarning ismlari Abiad, Havvaz, Huriy, Kalamani, Sa'fas va Qarashat bo'lgan. Ular o'zlarining ismida ishtirok etgan harflarni hisobladilar va yana ismlarida mavjud bo'lmagan harflarni ham topdilar. Bular – sa (س), xo (خ), zol (ز), zod (ذ), zo (ظ), g'ayn (غ) harflari edi. Bu harflardan ham yana ikkita Saxxoz va Zazzog' so'zlarini yasab o'z ismlarining qatoriga qo'shib qo'ydilar. Shu bilan hijoya (alfavit) harflari to'liq bo'ldi. Ba'zi rivoyatlarda keltirilishicha, bular Madyanining podshohlari bo'lib, ularning raisi Kalamani deb atalardi. Hammalari Shu'ayb alayhissalomning qavmidan bo'lib, barchalari "zulmat kunida" halok bo'lganlar. "Zulmat kuni" ya'ni qat'iy issiqdan keyin qop-qora bulut keldi, yomg'ir o'miga olov yog'di va barchalari kuyib ketdi. (Madyan qirilib ketgan arab qabilalaridan biri bo'lib, ularning yerlari Agaba qo'tig'idan Turi Sinoga qadar cho'zilgan). Kalamanning qizi otasiga arab marsiya yozgan va bu saqlanib qolgan. (Qanday qilib bu qiz qavmi bilan birga halok bo'lmay, tirik qolganining sababini bilmayman, deb yozadi Mas'udiy). Yana Mas'udiy Hishom ibn Kalbiydan rivoyat qilib aytadi: "*Xat (yozuv)ning ilk ijodkorlari Anborda yashagan Bulon qabilasining Toy (arug'ildan uch kishi bo'lib, ular Mifor ibn Murra, Aslam ibn Sadra hamda Omir ibn Jadratlar edi. Ular suryoniy alifbosiga solishtirib (qiyoslab) arab alifbosini ishlab chiqdilar. Birinchi bosqichda harflarni ko'rinishi (suratini) yozadilar. Ikkinchi bosqichda harflarning alohida va ulangan holdagi shaklini ishlab chiqdilar. Uchinchi bosqichda nuqtalarini qo'yib chiqdilar va ular bu xatni "xatni jazm" deb nomladilar. Bu – "kesik" degandir. Chunki u "Himyariy xat"idan kesib olingan edi. Aytilishicha, Anhor ahli Hiya ahildan xat ta'limini olganlar. Boshqa rivoyatda buning aksi bo'lganini aytadi. Aytiladiki, miloddan avvalgi 190-yillarda hukmronlik qilgan Munozaraning davrida Himyariy xati Hiyyaga keltirilgan. Humyar Hud qavmi bo'lgan ahli Yamaning xatidir. Hud – birinchi Od ya'ni Iramning Od qavmi edi. Ular ishlatadigan yozuv "musnad al-himyariy" (ximyariycha xat) deb nomlanardi*".

Maqriy: "*Birinchi xattoilik qalami bu – Himyar va Od podshohlarning qalamlaridir*", degan. Tarihi ibn Xaldun (807 vaf.) kitobining birinchi juzida qo'shimcha ravishda buyuk amir hamda mohir xattot Shakib Arslon shunday yozadi: "*Yevropalik olimlar, shu jumladan olmoniyalik sharqshunos olim Martis Olmoniy ham quyidagi fikrni bildiradilar: iog'raf harflardan keyin harflar bilan yozish Yamanida vujudga kelgan. Yozishni funktyalilar ixtiro qilgan degan fikr mashhur bo'lsa-da, lekin bu fikr to'g'ri emas. Balki birinchi bo'lib yamanliklar kitobat (yozishni) ixtiro qilganlar. Martisning aytishicha, "funktyalilar o'zlarining yozuvini yamaniy arab yozuvi asosida bino qilganlar. Yunonlar esa funktyalilardan olgan, o'z o'rnida rimliklar yunonlardan olgan. Daryoda*

kitobarni ular qo'lga kiritganlar va mana shu e'tibor bilan ular yozuv madaniyatiga asos solgan".

Ibn Xaldun muqaddimasining "Xat va kitobat insoniyatning kashfiyotlaridandir" ("*Fasi' annal xatto val kitobata min adodis sino'il insoniya*") bobida shunday deydi: "*Arab xati Tabobit alar davlatida bemuson va afzalilka maromiga yetib bo'lgan edi. Bu davlat madaniylashtirib, dardabati buyot kechira boshlagach, u "xat al-humyariy" deb atala boshladi va Oli Munzir davlatidan bo'lgan tabobit'aning aslzodalari lroq yerlari bilan arab mulkini kengaytirgach bu xat Hiyyaga ko'chdi. Biroq ularning yozuvlari tabobit'alarinichalik a'lo daragada emas edi*".

Toif va Quraysh ahli yozuvni Hiyraliklardan o'zlashtirganlar. Aytishicha, Hiyraliklardan kitobarni o'rgangan kishi Sufyon ibn Umayyadir. Yana bir rivoyatda bu kishi Harb ibn Umayya bo'lgan va u kitobarni Aslam ibn Sadradan o'rgangan, deyiladi. Mana shu haqiqatga yaqin gapdir. Hijoz ahli kitobarni Hiyradan, ahli Hiya esa tabobit'alar va Humyardan o'rganganlar, degan so'z eng munosib so'zdir. Humyarliklarning yozuvi musnad deb atalgan va harflari bir-biridan ajralib yozilardi. Ular yozuvlarini o'zlaridan boshqa hech kimga o'rgatmas edilar.

Arab yozuvi va arab xatining turlari

Arab yozuvi Arabistonda milodiy IV asrgacha amalda bo'lgan oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan. 28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli xatni ma'qaliy deb atalgan. Ma'qaliy xat kufiy xatigacha bo'lgan qadimiy yozuvlardan bo'lib, uning harflari butunlay teks – yoyiq, tik chiziqqlar bilan ifodalangan bo'lib, hech bir harfida dumaloq shakl bo'lmaganligi bilan kufiy hatidan ajralib turadi.

Bu xatni "ma'qaliy" deyilishiga sabab shuki, milodiy 623-yilda shu nom bilan ataluvchi ikkita shaxs yashagan – biri Makkada Ma'qal ibn Simon al-Asiy, ikkinchisi Basrada Ma'qal ibn Yasor al-Muzaniylarning biriga nisbat berilganligini bildiradi. Ammo mazkur xat uzoq iste'molda bo'lmagan, shubra qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o'rnini arab yozuvining eng qadimiy va eng mashhuri hisoblangan xatni kufiy egallaydi.

Arablar fath qilingan yerlardagi devonlarni arablashtiruv va tartibga solishdan avval barcha musulmonlar uchun o'qishga oson bo'lgan yozuvni tanlash ustida bosh qotiradilar. Oqibada kufi ahli o'rgangan xat turining aniq va chiroyliroq bo'lgani sabab boshqa shaharlarda joriy xat turlaridan ko'ra ushbu xat turini tanlaydilar. Shunday qilib, kufiy xat davlatning barcha nohiyalarida qo'llaniladigan yozuv turiga aylanib qoldi. Bu xat nuqtalardan xoli bo'lib, o'zining soddaligi va bezaklardan xoliligi bilan ajralib turadi.

Bu yozuv turi geometrik shakllarga asoslangan bo'lib, yozuvda faqat to'g'ri va doiraviy chiziqqlar qo'llanadi. Bu xat turidan asrlar davomida boshqa turli xil arab xatlari vujudga kelgan. Har asrning kufiy xati turlicha o'zgarib, turli viloyatlarda uning turli xil shakli qo'llanganligi hamda u ishlatilgan asr va mintaqaga qarab, unga turli nomlar berilgan (masalan, V asr kufiyasi, VII asr

kufysi, mamluklar kufysi, andalus kufysi). Shu zay'ida undan yetmishdan ortiq shu turdagi xat tarqaladi.

Kufiy xati deb nomlanishi haqida bir necha fikrlar bor:

- a) Kufa shahrida ijod etilgan uchun Kufaga nisbat berilib "kufiy" deyilgan;
- b) Zamonamiz olimlaridan buxorolik mashhur xatnot Abdulg'ofir Razzoq Buxoriy esa bu haqda shunday deganlar: "Ikki dunyo saodati bo'lmish Qur'oni karim ham mana shu xatda bitilgan."

Hazrati Usmon (roziyallohu anhu) boshchiligidagi Qur'on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko'chirildi. U zot Qur'onni mana shu asl nusxadan ko'chirishni buyurdilar. Shulardan bir nusxasi Kufa shahriga yuborilgan. Keyinchalik Iroq, Xuroson, O'rta Osiyo xalqlari mana shu Kufa shahriga yuborilgan Qur'ondan nusxa ko'chirganlari uchun u "Kufiy Qur'on" va "Kufiy xati" deb atala boshladi va shunday qilib, "kufiy" atamasi xat olamiga kirib qoldi. Shuningdek, ummaviylar zamonida VII asr oxirida tangalar kufiy xatida zarb qilina boshladi. Keyinchalik kufiy xatiga nuqtalar, e'roblar (zamma, fatha, kasma) qo'yildi. Tafsir, hadis, fiqh, aqoid, tarix ilmlarining shiddat bilan rivojlanishi xat yozishning ham tez, ravon va qulay bo'lishini taqozo qilardi. Kufiy xati esa ancha murakkab bo'lgani uchun zamon talablariga to'la javob bera olmasdi. Ilohiy ilhom orqali kufiy xati asosida paydo bo'lgan arab xatining birinchi ixtirochisi bag'dodlik Abu Ali ibn Muqla (vaf. 338/950-y.) hisoblanadi. Ibn Muqla ma'qaliy (kufiy) xati asosida arab yozuvining yetti xil asosiy turini ixtiro etgan. Bu kishidan keyin Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277-397/891-1007-yillar) (alayhi rahma val mag'fira) Ibn Muqla ta'limoti asosida muhaqqaq va mashhur olti xatni mukammallashtirdi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Manbalarda qayd qilinishicha, Shayx Jamoliddin Yoqut Qur'oni karimni yoqut xatida forsiy tarjimai bilan birga ming adad ko'chirgan. Keyinchalik Ibn Bavvob (vaf. mil. 1022-yil) ham xat uslubining go'zalligini mukammallashtirdi va 36 xat turidan 17 xitini ixtiro qiladi. Buyuk xatnot Yoqut (XIII asr) va boshqa ulug' xatnotlar arab yozuviga sayqal berib, ularning yanada mukammal, jozibador bo'lishiga o'zlarining bebaho hissalarini qo'shganlar, xatdagi uslublarni oxiriga yetkazib, takomillashtirganlar".

Xat san'ati haqidagi barcha risolalarda xabar qilinishicha, xati ma'qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san'atkorona yaratilgan olti xil asosiy xat uslubi shakllandi. Ular:

1. ثلث - suls xati - to'rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloqdir.
2. نسخ - nasx xati ixtirochisi mashhur san'atkor xatnot Ibn Muqla hisoblanadi.
3. قف - muhaqqaq - bir bo'lak qismi tekis bo'lib, qolgan bo'laklari yumaloq shakldadir.
4. رايوني - rayhoni xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan. Muhaqqaq va rayhoni xatining ixtirochisi Ibn Bavvob bo'lgan.
5. تave - tave' xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

6. رقي - rigo' xati - ko'pchilik harflari bir-biriga qurama qilib yoziladi. Tave' va rigo' ixtirochisi ma'lum emas.

Ayrim olimlar ta'liq xatini ham bu olti xat yoniga qo'shib, asosiy xat uslublarini yetti tur qilib ko'rsatadilar. Ta'liq xatining ixtirochisi Abul'ol nomli shaxs deb ko'rsatganlar. Tekshirib ko'rilganda Abul'ol ixtiro etgan ta'liq xatining grafik asoslari kufiy xatidan kelib chiqib, bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Ko'pchilik olimlarning fikricha, muhaqqaq birinchi uslub, rayhoni xati undan kelib chiqqan. Suls uchunchi uslub, nasx xati undan kelib chiqarilgan. Beshinchi uslub hisoblangan tave' xatidan so'ngi oltinchi xat rigo' kelib chiqqan.

Mazkur xatlarning har biri alohida o'rinalarda qo'llanilgan:

- muhaqqaq - qasida va she'rlar yozishda;
- suls - ilmiy asarlar va xat yo'l-yo'riqlarida;
- rayhoni va nasx - qissa va xabarlarida;
- tave' - buyruq va farmonlarda;
- rigo' - maktablarda ishlatiladi.

Bu olti asosiy uslubning har biri ingichka va yo'g'on qalamlarda yozilishi natijasida yana o'n ikki xil xatni tashkil etgan.

1. Muhaqqaq. Bu xatning ko'proq qismi tekis, tikka chiziqli harflar uzun yoziladi. O'rnamlarning uchi ingichka bo'lib tugaydi, qolgan bo'laklari dumaloq shakldadir. Shuning uchun bu xatning ma'qaliy va kufiy xatlarga o'xshashligi boshqa xatlarga nisbatan ko'proqdir. Shu sababdan Ibn Muqla boshqa turdagi xatlardan birinchi deb bilgani uchun bu xatga muhaqqaq deb nom bergan.

2. Rayhoni. Kufiydan kelib chiqqan bu xatning yozilishi shakl jihatidan rayhonga o'xshash bo'lib, aylanna shaklli harflar suls xatiga qaraganda yotiqroq va cho'ziqroq yoziladi. Rayhoni xatining ixtirochisi Ibn Bavvob (vaf. mil. 1022-yil) bo'lgan.

3. Suls. Aholining ijtimoiy sharoiti va san'atning gullab-yashnashi bilan kalligrafiya talablari yana oshdi. Endilikda bir-biriga asosan o'xshash bo'lgan xat turlaridan sezilarli farq qiluvchi yangi xat turiga ehtiyoj tug'ildi. Shu yo'lida suls xati vujudga keldi. Xatning bu turi masjid va in'arasalar peshoqlarini bezay boshladi. Suls xati - harflarni bir-birining oralariga joylab, san'atkorona kompozitsiyalar tuzish yo'li bilan har xil chiroyli shakllar yasash imkoniyati bo'lgani bilan ajralib turadi. Bu xatda bezak belgilar ham katta ahamiyat kasb etadi. Suls - bir narsaning uchdan bir hisssasi yoki uchunchi hisssasi, demakdir. Suls xati deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchunchi hisssasi ishlatiladi yoki suls xati ta'limida qalamning uchdan bir hisssasi ko'proq ishga solinadi. Mazkur yozuv uslubida "alif", "dal", "lom" harflari gajaki bo'ladi. Boshlanishda tikka chiziqning uch qismi changakasimon boshlanib, oxiri na'is burama bilan tugaydi. Ibn Bavvob birinchi bo'lib suls xati harflari shaklining nuqtalariga asoslangan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan.

4. Nasx. "Nasx" ning lug'aviy ma'nosi "o'chirish, bekor qilish" demakdir. Bu xat turi ixtiro qilingandan to hozirgi kungacha xatlotlar tomonidan keng qo'llanilib kelinadi.

Islom madaniyati tarqiqiy topib boshlagach, kompozitsion san'at turlari bo'linish naqsh va o'ymakorlik san'atlari keng tarqaldi. Musulmon san'ati ahli bu ruhni yozuvga ham olib kiritishga harakat qilib, yangi xat turlarini kashf qila boshladilar va ularga ko'proq bezakli shakllar berishga urindilar. Oqibatda xatlotlikda muayyan qoida va normalar ishlab chiqildi. Bu xat turlari oldingilardan farqli o'laroq geometrik shakllarga emas, balki na'fs og'ma shakllarga asoslangan.

Bu xayrli ishlar boshida abosiyalar davlati vaziri Ibn Muqla (vaf. 328-yil.) turadi. Shunday qilib, o'z tuzilishi va ko'rinishi bilan avvalgi kufiy xatidan ancha farq qiluvchi yozuv turlari kashf etildi. Ularning boshida nasx xati vujudga kelib, (bu xat turida) ilgari mushaflar I asr kufiyasida bitilgan bo'lsa, endilikda ular yangi kashf qilingan nasx xatida yozila boshladi. Bu xat turi yuzaga chiqib, shubhat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi "mansux" qilingan, ya'ni ishlatishdan qoldirilgan. Nasx xati tez va ravon yozilgani, ko'zga go'zal va bejirim tashlatishdan uchun ham u matbaalarda chop etiladigan kitoblarda asosiy yozuv vazifasini o'tagan. Hozirgi davrda eng keng tarqalgan yozuv bo'lib, bu xatdan zamonaviy matbuot va adabiyotlar chop etishda foydalanilmoqda.

Ilmiy adabiyot va qo'lyozmalarda ko'p uchraydigan g'ubor xati nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Matnlar maxsus raqamda juda mayda qilib yozilgani uchun g'ubor deb aytilgan. G'ubor xatining ixtirochisi - Said Qosim bo'lib, u bir dona guruhga g'ubor xati bilan 1x10s surasini yozgan.

5. Tavqi. Xatning yarmi tekis, yarmi yunaloqroq chiziqdan tashkil topgan bu yozuv turi ma'galiy va kufiy xatlarga o'xshaydi. Tavqi' deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so'zlarni shu xat bilan yozganlar. Qozilar va hokimlar hujjatlarni tavqi' xati bilan imzolaganlar (Idora va mahkamalarda farmonlarga, maktublarga, qo'lyozmalarga tavqi' uslubida imzo qo'yilgan).

6. Riqo'. Riqo' "ruq'a" so'zining ko'pligi bo'lib, qog'oz parcha, maktublar demakdir. Riqo' xatida harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Bu yozuv turi usmoniyalar hukmronligi davrida katta shuhrat qozongan va keng tarqalgan. Ko'pincha, maktublar, kishilarga yuboriladigan nomalar shu xat bilan yozilgan. Tavqi' va riqo' xatlarining ixtirochisi ma'lum emas.

7. Ta'liq. Ta'liq osilib turuvchi, ilingan yozuv ma'nolarini anglatadi. Bu xat aslida riqo' bo'lgan. Uni har kim kim turi shakllarga aylantirib, undan bir ravish ixtiro qilgan. XV asrda paydo bo'lgan bu yozuv turidan, asosan, rasmiy va shaxsiy xatlar yozishda, hujjatlar bitishda foydalanganlar. Mazkur yozuv harflari yuqoridan chapga kengroq holda yoziladi. Xoja Tojiddin Sulaymon shu uslubni ixtiro qilgan kishilar jumlasidandir. Bu kishi ixtiro qilgan ta'liq xati riqo' xatining shoxhasidir. Bu xat insho va maktublarga tegishli bo'lib, munshiy (insho yozuvchilari) uni cho'zib yozganlar. Ayrim olimlar ta'liq xatining ixtirochisi Abul'ol nomli shaxs deb ko'rsatganlar. Abul'ol ixtiro etgan ta'liq xatining grafik

asoslari kufiy xatidan kelib chiqqan bo'lib, bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Yuqoridagi xat turlari xatlotlar tilida "Al-Xutut as-sab'a" ("Yetti xat") deb yuritiladi. Xatlozman, degan har bir inson shu xatlarni bilishi zarur bo'lgan.

Movarovnahrda mavjud arab yozuvidagi xat turlari. O'rta Osiyo xatlotlik san'atining shakllanishi

Movarovnahrda Islom dini bilan birga arab tili va arab yozuvi ham kirib keldi va bu o'lkada shu paytgacha mavjud bo'lgan barcha xat turlarining o'rmini arab yozuvi egalladi. Arab xati rivojlanishining katta yo'lini bosib o'tishi bilan birga Islomga kiritilgan davlatlar ham shunchalik katta maydonga ega bo'ldi. Bu yurtlarda avval ma'lum xat turlariga katta e'tibor qaratilgan shu bilan birga ma'lum bir yurt uchun qulay bo'lgan mahalliy xat turlari vujudga kela boshlagan. Ular tezlik bilan o'zining mustaqil va o'ziga xos ko'rinishini topadi. Bunday xat turidan nasta'liq (yoki xat-ut-ta'liq) bo'lib, u fors mamlakatlari va Afg'onistonda keng tarqaydi. Shu sababli uni forsiy xati deb ham ataydilar. Bu xat cho'ziqlarning ko'pligi va o'ziga xos og'ma shakli bilan ajralib turadi. Mazkur yozuv harflari yuqoridan chapga qiyaroq holda yoziladi.

1. Nasta'liq xati. Bu xat XIV asrda ijod etilgan. Bu yozuvdan rasmiy va shaxsiy yozishmalar, hujjatlarda foydalanilgan. Asoschisi Xoja Mir Ali Tabriziy (1330-1405) "Qit'at ul-kutub" ("Kotiblarning peshvosi") unvoni bilan sharaflangan xatlot, nasta'liq xatining ixtirochisi hisoblanadi. Nasta'liq (asli "nasxi ta'liq" bo'lib, yengillik uchun "nasta'liq" deb atalgan) xatining ixtirochisi, "qit'at ul-kutub" ("Kotiblar peshvosi") laqabi bilan mashhur. U nasta'liq xatiga xos bir yo'l bilan olti turi xat asosida alohida xat ixtiro qilgan xatlot. U Amir Temur davrida (1369-1405) yashagan. Ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Uning shogirdlaridan biri - Mavlono Ja'far, Shohruh Mirzo zamonida xushxatlikda nom chiqqan, ikkinchisi Mir Abdulhay esa Abu Sa'id zamonida yashab, kitobat san'atida, insho va tahrirda tengi yo'q kotib bo'lgan.

Mir Ali Tabriziy nasta'liq xatining qonun-qoidalarini bayon etilgan risola yaratgan, U ko'chirgan qo'lyozmalar, jumladan, Kimoniyning "Xumoy va Humoyun", "Kamohoma", "Ravzat al-anvar" dostonlari (1396-yilda ko'chirilgan, hozirda Britaniya muzeyida saqlanadi), Sa'diyning "Kulliyot'i", "Bo'ston" asari (1377), Nizomiy va Dehaviyning "Xamsa" dostonlari (Eron milliy kutubxonasida) va qit'alar (1 donasi Sankt-Peterburgdagi Rossiya milliy kutubxonasida) bizgacha yetib kelgan. Bu xat turini "nasta'liq" deb nomlanishi haqida bir qancha qarashlar mavjud:

a) Sultonali Mashhadynning ta'kidlashicha, Mir Ali Tabriziy bu xatni nasx va ta'liq yozuvlari asosida yaratgan.

b) Mir Ali Tabriziy zamonigacha va undan keyin ham kitoblarning asosiy matni sahifa o'rtasiga nasx xatida yozilar, munga taalluqli izohlar yoki sharhlar ta'liq xatida matn yonlariga yozilar edi. Ya'ni nasx va ta'liq xatlari yonma-yon qo'yilar va ikkisini bir-biriga izofa qilib nasx ta'liq deb ham atala boshladi. Bu xat

ixtiro qilingach, "nasta'liq" deb ataldi. Go'yo bu xat ta'liq xatini nasx qildi (amaldan goldirdi) degan ma'no kasb etdi.

v) Nasta'liq xati deb nomlanishi ham faqat Movarounnahr va Xuroson o'lkalariga xos. Chunki bu yozuv turini boshqa joylarda "forsiy xat" deb aytiladi.

Eronliklar bugungi kunda o'zlariga nasta'liq xatini milliy xat qilib olganlar. Buxoro xatlotlari Domo Bobobek yoki Ismatliobek ularning yozgan xatlari bugungi kunda eronliklarni ham hayratga soladi. Shunday chiroqli yozsa ham bo'ladimi, - deb e'tirof etishadi. Chunki, Buxoro xatlotlari juda ham nozik yozishga katta e'tibor berishgan. Eronda bu an'ana Mir Imod zamonida katta mavqega ega bo'lgan, u kishining shogirdlari ham bo'lgan. Lekin Buxoro xatlotlari Mir Ali Hiraviyning tartiblarni o'zlariga standart yo'nalish qilib olganlar va shu asosda yozganlar va u kishini o'zlarining pirlari deb hisoblashgan.

II. "Nasxi buxoriy" xati. Asoschisi Mir Ubayd Buxoriy (vaf. 1601 y.) XVI-XVII asrlarda Buxoroda yashab ijod qilgan, nasx xati asosida yangi xat ravishi "Nasxi Buxoriy" ("Mir Ubayd") xatining ixtirochisi.

III. "Mavlaviy Soqiy" uslub. Asoschisi Mavlaviy Soqiy Muhammad Balxiy Sanchoy. Rikiy nasta'liq xatida atog'li xatlotlardan bo'lib, xati so'ng daraja malohatli, go'zal bo'lgani uchun "xatlotlar otasi" deb atalgan. Buxoroda yashab ijod etgan buyuk xatlot. Aslida, ushbu ixtiro qilingan alohida xat uslub. Buxoro xatlotlari o'rtasida alohida o'rin tutgan va bu xat turini o'zlariga standart qilib olganlari uchun ham alohida xat turi sifatida tan olingan.

IV. "Noxun xati" asoschisi Nizomiddin Buxoriy. Bu xat timoq bilan qog'ozni bo'rtirib yoziladigan xat turi bo'lib, uning ixtirochisi Nizomiddin Buxoriy bu yozuvning ustasi edi.

VI. "Xatti Boburiy" asoschisi shoir sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur 1504-yil 20 yoshida Qobulda bu xatga asos solgan. Bu xatning boshqa bir nomi "Sig'noqiy" bo'lib, bu to'g'risida Bobur shunday degan:

Turklar xati nasibing bo'lmasa Bobur netong,

Boburiy xati emaslar xatti sig'noqiydur.

Bu xat arab alifbosi asosida tuzilgan bo'lib 29 harfdan iboratdir. Ammo ba'zi jihatlari bilan arab alifbosidan ajralib turadi. Arab alifbosi hamda xatti Boburiy o'rtasidagi farq quyidagilardir:

- butunlay o'zgaragan harflar ("kof", "nun", "vov", "fo", "sin", "shin" ...);
- jihati o'zgaragan harflar (*bo*, *jim*, *xo*, *to*, *zo* ...);
- juz'iy o'zgaragan harflar (*min*, *ha*, *dal*, *ayn* ...);
- o'zgaragan harflar (*alif*, *yo*, *so* - o'rtasidagi *bo* ...) va boshqalar.

Bobur bu xatni tuzish orqali arab alifbosini soddalashtirish yo'llidan boradi. Shu maqsadda uni turkiy tilning talaffuz meyorlariga moslashtirishga harakat qiladi.

Bobur Hindistondaligidagi bu xat bilan maktablar yozgan. Xatti Boburiy bilan Bobur mushaf yozgan bu mushaf "Mushafi Boburiy" deb ataladi. Uning qo'lyozma asari hozirgi kunda Eronning Mashhad shahridagi Hazrati Imom Rizo ziyoratgohiga tegishli "Ostoni qudsi Rizoviy" kutubxonasida saqlanadi. Bu

qo'lyozma eronlik olim Go'lehini Ma'oni tomonidan o'rganilib, xatti Boburiyda yozilganligini e'lon qilgan.

2004-yili "Bobur xalqaro fondi" Eron davlatida bo'lib, "Mushafi Boburiy"ni foto nusxasini olib kelishdi. Hozirda bu fotonusxa Andijondagi "Bobur va Jahon madaniyati" muzeyida saqlanmoqda.

VII. "Imloi nav" - so'nggi davrlarda paydo bo'lgan xat turi bo'lib, XX asr boshlarida "imloi nav" degan yangi imlo paydo bo'ldi. Buni ayrimlar yangi xat desa-da, aslida, aslida xat turi emas, to'g'rirog'i bosma xat turi bo'lib, o'zbek tili harflariga moslashtirilgan. Bunda "zod" (ز), "izg'i" (ا), "zot" (ت) harflari o'rniga bitta "za" (ز) harfi qabul qilingan. Hozir bu xat turidan Qashqarda, Kurdistonda foydalaniladi.

Xatlotlik sharq mamlakatlarida o'ziga xos alohida yo'nalish kasb etgan va fan darajasiga ko'tarilgan bebaho san'atdir. O'rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilishi bilan bu o'lkaga arab yozuvi ham kirib keldi va insonlar orasida muomalada bo'lgan qadimiy uyg'ur, o'rxun-enasoy, sug'd, xorazmiy yozuvlari asta-sekin iste'moldan chiqib, ularning o'rnida VII asr oxiridan arab yozuvi ilmu fan va davlat ishlarida rasmiy yozuvga aylandi. Shu bilan birga arab xatini o'zlashtirish va uni san'at darajasida ko'tarishga jiddiy ahamiyat berila boshlandi.

Bir necha asr davomida amalda qo'llanilgan arab yozuvining 100 dan ortiq turi mavjud. 28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli "Xatti ma'qaliy" bo'lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. Ammo uzoq iste'molda bo'lsa-da, shubhat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o'rnini arab yozuvining eng qadimiyi va mashhuri hisoblangan "Xatti kufiy" egallaydi. Keyinchalik xatti ma'qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san'atkorona yaratilgan 8 xil asosiy uslubli mavdonga kelgan. Bular: suls, nasx, muhaqqaq, rayxoniy, tavqi, rig'o, devoniy hamda nasta'liq xati. Bu xatlar ichida eng ko'p qo'llaniladigan va barcha uchun birdek manzur bo'ladigan, tez va oson o'qiladigan nasx xati bo'lib, 22 arab davlati va Eron Islom Respublikasida shu xaldan foydalaniladi. Qur'oni karim hozirgi vaqtda asosan nasx xatida chop etiladi.

Sharqda xatlotlarning xatlari ma'no ifodasidan tashqari, kishini hayajonga solib, unga estetik zavq bergan. O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelgunga qadar qo'lyozmakitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xatlotlar shug'ullangan (Kitobat san'ati). Xatlotlar saroylarda, guruh bo'lib ishlagan. Har bir xatga san'at mo'jizasi sifatida qaratilgan. Shu sababli bu san'at rivojlanib, turli xatlotlik maktablari yuzuga keldi.

O'rta Osiyo xatlotlik san'ati taraqqiyoti tarixiga bir nazar solsak, VII-X asrlarda Arab xalifaligining markaziy shaharlari - Makka, Ko'fa va Basrada yaratilib, keyinchalik xalifalikning boshqa hududlariga tarqalgan xat turlaridan foydalangan holda Movarounnahr xatlotlik maktabi vujudga kelganini bilib olamiz. Ahmad ibn Umar Ash'as Abu Bakr Samargandiy (XI asr), Ahmad Tabibshoh Movarounnahr (vafoti 1215-yil), Ali Barokatiy (XIII asr), Jamshid Shoshiy (XIV asr) kabi xatlotlar ushbu maktab vakillari sifatida dong tarqanganlar.

XIV–XV asrlarda ilm-fan, madaniyat va san'atning barcha sohalarida bo'lgani kabi xattotlik san'atida ham misli ko'rilmagan yuksalish kuzatildi. Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so'ngi sulolalar (ashtarxoniyalar, mang'itlar) davrida bu san'at turi yuksak darajada taraqqiy etgan. Shu davrlardan boshlab O'rta Osiyoning turli mintaqalarida bir necha xattotlik maktablari paydo bo'ldi.

XV asrda Temuriylar sulolasi hukmdorlarining qo'llab-quvvatlashlari bilan Hirot xattotlik maktabi vujudga kelgan. Amir Temur davrida Mavloni Shamsuddin Munsbiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo'lgan.

Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik xattot san'atkorlar "Xattotlar suloni" Sultonali Mashhadiy (1437–1520), "nasta'liq" xatini ixtiro qilib, uni san'at darajasiga ko'targan Mir Ali Tabriziy (1330–1405), Darvash Muhammad Taqiy Hiraviy (XV asrning birinchi yarmi), Abduljami'l Kotib (vafoi 1505/1506 yil), Darvash Muhammad Toqiy (XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari) kabi vakillari samarali ijodlari bilan e'la tanilgan.

Ibrohim ibn Shohruh, Boysung'ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo kabi Temuriy shahzodalar ham xattotlikka homiylik qilish bilan birga o'zlari bu san'at turi bilan shug'ullangan. Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo "Xammu Boburiy" ixtirochisidir. Temuriy shahzodalardan Boysung'ur Mirzo (1397–1433) esa o'z zamonasining yetuk olimlaridan edi. U Hirotida tashkil qilgan kutubxonada nusxaviy, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblari tayyorlash, yarqisiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan.

XVI asrda Shayboniylar sulolasi ham xattotlikka katta e'tibor qaratdi. Hukmdorlardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan shug'ullangan va nasx xatida yuksak mahorat bilan yozgan. Shayboniyxonlari sa'y-harakatlari bilan Buxoro xattotlik maktabiga asos solingan. Unda Movarounnahr xattotlik maktabini yuzaga kelishida hayoti va ijodi alohida o'rin tutgan Mir Ali Hiraviy (vafoi 1557-yil), Mir Ubayd Buxoriy (vat. 1601-yil), Mir Husayn Ko'lankiy Buxoriy (XVI asr), Sayyid Abdulloh Buxoriy (vafoi 1647), Hoji Yodgor (vafoi 1663), Ahmad Donish (1826–1897) kabi yetuk xattotlar yuksak mahoratlari bilan shuhrat qozondi.

XVIII asr boshlarida Xiva va Qo'qon xonliklari hududida Xorazm va Farg'ona xattotlik maktablari, XIX asrda esa Samarqand va Toshkent xattotlik maktablari shakllandi.

Xorazm xattotlik maktabi o'zining Munis Xorazmiy (1778–1829), Komil Xorazmiy (1825–1899) kabi nanoyandalari bilan tanilgan bo'lsa, Farg'ona xattotlik maktabi Mirzo Mirzo Sharif Dabir (XIX asr), Muqimiy (1850–1903), Samarqand xattotlik maktabi Ochildimurod Miriy Katrago'rg'oniy (1830–1899), Abduljabbor Urgutiy Samarqandiy (1885–1910), Toshkent xattotlik maktabi esa Muhammad Yunus kotib (XIX asr) va Muhammad Shohmurod kotib (1850–1922) kabi vakillari bilan mashhur bo'ldi.

Bosnaxona paydo bo'lguniga qadar kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Bu borada Boysung'ur Mirzo, Alisher Navoiy, Muhammad Rahimxon II (Feruz) va boshqalarning faoliyatlari diqqatga sazovor.

Xattotlik san'atidan me'morchilik va xalq amaliy san'atida ham keng foydalanilgan. Yurtimizda azaldan me'moriy inshootlar – masjidlar, madrasalar va maqbaralarning tashqi va ichki devorlari, pesthoqlari turli naqshlar bilan birgalikda xattotlik uslublarida yozilgan bitiklar – Qur'oni karim oyatlari, hadislar, hikmatli so'zlar va she'r-y parchalar bilan bezatilgan. Musulmon xattotlik san'ati Xitoy, Yaponiya va Yevropada ham keng tarqalgan.

XX asrda xattotlar yirik kutubxonalardagi qo'lyozma kitoblari nusxasini ko'paytirish bilan shug'ullandilar. Jumladan, Navoiy kutubxonasi (O'zbekiston milliy kutubxonasi)da bir guruh xattotlar faoliyat yuritgan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlardan Ibrodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov kabi xattotlar jamoasi shu yerga to'plandi va ular ko'ina qo'lyozmalarni tiklash, ko'chirish, tavsif varqalari tuzish bilan shug'ullana boshladilar.

XX asrning 80-yillariga kelib kitobat san'ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklandi. Bunda Habibulla Solih, Abdulla Mirsotov, To'xtamurod Zufarov, Alisher Shomahammedovlarning xizmatlari katta. Jumladan, xattot Habibulla Solih Qur'on Karimning asl nusxasi "Usmon Mus'haft"dan pergamentga 3 marta nusxa ko'chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida, pergamentga ko'chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Xalqaro Islom Akademiyasida).

Mustaqillik yillarida G'afurjon Razzoqov, Habibulla Solih, Salimjon Badalboyev, Abdulla Mirsotov, To'xtamurod Zufarov, Alisher Shomahammedov va boshqa xattotlar o'z faoliyatlarini olib borishgan. Jumladan, Habibulla Solih 1998-yili Istanbulda o'lkazilgan xalqaro xattotlar bellashuvida "Devoniy" xat uslubini bo'yicha kuchli o'lnikdan joy oldi. 1999-yili u xattotlikda yangi tarz, ya'ni naqshin bezak yozuvining alifbosini kashf qilgani uchun Lohurdagi xalqaro xattotlar bellashuvida "Parvin ragam" ("Sharq yulduzi") unvoniga sazovor bo'ldi.

Arab paleografyasi va uning o'rganilishi

Arab paleografyasi arab alifbosi (arab, fors, turkiy va hokazo tillar)da yozilgan yodgorliklarni o'rganadi. Amaliy maqsadlar uchun X asrdayoq Ibn Durustiy (956-yilda vafo etgan) tomonidan arab xattidagi yozuvlarning sharhi ishlab chiqilgan bo'lib, xalifa devonxonasida qo'llanilgan yozuv va uning asosiy turlari sanab o'tilgan.

Yevropada arab yozuvidagi yozuvlar, qo'lyozmalarni o'rganish XVII asrdan boshlanib, o'sha davridayoq kufiy (tangalar, Qur'ondagi burchakli yozuv shakli) va nasx xati (ko'proq aylana shakldagi tez yozilgan xat turi) o'rta asrdagi farqlar aniqlangan. XVIII asr boshlarida arabshunos olimlar arab xatining kelib chiqishi, nasx va kufiy xat turlarining davriy ketma-ketligi haqidagi masalalar bilan shug'ullanishgan. Yevropalik ko'plab olimlar XVIII va XIX asrning birinchi yarmida o'rta asr arab an'analarni tahlil etib, kufiy xati etaroq shakllanganligi

haqidagi xato fikrni ilgari surishdi (yaholanki, ikkala xat turi ham bir vaqtda mavjud bo'lgan). Ular kufiy Suriya yozuvi (estrangello)dan kelib chiqqan deb hisoblagan. Mazkur muammoni hal etish bo'yicha paleografik tahlillar o'tkazilib, XVIII asrda dastlabki paleografik jadvallar paydo bo'ldi. Bunga misol qilib L. Adlerning (Daniya) Suriya yozuvi va kufiy jadvali, E. Fumoning (Fransiya) kufiy (Qur'on qo'lyozmalari asosida) jadvali, XIX asrning birinchi yarmida J.J. Marselning mukammallashgan jadvali bo'lib, unda arab yozuvidagi yozuvlar va qo'lyozmalarni tizimi o'rganishga asos solindi.

XIX asrda G'arbiy Yevropada arab qo'lyozmalarini to'plashning asoslari paydo bo'lib, XIX asrning oxirida Venada arab yozuvidagi papiruslar to'plangan yirik markaz shakllandi. Epigrafik yodgorliklarni to'plash va o'rganish boshlanib, arab yozuvidagi yodgorliklar paleografik tahlil qilindi, ilmiy tavsifi tayyorlana boshlandi. Yodgorliklardagi yozuvlarning nashri e'lon qilindi.

XIX asrning birinchi yarmida fransuz sharqshunosi A. Silvestr de Sasi tomonidan arab yozuvidagi papiruslarning birinchi nashri e'lon qilindi. XIX asrning oxirlarida I. Karabachekning (Avstro-Vengriya), XX asr boshida K.X. Bekkerning (Germaniya) arab yozuvidagi papiruslarga bag'ishlangan ko'plab ishlari chop etilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida maxsus paleografik tadqiqotlar bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi. Italian paleografi M. Lanchi ko'plab yozuvlarni o'rganish asosida arab yozuvidagi turlarni aniqladi. U. Rayt (Angliya) va V. Alvardt (Germaniya) VII-XVII asrlar arab yozuvi bo'yicha paleografik jadvallarini nashr qildi. Fransuz tadqiqotchisi O. Uda Shimoliy Afrika xat turi (mag'ribiy)ning tavsifini berdi. Shveysariyalik olimlar M. van Bersham (XIX asr oxiri) va S. Flyuri (XX asrning 20-yillari) arab yozuvi bo'yicha yirik asarlarini e'lon qilishib, epigrafika sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun ro'ydevor qo'yishdi.

XX asr o'talarida arab paleografiyasi taraqqiyot bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Arab yozuvining shakllanishi va ilk taraqqiyoti muammolari (N. Abbot, AQSH).

2. Papirus va qo'lyozmalardagi xat turi (A. Grotman, Avstriya; A. Diritx, GFR; M.A. Marzuk, X. Xavariy, Misr; F. Dey, R. Etingxauzen, AQSH; G. Viyet va E. Komb, Fransiya; D.S. Rays, Angliya).

Rossiyada arab qo'lyozmalarini to'plash va yozuvlaridan nusxa olish Pyotr I davridan boshlangan. Arab qo'lyozmalari va boshqa yodgorliklardagi yozuvlarni to'plash 1818-yilda Kunstkamerga qoshida Sharq kabine'i tashkil etilishiga sabab bo'ldi (keyinroq u Osiyo muzeyiga aylantirildi, hozirda arab qo'lyozmalari saqlanayotgan Osiyo xalqlari institutining Sankt-Peterburg bo'limining qo'lyozmalar fondi). Uni yirik arabshunos, Rossiyadagi arab qo'lyozmalari to'plamini o'rganagan X.D. Fren boshqargan. U arab numizmatikasining ilmiy asoschisi sifatida kufiy xat turining xilma-xilligini tasniflab, atamashunosligini tadbiq etdi. XIX asrning ikkinchi yarmida arab yozuvidagi yodgorliklarini aniqlash, o'rganish va nashr etish bo'yicha ishlar tezlashdi. Bu davr paleografik kuzatuvlar olib borilganligi bilan xususiyatidir. N.V. Xanikov paleografik tahlil

uchun yozuv bitilgan joyni e'tiborga olish haqidagi xulosalarini ilgari surdi. Shu tariqa xalfalikning turli chekkalaridagi arab xat yozuvlarining xususiyatlari aniqlandi.

Sovet olimlaridan O.G. Bolshakov, M.M. Dyakonov, V.A. Krachkovskaya, I.Y. Krachkovskiy O'rta Osiyo va Kavkaz ortidagi arab yozuvidagi yodgorliklarni o'rganishgan.

O'zbekistonda ham yozma yodgorliklarning aksariyati arab yozuvida bo'lganligi sababli arab paleografiyasi bir qadar rivojlangan. Bu sohada tadqiqotlar, asosan, O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, tegishli muzeylar, qisman oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmoqda.

Nazorat savollari

1. Arab alifbosining shakllanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Arab yozuvining O'rta Osiyoga ommaviylashish sabablari?
3. Arab xati turlari haqida ma'lumot bering?
4. Arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Makka'di Osiyoda xatolik san'ati va uning tarixi haqida ma'lumot bering?

Adabiyotlar

1. Manbhashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D.Alimova. — T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Pedersen J. The Arabic Book. Translated by Geoffrey French. — P.: Princeton University Press, 1984.
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (қадими ва ўрта асрлар). — Т., 1992.
4. Муродов А. Ўрта Осиё хаттоғлиги санъати тарихидан. — Т.: Фан, 1971.
5. Насруллаев Н. Манбашунослик асослари. Дарслик. — Т.: Navro'z, 2020.
6. Халилов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. — М., 1985.

13-Mavzu: Sharq qo'lyozmalarining paydo bo'lishi va umumiy xususiyatlari

Reja:

1. Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarining xususiyatlari
2. Arab yozuvidagi kitoblarni muqovallash tarixidan
3. Sharq kitobat san'atining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari

Tayanch ibora va tushunchalar: *Qur'oni karim, kitobat, qog'oz, xatlot, muzahhib, lavoh, unvon, musavvir, saxof, husnixat, miniyura, mus'hef va xatlotlar, kitobat san'ati, muqovallash, badiiy va tarixiy qo'lyozmalar, Sharqshunoslik instituti.*

Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarining xususiyatlari

Arab yozuvida bitilgan qo'lyozma kitoblarni tashqi belgilariga ko'ra badiiy shohona kitoblar hamda keng jamoatchilik va o'rta hol ziyolilar uchun yaratilgan oddiy kitoblarga ajratish mumkin. Badiiy qo'lyozmalarni tavsiflovchi jihatlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularni yaratishda avvalo yaxshi, sifatli qog'oz tanlangan, ba'zida matn va hoshiya uchun turlicha qog'ozdan foydalanilgan. Matni yozish uchun xat turini tanlashda asar mazmuni inobatga olingan, odatda kitobning birinchi varag'idagi unvonlarda, mayda sarlavhalarda foydalanilgan hamda matn yozilgan xat turi boshqa-boshqa bo'lgan. Matni sahifaga joylashtirish puxtalik bilan amalga oshirilgan: asosiy matn sahifaning o'tarog'ida, ikki-to'rt ustunda yozilgan. Ayrim asarlarda, ko'pincha, sharh va tafsirlarda qo'lyozma hoshiyalariga, satrlar orasiga ham matn yozilib, uni asosiy matndan ajratish uchun turlicha xat turidan foydalanilgan. Unvonlar, sarlavhalar matni ham bezatgan: bunda harflarning chetiga tilla bo'yog' yuritilib, rangli chiziqlar bilan aylantirilgan, ayrim qo'lyozmalarda butun sahifadagi satrlar orasi shu kabi bezaklar bilan to'ldirilgan. Badiiy qo'lyozmalarda unvonlar ikki qat'iyl shaklida tasvirlangan: yumaloq medalyon shaklidagi hamda ikki sahifaga yoyilgan sarlavhaga o'xshash naqshinkor unvonlar, ular mualliflarning ism-sharifi va asar nomi ham keltirilgan. Badiiy qo'lyozmalarda lavhalar juda nafis tasvirlangan, odatda, uning markazida naqsh bilan mohirona o'rab olingan asar avvalidagi kichik parcha joylashtirilgan. Bundan tashqari, lavhalar qarganda kichik hajmi bezak – kichik unvonlar qo'lyozmaga alohida bezak berib turgan. Sharq kitobat an'anasiga ko'ra, sahifa yuqori qismining uchdan yoki to'rtidan birini egallagan, asar boshida, ba'zan bob boshida kelgan. Hoshiyalar qo'lyozmada aks etgan boshqa badiiy bezaklarga uyg'un ravishda tilla yoki kumush jimjimalar bilan to'ldirilgan g'irih, islmiy yoki boshqa naqsh turlari bilan bezatilgan, ba'zan vogueband miniatyuralar, hatto alohida qiyofalar surati bilan boyitilgan. Badiiy muqova qo'lyozma kitobning qimmatini belgilaydigan asosiy jihatlardan birini ifodalagan.

Badiiy qo'lyozma kitobat san'atining rivojlanishi, o'z navbatida, moddiy ta'minot bilan bog'liq bo'lib, bu holat kitobat jarayonidagi uslub va yo'nalishlarni belgilashda muhim omillardan biri hisoblangan. Xat uslublarining qo'llanilishi, suratlarining rangi va yo'nalishi, tasvirlanayotgan bezak unsurlari boshqaruvdagi hukmron doira mafkurasiiga mos bo'lishiga har doim harakat qilib kelingan. Kitobat san'atidagi qiymati baland bo'lgan san'at turi asosiy madaniyat markazlarida, yuqori darajadagi homiylik ostidagina rivojlangan bo'lgan. XIV asr oxiri – XV asr davomida Markaziy Osiyoda markazlashtirgan davlatning yuzaga kelishi iqtisodiyot rivojiga, karvon yo'llari tiklanib, savdo-sotiqning kengayishiga, xunamandchilik va qishloq xo'jaligining o'sishiga, madaniy-ma'naviy yuksalishiga, jumladan, kitobat san'ati Movarounnahr va Xuroson madaniy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etishiga turki bo'ldi. Bu davrda kitobat san'ati rivojlanishi hukmdorlarning ma'naviy me'rosni qadrlash va ehtiyoj qilishga intilishlari, kitobga shaxsan qiziqishlari, kitobga bo'lgan e'tibori orqali xalq oldida humnarga loyiq bo'lishga harakat qilganligi, turli davlatlar madaniy markazlari bilan doimiy aloqalarining keng yo'lga qo'yilgani hamda shahar madaniyatidagi yuksalish bilan chambarchas bog'liqdir. Ilim-fanga, mumtoz she'rriyat va san'atga qiziqishning, kitoblarga bo'lgan talabning ortishi natijasida qo'lyozma kitob tayyorlash jadalilik bilan rivojlanib, asla-sekin badiiy ijodning yetakchi sohalaridan biriga aylandi. Ayni vaqtda Sharq mamlakatlarida shahar madaniyati rivojlanishi jamiyatdagi aslzoda kishilarning dunyoviy mazmundagi, tarixiy-qadramonlik, lirik muhabbat va falsafiy-axloqiy mavzulardagi mumtoz sharq she'rriyati ijodkorlarining asarlarga qiziqishini kuchaytirdi, she'rriy bayozlar, zamonaviy ijodkorlarning g'azallar majmui, lirik va falsafiy-axloqiy asarlarni ifodalagan alohida kitoblar yaratila boshladi.

Qur'oni karim hamda diniy mazmundagi asarlar odatda yirik o'lehamdagi xat turlari – kufiy, nasx, rayhoniy yoki suls xatlarida bajarilgan; ilmiy, tarixiy, adabiy-badiiy asar matnlari XIV asrgacha nasx, ta'liq xatlarida ko'chirilgan. Nasx va ta'liq xatlari asosida hosil qilingan nasta'liq xati dastlab hashamdor qo'lyozmalarda foydalanilgan va asta-sekin ommalashtirib, XIV oxirlari – XV asrdan asosiy xat turiga aylanadi, nasx, suls xatlari diniy mazmundagi asarlarda hamda sarlavhalardagina ishlatiladi. Ko'p joyni talab etmaydigan nasta'liq xatining keng qo'llanilishi kitob hajmi va o'lehamning kichrayishiga, sahifalarga bezak berishda yangi usullarning paydo bo'lishiga olib keladi. Dunyoviy mazmundagi nazmiy asarlarda miniatyuraning nafis jihatlari bilan badiiy uyg'unlik kasb etib, badiiy qo'lyozmalarda ham bezak sifatida muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan.

Sharq xalqlari islom dini qoidalaridan kelib chiqib, kitobni bezatishda, asosan, vogueband tasvirlardan emas, o'simliksimon, epigrafik naqshlardan, geometrik shakllardan iborat bezaklardan foydalanib kelishgan. Amir Temur va Temuriylar davri kitobat san'atida geometrik shakldagi naqshlar ikkinchi darajali hisoblanib, murakkab shakldagi, bir-biriga chirmashgan naqshli yozuv, vogueband tasvir asosiy bezaklardan sanaladi. XV asrdan boshlab yaratilgan qo'lyozmalar yuksak saviyasi, xat turi xususiyatlari, badiiy bezak ziyoratlari, uning qimmatini

belgilovchi asosiy bezaklardan – miniyura, naqshlar va go'zal husnixatning mavjud bo'lganligi bilan kitobat san'atida alohida ajralib turadi.

Badiiy qo'lyozmani yaratuvchilar – turli soha ustalaridan iborat bir guruh saroy kutubxonalardagi ustaxonalarga jalb etilgan holda faoliyat yuritgan bo'lsa, kitobat jarayonida ish tirok etuvchi ustalarning boshqa bir guruhlar alohida birlashib, ziyolilar va oddiy aholidan iborat kitobxonlar uchun shaxsiy tariqda ishlagan. Chunki yuqori lavozimni shaxslar buyurtmasi bo'yicha tayyorlangan bezaklarga boy kitoblardan tashqari, adabiyot, ilm-fan namoyondalari va kitob ishqibozlari uchun mo'ljallangan oddiy kitoblarga ham talab yuqori bo'lgan.

Dastlabki davrlarda kitoblarning katta qismini tashkil etgan diniy mazmundagi asarlarning qo'lyozma nusxalari asosan xattot mehnati natijasida yaratilgan, keyinchalik XV – XVII asrlarda badiiy qo'lyozmalarni yaratishda turli mutaxassislar – qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahloflarning mahorat va qunt bilan ishlashi talab etilgan. Bundan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida mehnat qilgan olin qazuvcilar, loklovchi pardozchilar, charrdan na'fs bezak kesuvchilar, qog'oz, lok tayyorlovchilar va boshqa ustalar ham kitobat jarayoniga o'z hissasini qo'shishgan. Ularning kitob yaratishga qaratilgan jamoaviy faoliyati madaniy markazlar orasidagi ijodiy tajriba almashishlarga hamda ancha oldin qo'llanilgan an'analarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Ular ijodiy mehnatida o'zaro izchillik va mutanosiblikning mavjudligi qo'lyozma kitob uslubidagi yagonalik, yaxlitlik, texnik jihatdan mukammallikni ta'minlagan.

Kitobat jarayonida asosiy ish xattot tomonidan bajarilgan: u kitobni badiiy xat turi bilan ko'chirgan, zarur hollarda tahrir qilib, ayrim kichik o'zgartirish va qo'shimchalar ham kiritib borgan. Avvalo matnini yozish uchun yaxshi qog'oz tanilgan. XV – XVII asrlarda Buxoro va Samarqand qog'oz ishlab chiqarishning yirik markazlaridan bo'lgan. Badiiy qo'lyozmalar uchun, odatda, qog'ozning ikki turi – “qog'oz abreshimiy” (aralashmalar qo'shilmasdan faqat ipakdan tayyorlangan juda pishiq, chiroyli va silliq qog'oz) va “qog'oz nimkatoni” (ipak va kanop tolasining taxminan ellik foiz aralashmasidan tayyorlangan pishiq, salmoqli qog'oz) ishlatilgan. Xattotning matn ko'chirishida siyoh, qamish qalam, mistar (chiziqsiz qog'ozga xat yozganda satrlar to'g'ri chiqishi uchun qog'oz tagiga qo'yiladigan ip tortib tayyorlangan qog'oz), qalamqati (qamish qalamning uchini kesish uchun suyakdan yasalgan maxsus ish quroli), siyohdon va boshqa asboblari ish quroli hisoblangan. Ish qurollari saqlangan maxsus qalamdonda xato yozilgan harflarni yuvish uchun kichkina yumshoq abr (bulut – gubka), siyohdonga solishga mo'ljallangan bir qancha “ipak los” ham bo'lgan.

Xattot qo'lyozmani ko'chirishga kirishishdan avval muqovalanishga mos tarzda qog'oz dastalarni tayyorlab, varaqda satrlar necha qator bo'lishi, matn qanday joylashtirilishini aniqlagandan so'ng, mistardan foydalangan. Mistar qalin kartonga matnning yozilish tartibini aks ettirib, oralqlari bir xil bo'lgan yomma-yon yoki qiya qilib ipak iplarni tortib tuzilgan. Xattot mistarni qog'ozning ostiga

qo'yib, qo'li bilan bosganda, qog'ozga iplarning izi tushgan, bu izlar bo'yicha matn ko'chirilgan.

Xattot ish jarayonida miniyurada aks etadigan voqeband tasvirni belgilab, tegishli sahifalarda bo'sh joylarni qoldirgan va matnning o'sha parchasini yozmasdan ketgan. Musavvir o'zi yaratayotgan tasvirda xattot tomonidan qoldirib ketilgan matn parchasini yozish uchun joy ajratib, to'g'ri burchakli chiziqlar bilan hoshiyalagan hamda o'sha joyga miniyurada aks etgan tasvirni ifodalovchi parchani qo'shib qo'ygan. Miniyuraga birlashtirilgan matn parchasi tasvirni izohlash bilan birga, sahifalardagi matn bilan miniyura orasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Musavvir xattot tomonidan bo'sh qoldirilgan sahifa yoki yarim sahifa o'rinlarni voqeband tasvir bilan bezashda dastlab nozik qalam bilan rasmining badiiy tuzilish negizini chizib, ingichka mo'yqalam yordamida rangli bo'yog, lozim bo'lganda olin va kumush bo'yog bilan ziynatlagan. Tasvir, o'quvchi matn bilan tanish bo'lmaydan turib, asarning ayrim epizodlari va umumiy mazmuni haqida tasavvur etish imkonini bergan. Asar mavzusiga ko'ra chizilgan tasvir kitob bezagi bo'lishi bilan birga, musavvir yashab, ijod etgan davmi, u xizmat qilgan ijtimoiy doiraning ma'kurasini ham ifodalagan.

Musavvir o'z ishini yakunlagach, ishini lavvoh davom ettirgan. U qo'lyozma kitobni badiiy bezatishda naqqosh va ziynatlovchi vazifasini bajaradi. Bu ish o'z ustasidan nozik did, jiddiy mahorat va ish jarayonida foydalaniladigan materiallarni tayyorlashga oid bilimni talab etgan. Uning sahifani bezatish bo'yicha vazifasi quyidagicha bo'lgan: badiiy qo'lyozmalarda matn boshlanishi oldidan bir yoki ikki betni egallagan naqshli lavhani joylashtirgan; ko'proq o'simliksimon yoki geometrik shakldagi jinjinador naqshlar aks ettirilgan lavhani rangli va zarhal bo'yog'larida chizgan; qo'lyozma kitobda bir necha asar joy olganda, ularning har biri uchun alohida lavha ishlangan; miniyura aks etgan sahifalarda tasvirning hoshiyasini ingichka naqsh bilan bezagan; matn boshiga unvon joylashtirgan, turli ranglarda va zarhal bo'yog'larida chizilgan naqshning chetlari ingichka qora rangda aylantirib chiqilgan.

Lavvoh qo'lyozmalarda matn yozilgan oq qog'ozni hoshiya vazifasini bajaruvchi boshqa rangli qog'ozga mohirlik bilan yopishtirgan. Birikkan joylarni yashirish uchun zarhal yoki rangli bir necha yomma-yon chiziqlardan foydalangan, turli rangdagi chiziqlarning bir qismi matn yozilgan oq qog'ozga, bir qismi hoshiyaga to'g'ri kelgan.

Hoshiyalarga bo'yog'larida rang berishdan tashqari, ba'zan sof olin bilan na'fs o'simlik tasvirlari chizilgan. Ba'zida hoshiya turli ranglar bilan bo'yalgan yoki o'simliksimon naqshlar o'rni ko'proq yirik yoki mayda olin zarachalar, jinjinmalar bilan bezatilgan. Qo'lyozma xattot, musavvir, lavvoh mehnatidan so'ng sahifof qo'lliga o'tib, tayyor kitob holiga keltirilgan, qo'lyozma kitob uzoq saqlanishi uchun muqova bilan qoplangan. Muqovazozlik o'rta asrlarda badiiy ijodning mustaqil sohalaridan biri hisoblangan.

Arab yozuvidagi kitoblarni muqovallash tarixidan

Kitobni muqovallash tarixining xronologiyasi VII asrdan boshlanib, geografik jihatdan Yaman va Ispaniyadan tortib Markaziy Osiyogacha bo'lgan katta hududni qamrab oladi. Bezaklari, kelib chiqish manbolari turlicha bo'lgan muqovalarda ifodalangan o'xshashlik ularni "islom kitob muqovazozligi" deb umumlashtirish imkonini beradi. Islom kitob muqovazozligi tarixi Misrda xristian diniga e'tiqod qilgan koptlardan (arablar Misrni bosib olgandan so'ng Islom dinini qabul qilmagan misrlilar o'zlarini kopt deb ataganlar) boshlangan. Koptlar dastlab musulmonlarga xizmat qilib, ular uchun kitob tayyorlagan bo'lsa, keyinchalik bu texnologiyani ular o'rgatadi. Kopt uslubining kuchli ta'sirida shakllangan islom muqovazozligi o'ziga xos bo'lgan uslub asosida takomillashib boradi. Muqova jildidagi ilk bezaklar bo'yog bilan chizilgan, kopt qabrtoshlari va matolardan olingan oddiy geometrik shakllarni ifodalagan. Asta-sekin kopt muqovalari bezaklari texnologiyasi takomillashib, jildning ichki tomoni nafis kesilgan bezaklar bilan bezatilgan.

Turkiy xalqlarga xos muqovazozlik san'ati Sharqiy Turkiston uyg'urlariga borib taqaladi. XX asr boshlarida nemis ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida Etnologiya muzeyi (Museum für Völkerkunde) ilmiy xodimi Albert fon Le Kokomonidan Xara Xoto xarobalaridan topilgan VIII va IX asrlarga oid muqova bo'laklarida ifodalangan geometrik shakllar charrini nafis kesish orqali bajarilgan hamda rangli, zarhal charrim fon ustida aks ettirilgan. Muqova bo'laklari har ikki mintaga – Misr va Sharqiy Turkistonda nafis kesilgan bezak texnologiyasining mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

1908-yilda Rus Geografiya jamiyatining Mo'g'ul-Sichuan ekspeditsiyasi a'zosi P.K.Kozlov (1863 – 1935) tomonidan Janubiy Mo'g'ulistondagi Xara Xoto shahri xarobalaridan topilgan muqova qoldiqlarini professor S.F.Oldenbung (1863 – 1934) tahlil qilib, ularning XIII asrga oidligini aniqlagan. Ushbu muqova bezaklari charrim iplarni yopishtirish orqali bajarilgan. Jildning markazida chimmashgan chiziqlardan iborat bezak medalyon vazifasini o'taydi va uning ko'rinishi burchak qismida ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Muqovadagi shakllar bir-biriga ulangan aylanacha shakllardan hosil qilingan.

Uyg'ur turklarining islom dinini qabul qilishi, muqovazozlikning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Musulmonlar yozuv va kitobni muqaddas deb hisoblagani, kitobga bo'lgan talab ijodkorning kitobni muqovallashga va bezatishga bo'lgan qiziqishining o'rtasiga olib kelgan. Uyg'ur turklari IX asrda Abbosiylardan bo'lgan xalifa Mu'tasim Billah (833 – 842) himoyasi va homiyiligi ostida Tigr daryosi bo'yida bunyod etilgan Samarra shahriga kelib o'rnatiladi va bu san'atni islom olamiga keng tarqatadi, ular ta'sirida Iroq va Xuroson shaharlari muqovazozlik san'atining rivojlangan markazlariga aylanadi.

Tulinidlar davriga (VIII – IX asrlar) oid Islom muqovalarining dastlabki namunalardan biri katta hajmdagi (49,3x67 sm) Qur'on karim muqovasi hisoblanadi. Undagi geometrik bezaklar kopt muqovalariga o'xshash, yagona farqi jild asosi papirus kartondan emas, kedar daraxti yog'ochidan yasalgan, jild fil

suylari, turli xil daraxt bo'laklari qadab bezatilgan. Bugungi kunda ushbu muqova Berlinda Islom san'ati muzeyida (Museum für islamische Kunst) saqlanadi.

Arab muqovalari hijraning ilk asrlarida yog'och va teridan yasalgan. Ulardagi o'ta oddiy geometrik bezaklar asosan urib ishlatiladigan asboblardan yordamida tushirilgan. Qo'g'oz ishlab chiqarishning kengayishi bilan yog'och o'rniqa kartondan foydalaniladi. Bezaklarda aynan oldingi geometrik shakllarni qo'llash davom etib kelsa-da, bu shakllarning bir-biriga chimmashgan, sertugun nafis bezaklar bilan uyg'unlashgan yaxlit birliklar jildning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Kayruandagi Sidi Uqpa masjididan topilgan gorizontal ko'rinishdagi 12 ta jild ham islom muqovazozlikning ilk ko'rinishlari sifatida ma'lum. Kayruan muqovazozligi namunalaridan biri XI asrga oid bo'lib, terak yog'ochidan yasalgan jildga chivir iplarni yopishtirib, gorizontal joylashirilgan arabeska (geometrik va o'simliksimon shakllarning uyg'unlashirilgan naqsh turi) bezaklardan hosil qilingan.

Ibn al Nadim (vafoti 987 – 988) "Kitob ul-Fihrist" asarida IX asr boshlarida al-Ma'mun kutubxonasida Ibn Abul Harish, G'olib al-Ma'mun Abbosiy va boshqa tanigil muqovazozlar ishlagani; tarixchi Al-Magriziy (1364 – 1442) "Kitob ul-mavoiz val i'tibor fi zikr ul-xitot val asar" ("Turar joy va yodgorliklar to'g'risidagi hikoyalarni o'qitish va o'rgatish kitobi") asarida Salohiddin Yusuf Ibn Ayyubdan (1138 – 1193) oldin Qohiradagi Fotimiyalar kutubxonasida hashamatli muqovalar bo'lganligini, jang vaqtda ular turk askarlari uchun oyog'kiyim vazifasini o'targani haqida yozishadi.

Misr va Suriyada Mamluklar hukmronligi davriga (1250 – 1517) oid muqovalar islom muqovazozlik san'atining o'ziga xos go'zal namunalarini tashkil etadi. Mamluk muqovalarida dastlab koptlarga xos geometrik bezaklardan foydalanilgan, XIV asrdan boshlab markaziy medalyon va arabeska bezaklarni qo'llash ancha keng yoyilgan. Rangli charrim fon ustida tasvirlangan charrim kesib hosil qilingan nafis gullar, o'simliklar yoki zahallangan geometrik bezaklarning qo'llanilgani VIII – XVI asr Misr muqovalarining xarakterli jihati ifodalaydi.

Tashqi himoya vositasi hisoblangan muqovalar qo'lyozmani ifodalashda badiiy vosita sifatida kitobning qimmatini belgilaydigan asosiy jihatlardan biri bo'lgan. Arablar bilan Sharq mamlakatlarga kirib kelgan kitob muqovalarini bezatishdagi shakllar o'zida ayrim mahalliy ta'sirlarni aks ettirsa-da, XV asrgacha ushbu ko'rinishni deyarli saqlab qoladi.

Nafqat O'rta Osiyo muqovazozligining, balki Sharq xalqlari kitobat san'atining keyingi rivojlanish tarixi Temuriylar davriga borib taqaladi. Temuriylar davrida muqova bezaklarida yangi uslublarning paydo bo'lishi butun Sharq muqovazozligining keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda XIV – XV asrlarda Samarqand va Hirotda ijod etgan ustalar hamda kitobat san'atining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratgan hukmdorlar muhim rol o'ynadi. Temuriy hukmdorlar turli o'lkalardan taklif qilingan kitobat san'ati ustalarini o'z saroylarida tashkil etilgan kutubxonalariga jamlaganlar va ular mahalliy ustalar bilan birgalikda

faoliyat olib borishgan. Muqavosozlarning ustaxonalari bozorlarda ham joylashgan. Sahifalar do'koni kitob va san'at ixlosmandlari to'planadigan joy vazifasini ham o'tagan. Zayniddin Vosify bu haqda quyidagilarni yozadi: "Bir kuni Samarqandning Attorlar bozorida bir to'da sho'ir-u fozillar bilan Mullozoda Mujallid do'konida o'tirgan edik. Jildangan kitob varaqalari singari bir-birimizga inoqlik, sherozasi bilan bog'lanib, badeha va musho'ira subhatin o'rta qo'yib, sanimiy va hushdli subhat maydonida muloyiba bayrog'in baland qilib o'tirgan edik. Nogoh bozorning bir tarafida g'ulg'ula va to'polon ovozi keldi".

Temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyat faqat qo'shni bo'lib qolmasdan, uzoq vaqt davomida yagona boshqaruvga ega bo'lgan Eron, O'rta Osiyo, Kavkazda yashagan turli xalqlar va madaniy birliklarning murakkab hamda ko'p asrlik mahsuli hisoblanadi. Amir Temur tomonidan Mirdan, Eron viloyatlaridan, shuningdek, Suriya, Diyorbakirdan taklif qilingan ustalar faoliyati Shohrux mirzoning 42 yillik hukmronligi davrida va homiyligi ostida Hirotda Sharq muqavosozligini yuqori darajada rivojlantiradi. Shohrux mirzo Hirotda 50-51 yil davomida istiqomat qiladi. Samarqand davlat poytaxti bo'lsa-da, uning hukmronligi davrida Hirotda o'z hunarmandchiligi va san'ati bilan shuhrat qozongan yirik, chiroyli shaharlardan biri sifatida dastlab Temuriylarning, keyinchalik butun O'rta Sharqning madaniy markaziga aylandi. Mirzo Ulug'bek boshqaruvdagi Samarqanddan farqli ravishda, bu yerda aniq fanlarga emas, ko'proq ijtimoiy fanlarni rivojlantirishga, san'at, adabiyot va tarixga katta e'tibor qaratiladi.

Shohrux mirzoning o'g'li, islom olamida kitob shinavandasi sifatida tanilgan shahzoda Boysungur mirzo Sharq kitobat san'ati taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan saroy ilmiy muassasasi va kutubxonasiga asos soladi. Boysungurning o'zi mohir xattot va musavvir bo'lgan, turk, arab, fors tillarida she'rlar ham bitgan. 1420-yilda otasining qo'llab-quvvatlashi bilan Hirotda kutubxona tashkil etadi, saltanatning turli hududlaridan kelgan kitobat san'ati ustalari uning homiyligi va rahbarligi ostida birlashadi, keyinchalik Husayn Bayqaro, Alisher Navoiylar ham uning ishini davom ettiradi.

Ma'lumki, Temuriylar va Xitoy o'rtasida diplomatik aloqalar keng yo'lga qo'yilgan, elchiliklar natijasida nafaqat siyosiy, balki madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu diplomatik aloqalarda Hirotda kitobat san'ati ustalari ham ishtirok etishgan. Xitoy elchilari to'rt marta Hirotda kelib ketadi (1409, 1412, 1417, 1419-yillarda). Bu holat Hirotda kutubxonasi faoliyatiga ta'sir etib, unda ijod qilingan ustalar ijodida Uzoq Sharqqa xos sifatlarining paydo bo'lishiga olib keladi. 1419 - 1422-yillarda Xitoyga yuborilgan Shohrux mirzo elchiligidagi Boysungur mirzoning ikki vakilidan biri Xo'ja G'iyosiddin Naqosh (XIV asrning ikkinchi yarmi) ishtirok etib, Hirotda qaytgandan so'ng safar kundaliklarini taqdim etadi. Keyinchalik Hofizi Abdu (1361 - 1430) ushbu kundalikni o'zining tarixiy asari "Zubdat ut-tavorix" tarkibiga kiritadi.

Boysungur mirzo kutubxonasida 1420-yildan faoliyat yuritgan kitobat san'ati ustalaridan Qavomiddin Mujallid Tabriziy tomonidan muqavosozlikdagi bo'rtna tasvirli bezaklar ixtiro qilinadi. Kutubxonada ustalarining ko'pchiligi

Boysunguriy nisbasi bilan ijod qilib, kitobat san'ati durdonalarini yaratganlar. Ularga tabrizlik xattot Kamoliddin Jafar Ali Boysunguriy Tabriziy boshchilik qilgan. Jafar Boysunguriy vaqti-vaqti bilan Boysungur mirzoga ustalar faoliyati bo'yicha axborot berib turgan. Shunday axborotlardan biri 830-yil ramazon oyi/1427-yil iyun-iyul oylariga tegishli bo'lib, To'pqop saroyi kutubxonasida saqlanadi.

Hirotda bajarilgan go'zal husnixat, zahral va rangli bezaklarga ega qo'lyozma namunalarning muqovalari ushbu san'atning oltin asridan, davrning hamda ularni yaratgan yuqori malakali doraning yuksak badiiy ma'naviyatidan, shuningdek, ustalarining ajoyib ijodkor kuch, mukammal yaratuvchi bo'lganligidan dalolat beradi. Bu muqovalar barcha davr va xalqlar san'ati orasida texnik-badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda Sharq xalqlariga xos umumiy sifatlarini ifodalaydi. Umumiy matkura, diniy va dunyoviy qarashlarning badiiy madaniyat shakllanishidagi salmog'i yuqori bo'lib, Sharq ustalari o'z asarlarida ham an'anaviy, ham qo'shni xalqlarga xos bo'lgan shakl va uslublardan foydalanib kelishgan va bular Hirotda muqovalarida o'z aksini topgan.

Hirotdan tashqarida turli o'lkalarda hukmronlik qilgan Temuriy shahzodalar poytaxtdan namuna olganlar hamda shoirlar, musiqachilar, xattotlar, musavvirar, muqavosozlarga e'tibor berish, ularni turli hududlardan jalb etish bilan o'zlari hukmronlik qilgan o'lkalarning nufuzini oshirishga harakat qilganlar. Shubhasiz, mohir ustalar bilan birga, poytaxtga xos badiiy uslublarni uzoq o'lkalarga olib kelish vazifasi shahzodalar tomonidan amalga oshirilgan. Temuriylar saltanati viloyatlarida bajarilgan muqova namunalarning texnik mahorat va dekorativ uslubida Hirotda bog'liqlik ko'zga tashlanadi.

1405-yilda asos solingan Hirotda kitobat muassasasi Husayn Bayqaro hukmronlik davri Alisher Navoiy rahbarligidagi Hirotda (kitobat muassasasi) faoliyatining rivojlangan va so'nggi bosqichini o'tkazadi. Yuz yil davomida faoliyat ko'rsatgan ushbu muassasa 1507-yilda Shayboniylar tomonidan Hirotda egallanganda yo'q qilindi. Ustalarining bir qismi Yaqin Sharqning turli hududlariga tarqab ketdi va o'zlari bilan Hirotda xos badiiy uslublar olib ketdi. Muqovalar Sharqning qaysi hududida yaratilgan bo'lmasin, ularda Hirotda uslubiga xos betakrorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Bu uslublar keyingi ikki yuz yil davomida Hindiston Boburiylar davlatiga va Oltin O'rtdan ajralgan Istanbulga ijodiy ilhom bag'ishlovchi vazifasini bajardi. Hirotda uslubli XV asrdan boshqa madaniy makazlarda yaratilgan badiiy qo'lyozmalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Muqavosozlik san'ati XVI - XVII asrda ham rivojlanishdan to'xtab qolmadi. Bu davrda muqavosozlik texnologiyalari takomillashtirib, chammii istalgan rangga bo'yash imkoniyatlari kengaydi. Qora va malla ranglar bilan birga anor rang, yashil ranglarning turli tuslaridan ko'plab foydalanildi. Muqova jildining ichki tomonini bezatishda XV asrda qo'llanilgan an'analaridan foydalanildi.

Sharq kitobat san'atining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari

Sharq xalqlarining ilmi-fan va ma'naviy madaniyat sohasida yaratib qoldirgan buyuk merosi, asosan, qo'lyozma kitoblar holida yetib kelgan. Arab

Yozuvda kitobat qilingan arab, fars va turkiy tillardagi madaniy meros tufayli Sharq xalqlari ajdodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy xazinadan bahramand bo'lgan va jahon madaniyati taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olganlar. Barcha musulmonlar uchun yagona bo'lgan arab yozuvi badiiy san'at va bezaklar ifodasi uchun ham universal ahamiyatga ega hisoblangan. Albatta, uning bunday mavqei musulmonlar e'tiqodi, Qur'oni karim ushbu yozuv vositasida ifodalanganligi bilan bog'liq. Arab yozuvda bitilgan kitobat o'z rivojlanish tarixiga ega. Qur'oni karimning VIII – IX asrlarga oid ilk nusxalari arab yozuvining dastlabki shakllaridan biri kufiy xatida pergamentga yozilgan, kam miqdorda tila bilan birga turli ranglardan foydalanilgan. Ularda Sharqning qaysi hududida yaratilganligini ko'rsatuvchi alohida belgilar ko'zga tashlanmagan. Yozuv materiali sifatida qog'ozning kashf etilishi va ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi kitobat tarixida katta siljishga, kitoblarning ko'payishi, sifatining yaxshilanishiga imkon yaratdi. Kitoblar ko'payishi bilan birga yozuv an'anasi ham rivojlanib, X asr boshlarida kufiy xati zaminida muhaqqaq, rayhoniy, suls, nasx, tavqi', rigo' xat turlari yaratildi. Bu holat matnni ko'chirishda uning tavsifi, mazmunidan kelib chiqib, turli husnihat usullaridan foydalanishga, sahifalar, titul varag'i va muqova jildida yozuvli bezaklarni ifodalashga ham imkon berdi.

X – XI asrlarga kelib, Fotimiyalar (909 – 1171) va Saljuqiylar (1037 – 1194) hukmronligi davrida kitobat uslubida bir qancha o'zgarishlar kuzatildi: kitoblar geometrik shakllar bilan bezatilgan titul varag'iga ega bo'ldi, varaqlar yog'och hukmonlik davrida kitobat san'atida me'morilikka xos bezaklardan, masalan, terilgan g'ishtlarga o'xshash yoki ganchkorlikka xos bezaklardan, foydalanishga qiziqish kuchaydi. Hamadon amiri Muza'ffariddin O'zbek ibn Muhammadning (1191 – 1211) vaziri Abuqosim Horun ibn Ja'far Dindon kutubxonasi uchun tayyorlangan qo'lyozma mo'g'ullar davrigacha bajarilgan Sharq qo'lyozmalarining go'zal namunalaridan birini ifodalaydi. Tasvirlar bilan bezatilgan dastlabki Markaziy Osiyo qo'lyozmalaridan biri Ayyuqiyy (V asr) "Varqa va Gulshoh" dostonining XII asr oxiri XIII asrga oid nusxasida aks etgan miniatyura uslubi islomgacha bo'lgan davrlardagi devor tasvirlarini eslatadi.

Kitobat san'atida keyingi rivojlangan davri Eronda Xulaguiylar davri, 1295 yilda G'ozonxonning (1295 – 1304) islom dinini qabul qilishidan keyingi davrga taqaladi. Bu davrda bajarilgan qo'lyozmalar Mamluklarning madaniy markazlari Qohira va Damashqqa xos qo'lyozmalar bilan raqobatlasha olgan. Mo'g'ullar bosqini davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalariga qoq'ishiga, san'atning kengroq hududlarga tarqalishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan Mo'g'ul imperiyasining boshqa bir chekkasi Xitoy san'ati bilan to'g'ridan-to'g'ri yaqin aloqalar kuchayishini ta'minlaydi. G'ozonxon hamda Uljaytuxon (1304 – 1316) hukmronligi davrida Xulaguiylar davlati vaziri – tabib, ilohiyotchi va tarixchi Rashiddiddin (vafoti 1318) Xitoy fani, yozuvi, tarixshunosligi va tasviriy san'atidan juda hayratga tushadi. Bu vaqtgacha islom

olamida asosan grek faylasuflarining astronomiya, botanika va tibbiyotga oid ilmiy kitoblari tasvirlar aks ettirilgan. Rashiddiddinning vazirligi davrida Mo'g'ullar davlati markazlarida tasvirlarga boy tarixiy kitoblarga talabning o'rishi, mannga Dastlab ularda tiriklik belgilari ko'zga tashlanmagan, juda quruq ifodalangan. Keyinroq yirik hajmdagi dostonlar Xitoy tasviriy san'atiga xos suratlari bilan uyg'unlashtirilgan, ham yuqoridan, ham yon tomondan aniq aks ettirilgan dramatik tasvirlar bilan boyitilgan.

Xulaguiylar davlati qulagandan so'ng (1335), Jaloyirylardan (1340 – 1410) Sulton Shayx Uvaysxon (1356 – 1375) va G'iyosiddin Sulton Ahmadxon (1382 – 1386) davrida Tabriz va Bag'dod shaharlarida kitobat san'ati rivojiga e'tibor beriladi.

Arab tilida bitilgan kitobat san'atining keyingi rivojlanish davri Amir Temur va Temuriylar, ular tomonidan turli mintaqalardan Movarounnahr va Xurosonga olib kelingan kitobat san'ati ustalari nomi bilan bog'liq.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqandda Amir Temur kutubxonasining ko'p sonli nusxavirlariga mashhur bag'dodlik usta Abdullay boshchilik qilgan. Amir Temurning katta o'lchamdagi kitoblarga qiziqishi tarixchi Qozi Ahmad Qumiy (tav. 1546) "Gulistoni humar" asarida o'sha davrning mashhur xatoti Umar O'qta to'g'risida hikoyat orqali bayon etiladi. Xatoti Qur'oni karimni juda mayda xalda bitib, Amir Temurga mayda harflar bilan bitishga qanday jur'at etding, – deydi. Shundan so'ng xatoti Qur'oni karimning boshqa bir yirik nusxasini tayyorlagan, undagi har bir harfning kattaligi yarim gazga (0,71 metr) teng uzunlik o'lchov birligi) teng bo'lgan. Mushafni tayyorlash nihoyasiga yetgach, xatoti uni katta aravaga ortib, Amir Temur huzuriga borganda, sohibqiron o'z ayonlari bilan peshvoz chiqib kutib oladi va munosib hadyalar tuhfa etadi. Qozi Ahmad Qumiy mazkur kitobning bir varag'ini Mavlono Malik nomli shaxsda ko'rganligini ham keltirib o'tadi.

Ibn Arabshoh (vafoti 1450) o'z kitobida Amir Temur saroyidagi madaniy muhit to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, "Amir Temurning "devoni munshi"si, "sirtlar kotibi" mavlono Shamsiddin zamonasining qozisi, o'z davrining fozili bo'lgan. Qalamining tig'i o'z iqlimlari fathida (Amir Temur) nayzasidan ham o'tkir edi. Temur o'lgandan keyin u (bu ishdan) o'zini chetga olib, adabiyot bisotini yig'ishirib: "mening qiymatimni biladigan odam dunyodan o'tdi va endi men boshqalar xizmatida o'z hurmatimni kelkazmayman", – degan ekan. Ibn Arabshoh Amir Temur davrining eng mohir xatotlari sifatida atloqli xatoti Xoja Mirali Tabriziy (vafoti 1404) nasx va ta'liq yozuvlari asosida "xalalar kelinchag" deb atalib, she'riy, tarixiy asarlar qo'lyozmalari uchun asosiy yozuv turiga aylandi.

Amir Temurdan so'ng Temuriylar hukmronligi davrida kitobat san'atiga e'tibor yanada oshdi. Temuriylar davlatining Movarounnahr va Xurosonga bo'linishi mintaqadagi madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, biroq hukmdorlar va shahzodalarning ilm-fan, madaniyat va san'atning turli sohalariga homiyligi madaniy-ma'naviy hayotning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda Sheroz (Shohrux mirzo (1405-1447) va uning o'g'illari davrida), Hirot (G'iyosiddin Boysungur ibn Shohrux (1397-1433) va Sulton Husayn Bayqaro (1469-1506) davrlarida) Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining siyosiy va madaniy markazlari sifatida tanildi.

Bugungi Afg'oniston, Eron hamda O'rta Osiyo bir davlat sifatida Temuriylar tomonidan idora etilgan uchun turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi madaniyati qisman Xurosonda, ayniqsa poytaxti bo'lmish Hirotida taraqqiy etib, uning madaniyati ayni paytda uning madaniyatining eng portloq davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Hirot bilan bir qatorda, Buxoro, Tabriz, Mashhad, Sheroz, Bag'dod kabi san'at markazlarida ham Temuriylar davri badiiy qo'lyozmalarining eng go'zal namunalari yaratildi.

Temuriy hukmdor Shohrux mirzo davrida mamlakat markazida kitobat san'atining Hirot uslubini yaratishi uchun ilk qadamlar qo'yildi va Boysungur mirzo hukmronligi yillarida Hirot kitobat san'ati markazi sifatida rivojlangan. Temuriylar saroy kutubxonasi o'zida kitob ishlab chiqarish markazini ifodalagan bo'lib, adabiyotlarda unga Akademiya, nigorxona sifatida nisbat beriladi. Boysungur mirzo kutubxonasida kitobat san'atining turli soha mutaxassislari to'planib, kitobat san'ati durdonalarini yaratganlar. Ustalarining ko'pchiligi Boysungur mirzo bilan ijod qilgan. Kutubxonaning bosh xatoti Kamoliddin Jafar Ali Boysunguriy Tabriziy (vafoi 1433) vaqti-vaqti bilan Boysungur mirzoga ustalar faoliyatiga bo'yicha axborot berib turgan. Ulardan birining sanasi 830/1427-yil bo'lib, Turkiyadagi To'pqopli saroyida saqlanadi va kutubxonada faoliyat yuritgan kitobat san'ati ustalaridan 25 tasining nomi keltiriladi.

Hirot kutubxonasida 1429 - 1431-yillar mobaynida badiiy jihatdan yuksak darajada bajarilgan ko'plab qo'lyozmalar yaratiladi. Boysungur mirzo vaftidan so'ng kutubxona katta o'g'li Aloudavla ixtiyoriga o'tadi. 1447-yil Shohrux vaft etgach, Mirzo Ulug'bek ustalarining bir qismini Hirotga xos ijodiy uslublarni davom ettirish uchun Samarqandga olib ketadi, binoq 1449-yilda Mirzo Ulug'bek o'limidan so'ng ustaxona ishi barham topadi.

Temuriylar kitobat san'ati Hirotida Sulton Husayn Bayqaro va uning vaziri Alisher Navoiy (1441 - 1501) yashagan davrda yanada yuksak rivoj topdi. Xuroson, ayniqsa, Hirot olimlar, betakor ijodkorlar bilan gavjum bo'lgan, har bir kishi muayyan hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Dastlab Mavloni Fasihiddin sohbdor Husayn Bayqaro kutubxonasining boshqaruvchisi bo'lgan. Mavloni Hoji Muhammad naqgosh (vafoi 1507) avval Husayn Bayqaro, so'ng 1499-yilgacha Alisher Navoiy kutubxonasida boshqaruvchilik qilgan, undan so'ng Alisher Navoiyning kutubxonasini Xondamir (vafoi taxm. 942/1535 - 1536) boshqaradi. Mavloni Hoji Muhammad 1498-yil Hiroti tark etib, Balxida Badiuzzamon

kutubxonasini boshqargan. O'rta asrlarning buyuk san'atkori, miniatyura san'atining vakili Kamoliddin Behzod (1456 - 1537) dastlab 1500-yili Husayn Bayqaro saroyidagi kutubxonaga, keyinchalik, Hirotidan Tabrizga ketgach, shoh Ismoil I (1502 - 1524) kutubxonasiga boshchilik qilgan.

Saroy kutubxonalardan tashqari, sufiylar xonaqohini ham kitoblar yaratiladigan muassasa sifatida keltirish mumkin. Muhammad Porso nomi bilan mashhur so'fiy Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1345 - 1420) XV asr boshlarida Buxoroda xalq uchun umumiy kutubxona tashkil qiladi va u XIX asrgacha faoliyat yuritadi.

Ko'chmanchi o'zbeklardan bo'lgan Shayboniyxon (1500 - 1510) 1499-yilda Movarounnahrni, Sulton Husayn vaftidan so'ng 1507 yilda Hiroti egallaydi. Xuroson avval Shayboniy (1500 - 1601), undan so'ng Safaviylarga (1502 - 1736) o'tishi bilan Hirot o'zining avvalgi mavqei yo'qotib, madaniy markaz Buxoro va qisman Samarqandga o'tadi. Bu holat kitobat san'atining rivojiga ta'sir qilmasdan qolmasdi. Ko'plab olim, shoir, musavvir va xatotlar Hirotidan boshqa shaharlarga ko'chib ketadilar, ana shu paytda Hirot kitobat san'ati ustalari qatori xatot Sulton Ali Mashhadiy (1437 - 1520) shogirdlari bilan Buxoroga kelib, Hirot kitobat maktabining an'analari davom ettiradilar. Ularning O'rta Osiyo kitobat san'atining keyingi rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir.

XV asr oxiri - XVI asrda Sirdaryodan to Markaziy Afg'onistongacha bo'lgan katta hududni egallagan Shayboniy sulolasi hukmronligi davrida XV asr maktabi o'z an'alarini davom ettirib keldi, Hirotidan kelgan ustalar o'z ijodi bilan mazkur davr madaniyatini boyitib bordi. Shayboniyxonning kelib chiqishi begona bo'lmagan, yoshligida Buxoroda ta'lim oladi, turk, arab, fors tillaridan xabardor bo'lgan, xatotlik san'atini o'rgangan va she'rlar yozgan.

Xorazmlik Muhammad Solihning (1455 - 1535) "Shayboniyxon" asari o'sha vaqtda o'zbek tilida yozilgan mashhur yirik tarixiy asarlardan biri hisoblanadi. Shayboniy saroy kutubxonasi haqida Hasan Nisoriy (XVI asr) "Muzakkir al-ahbob" nomli tazkirasida Erondan kelgan ustalarining kutubxonadagi faoliyati to'g'risida qisqacha ma'lumot keltiradi. Kutubxonaga turli davrlarda 3 nafar kitobdor rahbarlik qilgan: Mavloni Sulton Mirak al-Munshiy, Mavloni Abdulloh al-Munshiy va Mir Husayn al-Husayniy an-Nasafiy. Ularning qo'l ostida uch musavvir va to'g'qiz usta ishlagan. Mulli Muhammad Shodi "Fathnoma" asarining 1507-yillarga oid nusxasi (Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti (TDSHI) qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar markazining 5369-raqamli qo'lyozmasi) Shayboniy hukmronligining dastlabki davrlariga oid badiiy qo'lyozma namunalari bilan hisoblanadi.

Shayboniyxon vaftidan so'ng 1533-yilgacha Samarqand, 1533 - 1539-yillarda Buxoro poytaxti deb tan olingan. 1540 - 1551-yillarda Samarqand va Buxoroning maqomi bir xil bo'lgan. 1520 - 1530-yillarda Buxoro shahrida kitobat san'atining rivoji Ubaydullaxon (1533 - 1540) nomi bilan bog'liq bo'lib, Hirotga bir necha marra yurishlar qilganda, u yerdan kitobat san'ati ustalarini olib ketadi.

Shu davrdan Buxoro kitobat san'ati Hirot uslubini ta'siriga tushadi. Mirzo Muhammad Xaydar (1499 – 1551) Ubaydullaxon to'g'risida shunday yozadi: "Ubaydullaxon yetti qism birla xat futur erdi ... aning tiriklik vaqtida Buxorodagi fuzalo va bulag'olar, xaloyiq va aloyiqlarning hammasi Hirotidin Mirzo Sulton Husayn zamonin yod berur".

XVI asr o'rtalarida Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon I (1540 – 1550) kutubxonasi faoliyat yuritgan. Abdullaxon soniy (1583 – 1598) hukmronligi davrida uzoq davom etgan urushlardan (1557 – 1582) so'ng Movarounnahni birlashtiradi, Toshkent va Turkistoni bo'ysundiradi, 1584-yilda Badaxshon va Ko'lob, 1588-yilda Hirot egallaydi. Hirot ustalarining Buxoroda Abdullaxon soniy kutubxonasidagi faoliyati O'rta Osiyo kitobat san'atining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Kitobat san'ati ba'zan an'anaviy, ba'zan yangicha uslublarni o'zlashtirgan holda rivojlanishni davom ettirdi. Bu davrdagi an'anaviylik Xuroson va Movarounnahrga xos umumiy madaniy merosga, Temuriylar davrining boy madaniyatiga qiziqishga asoslangan edi. 1520 – 1590-yillarda Buxoro kitob miniaturalarining uch yo'nalishini qayd etilgan: Hirot uslubini, Hirot-Buxoro uslubini va Buxoro uslubini.

Kitobat san'atida yangicha uslublarning yaratilishiga 1570 – 1590-yillarda boshqa o'lkalar bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. XVI asrgacha O'rta Osiyo san'atida fors madaniyatining ta'sirini kuzatish mumkin bo'lsa, Safaviylar shia mazhabini rasmiy ravishda tan olgandan so'ng Eron bilan badiiy san'at sohasidagi aloqalarga chek qo'yiladi. Qo'shni davlatlar, ayniqsa, Shimoliy Hindiston Boburiylar davlati bilan badiiy aloqalar mahsuloti bo'lgan yangi qo'lyozmalar turkumi paydo bo'ladi. Buning sababi Boburiylar asli Movarounnahdan bo'lganligina emas, O'rta Osiyo va Shimoliy Hindiston hududlarida tarixiy taraqqiyotning sharoitlari, ijodkorlarning badiiy qarashlari va xalqning talakkur doirasi bir-biriga yaqin edi. 1570 – 1580-yillarda Abdullaxon soniy va Boburiy hukmdor Akbar (1556 – 1605) o'rtasida diplomatik aloqalar keng yo'lga qo'yildi, natijada madaniy sohada shoirlar, olimlar, ustalar o'rtasida safarlar uyushtirildi. O'sha davr O'rta Osiyo kitobat san'atida ham hind uslubiga xos jihatlarni ko'zga tashlanadi.

XVII asrda Asharxoniyalarning (1601 – 1753) hokimiyatga kelishi mamlakatning ijtimoiy hayotida o'zgarishlarga sabab bo'lmadi. XVII asrning birinchi yarmi va o'rtalarida madaniy sohada birmuncha ijodiy yutuqlarga erishildi, Samarqand va Buxoroda yirik qurilishlar bo'ldi (Registon, Labi hovuz), saroyda she'rriyat, tarixnavislik, musiqa rivojlandi, kitobat san'atiga homiylik qo'llab-quvvatlandi. Buxoroda Asharxoniy Imomqulixon (1611 – 1641) kutubxonasi faoliyat olib borgan ikki kitobdorming nomi ma'lum: Mirzo Yodgor Kitobdor va Mirzo Husayn Kitobdor.

XVII asrning birinchi yarmida Buxoro kitobat maktabidagi ustunlik vaqitinchalik o'z o'rnini Samarqand maktabiga bo'shatib beradi. Bu davrda Samarqandda Muhammad Murod Samarqandiy va Muhammad Shariflar ijod qilishgan, badiiy ijodda satira aks etgan realistik uslub ustun bo'lgan.

XVII asr kitobat san'atining rivojlanish bosqichidagi yangi davr bo'ldi. Abdulazizxon II hukmronligi davrida (1645 – 1680) saroy kutubxonasi ancha rivojlanadi. Abdulazizxon II saroy kutubxonasida yaratilgan qo'lyozmalar olinganidan ancha o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davr kitobat san'atidagi o'ziga xoslik avvaldan mavjud badiiy yo'nalishlarni saqlab qolgan holda, temuriylar, safaviylar va hind uslublarining qorishganligida ko'zga tashlanadi. Badiiy qo'lyozmalar doirasini avvalgidan Sharq she'rriyatining mumtoz asarlari, tarixiy asarlar, ba'zan tabiiy fanlarga oid risolalar tashkil etgan. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodiga, afsonaviy yoki ibratomuz-maishiy syujetlarga murojaat qilish ijodkorlar orasida keng yoyildi. Mumtoz yo'nalishga amal qiluvchilar orasida esa romanitk uslub ustun bo'lgan. Bu davrga kelib Buxoroda ko'plab hindlar yashay boshlagan, ular qimmatbaho toshlar, atyorlik mahsulotlari, matolar, bo'yoqlar, oltin iplar bilan savdo qilishgan. Uchinchi yo'nalishda aynan hind uslubiga murojaat qilinib, kitoblarda hind buyumlariga xos bezaklar o'z ifodasini topgan.

XVIII asr O'rta Osiyo uchun, parokanda va beqaror vaziyat tufayli, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan inqiroz asri bo'ldi. XVIII asr oxiri XIX asrlarda hududda uchta davlat – Buxoro amirligi, Xeva va Qo'qon xonligi mavjud edi. XVIII asr oxiri XIX asrda siyosiy barqaror vaziyat iqtisodiy va madaniy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda Qo'qon, Toshkent kabi shaharlar madaniy, iqtisodiy markazlarga aylandi.

XVIII asrdagi tanazzuldan so'ng XIX asrda kitobat san'ati rivojlanishni davom ettirdi. O'rta Osiyoning qadimiy ma'rifat markazlari – Buxoro va Samarqanddan tashqari, Xivada Muhammad Rahim I (1806 – 1825) va Muhammad Rahim II (1865 – 1910) homiyligida, Qo'qon xonligida usta Muhammad Sharif Dabir boshchiligidagi kitobat san'ati rivojining yangi davri boshlandi, kitobat san'ati ustalari qo'lyozma kitoblarni bezatishda o'ziga xos muvaffaqiyatga erishdi. Qo'lyozma kitoblar uslubiga xalqning siyosiy qarashlaridagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyo o'zining tashqi aloqalarida Sharq o'lkalariga ko'proq e'tibor qaratishi natijasida qo'lyozma kitoblar bezaklarida bu o'lkalarning ta'siri sezila boshladi. An'anaviy kitob ayiriboshlash davom etib, qator Sharq mamlakatlarida kitob tayyorlashning rivojlanishi bilan bu mamlakatlardan O'rta Osiyoga kitob yetkazib berish kuchaydi. O'rta Sharqning qator davlatlari uchun Bombay, Kanpur, Laknau, Lahor kitob eksport qiluvchi markazlarga aylandi.

XIX asrga kelib, ayniqsa, O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kuchaya borgan sari madaniy hayotda yana o'zgarish ro'y berdi. Turkiston general gubernatorligining tashkil topishi kitobat san'atida yangi bosqichni boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangi o'zgarishlar O'rta Osiyo qo'lyozmalarining tashqi ko'rinishiga ta'sir o'tkazdi. XVIII – XIX asrlarda yaratilgan qo'lyozmalar saviyasi va ishlatilgan ashyolari bilan ajralib turadi. Zamon ko'p miqdorda arzon bo'lgan kitoblarni ishlab chiqarishni talab qila boshladi. Kitobni arzon qilish uchun yangi materiallarni ishlatish urf bo'ldi. Arzon materiallarning ishlatilishi qo'lyozma kitob sifatining buzilishiga olib kelmadi,

balki o'sha davrga mos ravishda o'ziga xos uslub yaratildi. Qo'lyozma kitoblar bir xil o'ltam va ko'rinishga ega bo'ldi, badiiy bezatish umumiy darajasi butunlay tushib ketdi: ishlatilgan materiallar, ziynat va bezaklar o'taniyona, ammo yetarli san'at asari va ilm-fan uchun bemaol foydalansa bo'ladigan manba saviyasida yaratildi. Dastlabki va so'nggi varaq ko'rinishining soddalarhvi, ichki jildida bezakning yo'qligi, ancha arzon materiallardan qo'llanilganligi bu davr qo'lyozmalariga xos xususiyatidir. Chamm muqovalar o'rmini yarmi chamm muqovalar egallaydi. Muqova jildi uchun bo'yalgan va loqlangan qog'oz qo'llaniladi. Faqat Xorazmda chamm muqovalar yasaldi, boshqa hududlarda muqovaning o'zak qismi qoplamasi chammdan bo'lgan. Bu davrda ipak va yarmi ipak qog'ozlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan edi, qog'ozlar chiqitil paxtadan tayyorlangan. Ko'proq fabrika qog'ozlaridan foydalanilgan.

XX asrning dastlabki yillari O'rta Osiyoda qo'lyozma kitob yaratishning oxirgi davri bo'ldi. XIX asrning so'nggi choragida O'rta Osiyoning yirik madaniyat markazlari bo'lgan Xeva, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, va boshqa bir qator shaharlarda boshxonalar vujudga kela boshladi va asta-sekin qo'lyozma usulida kitob ishlab chiqarishni butunlay siqb chiqaradi. Kitobga bo'lgan ehtiyoj asrlar davomida qo'lyozma kitoblar hisobiga qondiril kelingan, lekin bu kitoblarning tayyorlanishidagi qiyinchiliklar ularni ko'plab nusxada tarqalishiga imkon bermagan.

Nazorat savollari

1. Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. Arab yozuvidagi kitoblarni muqovalash tartibi xususida nimalarni bilasiz?
3. Sharq kitobat san'ati tarixiga oid ma'lumotlar keling.
4. Sharqda kitobchilik ishi qanday jarayonlarni o'z ichiga olgan edi?
5. XVI – XIX asrlarda O'rta Osiyoda kitobat sohasi qanday taraqqiy etgan?

Adabiyotlar

1. Manbashiunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D. Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Pedersen J. The Arabic Book. Translated by Geoffrey French. – P.: Princeton University Press, 1984.
3. Axmedov B. Uzbekiston xalqlari tarixi manbalari (kadimligi va urta asrlar). – T., 1992.
4. Ismailova Z. M. Искусство оформления среднеазиатской книги XVIII – XIX веков. – T., 1982.
5. Муродов А. Урта Осиё хаттоғлик санъати тарихидан. – T.: Фан, 1971.
6. Нарзуллаев Н. Манбашинослик асослари. Дарслик. – T.: Navro'z, 2020.
7. Халидов А. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – M., 1985.

14-Mavzu: Markaziy Osiyo tarixiga oid arab tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar

Reja:

1. Arab yozuvidagi dastlabki yozma yodgorliklar (Qur'oni karim, tafsir va hadislar)
2. Markaziy Osiyo tarixiga oid arab tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar
3. O'zbekistonda saqlanayotgan arab yozuvidagi yozma yodgorliklar

Tayanch ibora va tushunchalar: *Qur'oni karim, arab tili, Xuroson, Movarounnahr, ilmiy va adabiy til, fan olimlari, hadislar to'plami, bitiklar, Nashariy, qadimgi nomlar, yozma yodgorliklar, ilm-fan taraqqiyoti, tarix sahifalari, Bag'dod, Somoniyalar, Sharqshunoslik instituti.*

Arab yozuvidagi dastlabki yozma yodgorliklar (Qur'oni karim, tafsir va hadislar)

Arab tilidagi manbalar dastlab og'zaki ijod asosida vujudga kelgan va ular islomdan ilgari zamonalarga boradi. Arab tilidagi manbalar boshqa tillardan arab tiliga tarjima qilish asosida rivojlangan. Arab tilidagi manbalar ilk islom davri ijtimoiy fikr va adabiy ijod asosida vujudga kelgan.

VII–VIII asrlardagi siyosiy o'zgarishlar (arab davlatчилиги) ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, turli element (madaniyat)lar integratsiyasi (til, madaniyat, diniy aloqalar qorishuvi) oqibatida arab tili katta hududda asosiy vositaga aylandi. Shu asosda arab tilida yozilgan asarlar soni ortib bordi. Bizgacha yetib kelgan arab tilidagi eng qadimgi kitob Qur'oni karim nusxalaridir.

IX–XII asrlarda Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, bu yerda qadimiy an'analardan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar – astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo dorishtunoslik, jug'rofiya kabi qator ilmlar rivoj topdi.

Darhaqiqat, o'sha davrlarda Sharqda islom ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangan. Bu haqda shveytsariyalik mashhur sharqshunos Adam Meisning "Musulmon renessansi" asaridan ma'lumotlarni olish mumkin.

IX–XI asr musulmon madaniyatidagi umumiy madaniy yuksalish Movarounnahr va Xuroson olimlari ijodida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ellinistik davrning oxirlarida fan va madaniyat o'chog'i Mising Ikkandariya shahriga to'g'ri kelsa, musulmon madaniyatining "oltin davri" hisoblangan IX–XI asrlarda fan va madaniyat rivoji Xuroson hamda Amudaryoning o'rtidagi o'lka – Movarounnahrda yoki zamonalariy islohl bilan aytganda, O'rta Osiyoda ko'chib o'tdi.

O'sha davrlarda O'rta Osiyodan Muhammad al-Xorazmiy (783 – 850), Ahmad al-Farg'oni (tax. 798 – 865), Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810 –

870), Muhammad at-Termiziy (824 – 892), Abu Nasr al-Forobiy (873 – 950), Abu Rayhon al-Beruniy (973 – 1048), Ibn Sino (980 – 1037), Mahmud az-Zamaxshariy (1075 – 1144) kabi yirik allomalar yetishib chiqdiki, ularning benazir aql-zakovati ona-Zamin dovrag'ini olamga joydiki.

O'ra asrlarda Markaziy Osiyo islom olamining yirik ilmiy markazlaridan biri edi. Islomiy ilmlar odatida quyidagi guruhlariga ajratib o'rganiladi: Qur'oni karim va uning tafsirlari, hadislari, fiqh, aqoid va tasavvufga oid masbalar.

Qur'oni karimning jamlanishi borasida so'z ketar ekan, uni davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki, uni jamlashdagi har bir bosqich o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan.

1. Rasululloh (s.a.v.) davrlaridagi jamlash bosqichi. Ma'lumki, Rasululloh (aleyhis-salom)ga biror oyat nozil bo'lsa, uni sahobiyalar yozib borar edilar. U zotining huzurlarida Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b, Muoviya ibn Abu Sufyon, Yazid ibn Abu Sufyon, Zubayr ibn Avvom (r.a.)lar kabi kotiblari bo'lgan. "Kutub al-vahiy", ya'ni "vahiy kotiblari", deb nomlangan mazkur sahobiyalar Rasululloh (aleyhis-salom)dan eshitgan oyallarini hayvon terisi, daraxt po'stlog'i, yirik suyaklar va boshqa shu kabi narsalarga yozib borganlar. Bu haqda Usmon ibn Affon (r.a.) shunday deganlar: "Rasululloh (aleyhis-salom)ga biror oyat nozil qilinsa, o'zlarining kotiblarini chaqirib: "Buni falon suraga qo'shib qo'yinglar", der edilar". Kotiblar yozgan narsalaridan o'zlari uchun nusxa olib, aslini Rasululloh (aleyhis-salom)ning uyalarida saqlar edilar.

Mazkur bosqichda Qur'oni karim kitob holatiga keltirilmagan. Albatta, buning o'ziga xos sabablari bo'lgan. Bu borada Imom Zarkashiy: "Qur'oni karim Rasululloh (aleyhis-salom) davrlarida kitob holatiga keltirilmaganining boisi, u zot ehtinol yana oyatlar nozil bo'lib qolar, deb sahobiyalarga bu vazifani buyurmadi", deydi.

2. Abu Bakr Siddiq (r.a.) davridagi jamlash. Rasululloh (aleyhis-salom) vafotlaridan so'ng Abu Bakr Siddiq (r.a.) ikki yarim yil xalifa bo'ldilar. U kishining xalifalik davri jangulardagi to'la bo'lib, xususan, ular muradlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hijriy 12-sanada ko'plab sahobiy qorilar qatnashgan "Yamoma" jangida 70ta qori sahobiy vafot etdi. Vaziyatni to'g'ri baholagan Umar (r.a.) Abu Bakr Siddiq (r.a.)ning huzurlariga borib, holat shu zayida davom etsa, Qur'oni karimni keyingi avlodlarga yetkazish mas'uliyatidan ogoh qildilar. Shu bois Qur'oni karimni yagona kitob shaklida jamlash maslahatini berdilar. Abu Bakr (r.a.) esa, Rasululloh (aleyhis-salom) qilmagan ishini men qilmayman, deb rad javobini berdilar. Umar (r.a.)ning ko'p bora urinishlari sababli Abu Bakr (r.a.) bu ishda hikmat borligini bildirar va rozi bo'ldilar. Huzurlariga Zayd ibn Sobit (r.a.)ni chaqirib, ushbu mas'uliyatni vazifani unga topshirdilar.

"Suhuf" (suralar bitilgan sahifalar) Abu Bakr Siddiqning huzurida saqlandi. U kishi vafot qilganidan so'ng, Umar (r.a.)ning huzurida saqlandi, u kishi vafot qilganidan keyin, Hafsa bint Umarning qo'llarida qoldi".

3. Usmon (r.a.) davrida. Usmon (r.a.)ning xalifalik davriga kelib, ko'plab arab bo'lmagan xalqlar orasida islom dini tarqala boshladi. Har bir hududga borgan qorilar o'zi o'rgangan harf (tahja)da Qur'oni karimni o'sha yerdagi insonlarga o'rgatar edi. Masalan, shomliklar Ubay ibn Ka'b (r.a.) qiroatida o'qisalar, iroqliklar Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) qiroatida o'qir edi. Ba'zi hollarda turli tomonlar qiroatlaridagi ayrim farqlarni ko'rib, bir-birlarini ayblash holatlari chiqar boshladi.

Usmon (r.a.) davrlarida ko'chirilgan va musulmon o'lkalariga jo'natilgan Qur'oni karim nusxalarining adadi borasida ulamolalar ixtilof qilganlar. Bir qavga ko'ra, yettita (Makka, Shom, Basra, Kufa, Yaman, Batriyn, Madina nusxalari), deyilsa, boshqa qavga ko'ra oltita (Madina, Makka, Shom, Kufa, Basra, Usmon (r.a.)da qolgan Mushafi Imom) deyilgan. Aksariyat ulum al-Qur'on olimlari keyingi qavhni tasdiqlaganlar.

O'zbekiston musulmonlari idorasi "Mo'yi muborak" madrasasi "Qur'on muzeyi"da saqlanayotgan "Usmon Mushafi" nomi bilan mashhur qo'lyozma dunyodagi tadqiqotchilarning aksar qismi tomonidan aynan hazrat Usmon ibn Affonning shaxsan o'zlarida saqlangan, qat etilganida unga qonlari to'kilgan "Mushafi Imom" (Bosh Mus'haf) ekani e'tirof etiladi. Usmon Mushafi qanday qilib Movarounnahr zaminiga, xususan, Samarqandga olib kelinganini to'g'risida Shayx Ismoil Maxdumning (1893 – 1976) "Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi" risolasida to'g'iz xil faraz qayd qilingan.

Qur'oni karim islom diniga e'tiqod qiluvchi boshqa xalqlar kabi Markaziy Osiyo musulmonlarining ham asrlar davomida falsafiy, axloqiy va huquqiy qarashlarining shakllanishida muhim manba bo'lib keldi. Biroq undagi oyatlar hamda so'zlarning mohiyatini tushunish o'ta murakkab bo'lganligi sababli, VII-VIII asrlardayiq Qur'oni karimga tafsirlar yozishga ehtiyoj tug'ilgan va bora-bora bu soha alohida yo'nalishga aylangan.

Islom tarqalgan ilk davrdan boshlab, Qur'oni karim va uning tafsiri bilan bog'liq ilmlarga qiziqish, xalifalikka bo'ysungan boshqa joylar kabi, Markaziy Osiyoda ham paydo bo'la boshladi va bu yerdagi xalqlar ham qur'oni ilmlarni o'rganib, ular orasidan ko'pgina mufasssir olimlar yetishib chiqdilar; Qur'oni karimga tafsirlar yozish an'anasi vujudga keldi.

Bizgacha yetib kelgan tafsirlar bilan tanishish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Markaziy Osiyodagi mufasssirlar tomonidan IX – XII asrlarda yozilgan tafsirlarning aksariyati arab tilda bo'lgan, sababi, o'sha davrda ilmiy tili arab tili hisoblangan. Hoji Xalifaning "Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l-funun" ("Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish (kitobi)"), asarida e'tirof etilishicha, Markaziy Osiyoda yozilgan ilk tafsir "Tafsiri Kabir" deb nomlanib, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardizba al-Ju'fiy al-Buxoriy (vafoti 870) qalamiga mansubdir. Lekin afsuski, mazkur tafsir hozirgacha topilmagan. Bizning taxminimizcha, mazkur tafsir arab tilida yozilgan bo'lishi kerak, chunki, Imom Buxoriy barcha asarlarini ana shu tilda yozgan.

Keyinchalik ham bu yerda olimlar tomonidan tafsir yozish an'anasi davom ettirilib, ko'plab arabcha tafsirlar ta'lif etildi. Jumladan, Imom Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Moturiyning (870 – 944) "Ta'vili al-Qur'on" ("Qur'on ta'villari") asari ham Markaziy Osiyoda yozilgan dastlabki tafsirlardan hisoblanadi. Asar ustida tadqiqot olib borgan Sh.Ziyodovning fikricha, Moturiy hanafiy mazhabi olimlari ichida birinchilardan bo'lib Qur'onga tafsir yozgan. Mazkur asar nafaqat Movarounnahr tafsir maktabiga, balki kalom maktabiga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Moturiy o'z tafsirini uch mabraga ya'ni, Qur'on, hadis va avvalgi mufasssrlarning fikrlariga asoslanib yozgan.

"Bahr al-ulum" ("Ilmlar dengizi") nomli asar imom Abullays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim as-Samarqandiy (911 – 985) qalamiga mansub bo'lib, mukammal tafsirlardan hisoblanadi. Unda Qur'on oyatlari ma'sur yo'nalishida tafsir qilingan va bu ushbu yo'nalish bo'yicha yozilgan dastlabki asarlardan biri sanaladi. Asarning qo'lyozma nusxalari: Berlin, Myunxen, Leyden, Qudus, Tunis, Istanbul, Sankt-Peterburg va Toshkent kutubxonalarida mavjud. Ushbu tafsir Misrning al-Azhar universiteti doktorlari Muhammad Muavvaz Abdulmajid va Abdulmajid an-Nu'aylar tomonidan Misr va Edinburgda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari asosida tanqidiy ma'ni tayyorlanib, 1993-yili Bayrutda 3 jildida nashr qilingan. O'zbekistonda ham keyingi yillarda asar ustida A.Abdullayev tadqiqotlar olib borib, uning dunyo xazinalaridagi nusxalariga oid qimmatli ma'lumotlarni to'plagan.

Muhammad alayhissalom ayrgan so'zlar, u zot haqidagi xabarlar va biror voqeani tasdiqlaganlari kabi ma'lumotlarga hadislar deyiladi. Bunday ma'lumotlarni to'plagan olimlar muhaddislar deb ataladi.

Muhaddislar dastlab og'zaki rivoyat qilingan hadislarini to'plab, kitob holatiga keltirganlar. Ulardan olti kitobni ulamolalar eng sahiih, ya'ni ishonchli hadislar, deb e'tirof etganlar. Bu kitoblar "as-Sihoh as-sitta" — "oltita ishonchli kitob" deb yuritiladi. Bu kitoblarning mualliflari Imom al-Buxoriy (vafoti 870), Imom Muslim (vafoti 875), Imom Ibrohim Moja (vafoti 887), Imom Abu Dovud (vafoti 888), Imom al-Termiziy (vafoti 892) va Imom Nasaiy (vafoti 915).

Imom al-Buxoriyning 4 jildidan iborat "Al-Jomi' as-Sahih" nomli hadislar tuplami musulmonlar uchun Qur'on Karimdan keyin ikkinchi manba' hisoblanadi. Asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan mashhurdir.

Imom al-Buxoriyning ta'kidlashicha to'plangan olti yuz ming hadisdan faqat 7275 tasni tanlab kiritilgan. Tarixchi Ibrohim al-Asqaloni barcha fikrlar asosida bunday xulosaga kelgan: "Imom al-Buxoriy "Al-Jomi' as-Sahih"ni Baytulloxda yozishga kirishib, uz ona yurtlari Buxoroda nixoyasiga yetkazganlar va oqqa ko'chirganlar". Asarga yuzga yaqin shartlar yozilgan.

Imom Muslimning eng yirik va mo'tabar asari "al-Jomi' as-Sahih" hisoblanadi. Kitob yozish uchun uch yuz mingdan ortiq hadisini to'plab, ularni tahlil qilib chiqqan. Bu asarni "Sahih Muslim" deb ham ataydilar va unga ko'plab sharh va ilovalar bitilgan.

Imom al-Termiziy "Sunani Termiziy" kitobi bilan mashhurdir. Bu haqida Ibrohim al-Asiyr o'zining "Tarix" kitobida bunday deydi: "(Termiziy) imom va ho'fiz edi. Bebah o'z asarlar tortiq qildi. "Al-Jomi' ul-kabir" ularning eng mukammalidir". "Kashf uz-Zunnu" kitobida "Sunani Termiziy" asari borasida bunday deydi: Bu hadis bobida tasnif etilgan kutubi sittaning uchinchisidir. Bu kitob "Al-jomi' as-sahih" deyiladi, shuningdek, "Sunan" ham deb ataladi.

Rivoyat qilinishicha, an-Nasoiy o'zining "Sunan al-Kubro" asarini tasnif etgan. Shuningdek, asarning qisqartirilgan "al-Mujtabo" deb atalgan ikkinchi nusxasi ham mavjud. Bu asar kichik hajmda bo'lganidan hadislar orasida katta shuhrat qozondi.

Imom Abu Dovud besh yuz ming hadis yodlagan va ulardan to'rt ming sakkiz yuzini tuplab, o'zining mashhur "Sunan" kitobiga kiritgan ekan. Bu asarni shartlagan tanqidiy olim Abu Sulaymon al-Hatobi yozadi: "Din ilmidagi Abu Dovudning "Sunan" asari kabi sharaftli buyuk sanalgan kitob haligacha tasnif etilgan emas. Bu asar xalq orasida juda ham yuksak obro' qozondi. Xuddi Xuroson ahli orasida al-Buxoriy va Muslimning "Sahih"lari e'tibor qozonganidek... Abu Dovudning "Sunan"i ko'plab fiqhiiy hukmlarini qamrab olganligi uchun, boshqa asarlardan ustun sanaladi".

Imom ibni Moja hazratlari ibtidoiy ta'limni olgach, hadis ilmi talabida Iroq, Misr va Shomga safar qiladilar va tez fursat ichida o'z zamonasi muhaddislarlari orasida e'tirof etilgan darajaga erishadilar. Ibrohim Mojaning asosiy kitoblari "Sunan" bo'lib, unda to'rt ming hadis jamlangan.

Imom ibni Moja "Sunan"lari turli ulamolalar tarafidan bir necha marra shartli kilingan.

Hadislarni to'plashda ham markaziyosiyolik olimlar samarali ish olib borishgan. Ularning eng mashhurlari Imom Buxoriy va Imom Termiziydir.

Imom Buxoriyning ustoz va shogirdlari ko'p bo'lib, u olimlarning har biri islomiy bilimlar borasida jahon ulamolari e'tirof etib kelayotgan ulug' zotlardir. Jumladan, Imom Buxoriy bobomiz Ali ibn al-Madiniy, Ahmad ibn Hanbal, Ishoq ibn Rohavayh, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ja'far al-Musannadiy, Muhammad ibn Salom va boshqalardan dars olganlar.

O'z navbatida Hamad ibn Shokir, Ibrohim ibn Muakkal, Tohir ibn Muhammad, Abu Talxa Mansur, Muslim, Termiziy, Nasaiy, Abu Bakr ibn Ishoq, Abu Fazl Ahmad ibn Salma, Abu Bakr ibn Abud Dunyo, Husayn ibn Muhammad al-Qaboniy, Sahl ibn Shadiyevh al-Buxoriy va boshqa shogirdlarga ustozlik qilganlar.

Imom Buxoriyning shogirdlari nihoyatda ko'p bo'lgan. Mo'tabar manbalarning guvohlik berishicha, ulug' olimning "Al-Jome' as-Sahih" asaridan uning bevosita rahbarligida 90 ming kishi ta'lim oldi.

Ularning safida mashhur muhaddislar Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom al-Nasaiy, Ibrohim Xuzayma, Ibrohim Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf al-Firobiy, Ibrohim Shakar Nasoviy, Mansur ibn Muhammad Bazdaniy va yana ko'plab ulug' olimlar bor.

Markaziy Osiyo tarixiga oid arab tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar

VIII – XII asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganishda arab tilidagi manbalar katta ahamiyatga ega. V.V.Bartold, V.I.Belyayev, I.Y.Krachkovskiy, K.Kaen, O.Karayev, K.Brokelman, K.Stori, X.Gibb, F.Rozental, B.Shpuler kabllarning maxsus tadqiqotlarida yuqoridagi manbalar tahliliga alohida o'rin ajratilgan.

IX asrga kelib, tarixiy asarlar yozishning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ulardan ikkitasi asosiy hisoblangan. Birinchisi, umumiy tarix yozish uslubini bo'lib, uning mukammal ko'rinishi al-Tabariyning "Tarixi Tabariy" asarida namoyon bo'lgan. Ikkinchisi esa mahalliy yoki biror bir muayyan hudud tarixiga bag'ishlab asarlar yozish an'anasidan iborat bo'lgan.

Tarixga bag'ishlangan asarlar ichida Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir al-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi") asari alohida o'rin tutadi.

Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir al-Tabariy (839–923) Eronning Tabariston viloyatida tug'ilib o'sgan mashhur tarixchi, faqih, tilshunos olim; Bag'dodda yashab, ijod qilib, o'sha yerda vafot etgan. Qur'on va hadislariga oid bilimlarni yaxshi egallagan, shu sohalariga oid asarlar yozgan. Qur'oni Karimga mukammal tafsir tuzgan va mazkur asar somoniy podshoh Abu Solih Mansur ibn Nuh (350/961–366/976) topshirig'i asosida qisqartirilib, ba'zi tarixiy ma'lumotlar qo'shib, fors tiliga o'g'irlangan va u "Tarjimai Tafsiri Tabariy" deb ataladi.

Mazkur asarda insoniyat tarixi Odam atodan boshlab hikoya qilinadi; so'ngira qadimgi tarix – qadimgi Eron, Rim, Vizantiya va o'rta asrlar tarixi – Arab xalifaligi, xususan, O'rta Osiyoning VIII–IX asrlar tarixi ancha to'la aks etgan.

Somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh 352/963–964-yili "Tarixi Tabariy"ni fors tiliga o'g'irishni buyurgan va uning vaziri Muhammad al-Bal'amiy asarni qisqartirib forschaga o'g'irgan; bu asar fanda "Tarjimai Tarixi Tabariy" nomi bilan mashhurdir.

"Tarixi Tabariy"dagi O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar V.I.Belyayev tomonidan arab tilidan rus tiliga o'g'irildi va A.B.Xolidov, O.G.Bol'shakov, D.YE.Bertels tomonidan qayta ishlangan holda chop etilgan.

...*Shu yili Qutayba ibn Muslim al-Hajloj nomidan Xurosonni boshqarishga erishdi... U askarlar va qur'ol-aslahani ko'rikdan o'tkazib, so'ngira Marvda o'rniga harbiy ishlar bo'yicha (114-bet) Iyas ibn Abdulloh ibn Amrni, xitro bo'yicha Usmon ibn Sa'dni o'rinbosar tayinlab, yurish boshladi. To'liqonga yetib kelganida, unga Balx dehqonlari va yana ba'zi zodagonlar qo'shildilar va u bilan birga ketdilar.*

U [Amu]daryodan o'tganida, Sag'omiyon podshosi sovg'a-salomlar va olin kalit bilan qarshi oldi va o'z yurtiga taklif qildi. Kufion podshosi ham sovg'alar va pul olib keldi va o'z yurtiga taklif qildi... Sog'omiyon podshosi o'z salтанatini Qutaybaga [jangsiz] topshirdi.

Qutayba To'horistonga tegishli Oharon va Shamon tomon yurdi. Gushkabon kelib, to'lov to'lash sharti bilan sulh tuzishga erishdi. Qutayba

to'lovni olib Marvga qaytdi; ukasi Solih ibn Muslimni Termizga hokim qilib tayinladi...

(115-bet) Sakson yetinchi (705–706)-yil

Shu yili Qutayba Baykand [Poykand]ga yurish qildi... (116-bet). U Marvdan chiqib Marvvarudga keldi, undan Amulga, so'ngira Zamnga yetib [Amu]daryodan o'tdi va Baykandga yo'l oldi. Bu Buxoroning [Amu]daryoga eng yaqin shaharlaridan biridir, uni "savg'alar shahri" deyishadi. cho'l yqasida joylashgan. U [Qutayba] yetib kelganida, ular sug'dylar va yaqin-atrofdagilarni yordamga chaqirdilar.

(144-bet) To'qson beshinchi (713–714)-yil

Shu yili Qutayba ibn Muslim Shoshga yurish qildi... (145-bet).

Ali ibn Mujohid aytdi: al-Hajloj Iroqdan askarlar jo'nata va ular to'qson beshinchi yili Qutaybaning ixtiyoriga yetib keldilar. U yurish boshladi. Shosh yoki Kushmahonda turganida shavvol [oy]da al-Hajlojning o'limi haqida xabar yetib keldi. U bundan qo'rg'unga botdi va Marvga qaytdi...

IX asr geografi va tarixchisi Ahmad ibn Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozh al-Ya'qubiyning "Kitob al-Tarix" ("Tarix kitobi") asari alohida o'rin tutadi. Al-Ya'qubiyning tug'ilgan yili noaniq bo'lib, yoshlik yillarini u Armanistonda o'tkazgan, keyinroq Xurosonda Tohiriyalar xizmatiga kirgan. Bu sulola halokatidan (259/873) so'ng, Hindistonga sayohat qilib, so'ngira Misrga ketgan, 284/897-yilda Misrida vafot etgan. Al-Ya'qubiy biografiyasiga doir kam ma'lumotlardan kelib chiqib, uning faol ijodiy faoliyat davri IX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi, hamda Abbosiy xalifalar al-Mutavakkil davridan boshlab al-Mu'tadid davrlarini qamrab oladi, ya'ni 848 – 902-yillarni o'z ichiga oladi degan xulosaga kelish mumkin.

Xalifalar al-Ma'mun (813 – 833) va al-Mu'tasim (834 – 842) zamonidan boshlab, turkiy xalqlar vakillari xalifalik markaziy siyosiy sahmasida muhim o'rin egallaganlar.

Al-Ya'qubiyning asari ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismi dunyo "yaratilishi" dan to' Isom dini paydo bo'lgungacha voqealarni, 2-qismi arab xalifaligining 259/872-yilgacha bo'lgan (Tohiriyalar harakatigacha) tarixini bayon etadi. O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar ikkinchi qismda keltirilgan.

Al-Ya'qubiyning mazkur asari deyarli o'rganilmagan. Asar hanuzgacha o'zbek yoki yevropa tillariga tarjima qilinmagan. Asarning tanqidiy matni qo'lyozmalar asosida golland sharqshunosi Xoutma tomonidan nashr etilgan. Keyinroq Bayrudda bu asar ikkinchi marta nashr etilgan.

Al-Ya'qubiy asarlarida O'rta Osiyoning etnik tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, uning O'rta Osiyo shaharlari, ularning diqqatga sazovor jihatlari, aholi ijtimoiy va etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jarayonlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir al-Balozuriy (vafoti 279/892)ning "Kitob futuh al-buldan" ("Mamlakatar bosib olinishi (kasbf etilishi) kitobi") asarini ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Balozuriy Bag'dodda tug'ilib

o'sgan. Ilm olish istagida Suriya va Eron shaharlarida sayohat qilgan. Aynan shu davrda u o'z asarini yozishga kirishgan. Ushbu asarning bizgacha qisqartirilgan varianti yetib kelgan. Asarning to'liq matni Ibn an-Nadim va Xojī Xalifa ma'lumotlariga ko'ra 40 qismdan iborat bo'lgan. "Kitob futh al-buldon" asari 90 bobdan iborat bo'lib, 622 yildan 869-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab oladi. Asarning to'liq matni gollandiyalik sharqshunos M.Y. de Gucye tomonidan nashr qilingan, shuningdek, asarning Qohira nashri ham mavjud. Har bir bob muayyan mamlakat yoki tarixiy-ma'muriy birlikning istilosiga bag'ishlanadi. O'rta Osiyo yoki turkiy xalqlarga doir ma'lumotlar "Xuroson fathi" bobida keltirilgan. Shuningdek, Balozuriyning boshqa asarlari ham mavjud.

Abul Hasan Ali ibn Husain al-Mas'udiy (345/956) haqida biografi ma'lumotlar deyarli mavjud emas. Muallifning to'rt asari bizgacha yetib kelgan.

"Axbor az-zamon" ("Zamonalar voqealari") Fustoldi (al-Qohira) yozilgan bo'lib, 30 qismdan iborat tarixiy-geografik asar hisoblanadi. Asarning muayyan qismlariga Qohira va Parij kutubxonalarda saqlangan, ushbu qismlar asosida Abdulloh as-Saviy asarning tanqidiy matnini chop etgan. Mazkur asarda O'rta Osiyo xalqlari xo'jaligi, an'ana, urf-odat va maishiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Al-Mas'udiy asarlarida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan qabila va elatlar haqida noyob tarixiy-geografik va etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'noda muallifning "Muruy az-zahab..." asari katta ahamiyatga ega. Asar muqaddima va 132 bobdan iborat. Dastlabki 70 bob dunyo "yaratilishi"ga oid afsonaviy ma'lumotlar, dengizlar, daryolar, tog'lar, ular yaqinida yashovchi qabila va elatlar tavsifiga bag'ishlangan. Qolgan 52 bob Muhammad payg'ambar tug'ilganidan boshlab, xalifa Al-Mu'tiy (vafoti 334/946) hukmronligigacha bo'lgan davr tarixini bayon etadi. 8, 9, 14, 15, 16, 17 va 34 boblarda O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlar haqida muhim ma'lumotlar bor.

Somoniylar va G'aznaviylar zamonida yuksak ma'muriy lavozim egasi bo'lgan reylik Abu Nasr Muhammad ibn Abd al-Jabbor al-Utbiyning (350/961 – 427/1035) "Tarixiy Yaminiy" asari amir Sabuqtakin va uning o'g'li "Yamin ad-davla" (Davlatning o'ng qo'li) ega bo'lgan G'aznaviylar sultoni Mahmud faoliyatiga bag'ishlanadi. Al-Utbiy yoshligidayoq Xurosonga kelib, G'aznaviylar noibi Abu Ali Simjuriy (997 – 1030) xizmatiga kiradi. Keyin u G'azna shahriga kelib, Mahmud G'aznaviy xizmatiga kirgan. Asarda muallif asosiy e'tiborini X asr oxirgi va XI asr birinchi choragidagi voqealarni yoritishga qaratgan. Asarning Turkmaniston tarixiga oid qismlari rus tilida nashr etilgan.

Al-Utbiyning ko'p ma'lumotlari ichida Qoraxoniylar davlati tarixiga doir, xususan, Ilekxon va oxirgi Somoniy Mustansirning to'qashuvlari, hamma boshqa muhim voqealar va O'rta Osiyoda yashagan qabila va urug'lar to'g'risidagi qaydlari ahamiyatli hisoblanadi.

IX – XII asrlarga oid genealogik asarlardan Abu Sa'd Abdul-Karim ibn Muhammad ibn Mansur as-Sam'oniyning asarini ko'rsatish mumkin, uning kelib chiqishi o'rtaosiyolik arablardan bo'lgan. U 506/1123-yil. Maryda tug'ilgan.

Uning "Kitob al-ansab" ("Nasablar kitobi") asari katta ahamiyatga ega. U Nishopur, Isfahonda bo'lib, Bag'dodda 8 yil (530 – 538/1135 – 1144) yashagan. Shuningdek, u Hamadon, Damashq, Qudus, Ray, Tus, Bag'dod, Basra va boshqa shaharlarda bo'lib, Maryda qaytib kelgan. Shundan so'ng, u faqat O'rta Osiyo va Xuroson shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. As-Sam'oniyy 562/1167-yil vafot etgan. Uning 40 dan ortiq asari mavjud bo'lib, ko'pchiligi bugungacha yetib kelmagan. "Kitob al-ansab" asarining to'liq bo'lmagan qismi saqlanib qolgan.

Shuningdek, biografiyaga murojaat etish ham tarix ilmining asoslaridan biri hisoblangan. Biografiya tarix ilmining eng qat'iy bayon usullaridan biri bo'lgan. Musulmon olamida Muhammad payg'ambarning biografiyasini yozish bunga asos bo'lib xizmat qilgan.

Tarixchilarning dunyoviy ehtiyojlari ularni ko'proq xalifalar, hukmdorlar, mansabdor shaxslar va bir qator olim insonlarning axloqiy hayotiga doir ahamiyatli voqealarni topishga undagan. Tarixchilar tomonidan ularning biografiyasini yozib, tarixiy voqealar markazini ularning hayoti atrofiga ko'chirish, o'z o'zidan tarixiy asarlarni o'quvchi guruhlarining diqqatini jalb etgan. Bundan tashqari, barcha musulmonlar butun davlat siyosati aynan bir kishining aql-u idroki va bilimlariga bog'liq bo'lgan jarayon ekanligiga qattiq ishonganlar. Ko'plab musulmonlarning qarashlarida tarix bu biografiya bilan aynan bir narsa sifatida izohlangan. Turli ta'lim sohalarida diniy ilmining ta'siri natijasida tarix buyuk insonlarning biografiyasi to'plami sifatida baholangan.

Biografik asarlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati shundaki, mashhur shaxslarning shajaralarini tadqiq etish yo'li bilan ularning qanday urug'ga mansubligi, qaysi hududlarda yashaganliklarini aniqlash vositasida o'rganilayotgan tarixiy jarayonlari to'g'risida muayyan xulosalar olish mumkin.

Somoniylar davrida, O'rta Osiyoda arab tilida bir necha tarixiy asarlar yozilgan. Bular qatoriga Umar bin Ali Al-Filosiyning (vafoti 306/918) "Kitob at-Tarix" (Tarix kitobi) asari, Abu Bakr Muhammad bin Zakariyo ar-Roziyning "Siyar al-xulafa" ("Xalifalar biografiyasi") asari, Dovud bin Muhammad bin Muso al-Avdaniy al-Buxoriy (vafoti 320/932)ning "Ahsan az-zamon" ("Davrning eng yaxshi voqealari") asari, Mutahhar bin Tohir al-Maqdisiyning (vafoti 355/965) Somoniy vazirlardan biriga taqdim etgan va unda falsafa va tarixni uyg'unlashtirishga uringan "Al-bad' va-t-tarix" ("Ibtido va tarix") asarlari kiradi. Al-Maqdisiy asarining ahamiyatli tomoni shundaki, unda muallif turli davrlarda hukmronlik qilgan sulolalarning hukmronlik davri va ularning o'ziga xos jihatlari ochib berishga uringan. Yana e'tiborli jihati ushbu asar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda shularni xulosa qilish mumkin. Tarixiy voqealarning o'zini bayon etuvchi manbalar O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Chunki IX – XII asrlarda O'rta Osiyo "musulmoncha" tarix ilmi yuzaga kelgan va ushbu tarixiy uslub asosida mintaqaxalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy tarixini yozish an'anasi shakllangan.

Somoniylar davridagi tarixiy asarlarning ko'pchiligi bugungi kunda yo'qolib ketgan bo'lsa ham ulardagi ma'lumotlar boshqa mualliflarning asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Shu asarlardan olingan ma'lumotlarni topish, ularni o'rganish orqali yangi asarlarni aniqlash mumkin.

Tarixiy voqealarni yoritgan asarlarni sinchiklab kompleks asosda o'rganish va ularni boshqa asosan tarixiy-geografik turdagi asarlardagi ma'lumotlar bilan solishtirish natijasida tarix sohasini manbalar ma'lumotlari asosida, yangi ilmiy xulosalar bilan boyitish mumkin.

IX asrdan boshlab arab manbalarida O'rta Osiyo haqida ancha to'liq tarixiy geografik ma'lumotlar uchraydi. Al-Johiz (IX asr), Abu Zayd Ahmad ibn Sahla al-Balxiy (X asr) va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr al-Jayhoniylarning (X asr) bugungacha yetib kelmagan geografik asarlarida O'rta Osiyo xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. X asrdan keyin arab mualliflarining asarlari ancha kompilyativ ko'rinish hosil qilgan. Balxiy va al-Jayhoni o'zlarining o'rtaosiyolik bo'yicha, keltirilgan ma'lumotlarining bevosita shohidi bo'lganlar. Mashhur mudarris, keyinroq Somoniy amirlaridan Nasr ibn Ahmadning vaziri bo'lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoni arab tilida ijod qilgan mualliflar ichida eng atqoli namoyondalardan bo'lgan. Fihristda e'tirof etilishicha, u turli sohalarga tegishli bir qancha asarlarning muallifi hisoblanadi. Ularning ichida "Masolik al-mamolik" asari alohida o'rin tutadi.

Geografik ma'lumotlar, mualliflar tomonidan, turli yo'llar bilan yig'ilgan. Jumladan, tarixchi va geograf al-Ya'qubiy o'zining geografik asariga materiallarni juda ko'p safarlar natijasida, hamda uchragan har bir odamdan muayyan mamlakatlarga aloqador ma'lumotlarni surishtirib to'plaganini bayon etgan. Muayyan biror bir hududning ma'muriy, iqtisodiy tarixi va o'z zamonasiga aloqador ma'lumotlarini yig'gan.

Bugungacha asarlari yetib kelgan mualliflar ichida eng dastlabkisi Abul Qosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbeh bo'lib, u hijriy 205 yili (820-yil) Forsda, oqsuyak oilada tug'ilgan. Uning otasi IX asr boshlarida Kaspiy dengizi janubidagi Tabariston viloyatining hukmdori bo'lgan. Ibn Xurdodbeh Abbosiy hukumatida ma'muriy lavozimlarda ishlagan. Xususan, u Jibal viloyati pochta va xat xabar xizmati boshlig'i lavozimida ishlagan va bu lavozim egalari "sohib al-barid va-l-xabar" ("Pochta va xatlar bo'limi boshlig'i") deb atalganlar. Ibn Xurdodbeh bir necha asarlarning muallifi bo'lib, uning faqat hijriy 232 (846 – 847)-yili yozilgan "Kitob al-masolik va-l-mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar kitobi") asari saqlanib qolgan. Bu asarga uning o'zi hijriy 272-yildan kech bo'lmagan davrda qo'shimchalari kiritilgan. "Kitob al-masolik va-l-mamolik" asarining kiritish qismida yunon ilmi ta'siri ostida dunyo mamlakatlarining 7 iqlimga bo'linishini kuzatish mumkin. Ibn Xurdodbehning geografik asari O'rta va Markaziy Osiyo turkiyzabon qabila va elatlarining nomini sanab o'tish bilanгина cheklanadi. Muallifning O'rta Osiyo kichik viloyat nomlari va ularning hukmdorlari qanday atalganligi haqidagi ma'lumotlari juda qiziqarli hisoblanadi.

Xurdodbeh asari mavjud uch qo'lyozma asosida M. Y. de Guye tomonidan BGA ning VI tomida nashr qilingan. Shuningdek, qisqartirilgan ruscha tarjimasini ham mavjud. Ibn Xurdodbehning geografik asaridan al-Ya'qubiy (IX asr), Ibn al-Faqih (IX – X asrlar), Ibn Rusta (X asr), Ibn Xavqal (X asr), al-Muqaddasiy (X asr) va boshqa mualliflar foydalanganlar. Yuqoridagi nomlari zikr etilgan mualliflarning barchasi O'rta osiyolik al-Balxiy asos solgan yo'nalish ya'ni al-Balxiy maktabi vakillari bo'lganlar. Yana bu maktab "nummoz (klasik) geografya maktabi" deb ham ataladi.

Al-Ya'qubiyning (IX asr) "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlar kitobi") asari arab geografiasida bayon (tafsifiy) janriga muvofiq keladi. Bu asar to'liq saqlanib qolmagan. Shunday bo'lsa-da, Eron, O'rta Osiyo va Afg'oniston haqidagi ma'lumotlar asarda mavjud Arabiston, Hindiston, Xitoy va Vizantiyaga oid alohida qismlari yo'qotilgan.

Al-Ya'qubiy asarida Movarounnahr bag'ishlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda Turaband Abartat va boshqa turkiy xalqlarning shaharlari haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, Movarounnahr hududidan o'tuvchi savdo yo'llari va shaharlar orasidagi masofalar keltirilgan. Eng ahamiyatlisi al-Ya'qubiy turkiy xalqlar joylashuvi, ularning an'analari va odatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Golland tadqiqotchisi M. Y. de Guye (1836 – 1909) sakkiz tomli "Bibliotheca geographicoarabica" ("Arab geografiyalar kutubxonasi") to'plamini nashr etgan. Bu turkum to'plamlar 1870 – 1894-yillarda tayyorlangan bo'lib, ularda asosan IX – XII asr arab geograflarining asarlarining tanqidiy matni nashr etilgan. Keyinroq bu seriya 1927 va 1967-yillarda qayta nashr etilgan.

Abu Ishoq Muhammad al-Farisiy al-Istaxriy (X asrning "Kitob al-masolik va-l-mamolik" ("Mamlakatlar va yo'llar kitobi") asari o'rtaosiyolik olim Abu Zayd al-Balxiy (IX asrning bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan geografik asarining qayta tahriri hisoblanadi. Istaxriy Eron, Suriya, Arabiston va Misr bo'ylab ko'plab sayohatlarini amalga oshirgan.

Istaxriy o'z asarini 318 – 321 (930 – 933)-yillar oralig'ida yozib qoldirgan. Muallifning o'zi asarini 340/950-yili qayta ishlagan. "Kitob masolik al-mamolik" asari bayoniy janrga xos bo'lib, unda dunyo hududlari mavjud an'ana ko'ra, iqlimlariga bo'lingan. Asar oxirida Movarounnahr shaharlariga bag'ishlangan bob mavjud. O'g'uz, qarluq, xalaj va boshqa turkiy qabila va elatlar haqida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, Istaxriy Shosh atrofiga yashagan musulmon turlari haqida birinchi bo'lib ma'lumot bergan. Istaxriyning o'zi, shaxsan O'rta Osiyo shahar va qishloqlarida bo'lganligi asarining qiymatini oshiradi. Istaxriyning "Masolik al-masolik va-l-mamolik" asarining ayrim turkiylarga va O'rta Osiyoga tegishli qismlari Ramazan Sheshen tomonidan chop etilgan.

Istaxriyning "Masolik al-mamolik" asarini forsiy qo'lyozmalar asosida tanqidiy matni tuzilib, nashr ettirilgan.

O'z navbatida al-Istaxriyning mazkur asari boshqa arab geograf olimi – Abu-l-Qosim Ibn Xavqal an-Nasibiy tomonidan to'ldirilib, qayta ishlangan. Ibn Xavqal ham ko'p sayohatlarni amalga oshirib, al-Istaxriy asaridagi xatolarni

tuzalgan. Movarounnahr qismiga Abbosiy xalfalar xizmatida bo'lib, asli Shosh va Farg'onadan bo'lgan qabila va urug'lar vakillari (to'qqiz) uzlar, tuxsilar, xichanlar, farg'onaliklar va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni kiritgan.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari ham o'rganilayotgan davrda Buxoro shahri va uning minnaga ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va iqtisodiy hayotida tutgan to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Asar Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy (286 – 348/899 – 960) tomonidan arab tilida yozilgan va somoniy amirlardan Nuh ibn Mansurga 331/943 – 944-yilda taqdim etilgan. Asarning arab tilida yozilgan asl matni bizgacha yetib kelmagan. Uning bizgacha yetib kelgan varianti fors tilida bo'lib, uning tarjimai 422/1128-yilda Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Quboviy tomonidan amalga oshirilgan. Mo'g'ullar istilosiga qadar bir necha bor unga tahrirlar kiritilgan.

Asar XIX asrning ikkinchi yarmida N.I. Ikoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va V.V. Bartold tahriri ostida 1897-yilda Toshkentda nashr etilgan. 1965-yili O.I. Smirnova Narshaxiy asarining o'zi qo'liga kiritilgan barcha matnlari asosida solishtirma-qiyosiy tahlil orqali asar tanqidiy matnini tayyorlagan, uning kiritish qismi va dastlabki ikkita bobini rus tiliga tarjima qilgan. O.I. Smirnova tomonidan amalga oshirilgan asarning to'liq tarjimai nashr etilmagan. Shuningdek, asarning A. Rasulev tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha (Toshkent, 1966), R. Frey tomonidan amalga oshirilgan inglizcha (Kembriji, 1954) va Badaviy va al-Tiroziy (Qohira, 1965) amalga oshirilgan arab tilidagi tarjimalari matni asosida Sh.S. Kamoliddin tomonidan asar rus tiliga solishtirma-qiyosiy tarjima qilingan va 2011-yilda Toshkentda nashr etilgan.

O'zbekistonda saqlanayotgan arab yozuvdagi yozma yodgorliklar

Arab yozuvdagi yozma meros bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Aynan O'zbekiston hududidagi qo'lyozma fondlarida ham ko'plab nodir qo'lyozmalar saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti faqat O'ra Osiyoda emas, MDH davlatlari ichidagi eng boy fond bo'lib, noyob obyektlar sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Fondning tashkil etilishi o'z tarixiga ega. 1943-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma asarlar uning ixtiyoriga o'tkazildi. 1950-yilda Akademiya qoshida Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tashkil topadi, keyinchalik kengayib borishi natijasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga aylantirildi. 1999-yilda O'zbekiston FA Prezidiumining qaroriga muvofiq, Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar instituti Sharqshunoslik institutiga birlashtirildi. Qo'lyozmalar maktabining asosiy jamg'armasida 13319 jild qo'lyozma to'plangan. Ularning orasidagi boy jamg'armalardan Xojagon-Naqshbandiyya tariqatining yirik vakili va nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso (valofi 1420), Buxoro hukmdori Amir Muzaaffarning (1860 – 1885) o'g'li Muhammad Siddiq Xishmat, Buxoro amirligi qozisi va adabiyotshunos Muhammad Sharif Sadri Ziyo (1867 – 1935), rus hukmronligiga qarshi 1898-yil ko'tarilgan "Andijon qo'zg'oloni" yo'lboshchisi Muhammad Ali

Dukchi Eshon (1856 – 1898), Qo'qon xonligining tanqil amaldori va ma'rifatparvar Yunusjon Xo'qandiy, xorazmlik ma'rifatchi Bekjon Rahmonov (tax. 1887 – 1929), tanqil yozuvchi va shoir, islohotchi ma'rifatparvar Abdurauif Firat (1886 – 1937), rus sharqshunosi V.L. Vyatkin (1869 – 1932) va boshqalarning shaxsiy kutubxonalari ko'rsatish mumkin. Xiva xonlari kutubxonasi kitoblarning anchagina qismi ham shu yerga olib kelingan. Institut xazinasi keyinchalik vaqti-vaqti bilan qadimiy kitoblarni yig'ish uchun uyushtirib turilgan maxsus safarlar davomida aholidan sotib olingan qo'lyozmalar bilan to'ldirildi hamda ayrim shaxslar tomonidan hadya etilgan kitoblari hisobiga boyitib borilmoqda.

Bundan tashqari, dublet jamg'armada 5237 jild, Hamid Sulaymon jamg'armasida 7586 jild, toshbosna asarlar jamg'armasida 39900 jild kitob saqlanadi. Sharqshunoslik instituti jamg'armasi unda saqlanayotgan yozma yodgorliklar miqdori va ularning ilmiy-tarixiy ahamiyati jihatidan dunyoda eng boy va betakror xazina hisoblanadi. Uning tarkibida yagona va nodir asarlar ham talaygina. Jumladan, yirik ilohiyotchi, tarixchi va tilshunos Abu Hafis Umar an-Nasafiyning (1068 – 1142) hijriy 766 yilda (1364 – 1365) ko'chirilgan "Mata' an-nujum va majma' al-ulum" nomli qomusiy asari (inv. № 1462) shular jumlasiga kiradi. XV asrga oid "Majma'iyi murosalo" (inv. № 2178) deb nomlangan xatlar to'plamida Alisher Navoiyga yozilgan 594 maktubning asl nusxalari saqlanadi. Maktublar mualliflari 16 nafardir va ular orasida Abdurahmon Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror (1404 – 1490) kabi mashhur tarixiy shaxslar ham bor. Ibn Miskawayhning (tax. 932–1030) "Tajribal-umam" ("Xalqlar tajribasi") asarining (inv. № 595) uchinchi jildi 1199-yil ko'chirilgan va u eng qadimiy nusxalardan biri hisoblanadi. "Kalila va Dimna" asarining (inv. № 3629) 1305-yil Bag'dodda ko'chirilgan, Qur'oni karimning XIII asrda ko'chirilgan deb taxmin qilinadigan qadimiy nusxalaridan biri (inv. № 2008) tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Unda arabiy matn satrlari turkiy va forsiyga so'zma-so'z tarjima qilingan.

Fondida ko'plab nodir asarlar gatorida Jomiyning o'z qo'li bilan ko'chirilgan dasixat "Kulliyoti", Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Haraviy, Abduljamiil ko'itblar tomonidan ko'chirilgan bir qancha devonlari, arab tilida yozilgan tabobatga oid "Al-Ikfito" asarining yagona nusxasi saqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tarkibida ham qo'lyozmalar fondi tashkil etilgan bo'lib, unda 17000 dan ziyod qo'lyozma, toshbosna, litografik va nodir nashrlar mavjud. Shuningdek, 50000 ga yaqin yozuvchi va shoirning arxivlari saqlanmoqda. Qo'lyozmalar orasida Sa'diy Sheroziyning 1636-yili ko'chirilgan devoni, Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" qo'lyozmasining 1578-yil ko'chirilgan nusxasi, Nizomiy Ganjaviyning XVI asrga oid "Maxsan ul-astor", Xusrav Dehlaviyning 1575-yilda ko'chirilgan "Xamsa" si, Fig'oniy, Nozim Hiraviy, Abdulllo Hotifiy, Husayn Koshifiy, Temurshoh Afg'oniy va boshqa yozuvchi va shoir asarlarining qadimiy qo'lyozma nusxalari alohida ajralib turadi.

Mo'yi muborak madrasasi taxminan XVI asrda qurilgan bo'lib, kim tomonidan, aniq qaysi sanada harpo eilgani haqida ma'lumotlar yo'q. Bugungi kunda madrasa o'rta qad rostlagan sharq qo'lyozmalari saqlanayotgan xazina Mo'yi muborak kutubxonasi deb yuritiladi. O'rta Osiyo musulmonlar diniy idorasi tashkil etilgan dastlabki yillarda uning raisi mul'tiy Eshon Boboxonning shaxsiy kutubxonasidagi mingdan ziyod nodir qo'lyozma kitoblari idora kutubxonasiga taqdim qilindi. Kutubxona fondi 1943 – 1970-yillarda xalqdan sotib olingan va hadya qilingan qo'lyozma va bosma kitoblari hisobiga boyitilgan. Hozir kutubxonada 20 mingga yaqin kitoblari saqlanadi. Shulardan 3 mingga yaqinini nodir qo'lyozmalar tashkil etadi. Kutubxonada saqlanayotgan eng nodir kitob kiyik terisiga yozilgan Usmon roziyallohu anhu Mushaf hisoblanadi. Usmon mushafi uzun yillar Nodir devonbegi madrasasida saqlangan. 1868-yilda Peterburgga olib ketilgan va 1917-yilgacha imperator kutubxonasida saqlangan. So'ng Rossiya musulmonlarining Uladagi idorasiga berilgan, 1924-yilda Hazrati Usmon mushafi yana O'zbekistonga qaytarilgan va 1941-yilgacha Turkiston islom jamiyati qoshidagi masjidda, 1989-yilgacha O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlangan. 1989-yildan buyon Mushaf Mo'yi Muborak kutubxonasida saqlanmoqda.

Kutubxonada saqlanayotgan yana bir nodir qo'lyozma "Langar Qur'oni" nomi bilan mashhur mushafning 13 sahifasi hisoblanadi. Langar Qur'oni Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Langar qishlog'ida "Langar ota" masjidda saqlanib kelgan, hozirgi kunda qolgan sahifalarning 1 tasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar markazida, 2 tasi Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati kutubxonasida, 81 tasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sanki-Peterburg bo'limida saqlanadi. Langar Qur'oni yaraqlari o'lchami 52x32 sm, har bir sahifada yozuv 23-26 satrni tashkil qiladi.

Toshkent Islom universiteti ham qo'lyozma va bosma nasrlarni jamlash va tadqiq etish uchun ixtisoslashgan manbalar xazinasini mavjud. Hozirga qadar ushbu xazina ikki mingga yaqin qo'lyozma va bosma nasrlar jamlangan. Bu qo'lyozmalar orasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan taqdim qilingan Buxoridagi Marg'iloniy qalamiga mansub "Hidoya" asarining XIII asrning birinchi yarmiga oid nodir qo'lyozmasi mavjud. Shuningdek, manbalar xazinasida Usmon Mushafning teriga ko'chirilgan qo'lyozmasi, Qur'oni katimning turli davrlarda kitobat san'atining poylov natijasi sifatida ko'chirilgan qo'lyozmalari, Imom Muslimning "Sahih" asari (XVII asr), hozircha yagona turkiy tilidagi "Siyar ul-aqob" asari (XVII) nusxalari saqlanmoqda.

O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi Noyob qo'lyozma kitoblari muzeyi fondining tashkil topishi o'ziga xos tarixga ega. U dastlab ikki fondidan iborat bo'lgan; birinchi fond 1920 – 1930-yillar mobaynida aholidan yig'ib olingan qo'lyozmalar asosida tashkil topilgan. Ikkinchisi asosiy hisoblanib, u 1918-yil poyaborda ish boshlagan Turkiston Sharq instituti kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Turkiston Sharq instituti kutubxonasidagi qo'lyozmalar xazinasini 1918-yil 18-iyunda ochilgan Turkiston musulmon o'qituvchilari institutiga va sobiq Kitob

hokimlari Jo'rabekning (1278/1861 – 1324/1906) shaxsiy kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Turkiston Sharq instituti 1924-yilgacha faoliyat ko'rsatib, so'ngi Sharq fakulteti sifatida O'rta Osiyo Davlat universiteti tarkibiga kiritildi va undagi qo'lyozmalar O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'ZMU) fundamental kutubxonasidan joy oldi.

Nazorat savollari

1. Arab tilida yozilgan dastlabki asl manbalardan qaysilarini bilasiz?
2. Markaziy Osiyo tarixiga oid qanday arab yozuvi yodgorliklari o'rganilib chiqirilgan?
3. X-XII asrlarda qaysi yirik yozma yodgorliklari yaratildi?
4. Arab tilida yaratilgan manbalarda Markaziy Osiyo tarixi qanday darajada aks ettirilgan?
5. Mustaqil O'zbekistonda Sharq qo'lyozmalarini saqlash ishi qanday amalga oshiriladi?
6. Arab tilidagi manbalarni o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati nimada?

Adabiyotlar

1. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D.Alimova. – T.: Turon-Iqbol 2019.
2. Redersen J. The Arabic Book. Translated by Geoffrey French. – P.: Princeton University Press, 1984.
3. Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriy. Futuh al-Buldon. Xurosonning fatx etilishi / Suza bo'shi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va kuzatkiyalar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – T.: Tosh/DShI, 2017.
4. Axmedov B. Uzbekiston xalqlari tarixi manbalari (kadimlari va u'rta asrlar). – T., 1992.
5. Бартольд В. Древнетюркские надписи и арабские источники // Сочинения В. – М. Наука, 1968. – С. 284 – 311.
6. Ибн Хавкел. Мовароуннахр / араб тилидан тарж., изохлар муаллифи Ш.С.Камолiddин. – Т.: Uzbekiston milliyi ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyati, 2011.
7. Нарзулаев Н. Манбашунослик асослари. Дарслик. – Т.: Navro'z, 2020.
8. Халидов А. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М., 1985.
9. Uzbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild, 2-kitob. Uzbekiston IX-XV asrlar manbalari. – T.: Fan, 2014.

SEMINAR VA MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI BAJARISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar

Talabalarga mustaqil ish mavzulari berilar ekan, rahbar (o'qituvchi) har bir mavzuning o'ziga xos xususiyatlari, mavzularni o'rganishga bo'lgan yondashuv, mavzu natijalarini qay tarzda umumlashtirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va ularni oxirgi jarayon sifatida baholash uchun taqdim qilish holatlarini tushuntirib berishi lozim.

Mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'rganish jarayonida uning natijalarini umumlashtirishda eng maqbul uslublar, xususan, reja asosidagi tezislar, xronologik jadvallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, xaritalar (yoki xaritalar asosida ishlash), grafitlar, yozma yoki og'zaki axborot, referat, ilmiy ish, ijodiy ish tarzida amalga oshirilishining qo'llanishi haqida ma'lumotlar va tushunchalar berib o'tishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, talabalar o'zlarini tayyorlagan mustaqil ta'lim topshiriqlarining yozma yoki og'zaki, referat yoki ijodiy ish sifatida taqdim qilish holatlarini ham oldindan belgilashlari zarur.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihalar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabalarning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilim);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabalar axborot manbalari bilan ishlash olish darajasi.

Mustaqil ta'lim uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalar akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu buyicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalarni) bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;

- amaliyotdagi mavjud muammoni yechimini tuzish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi noshart masalalarni yechish va ijodiy ishlash va boshqalar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish jarayonida belgilangan mavzularning turli mazmunga va turli davrlarga oid tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar mustaqil ta'lim uchun topshirilgan mavzular bir xil mazmundagi (masalan, faqat siyosiy tarix yoki faqat iqtisodiy masalalar va hokazo) mavzulardan iborat bo'lsa, talabalarining fanni faqat bir tomonlama (yoki cheklangan holdagi) ma'lum bir soha bo'yicha o'rganishlariga majbur qilib qo'yadi. Bu esa o'z navbatida talabalarining eng avvalo tarix sohasidagi bilimlarini cheklashiga yoki bir yoqlama bo'lib qolishiga olib kelsa, ikkinchidan, ularning tarixiy jarayonlarni o'rganishdagi turli uslublardan foydalanmaslikka (chunki ma'lum uslublar hamma mavzular uchun ham mos kelavermaydi) va chetlab o'tishiga olib keladi. Natijada talaba fan (kurs) yuzasidan o'rganishi lozim bo'lgan (ko'zda tutilgan) barcha mavzularni o'rganmaydi va yetarli bilimga ega bo'lmaydi.

Fan (kurs) yuzasidan berilayotgan har bir mavzu rahbar (o'qituvchi) tomonidan avvaldan atroflicha o'rganilishi va shundan so'nggina talabalarga tavsiya qilinishi lozim. Bu jarayonda kafedraning o'zini haqida yuqoridagi bandlarda aytilgan o'tilgan edi.

Mustaqil ta'lim uchun belgilangan (tavsiya etilgan) mavzular tarix fanining turli sohalarini qamrab olar ekan, albatta ularni o'rganishda o'ziga xos tarzda yondashish talab etiladi. Mustaqil ta'lim mavzulari mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim topshiriqlari bir necha ko'rinishda (usulda) tayyorlanishi mumkin.

Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fanidan seminar ishlanmalari

1-mavzu <i>Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tugan o'rni</i>	
Seminar o'qitish texnologiyasi	
1-mashg'ulot	
<i>Talabalar soni: 30</i>	<i>Yagiti: 2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Vizuallashgan (og'zaki) amaliy mashg'ulot

Seminar mashg'ulot rejası	1. Paleografıya fani va uning tadqiqot manbai 2. Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan o'rni 3. Tarixiy manbalar va ularning turlari 4. Insoniyat tarixidagi yozuv turlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Talabalar ongida Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fani predmeti, uning siyosiy fanlar tizimida tutgan o'rni va roli, qonun va kategoriyalari, tadqiqot usullari to'g'risida bilimlarni shakllantirish
O'qituvchi	Talaba
O'qitish usullari va texnikasi	Suhbat, aqliy hujum, babs-munozara
O'qitish vositalari	A-32 hajmidagi qog'oz, marker, skotch
O'qitish shakli	Keng qamrovli, jamoaviy, kichik guruhda ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Guruhda ishlash uchun ajratilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, blis-so'tov

Seminarining texnologik xartiasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 20 (daqıqa).	1. Seminar mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'qitish natijalari e'lon qilinadi. 2. Ma'ruza mashg'ulotni o'tkazish ketma-ketligi tushuntiriladi. 3. Talabalarni baholash mezonı e'lon qilinadi. Kodoskop, kompyuter va doskadan foydalanib jadvallar, chizmalar orqali mashg'ulot rejası va asosiy tushunchalarni sharhlab beradi.	Diqqat bilan tinglaydilar. O'z fikrlarini savollar orqali bildiradilar.

2-bosqich. Asosiy (information bosqich). (50 daqıqa)	1. Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fani, uning o'rganish ob'ekti va predmeti haqida nimalarni bilasiz deb murojat etadi. Javoblari tahlil qilinadi va xulosalanadi. 2. Fanning qonuniyalari, kategoriyalari, usullari va asosiy vazifalari yuzasidan savollar o'rtağa tashlanadi. Javoblari tahlil qilinadi va xulosalanadi. Ularini ishlatishda "jonlantirish" usulidan foydalaniladi. (1-ilova) 3. Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fani boshqa qaysi ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi aniqlanadi. Javoblari tahlil qilinadi va xulosalanadi. Ularini ishlatishda "Diagramma Vena" usulidan foydalaniladi. (2-ilova) Bu usulda ishlash ketma-ketligi tushuntiriladi 4. Insoniyat tarixidagi yozuv turlari – degan savol hamkorlikda tahlil qilinadi. Javoblari tahlil qilinadi va xulosalanadi. Ularini ishlatishda "Piramida" usulidan foydalanish. (3-ilova)	1. Talabalar ma'ruzachi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan tinglab, o'z nuqtai nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi. 2. Talabalar babs-munozaraga kirishadi. Bu uslub guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi. 3. Jamoalarga ajratilgan holda guruh sardori saylab olinadi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi hosil qilinadi. 4. Organayzemi to'ldiriladi.
3-bosqich. Yakunlovchi bosqich. (10 daqıqa)	1. Mavzuni yakuniy xulosalash. 2. Natijalarni baholash. 3. Talabalarga mustaqil ishlashi uchun uyga vazifa beriladi.	3.1. Talabalar tinglaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

1-Illova

“Jonlantirish” savollari:

1. O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi xalqlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlar va ularning o'rganilishi.
3. Pahlaviy yozuvi haqida ma'lumot bering.
4. Uyg'ur yozuvining tarixi haqida ma'lumot bering.
5. O'rxun-Yenisey yozuvining O'rta Osiyo xalqlar tarixidagi o'rni haqida baho bering.
6. Avestodagi yozuvlar va ularning o'rganilishi haqida nimalarni bilasiz?


2-Illova

“Diagramma Vena” usuli



1. Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari fani boshqa qaysi ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi “Diagramma Vena” usulida taqqoslang.
2. “Diagramma Vena” – umumiy mazmunga ega bo'lgan 2 yoki 3 qanqama-qarshi yo'nalishlarni taqqoslash. Umumiy fikrlarni birlashtirib sistemalashtiriladi va analiz, sintez qilinadi.

3-Illova

Insoniyat tarixidagi yozuv turlari “Piramida” usulidan foydalanish



“Balıq skeleti” usuli



Press konferensiya o'tkazish jarayoni

Savollar navbati bilan beriladi

Savol beruvchi o'rnidan turadi va o'zini tanishtiradi va savolning bayon etadi



Guruh lideri savolga o'z munosabatini bildiradi

Savollar aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak



Savollar mavzu doirasidan chiqmagan bo'lishi kerak

“Seminar mashg'ulotda ishlash tartibi va baholash mezonlari”

1. Guruhda muammoni yechish va taqdimot - 20 min.
2. Mavzu savollari bo'yicha guruhni fikr mulohazasi - 5 min.
3. Jamoaviy fikr mulohazalari - 5 min.
4. O'zaro baholash - 2 min.

Baholash mezonlari	Maksimal bal.	1-guruh	2-guruh	3-guruh
To'liq, aniq javob:				
1-savol uchun				

2-savol uchun			
3-savol uchun			
4-savol uchun			
5-savol uchun			
6-savol uchun			
T-sxema uchun			
Diagramma vena uchun			
Har bir guruh faolligi uchun			
Reglament uchun			
Ummiy ball			
Baho			

ATAMALARNING IZONLILUG'ATI

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
epigrafi	эпиграфика	epigraflka	qadimgi bitik, yozuvlarni o'rganuvchi fan
genealogy	генеалогия	geneologiya	(yunoncha "genealogia" – shajara, nasl-nasab) – 1) Insonlar qarindosh-urug'chilik aloqalarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi
heraldry	геральдика	geraldika	Davlat nishonlari va muhrlarini o'rganuvchi fan
gnoseology	гносеология	gnoseologiya	(yunoncha "gnosis" – bilim, "logos" – fan) – borliqni, dunyoni bilish va chin haqiqatga erishish haqidagi hamda bilishning manbalari va shakllari to'g'risidagi ta'limot. Borliqni bilish nazariyasi
linguistics	лингвистика	lingvistika	qadimgi tillarni o'rganuvchi fan

methodology	методология	metodologiya	(yunoncha "methodos" – yo'l, usul, "logos" – ta'limot) – insonning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri uyushirish va tuzish to'g'risidagi ta'limot
numismatics	нумизматика	numizmatika	tangashunoslik fani. Qadimgi tangalardagi belgi-rasmlar, tasvilar, tamg'alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi
chronology	хронология	chronologiya	(yunoncha "chronos" – vaqt, "logos" – fan) – tarixiy taraqqiyot bosqichlari, voqealarning davriy ketma-ketligini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi
anthropogenesis	антропогенез	antropogenez	(yunoncha "antropos" – odam, "genesis" – rivojlanish) – odamningkeilib chiqishi va rivojlanishi jarayoni
petrology	петроглиф	petroglif	(yunoncha "petra" – tosh, "glyphe" – o'yish) – ibtidoiy odamlarga tegishli qoyatosh bitigi yoki tasviri
civilization	цивилизация	sivilizatsiya	(lotincha "civilis" – fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun'iy olamni moddiy va ma'naviy jihatdan takomillashuvdagi muvaffaqiyatlari ko'rsatkichi
turk, turkish	тюрк, тюрки	turk, turkiylar	Jahondagi eng qadimiy yirik etnoslardan birining nomi. Ushbu atama ilk bor qadimgi xitoy manbalarida bundan 3,5-4-ming yil muqaddam rasmlimon ierogliflartarda "tek" va "tauk" shaklida

			uchraydi. Turk so'zi baquvat, barkamol, odillik kabi ma'no'larni anglatadi degan fikrlar mavjud
Turkestan	Туркестан	Turkiston	tom ma'noda turkiy xalqlarning tarixan tarkib topgan va keng yoyilgan tarixiy-geografik hududi. Ba'zi olimlar Turkistoni Turonning islomiy vorisi deb hisoblaydilar. 639-yilda Turfonda tuzilgan sug'd hujjatida O'ra Osiyo mintaqasining nomi sifatida ilk bor ishlatilgan. "Turkiston" atamasi "O'ra Osiyo" va "Movarounnahr" nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy mazmunga ham ega
Turan	Туран	Turon	(forscha "Turon" – turkiylar degan ma'nomi anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama. "Turon" atamasi bundan 3000-2500-yillar muqaddam qo'llanila boshlangan. Avestoda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar "turlar" deb, turlar yurti esa "Turon" deb atalgan
Avesta	Авесто	Avesto	o'ra fors tilidan "apastak" ya'ni "asos" deb tarjima qilinadi. O'ra Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors,

			afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan
Araks	Аракс	Araks	Amudaryoning qadimgi nomi. Yunon tarixchilari (Gerodot) asarlarida Amudaryo shunday nomlangan
Baktria	Бактрия	Baqtriya	geografik hudud. Qadimgi Baqtriya hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlari kirgan. Ilk o'ra asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida ko'chmanchi turkiy qabila – toharlar kelib joylashishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan
Behistan inscription	Бехистунский надпись	Behistan bitiklari	Shimoliy Eronda, Kimonshoh shahri yaqinida, tog' oraliq'idan o'tgan qadimgi savdo yo'li yoqasidagi qoyaga ahmoniyat hukmdori Doro I (522-486)ning qadimgi fors, elam va akkad tillarida yozdirdigan zafaromasi. Unda qadimgi Sharq va O'ra Osiyoning qadimgi xalqlari (xorazmliklar, baqtriyaliklar, marg'iyonaliklar, saklar) haqida ma'lumotlar keltirilgan
state, government	государство	davlat	bu sinfiy jamiyada asosiy ishlab chiqarish vositalari egalarining umumiy manfaatlarini ta'minlovchi va uni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot. Ibtidoiy jamiyatta insoniyat jamiyati urug'-qabilachilik munosabatlari,

			urf-odat, rasm-rusmlari kabi axloqiy me'yorlar bilan boshqarilgan bo'lsa, sinfiy jamiyatda jamiyat a'zolari davlatning (hukmron sinfining) yozma erki bo'lgan (yozib qo'yilgan) huquq – qonunlar organi boshqariladigan bo'ldi. Demak, davlat bu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy mexanizmdir. Davlat o'z faoliyatini organlari (amaldorlar apparati, sud, qo'shin va h.k.) organi yuritadi.
			Ilk davlat birlashmalari miloddan avvalgi IV ming yillikda Mesopotamiya va Misrda vujudga kelgan. Vatanimiz hududida dastlabki davlat birlashmalarining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi
the state of ancient Baktria	древнее Бактрийское государство	qadimgi Baqtriya davlati	antik davr tarixchilari (Miletlik Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Diodor) asarlarida eslatiladigan, Vatanimiz hududida vujudga kelgan eng dastlabki birlashmalardan biri. Yozma manbalardagi keltingan ma'lumotlar va keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ashyoviy dalillarga asoslanib, qadimgi Baqtriya podsholigi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda mavjud bo'lgan deb xulosa chiqarish mumkin. Poytaxtni Baqtra (yimon

			tarixchilari asarlarida Zariasp)
the state of ancient Khorezm	древнее Хорезмийское государство	qadimgi Xorazm davlati	O'ra Osiyoda Ahmoniyar istilosiga qadar mavjud bo'lgan Vatanimiz hududidagi ilk davlat birlashmalaridan biri. Qadimgi Xorazm davlati haqida yozma ma'lumotlar juda kam bo'lib, bular asosan antik davr mualliflari tomonidan berilgan uzug-yulug ma'lumotlarga xolos. Qadimgi Xorazm davlati haqidagi dastlabki ma'lumotni Miletlik Gekatey (mil.avv. VI-V asr) va Gerodot (mil.avv. V asr) beradi
hellenization	эллинизация	ellinlashitish	Qadimgi yunonlar o'zlarini ellinlar, yurtini esa Ellada deb atashgan. Ellinlashitish deganda yunon-makedon istilosidan so'ng Sharqqa yunon madaniyatining uyulishi va aralash madaniyatining – yunon va mahalliy Sharq madaniyatining tashkil topishi jarayoni tushuniladi
Ershi	Эрши	Ershi	miloddan avvalgi III – milodiy II asrlarda mavjud bo'lgan Davan (Farg'ona) davlati poytaxtining xitoy manbalaridagi nomi
interpretation	тефсир	tafsir	Umumiy ma'noda biron narsani sharhlash, talqin qilish. Islom an'anasida Qur'oni Karim, hadisi sharif va boshqa diniy manbalarni talqin qilish, sharhlash

FAN TOPSHIRIQLARI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

“Markaziy Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari” fanidan test savollari

1. “Yozma manbalar” fani dasturida nimalar o‘rganiladi?
A) **Sharq yozma manbalari tarixi**
B) birlamchi manbalar
C) tarix falsafasini
D) ilmiy-tarixiy uslublar
2. “Yozma manbalar” fanining asosiy vazifasi nima?
A) **Sharq yozma manbalari haqida umumiy tushuncha berish**
B) tarixiy manbalarni tahlil qilish
C) ilmiy uslublar tajribasini baholash
D) tarixiy ilmiy tanqidga baho berish
3. Turli davrlarga oid tarixiy ma'lumotlar rivoji qaysi usulda tadqiq qilinadi?
A) psixologik tahlil usuli
B) **aniq tahlil usul**
C) mantiqiy tahlil usul.
D) xronologik usul.
4. O‘zbekistonda Sharq yozma manbalari o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlarni aniqlang?
A) **A.Rasulev, U.Karimov, A.O‘rinboev**
B) A.Axmedov, T.S.Saidqulov, P.G.Bulgakov
C) R.N.Nabiev, A.Semenov, D.Yusupova Z.Saidboboev
D) M.Behbudiy, M.Hasanov, A.Rustamov.
5. Asarlarida O‘rta Osiyo tarixiy geografyasi bo‘yicha ma'lumot qayd etilgan olimlarni aniqlang?
A) **Beruniy, Sam‘oniy, Yaqut Hamaviy**
B) Istaxriy, Narshaxiy, Rashiddiddin
C) Natanziy, Hofizi Abri, Klavixov
D) Nizomiddin Shomiy, Muhammad Solih, Bayoniy.
6. Sharq yozma manbalari o‘rganishning dolzarbligi nima bilan ifodalanadi?
A) **Sharq yozma merosining tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini ko‘rsatish bilan**
B) Qadimgi davr tarixini tadqiq etish.
C) Sharq tarixiga oid manbalarni muomalaga kiritish.
D) O‘rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy voqialarni o‘rganish.
7. “Istoriya Uzbekistana v istochnikax” asarining tuzuvchisini belgilang.
A) **B.V.Lunin.**
B) L.M.Landa.
C) L.S.Ivanova.
D) G.I.Jeltova.
8. O‘zbekistonlik xitoy manbalari tadqiqotchisini aniqlang?
A) **A.Xo‘jaev**
B) B.V.Lunin.
C) E.Rtveladze
D) Xolmuratov B.R.
9. “Avesto” kitobi tarixiy jihatdan qanday manba?
A) **Zardushtiylikning muqaddas kitobi**
B) Eron tarixiga oid manba
C) Hindiston tarixiga oid asar
D) Qadimgi xalqlar tarixiga oid asar
10. “Avesto” kitobining muallifi kim?
A) **Zardusht**
B) Doro I
C) muallifi noma'lum
D) Jamshid
11. “Avesto” matnlari bizgacha qaysi holatda yetib kelgan?
A) **21 kitobdan to‘rttasi, ya‘ni taxminan beshdan bir qismi**
B) yarmi.
C) to‘la.
D) barcha qismi.
12. “Avesto” kitobini to‘plash va yaxlit kitob holiga keltirish qaysi davrda tugatildi?
A) **Sosoniylar**
B) Ahamoniylar
C) Kushonlar
D) Aleksandr Makedonskiy
13. Hozirgi vaqtda “Avesto”ning nechta qadimgi qo‘lyozma nusxasi bor?
A) **bitta**
B) yettita
C) uchta
D) beshita
14. “Avesto”ning XIII asrga oid yagona qadimgi qo‘lyozma nusxasi qayerda saqlanadi?

- A) **Kopengagen** B) London
C) Dehli D) Parij
15. "Avesto" Yevropada dastlab qaysi tilga o'g'irilib nashr etildi?
A) **fransuz** B) ingliz
C) ispan D) nemis
16. O'zbekistonda "Avesto"ni o'zbek tiliga kimlar tarjima qilgan?
A) **M.Is'hoqov, A.Mahkam** B) G'.Boboyorov, M.Qodirov
C) G'.Karimov, J.Hazratqulov D) M.Qodirov, A.Sagdullaev
17. Behiston tosh bitiklari qaysi hukmdor tomonidan yozdirilgan?
A) **Doro I** B) Shopur I
C) Aleksandr Makedonskiy D) Kserks I.
18. Behiston tosh bitiklari qaysi tillarda yozilgan?
A) **qadimiy fors, elam, bobil** B) sug'd, bobil, xorazm
C) kopt, arab, fors D) elam, hind, fors
19. Gerodot Kaspiy dengizini qanday tavsiflagan?
A) **janubdan shimolga cho'ziq shaklda**
B) to'rtburchak shaklda
C) g'arbdan sharqqa cho'ziq shaklda
D) dunyo okeanining bir qo'tlig'i sifatida
20. Qaysi yunon olimi asarida O'ra Osiyo xaritasi berilgan?
A) **Ptolemey** B) Polibiy C) Gerodot D) Strabon
21. Buyuk Ipak yo'li to'g'risidagi qadimgi ma'lumotlar qaysi manbalarda mavjud?
A) **Xitoy solnomalarida** B) Podshohlar yozishmalarida
C) arxiv hujjatlarida D) Xitoy imperatorlari farmonlarida
22. Miloddan avval II asrda O'ra Osiyoga sayohat qilib yozma ma'lumot qoldirgan sayyohning ismini aniqlang.
A) **Chjan-Szyan** B) U-di C) Fan Xua D) Li Yan-shou.
23. Miloddan avval II asrda yashagan mashhur xitoy tarixchisining ismini aniqlang. A) **Sima Syan** B) Chjan-Szyan C) Fan Xua D) Li Yan-shou.
24. Qadimgi xitoy manbalarini rus tiliga o'g'irgan muallifi aniqlang.
A) **I.Ya.Bichurin** B) Yu.E.Sokolov
C) I.K.Andreev D) R.D.Semenov.

210

25. Sima Syanning O'ra Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar berilgan mashhur tarixiy asari "Shi szi"ning fransuz tiliga to'la tarjimai kim tomonidan amalga oshirilgan?
A) **E.Shavann** B) B.Uotson C) Yu.L.Krol D) V.A.Kallaur.

Yozma ish savollari

- "Avesto" - O'zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba sifatida
- "Avesto"da Markaziy Osiyo tarixiy viloyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning kelitirishi
- "Avesto"da O'ra Osiyo xalqlari tomonidan foydalanilgan taqvimlar to'g'risidagi ma'lumotlar
- "Avesto"da O'ra Osiyo xalqlarining bayramlari to'g'risidagi ma'lumotlar
- "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi")da Shi (Toshkent) to'g'risidagi ma'lumotlar
- "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tarixi")da Kan (Samarqand) va An' (Buxoro) to'g'risidagi ma'lumotlar
- "Shin Tan shu" ("Tang sulolasining yangi tarixi")da Farg'onaga oid ma'lumotlar
- "Shin Tan-shu" ("Tang sulolasining yangi tarixi")da G'arbiy mamlakatlar tarkibini
- "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi")da Shi (Toshkent) to'g'risidagi ma'lumotlar
- "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi")da Xorazm va Toxariston to'g'risidagi ma'lumotlar
- Arxeografiyaning fan sifatida shakllanishi
- Behiston qoyatosh yozuvining Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati
- Darbando tosh kitobi
- G'oz yodgorligi piktografik yozuvi
- Gerodotning "Tarix" kitobini Markaziy Osiyo tarixidagi ahamiyati
- Ibtdoiy san'atning yuzaga kelish shart-sharoitlari
- Ideografik yozuvlar
- Ilk o'ra asrlar Markaziy Osiyo tarixiga oid baqitiriy tili hujjatlar
- Jargo'ton piktografik yozuvi
- Kishilik jamiyatida yozuvlarning shakllanish bosqichlari
- Klesiy "Persika" asarining Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati
- Manixey yozuvi
- Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda Artian va Kvint Kursiy Ruf asarlarining o'rni
- Markaziy Osiyo yozma yodgorliklari topilgan hududlar
- Markaziy Osiyoda hujjatlarni jamlash va saqlash tizimining yuzaga kelishi
- Markaziy Osiyoda oromiy yozuvining shakllanishi


211

27. Mayyalar yozuvi
28. Mixxat yozuvlar
29. Naqshi Rustam saroyi yozuvlarida Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzining ifodalanishi
30. Oks piktografyasini qadimgi dunyo yozuvlari bilan taqqoslash natijalari
31. Oks sivilizatsiyasining ashyolarga asoslangan yozuv usullari
32. Oks sivilizatsiyasining piktografik belgili yozuvlari
33. Oromiy yozuvlar
34. O'ra fors (pahlaviy) yozuvi va unda bitilgan manbalar
35. Paleografya fani va uning ahamiyati
36. Persopol saroyi yozuvlarida Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzining ifodalanishi
37. Piktografik yozuv usuli
38. Qadimgi Baqtiya yozuvi
39. Qadimgi hind yozuvlari (Kxaroshixi, braxman)ning Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi o'rni
40. Qadimgi rim yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi
41. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyoda foydalanilgan yozuv qurullari va materiallari
42. Qadimgi Baqtiya podshohligi yozma manbalarida
43. Qadimgi fors bitiklari va ularning Markaziy Osiyo tarixini o'rganishdagi manbaviy ahamiyati
44. Sopolitepaning piktografik yozuvi
45. Strabon va uning "Geografiya" asari
46. Tarixiy manbalar va ularning turlari
47. Xorazm yozuvi
48. Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tugan o'rni
49. Yunon (ellinizm) davri yozuvi
50. Yunon-baqtiya yozuvi

ILLOVALAR


Rasmlar ro'yxati

- 1-rasm. O'zbekistonning janubiy hududlaridan topilgan bronza davriga oid piktografik belgilar (Jargo'ton);
- 2-rasm. Mixxat yozuvi;
- 3-rasm. Baqtiya tilidagi yozuv na'munasi (Dalvarzintepa);
- 4-rasm. Behistun relyefi;
- 5-rasm. Gerodotning "Tarix" kitobidan parcha;
- 6-rasm. Sug'd alifbosida bitilgan yozuv na'munasi;
- 7-rasm. To'nyuq bitiktoshi.





214



215

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Yozuvlarning kishilar jamiyati hayotida tutgan oʻrni	5
Oʻzbekiston hududidan topilgan piktografik belgilar	24
Markaziy Osiyo qadimgi yozma yodgorliklari topilgan hududlar	35
Markaziy Osiyodagi ilk yozuvlar va ularning oʻrganilishi	50
Markaziy Osiyoda qoʻllanilgan boshqa xalqlar yozuvlari va ularning xususiyatlari	64
Qadimgi Baquriya, Qadimgi Xorazm yozuvlari: Oybuyirqaʼa, Qoyqirilganqaʼa, Tuproqqaʼa	74
Qadimgi fors yozma yodgorliklarida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi	85
Qadimgi yunon va rim yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixining yoritilishi	97
Qadimgi va ilk oʻrta asrlardagi Xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo hududlari tarixining yoritilishi	110
Sugʻd tilidagi yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixi	120
Qadimgi turkiy yozuvning paydo boʻlishi va turkiy tillarda bitilgan manbalar	135
Arab yozuvining paydo boʻlishi. Arab yozuvida oʻtkazilgan islohotlar, arab yozuvi turlarining shakllanishi	153
Sharq qoʻlyozmalarining paydo boʻlishi va umumiy xususiyatlari	166
Markaziy Osiyo tarixiga oid arab tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar	181
Seminar va mustaqil taʼlim mashgʻulotlarini bajarish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar	196
Atamalarining izohli lugʻati	191
Fan topshiqlari boʻyicha nazorat savollari	196
Ilovalar	200

-14025/100-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIONALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIONALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MARKAZIY OSIYONING QADIMG'I YOZMA YODGORLIKLARI

51106600 – Tarix yoʻnalishi talabalari uchun oʻquv qoʻllanma

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziiva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A. Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichini 60x84¹/₁₆ "Times new roman" garnituras, keçli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabogʻi. Adadi 100 dona.

Buyurtma № 1196811

NAZOKATHON ZIYO PRINT MCHJda chop etildi.

Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Saodat koʻchasi